Respublikamizda o'ziga xos suv xo'jaligi tizimi barpo qiligan bo'lib, uning maqsadi iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligini suv bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Hisobga ko'ra, sug'oriladigon yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142.9 ming km, shundan 106.2 ming km ochiq va 36.7 ming km yopiq gorizontal yopiq kollektor – drenaj tarmog'i, shuningdek, 172 ta miliorativ nasos stansiyasi, 3827 ta vertikal drenaj quduq ishlatilmoqda. Paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarining yana bir katta ulushi nasos stansiyalarini faoliyatini ta'minlab beruvchi elektr energiya xarajatlari hisoblanadi. Hisobga ko'ra, suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va sug'oriladigon yerlarning murakkab relefga ega ekanligi natijasida sug'oriladigon yerlarning 60% ga yaqin qismiga 1687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste'moli 8 mlrd kv.tsoatni tashkil etadi. 2.5 million gektar maydonni sug'orish uchun 2.4 trln.so'm byudjet mablag'lari sarflanmoqda. Bir gektar maydonga suvni nasoslar orqali yetkazib berish uchun byudjetdan o'rtacha 800 ming so'm xarajat qilinyapti. Egatlab sug'orish oqibatida yiliga qariyb 5-6 milliard metr kub yoki 20% suv dalada behuda sarflanmoqda. Bu muammoni hal qilish maqsadida energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish va tarmoqda energiya sarfini kamaytirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirishda irrigatsiya tarmoqlaridagi yo'qotilgan suv miqdorini kamaytirish, buning uchun esa sug'oriladigon yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya – melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash – tiklash hamda suv tejoychi texnologiyalarni keng qo'llash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. [https:// review.uz](https://review.uz)
2. [https:// www.lex.uz](https://www.lex.uz)
3. [https:// dd.gov.uz](https://dd.gov.uz)



## “ISSIQXONALARDA QULUPNAY YETISHTIRISHDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR” MAVZUSINI O’QITISHDA QO’LLANILADIGAN ZAMONAVIY TA’LIM METODI

**Raxmonov Ikrom Abdulkarimovich**

**Ibragimova Aziza Zoyir qizi**

Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Issiqxonalarda qulupnay yetishtirishning ahamiyati haqida umumiy ma’lumotlarga ega bo’lish jarayonida talabalarni o’qitishda zamonaviy ta’lim metodining ta’lim sifatiga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Qulupnay, yutuqlar, ta’lim metodi, SWOT tahlili, kuchli tomon, zaif tomoni, og’zaki, afzallik, kamchilik.

Qulupnayni ochiq dalada yetishtirish bir qancha noqulaylik keltirib chiqaradi, ob-havo inijliklariga qarab, turli xil natijalar beradi. Ba’zi hollarda ob-havo noqulay bo’lganda 25% dan 40% gacha hosilni yo’qotish mumkin. Shu va shu kabi muammoli natijalarni bartaraf etish uchun qulupnaylarni issiqxonalarda o’stirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bu bilan hosilni to’laligicha yetishtirib olish mumkin, tomorqa egalari xursand bo’lishi bilan birga mo’maygina qo’shimcha daromadga ham ega bo’ladi. Issiqxonada qulupnay yetishtirish yaxshi biznes variantidir. Bu qulupnayga qishda va yozda talab katta. Agarda issiqxonada qulupnayni sanoat miqyosida yetishtirishni xohlamasangiz ham, oila a’zolaringizni xursand qilish uchun kichik issiqxonada tashkil qilishingiz mumkin. Ma’lumki qulupnani yetishtirishda mutaxassislar tomonidan maxsus e’tibor va ma’suliyat talab etiladi. Bugungi mavzu ham aynan shuning uchun ish rejaga kiritilgan.

*1-bosqich: Tayyorgarlik.* Mavzuning maqsadi: Issiqxonada qulupnay o’simligini o’stirishdagi yutuqlari, to’siqlar, imkoniyatlar, kamchiliklar, kuchli tomonlari muammoli holatlar va ularning yechimlarini o’rganishdan iborat.

*2-bosqich: Kirish:* bu qismda talabalar yuqoridagi mavzu bo‘yicha o‘zlari bilgan barcha ma’lumotlarni tengdoshlari bilan fikr almashishadi, avval ularga ma’lum bo‘lgan, bilishni xohlagan va bilib olgan ma’lumotlar tinglanadi va umumiy xulosaga kelinadi.

*3-bosqich: Asosiy qism.* Bu bosqichda zamonaviy ta’lim metodidan foydalangan holda o‘tkaziladi va “SWOT” tahlili texnologiyasi qo‘llaniladi. Bu metodda mavzu ta’lim beruvchi tomonidan o‘rtaga tashlanadi. Talabalar shu mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qiladi qilinayotgan rejaning kuchli tomoni, ojiz tomoni, imkoniyatlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni aytishadi va oxirida xulosa qilinadi. Har bir ishtirokchi berilgan ma’lumotlar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib baholaydi.

Qulupnayni nafaqat issiq mavsumda, balki o‘n ikki oy ketma-ket yetishtirish uchun issiqxonadan foydalanishingiz mumkin. Buning imkoni bo‘lishi uchun o‘simliklar mos sharoitlar bilan ta'minlanishi lozim.

Qulupnay normal rivojlanishi va mo‘l-ko‘l mevalar berishi uchun kerak:

- ✓ Iliq havo;
- ✓ suv;
- ✓ to‘yimli tuproq;
- ✓ kuchli ko‘chatlar;
- ✓ changlanish.

Ushbu shartlarni ta'minlab, siz butun yil davomida issiqxonada qulupnay yetishtirishingiz mumkin.

Qulupnayni tomorqada yetishtirishdagi yutuqlar hamda kamchilik muammolar:

<b>S</b>	Kuchli tomoni	Issiqxonada optimal sharoit yaratib, qulupnaydan yiliga 5 marta hosil olish mumkin.
<b>W</b>	Ojiz tomoni	Yuqoridagi aytilgan 5 marta hosil olish yuqori natijakorlik natijasida tomorqa tuprog‘i juda tez kuchsizlanadi.
<b>O</b>	Imkoniyatlar	Yevropa tan olgan yuqori hosildorlik beruvchi qulupnay navlari: Korona, San-Andreas, Brayton, Qirolicha

		<p>Elizabetalarning keng tarqalishiga sabab ularning kasallikka bardoshliligi, tabiiy yorug‘likka talabi pastligi, ko‘chatlarning tashish va saqlashga chidamliligidir. Shu sababli issiqxonada qulupnay yetishtirishni niyat qilgan yosh bog‘bonlar ushbu navlardan bemalol foydalanishlari mumkin.</p>
<b>T</b>	To‘siqlar	<p>Ekish uchun maqbul nav tanlash. Tanlashda quyidagi belgilarga e‘tibor qaratish zarur: yirik va bir maromdagi tusga ega meva berishi; ko‘chatlarni yorug‘lik kuniga bog‘liqmasligi; o‘simlik to‘xtovsiz tuguncha va mevalar hosil qilishi; qulupnayning mazali ta‘m va hid ko‘rsatkichlari</p>

*Bu metodning maqsadi:* Mavjud amaliy tajribalar va nazariy bilimlarni o‘zaro fikr almashgan holda muhokama qilish, fikrlarni taqqoslash orqali muammolarni hal qilish yo‘llarini topishga, o‘zida bor bo‘lgan bilimlarni takrorlashga, mustahkamlashga, baholashga, mustaqil holatda to‘g‘ri tanqidiy fikrlashga, odatdagidan boshqacharoq tafakkur qilishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.“Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017
- 2.Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.K., Adilov M.M, Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. 2009 y. (darslik).
- 3.Mirzayev M.M., M.Q. Sobirov -Bog‘dorchilik., T., 1987

**“SHIRIN QALAMPIRNING BIOKIMYOVIY TARKIBI VA ULARNING  
AHAMIYATI” MAVZUSINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN  
ZAMONAVIY TA‘LIM METODI**

**Ibragimova Aziza Zoyir qizi**

**G‘oibova Sevara Ayup qizi**

Guliston Davlat Universiteti

**Annotatsiya:** Shirin qalampirning biokimyoviy tarkibi, shirin qalampirning ahamiyati haqida umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lish jarayonida talabalarni o‘qitishda zamonaviy ta‘lim metodining ta‘lim sifatiga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shirin qalampir, biokimyo, ta‘lim metodi, Davra suxbati, dehqonchilik, bosqich, og‘zaki, afzallik, kamchilik.


Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun zamonaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasiga oid fanlarda bu usul yaxshi natija beradi. Ma‘lumki, ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampir oziq-ovqatda, kosmetologiyada, konserva sanoatida ishlatiladigan muhim qishloq xo‘jaligi ekini hisoblanadi. Shu sababli bugungi mavzuda shu ekinning biokimyoviy tarkibi va ahamiyat haqida so‘z yuritiladi.

**1-bosqich: Tayyorgalik.** Mavzuning maqsadi: Shirin qalampirning foydali xossalari, tarkibidagi vitaminlar, inson organizmiga ta‘siri, kosmetologiyada ishlatiladigan xususiyatlarini o‘rganish.

**2-boshqich: Kirish.** Yuqoridagi mavzu yuzasida talabalarning har birida bor bo‘lgan ma‘lumotlar, ko‘nikmalar tinglanadi va umumiyashtirib ma‘lumotlar beradi (ta‘lim beruvchi). Bu jarayonda har bir talaba ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega.

**3-bosqich: Asosiy qismi.** Mavzu o‘tishda “Davra suxbati ” metodi qo‘llaniladi. Bu metod- aylana stol atrofida berilgan masala bo‘yicha ta‘lim oluvchi tomonidan o‘z fikrini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodi.

“Davra suxbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullar aylana shaklda joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi” ni o‘rnatib turishga yordam beradi. Davra suxbatining og‘zaki shaklidan foydalaniladi. Og‘zaki davra suxbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi, kovertlarni tarqatadi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirishini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr mulohazalarini og‘zaki bayon etadi. So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi. Agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatini rivojlanishiga yordam beradi.



*Belgilar:*

*1.ta‘lim oluvchi*

*2.aylana stol*

### DAVRA STOLINING TUZILMASI

Bu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining qisqa va aniq ifoda eta oladi. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlar bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

#### ***“Og‘zaki davra suhbatlari” metodining afzalliklari:***

- o‘tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadi;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi ma'suliyatini his qiladi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi;
- vaqt kam sarflanadi.

#### ***“Og‘zaki davra suhbatlari” metodining kamchiliklari:***

- og‘zaki javob berilishi sababli shovqin paydo bo‘lishi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.“Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017
- 2.Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.K., Adilov M.M, Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. 2009 y. (darslik).

## SHARQ UYG`ONISH DAVRI MADANIYATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI

**Nematov Bobir Xidoyatovich**

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va madaniy meros fakulteti,

Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari bo`yicha) yo`nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Sharq uyg`onish davri madaniyatining vujudga kelishi, mazkur davrning o`ziga xos xususiyatlari hamda uning mohiyati xususida fikr yuritilgan. Sharq uyg`onish davrining mazmuni yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Uyg`onish davri, “Sharq uyg`onishi”, Renessans “Musulmon Renessansi”, Arab xalifaligi, Islom madaniyati, Abbosiylar davri, Xorun ar-Rashid “Bayt ul-hikma”, Ma`muniylar davri, “Dorul hikma va maorif”

Tarixdan ma`lumki, dunyo tamadduni tarixida IX-XII asrlar o`ziga xos o`ringa ega davr ekanligi bilan ajralib turadi. Bu davrning o`ziga xos o`ringa ega ekanligi shundaki, IX-XII asrlar mobaynida Sharq dunyosida ilm-fanning ko`plab sohalarida rivojlanish ro`y berdi. Bu rivojlanish ilm-fanning ayniqsa matematika, fizika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, geografiya, falsafa, mantiq va adabiyot singari sohalarida kuzatildi.

IX-XII asrlarda yuz bergan ilm-fanning yuksalishi g`arbda “Musulmon Renessansi” yoki “Sharq uyg`onishi” nomi bilan atab kelinmoqda. Asosida islom dini muhim rol o`ynagan Sharq uyg`onishi juda katta hududlarda sodir bo`lgan jarayondir. Bu davr madaniyati, ma`naviy hayotida juda katta ijobiy o`zgarishlar ro`y berib butun musulmon Sharqi tarixida o`chmas iz qoldirdi.

Sharq dunyosidan jahon ilm-faniga beqiyos hissa qo`shgan ko`plab qomusiy olimlar hamda allomalar yetishib chiqdi. Bu qomusiy allomalar sirasiga Jobir ibn Hayyon (taxm. 721-813), Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg`oniy

(797-865), Abu Yusuf al-Kindiy (801-873), Sobit ibn Qurra (835-902), Abu Bakr ar-Roziy (865-925), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abul Hasan ibn Haysam (965-1039), Xalaf Zahroviiy (963-1013), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va Ibn Rushd (1126-1198) hamda boshqa ko'plab allomalarni kiritishimiz mumkin.

Islom dini keng yoyilgan Pireney yarim orolidan to G'arbiy Xitoygacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan xalifalik sarhadlarida ilm-fan misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Uning umuminsoniyat tarixi uchun ahamiyati beqiyos va uni hech qanday jarayon bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Hozirgi zamonaviy fanlarning poydevori ham aynan o'sha vaqtlarda yaratilgan.

Sharq madaniy taraqqiyotida, ayniqsa musulmon Sharqida VII asrning ikkinchi yarmidayoq fanlarning ko'pgina sohalari bo'yicha yangi fikrlar, g'oyalar va qarashlar ilgari surilgan. Arab xalifaligida Umaviylar sulolasi davridayoq ilmiy izlanishlar amalga oshirila boshlanadi. VIII asrda boshlangan tarjimonlik ishi endilikda, ayniqsa, avj oladi. Xalifalikda xizmat qilib grek, suryoniy, forsiy va hind tillaridagi asarlarni arab tiliga o'g'irgan tarjimonlar orasida ayniqsa, Hunayn ibn Is'hoq, Sobit ibn Kurra, Yahyo ibn Adi, Is'hoq ad-Dimishqiy, Masarjувayxlar oilasi, Naubaxt, Ibn Muqaffa, ibn Manka, ibn Vahshiyalar alohida ajralib turadilar.

Tarixdan ma'lumki, 749-yilda Abul Abbos Saffoh (749-754) xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dargach, xalifalikni boshqarish Abbosiylar sulolasi qo'liga o'tadi. Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan madaniy hayotda ham bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi.

Xalifalikda ilm-fan va madaniyat rivojining eng yuqori cho'qqisi ham aynan Abbosiylar davriga to'g'ri keladi. Davlat tuzumi va idorasi, urf-odatlar, madaniyat, me'morchilik kabi sohalarda xalifalikning sharqiy viloyatlari, Eron va Movarounnahrda yetishib chiqqan arboblarga suyanilgan.

762-yilda xalifalik poytaxti Damashq shahridan Bag'dod shahriga ko'chiriladi. Bag'dod esa tez orada davlatning ilmiy markaziga aylanadi. Abbosiy xalifalar al-Mansur (754—775), Xorun ar-Rashid (786—809) va al-Ma'mun (813—833) ilm-



fan, ayniqsa, falsafa, matematika, astronomiyaning rivojiga xayrixohlik bildirib, uning rivojiga homiylik qiladilar. Xorun ar-Rashid davrida Bag'dodda ko'plab kutubxonalar tashkil etiladi. Ularning eng yirigi xalifa kutubxonasi edi. Kutubxonalarga xalifalikning turli mintaqalaridan ilmiy ahamiyatga ega qo'lyozma kitoblar keltiriladi, ularni ko'plab tarjimonlar, olimlar arab tiliga o'giradilar.

Xalifa al-Ma'mun Marvdagi olimlar guruhini (al-maroviza) Bag'dodga taklif qiladi. Keyinchalik "Bayt-ul-hikma" degan nom bilan atalgan ilmiy muassasa tashkil etadi. Mazkur ilmiy muassasada ijod etgan olimlarning ko'pchiligi tabobat, falsafa, falakiyot, matematika kabi fanlarga oid risolalar grek, suryoniy, sanskrit, pahlaviy va xorazm tillaridan arab tiliga tarjima qiladilar, buning natijasida o'sha davrgacha yashagan xalqlar tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish hamda ularni yanada rivojlantirish osonlashadi.

"Bayt-ul hikma" arab, eron, suryoniy, yunon, yahudiy millatlariga mansub boshqa olimlar, xattotlar va tarjimonlar hisobiga kengaytiriladi. Bu yerda yunon fani yutuqlarini o'zlashtirishdan tashqari, hind-sanskrit madaniyati ham qiziqib o'rganiladi. Hind madaniyatining xalifalikda tarqalishida ajdodlari Balxdagi buddistlar monastrining rahbarlari bo'lgan, xalifa Xorun ar-Rashidning vaziri Barmakiyning xizmati katta edi. Tabobat, falakiyot, matematikaga oid risolalar, "Kalila va Dimna" arab tiliga tarjima qilinadi, astronomiyaga oid "Sindhind" ilmiy asariga sharhlar yoziladi. Bu tarjimachilik harakati bir avlodning boshqa e'tiqoddagi avlod to'plagan ilmiy me'rosni keyingi avlodga yetkazib berish vazifasini o'tab bergan.

London qirollik kolleji professori Peter Adamsonning e'tiroficha: "Tarjimachilik harakati keng ko'lamlı loyiha bo'lib, ushbu harakat qadimiy yunon hamjamiyatiga oid vakillarning deyarli barchasi- matematiklar, astronomlar, musiqachilar va faylasuflarning asarlarini to'liq qamrab olgan edi. IX asrda Yevropada Arastu, Galen yoki Yevklidning asarlarini o'qish imkoni yo'q edi. U paytda ilm va falsafa arab dunyosida, xususan Bag'dodda taraqqiy topdi."

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Bag`dodda sharqning yirik olimlari tomonidan olib borilgan keng ko`lamli tarjimonlik harakatlari natijasida antik davr ijodkorlarining ilmiy asarlari arab tiliga o`girilgan. Antik yunon faylasufi hisoblangan Aristotel, tibbiy bilimlar sohibi – Galen hamda yunon matematiklaridan biri bo`lgan Yevklidning asarlari o`zlashtirilib, yangi bosqichga olib chiqiladi.

Xalifa Xorun ar- Rashid saroyida kimyogar sifatida xizmat qilgan Jobir ibn Hayyon Kufa shahrida ilk kimyo laboratoriyasini tashkil etadi va uni amaliy tajribalar uchun zarur asboblardan biri metallarning simob va oltingugurtdan paydo bo`lish nazariyasini ilgari surganligida edi.

Xalifa Al-Ma`mun davrida ijod qilgan allomalardan bo`lgan Abu Yusuf Yoqub ibn Is`hoq al-Kindiyning (801-873) borliq va undagi fizik hodisalarning nisbiyligi g`oyasini ilgari surgan. Geometriyaning asoschisi sifatida yettita asar yozgan. Optika sohasida birinchilardan bo`lib “Ilm ul-manozir” nomli asar yozgan. Uning 11 ta asari zamonaviy arifmetika uchun asos bo`lgan. Psixo-fiziologiya fanining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan. Qolaversa olimning ma`dashunoslik va geologiyaga oid asarlari ham bo`lgan.

“Bayt ul-hikma”da ijod qilgan olimlardan biri bo`lgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala” nomli risolasi orqali hisob ilmida “Algebra” deb ataladigan fanga asos soldi. Al-Xorazmiyning qalamiga mansub “Zij” deb nomlangan asari esa nafaqat Sharqda balki Yevropada ham astronomiya fanining rivojlanishiga bevosita turtki bo`lgan.

“Bayt ul-hikma”da Xorazmiy singari faoliyat olib borgan olimlardan biri hisoblanadigan Ahmad al-Farg`oniy yerning dumaloq shaklda ekanligini kashf qilgan quyosh tutilishini birinchi marta oldindan hisoblab chiqib aytgan, yulduzlar orasidagi masofani va ularning hajmini aniqlagan hamda ularni o`zi tuzgan jadvalda tasvirlagan. Uning astronomiya sohasiga oid “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kitobi g`arb universitetlarida astronomiya fanidan asosiy darslik sifatida o`qitiladi.

Sharq allomalari orasida o`zining o`rniga ega bo`lgan Abul Hasan ibn Haysam (960-1039) matematika, fizika, tibbiyot, astronomiyaga va falsaga oid 200 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. O`zining “Kitab ul manozir” nomli asarida ko`rish ko`rilayotgan narsadan ko`z yo`nalishi bo`ylab tarqalgan yorug`lik sababli vujudga kelishini bayon qilgan. Vaholanki, unga qadar Ptolomeyning ko`rish ko`zdan narsa tomon yo`nalgan yorug`lik sbab vujudga kelishi fanda ustuvor bo`lgan. Shuningdek yorug`lik aksi ko`rinishi, yorug`lik egilishini birinchi bo`lib kashf qilgan. Suvda, oynada va havoda yorug`lik sinishini izohlab bergan.

Sharq uyg`onish davri madaniyatida muhim o`rin tutadigan “Bayt ul-hikma” dan birmuncha vaqt o`tib, 1004-yildan boshlab Gurganjda “Dorul hikma va maorif” (ba`zi bir manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa ham tashkil etilgan. Ma`muniylar sulolasiga mansub xorazmshohlar davlatida tashkil etilgan “Dorul hikma va maorif”da ham Bag`doddagi «Bayt ul-hikma» akademiyasi faoliyatiga o`xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan. Ilmiy muassasada juda ko`p manbalar to`plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan, hind, yunon, arab olimlari tomonidan qoldirilgan boy ilmiy me`ros o`rganilgan.

“Dorul hikma va maorif” olimlari Yunoniston, Yaqin va O`rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o`rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko`targanlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli qadimgi Xorazm badiiy san`ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug`orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan. Masalan, Abu Nasr ibn Iroq, astronomiyaga doir ilmiy asarlari tufayli «Batlamiyusi soniy» («Ikkinchi Ptolemey») degan faxriy nom olgan. Abulxayr ibn Hammor mantiq, falsafadan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo`lgani uchun «Buqroti soniy» («Ikkinchi Gippokrat») laqabiga sazovor bo`lgan.

“Dorul hikma va maorif” da faoliyat olib borgan, buyuk qomusiy olim hisoblangan Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o`z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolgan. Ilm-fanning astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya,

geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratgan. Beruniy harakat trayektoriyasi va osmon yoritgichlari shaklining ellipsoid ekanligi haqida birinchi bo‘lib fikr yuritgan olimlardan bo‘lib, joylarning geografik uzoqligini, kengligini aniqlash yo‘llarini tanlab olishda novator hisoblanadi. U trigonometriyani, geometriyani keng qo‘llash orqali o‘zidan oddingi astronomlarga nisbatan ancha aniq natijalarga erishdi. Buyuk qomusiy olim Yer yuzasining har bir qismi o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega ekanligini qayd etadi. Osmon jismlarini geometrik tushuntirish asosida Beruniy Yerni koinotning markazi deb biluvchi geotsentrik va Quyoshni koinot markazi deb o‘rgatuvchi geliotsentrik tizim teng kuchga ega degan xulosaga keladi.

Uyg‘onish davri madaniyatining buyuk namoyondalari o‘z ijod, izlanishlarida bevosita qadimgi madaniyat merosga tayandilar. Uyg‘onish davri namoyondalari qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql-idrokiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi. Qadimgi boy madaniy qadriyatlarga ega xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Sharq Uyg‘onish davri madaniyati dunyoga yetkazib bergan mutafakkirlar tomonidan qilingan ishlar va ularning ilm-ma‘rifat sohasida qilgan kashfiyotlari butun jahon olimlari e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Ushbu davrlarda sharqning ilm-ma‘rifat markazlari hisoblanadigan ilmiy muassasalar- Bag‘dodda barpo etilgan “Bayt ul- hikma” va Gurganjda tashkil etilgan “Dorul hikma va maorif”ning o‘rni beqiyosdir. O‘rta asr sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida har ikkala yirik ilmiy muassasa ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

IX-XII asrlarda Sharqda madaniyat yuksalishi parvoz bosqichga chiqqanligi to‘g‘risida gap borar ekan, jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berganligi, ilm-ma‘rifat hamda ulkan kashfiyotlar beshigi bo‘lganligining o‘zi ham Sharq uyg‘onish davrining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: “O'zbekiston”, 1997.
2. Abduhalimov B. Bayt al-Hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. -T.: “O'zbekiston”, 2010..
3. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. -T.: “Sharq” , 2005.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm.- T.: “Hilol-Nashr”, 2021
5. Rog`ib Sarjoniy. Islom va olam. -T.: “Azon kitoblari”, 2021.



## BUXORO AMIRLIGIDA CHETGA CHIQISH UCHUN BERILGAN MA`LUMOTNOMALAR (PASSPORT) XUSUSIDA

**Xalikova Nargiza Erkinovna**

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi

[xalikovanargiza7@gmail.ru](mailto:xalikovanargiza7@gmail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro amirligida chet davlatlarga chiqish uchun berilgan pasportlar haqida ma`lumot berilgan. Muallif ma`lumotnomalarning kim tomonidan, qanday shaxslarga va qancha muddatga berilgani masalasini yoritib berishga harakat qilgan.

**Kalit so`zlar:** Buxoro amirligi, hujjatlar fondi, passport, bilet, qushbegi.

**Аннотация:** В статье представлена информация о паспортах, выдаваемых в Бухарском эмирате для выезда за границу. В статье автор пытался выяснить, кем выдавались паспорта, кому выдавали и на какой срок.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, документальный фонд, паспорт, билет, кушбеги.

**Abstract:** The article provides information on passports issued in the Bukhara Emirate for traveling abroad. In the article, the author tried to find out who issued the passports, to whom and for how long.

**Keywords:** Emirate of Bukhara, documentary fund, passport, ticket, kushbegi.

Tarixdan ma`lumki, Buxoro amirligi O`rta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari o`rnatgan. Buxoro amirligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshg`ar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Buxoro Koshg`ar bilan

to'g'ridan-to'g'ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O'rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Buxoro karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qoshg'ar, Qo'qon va Xiva xonliklari, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar to'plangan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi Buxoro amirligi fuqarolariga Rossiya va amirlikdan chet davlatlarga chiqish uchun biror hujjat berilganmi? Agarda biror hujjat berilgan bo'lsa qancha muddatga berilgan va kimlar tomonidan berilgan degan savollar tug'ilishi tabiiy. Ushbu savollarga javobni Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar fondi"da saqlanayotgan birqancha fond hujjatlari yordamida topishga harakat qildik. Muzey-qo'riqxonada 10914/11, 10915/11, 13732/11, 32024/11, 19326/11... inventar raqamlari ostida saqlanayotgan hujjatlarga e'tibor qaratsak, ular Buxoro amirligi tomonidan chetga chiqish uchun berilgan passport, biletlar va shu kabi yozma to'ldirilgan chipta namunalarini tashkil etadi.

10915/11<sup>2</sup> inventar raqami ostidagi hujjatlar passport, biletlardan iborat bo'lib, ular 1302-1327 h.y/1889-1906 yillarda amirlik hukumati tomonidan ma'lum bir shaxslarga Rossiya va chet davlatlarga chiqish uchun berilgan. Ushbu hujjatlar 1972-yilda Muzeyning inventar kitobiga kiritilgan. 10915/11 inventar raqami ostida qayd qilingan hujjatlarning umumiy soni 14 dona. «Билетъ» nomli ushbu hujjatlarda chet davlatga chiqayotgan shaxsning umumiy ko'rinishi, yashash manzili va nima maqsadda boshqa davlatga chiqayotgani sababi ko'rsatilgan bo'limlari mavjud bo'lib, hujjat berilayotgan shaxs (agarda u savodsiz bo'lsa hujjat berayotgan tomon) ushbu bo'limlarni to'ldirishi kerak bo'lgan. Mazkur Hujjatlar ko'rinishi va tuzilishi jihatidan birbiridan farq qiladi. Bu kabi hujjatlarning bir tomoni eski rus yozuvida boshqa tomoni forsiyda yozilgan. Ayrim hujjatlar esa (asosan "passport" nomli hujjatlar) to'lig'icha eski rus yozuvida yozilib hujjatning orqa tomonida forsiyda qisqa qilib, hujjat egasining ism sharifi va hujjat berilgan sanalar mazmunidagi yozuvlar uchraydi.

---

<sup>2</sup> Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi kirim kitobi №7

Amirlik hukumati tomonidan berilgan passport yoki ruhsatnomalarning amal qilish muddati ham boʻlgan va tabiiyki muddati oʻtgan passport, biletlar oʻz ahamiyatini yoʻqotgan. Odatda ruhsatnomalarning muddati olti oy yoki bir yil boʻlgan. Asosan bunday ruhsatnomalarga savdogarlarning yoki haj ziyoratiga ketmoqchi boʻlgan shaxslarning ehtiyoji boʻlgan. Amirlik fuqarolariga ruhsatnomalar berilishida amirlik qushbegisi asosiy rol oʻynagan. Aynan unga chetga chiqish uchun bilet yoki passport soʻrab murojaat qilishgan va chetga chiqish passportlarida rus siyosiy agenti (полит. агент) imzosi bilan birga qushbegining muhri ham boʻlishi kerak boʻlgan.

10914/11<sup>3</sup> inventar raqamli hujjat mazmuni amaldorlarning chetga chiqish uchun ruhsatnoma yoki passport soʻrab qushbegi nomiga yozgan murojaatnomasidan iborat. Ushbu hujjat 1322 h.y/1908 yilda yozilgan.

Hujjatlarda ruhsatnoma egasining ism sharifi keltirilib, passport, biletlar uchun toʻlov ham boʻlgan. 1983-yilda muzeyda roʻyxatga olingan quyidagi 19326/11<sup>4</sup> raqamli hujjat mazmuniga koʻra 1913-yil 20-avgustda Buxoro fuqarosi Mullo Fazliddin Xusenovga Rossiya va chetga chiqish uchun berilgan ruhsatnomadir. Ruhsatnoma bir yil muddatga berilgan. Hujjatning pastki qismida “Buxoro hukumati foydasiga 90 tiyin olindi”- degan yozuvga koʻra ushbu ruhsatnomalar shunchaki berilmasdan maʼlum bir toʻlov evaziga berilganini koʻrishimiz mumkin. “Passport” nomli hujjatlar esa asosan bepul berilgan. Bunga 13732/11<sup>5</sup> inventar raqamli hujjat misol boʻla oladi. Ushbu hujjatning markaziy qismiga “Passport” yozuvi yozilgan boʻlib, undan keyin hujjat egasining ism sharifi yozilgan. Uning pastki qismida esa hujjat egasining toʻldirilishi kerak boʻlgan birqancha boʻlimlari mavjud: 1. eʼtiqodi; 2.tugʻilgan yili yoki yoshi; 3. kasbi; 4. oilaviy ahvoli (uylangan yoki uylanmaganligi); 5. harbiy majburiyatni oʻtashga munosabati va passport egasining imzosi. Undan tashqari, boʻyi, sochining rangi va muhim belgilari ham keltirib oʻtilgan boʻlib ushbu band hujjat berilayotgan shaxs savodsiz boʻlgan taqdirda toʻldirilgan.

<sup>3</sup> Buxoro davlat muzey-qoʻriqxonasi kirim kitobi №7.Hujjatlar fondi.

<sup>4</sup> Buxoro davlat muzey-qoʻriqxonasi kirim kitobi №30.Hujjatlar fondi.

<sup>5</sup> Buxoro davlat muzey-qoʻriqxonasi kirim kitobi №28.Hujjatlar fondi.







**Adabiyotlar ro`yxati.**

1. Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №7.Hujjatlar fondi.
2. Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №30.Hujjatlar fondi.
3. Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №28.Hujjatlar fondi.
4. *Фаррух Темиров, Наргиза Халикова.* “Бухоро амирлигида ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан.” *Scientific progress* 2.1 (2021): (pp. 1276-1282).
5. *Халикова Н. Э.* “Старые русские издания в фондах Бухарского музея важный источник для изучения истории Бухарского ханства.” *Молодой ученый.* (2020): 105-107.
6. *Халикова Н. Э.* “Отражение политических отношений Бухарского ханства с Российской империей в русских изданиях фонда Бухарского музея.” *Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах – важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии: сб. науч.* (2020): 238-244.



## THE NATION OF PHRASEOLOGY AND ITS CATEGORICAL SIGNS

**Hasanova Gulbahor Davlatjon qizi**

O`bekiston Davlat Jahon tillari Universiteti magistratura talabasi

**Abstract.** This proposal will describe the conception of Phraseology and address its impact on General Linguistics. Working from literature and interviews, we will describe the problems of Phraseological units. We will assess, how to translate phraseological collocations in a proportional way.

**Key words:** phraseological expressions, idioms, collocations, stylistic nuances, cultural aspects.

**Introduction.** In linguistics, phraseology is the study of set or fixed expressions, such as idioms, phrasal verbs and other types of multi – word lexical units, in which the component parts of expressions take on a meaning more specific that, or otherwise not predictable from, the sum of their meanings when used independently. Difficulties in translation of phraseological units start with their recognition in the text. Practically in any language there are several types of phraseological units: The first, fixed in the dictionary and known by everybody. The second, out – of use, but fixed in the dictionary. The third, known only by certain social groups.

In any case, the first and main condition is to be able to recognize phraseological units in the text. The second condition in the process of recognition of phraseological units consist in the skill of analyses their language functions. The third condition, an interpreter could face a problem of national – cultural difference between similar phraseological units in both different languages. This research project will provide overview of phraseological units and their translation.

**Literary review.** The roots of many phraseological units go back to professional communication. The main source of phraseological combinations is the change of their meanings of interconnected words. Many English phraseologies are

derived from works of art and various literary sources. For example, V. M. Makienko ‘Phraseology of the learned and of the learner’ (2017) the author proves phraseologies’ relevance to the literary sources. ‘The role of Phraseological units in nowadays English Periodicals’ D. I. Abdukadirova. The author counted that, the main stages of the translation process.

**Results and discussions.** The first stage of this study consists in the skill of analyses their language functions. For example, the conflict between extended sense and direct meaning is used by the author for description of esthetic, emotional and other associations, but also for creation of humoristic effect. Moreover, phraseological units could be fixed by any layer of society. And they have different stylistic nuances: these could be the grand style, neutral style and low style or slang expressions. For example, the phraseological expression *when Queen Ann was alive*, in which the sense could be explained as “в незапамятные времена” or to save the direct meaning “при дворе королевы Анны”. This phraseological expression cannot be translated into Russian as “при царе Горохе”, because this time is not connected with the signs of the reference text such as: ladies, intrigues, balls. It would be correct to translate it as “при дворе короля Артура” or any royal name which is well-known to Russian readers or to translate more general “как в средневековье”. Secondly, interpreters and translators sometimes confuse the parts of phraseological units, so we need to be more attentive to them. Take for instance, in the English language there are two closely similar phraseological expressions, these are *every tree is known by its fruits* and *as the tree, so the fruit* in translation they get different forms: “узнается дерево по его плодам” (the person is recognized with his deals) and “яблоко от яблони не далеко падает” (as bad signs are sent hereditably). We should also point out the famous case of wrong translation, which was connected with the translation of the Russian phraseological expression *кузькина мать*. It happened in 1960 when N. S. Khurshev addressed to American people, his interpreter translated the Russian expression literary “Kuzma’s mother”. The Americans were shocked. They did not understand how it is connected with the mother of Kuzma and

who “this Kuzma” was. The correct translation of this expression is *to make it hot for somebody*. Thirdly, the most productive way is the skill of selection of contradict units in text, as a rule, exactly the forthcoming of such units indicates an extended sense. For example, by that time he had reached the condition to see *pink elephants*. If we translate this phrase literally, i.e. “розовые слоны” it forms us an unmeaning context. From these facts, we may conclude that if we see the expression, which is logically contradicts the context, we can put down it like a probable phraseological unit. There are a lot of complications in translation of phraseological units and the rules of the best idiom translation, which we would show below.

**Conclusion.** In conclusion, we can say if we want to avoid curious moments in translation, we need to pay our attention to phraseological expressions. There is no doubt we have one main thing, we can explain the sense of phraseological expressions if their meaning is unknown for us. Sometimes, interpreters and translators could implant the phraseological units with cultural aspect in target language.

#### References:

1. Жуков В. П. “Семантика фразеологических оборотов” М. 1990
2. Кунин А. В. “Английская фразеология” 1970
3. Butayev Sh. “English – Uzbek Dictionary” Т. – 2006
4. V. M. Мокиенко “Phraseology of the learned and of the learner” (2017)
5. “The role of Phraseological units in nowadays English Periodicals” D. I. Abdukadirova

## VIRTUAL LABORATORIYA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH VOSITASI SIFATIDA

**Ibragimova Mohigul Komiljon qizi**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish mumkin. Virtual laboratoriya esa, ushbu turlarning yaratuvchi qismiga kiradi. Virtual laboratoriyalar, o'zaro munosabatlar, interaktivlik, talabalarning bilim va ijodiy faoliyatini shakllantirishga hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, virtual laboratoriya, virtual haqiqat, sun'iy intellekt, kommunikatsion texnologiyalar.

Hozirgi kunda zamonaviy o'quv jarayoni faol o'quv uslublarini ta'minlaydigan interaktiv, multimediya resurslaridan foydalanganda yanada samaraliroq bo'ladi. Eng yaxshi usulda ta'lim resurslari va virtual haqiqat tizimlari ushbu talablarga javob beradi. Bunday elektron resurslarning misollari - bu haqiqiy dunyodagi haqiqiy ob'ektlarning xatti-harakatlarini taqlid qiladigan virtual laboratoriyalar mavjud o'quv muhiti Talabalarga kimyo, fizika, matematika, informatika, biologiya kabi ilmiy va tabiiy fanlar bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'limni axborotlashtirishda, bo'lajak kadrlarning axborot va kommunikasion texnologiyalarni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda, aniq fan sohasida kadrlar tayyorlashni axborot va kommunikasion texnologiyalarni kommunikasion texnologiyalari vositalari yordamida jadallashtirish lozim. Keyingi vaqtlarda, ta'limda axborot va kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi atama «Virtual o'quv laboratoriya» paydo bo'ldi. Virtual o'quv laboratoriya ochiq va

masofaviy o‘qitish g‘oyasiga muvofiq bo‘lib, ta’lim jarayonidagi moddiy-texnik ta’minot borasidagi muammolarni oz bo‘lsada dolzarbligini kamaytiradi.

Virtual o‘quv laboratoriya bo‘yicha ilmiy-metodik ishlarning mavjudlari ham asosan virtual asbob va ularni laboratoriya mashg‘ulotlarida qo‘llashning yoritilishi bilan cheklangan, biroq, bizning fikrimizcha, virtual o‘quv laboratoriyasida faqatgina virtual asboblardan emas, balki virtual o‘quv xonalari texnik ob’ektlar loyihasi, matematik va imitasion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o‘quv va ishlab chiqarish paketlarini o‘z ichiga oladi. Virtual o‘quv laboratoriyaning o‘zi esa faqatgina laboratoriya mashg‘ulotlarida emas, balki talabalarning kurs va diplom loyihalarida, o‘quv-tadqiqot ishlarida qo‘llanilishi mumkin. «Virtual laboratoriya» tushunchasining mohiyati tarkibiy qism bo‘lgan virtual asbob yordamida (oddiy elektron asbob bilan ishlagandek) kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, odiy kompyuterga qo‘shimcha qilingan apparatli va dasturli vositalar to‘plamini ifodalashdan iboratdir. Virtual asbob va virtual laboratoriyaning muhim qismi — foydalanuvchining samarali grafik interfeysi (ya’ni, foydalanuvchining kompyuter bilan o‘zaro aloqalarining qulay, interfaol rejimini ta’minlovchi), odatiy predmetli sohada ko‘rgazmali grafik namunalar ko‘rinishida grafik menyu tizimi bilan dasturli asbob hisoblanadi. Metodologik jihatdan virtual laboratoriyalarni sun’iy intellekt tizimlarida qabul qilingan jarayon, deklarativ va gibrid tizimlari turlariga asoslangan bilim berish, tasavvur modellaridan kelib chiqib, guruhlash mumkin. Virtual o‘quv laboratoriyadagi amaliy jarayon asosini amaliy dasturlar o‘quv paketi yoki ularning sanoat analoglari tashkil etadi. Ularni yaratishda asosiy e’tibor odatda matematik modellash, o‘rganilayotgan jarayon yoki obyektlarni optimallashtirish va hisob ishlariga qaratiladi. Texnik ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda texnik obyektlar loyihasini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya ishlari katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda maxsus o‘quv xonalari yaratilishi kerak. Ammo ularni yaratish uzoq vaqtni, jihozlash va tarkibi esa — katta moddiy resurslarni talab qiladi. Ta’lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o‘quv xonalaridan foydalanishni



butunlay chetlashtirmaydi. Lekin, bunday mashg‘ulotlarning elektron ko‘rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- talabalarning o‘quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi;
- o‘quv materialining multimedia ko‘rinishidaligi bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir talabaning materialni o‘zlashtirishi bo‘yicha to‘liq nazoratni ta‘minlaydi;
- imtihon va reyting nazoratlari tayyorlanishda takrorlash va trening jarayonini osonlashtiradi;

Virtual laboratoriyalarni yaratish maqsadlaridan biri bu o‘rganilayotgan jarayonlarni har tomonlama tasavvur qilish istagi hisoblanadi va asosiy vazifalardan biri o‘qitiladiganlarni ularning mohiyatini to‘liq idrok etish va tushunish imkoniyatini ta‘minlashdir.

Virtual laboratoriyalar, o‘zaro munosabatlar, interaktivlik, talabalarning bilim va ijodiy faoliyatini shakllantirishga hissa qo‘shadi. Virtual laboratoriyalar atrofdagi dunyoning ob'ektlari va jarayonlarini simulyatsiya qilishga, haqiqiy laboratoriya uskunalariga kirish huquqini tashkil etishga imkon beradi. Virtual laboratoriya rivojlanishining eng muhim masalalaridan biri bu talabalar uchun qulay bo‘lgan navigatsiya tizimini yaratishdir. U uchta asosiy ko‘rsatkichni taqdim qilishi kerak:

Birinchisi, ushbu laboratoriyadagi talabani u turgan joyni aniq bilishi bilan yo‘naltirilgan. Ikkinchi, talaba tashrif buyurgan ushbu laboratoriya joylarining o‘ziga xos aksi. Buning uchun, asosan, tashrif buyurilgan ma‘lumotnomalarni boshqa rangda ajratish boshqa rangda ishlatiladi. Uchinchidan, ilgari bo‘lmagan laboratoriya joylariga boradigan talabalarga tashrif buyurish imkoniyatini berish. Ushbu navigatsiya indikatori eng muhimi, eng muhimi, butun virtual laboratoriyaning umumiy tuzilishini aniq va etarlicha ifodalash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xatamov O.Q., Zaripova M.J., Esanov Sh.E. Hot Potatoes dasturi yordamida interaktiv mashqlar yaratish /(uslubiy-qo‘llanma) – Termiz, TerDU, 2014. – 79 b.
2. Зарипова, М.Д. Возможности использования программы Turbo Site для создания электронных учебных пособий / М.Д. Зарипова // Высшая школа. – 2016. № 21-2. – С. 46-51.
- 3.<http://uz.infocom.uz>



## ADVOKATURA INSTITUTINING O‘ZBEKISTONDA PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

**Kayumova Farzona Xayrulla qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoiy odil sudlov fakulteti” talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Advokatura sohasining malakali yuridik yordam berish maqsadida shakllanishi, O'zbekiston Respublikasida advokatura sohasining paydo bo'lishi, yillar davomida zinama-zina shakllanib kelinganligi, uning faoliyati, vakolatlari, u bilan bog'liq bo'lgan qonunchilik, shuningdek, shu soha faoliyatidagi kamchiliklar hamda ular bo'yicha taklif va tavsiyalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy shaxs, yuridik shaxs, advokatura, advokatlar instituti, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

O‘zbekistonda ro‘y berayotgan siyosiy va iqtisodiy tizimning demokratalashuvi, huquqiy demokratik davlatning konstitutsiyaviy suratda e'lon qilinishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy institutlar va ko‘ngilli birlashmalar faoliyatining shakli va uslublarini tubdan qayta tashkil qilishni taqozo etadi. Bu jarayonda advokaturani – jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan izchil bog‘liq bo‘lgan fuqarolik jamiyati institutini takomillashtirish o‘ta muhim o‘rin egallaydi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek, “Avvalo sud ishida konstitutsiyaviy va yuridik me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga, o‘z himoyasi ostidagi fuqarolarning huquqlari, obro‘si va qadr-qimmatini muhofaza qilishga mas'ul advokatlar institutining roli va ahamiyatini tubdan oshirish lozim”.<sup>6</sup> Advokatura – bu har qanday davlatning eng muhim huquqiy instituti bo‘lib, fuqarolarning va ular birlashmalarining asosiy huquqlari himoyasini amalga oshiradi.

<sup>6</sup> <http://files.tsul.uz/student/14.pdf>

Har bir fuqaroning o‘z farovonligiga, tadbirkorlikning muvaffaqiyatiga ishonchi uning qanchalik kuchli, tashkillashtirilgan, qonunan himoyalanganligiga bog‘liqdir. Biroq, jamiyatdagi huquqiy nigilizm holatida, advokaturaga va advokatga munosabat, ma‘lum darajada salbiy bo‘ladi, bu ayniqsa huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan bo‘lishi kuzatiladi. Advokat aksariyat hollarda jinoyatchini yoki nohaq ishni himoyalovchi shaxs sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, advokaturaning asosiy mohiyati butun jamiyatga yuridik ko‘mak berishdan iborat, zero advokat qonunni beboshdoqlikdan himoya qiladi, shu sababli advokatning faoliyati ham muayyan fuqaro yoki tashkilotning manfaatlariga, ham umumiy suratda davlat va jamiyatning ommaviy-huquqiy manfaatlariga mos keladi. Keyingi vaqtlarda buni ko‘pchilik anglab yetdi va jamiyatda advokaturaga munosabat, asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘zgarmoqda. Advokatura O‘zbekiston Respublikasidagi fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri, huquqiy davlat tizimining elementi bo‘lib, usiz jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash ilojsizdir. Yaqin vaqtlarga qadar o‘quv dasturlarida advokaturaga, sud va huquqni muhofaza qilish idoralariga nisbatan, kam e‘tibor berilardi. Jamiyat ongida saqlanib qolgan advokatura – bu obro‘liroq idoralar (prokuratura, sud)da ish topa olmagan yuristlarning unchalik obro‘li bo‘lmagan, ikkinchi darajali kasbi degan fikr, baxtimizga, huquq ijodkorligi, qonunchilik bazasi va huquqni qo‘llash amaliyotidagi o‘zgarishlar ta‘sirida, asta-sekin o‘zgarib bormoqda.

Advokatlik faoliyati deb “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan professional asosda jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, adolatli sudlovga erishishni ta‘minlash maqsadida ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam e‘tirof etiladi. Malakali yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat advokatlik

faoliyatiga kirmaydi. <sup>7</sup>Advokatlik faoliyati tijorat, tadbirkorlik sanalmaydi. Bu esa, uning maqsadi foyda ko‘rish bo‘lishi mumkin emasligini anglatadi. Advokatlik tuzilmalarining yoki alohida advokatning barcha daromadlari o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra, tijorat yoki boshqa tadbirkorlik faoliyatining natijasi emas, balki ko‘rsatilgan yuridik xizmatlar uchun pul mukofotidir

Shunga yana alohida to‘xtalish kerakki, advokatura asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan va eng qadimgi protsessual institutlar sirasiga kiradi. Sudda tomonlar vakillarining qatnashishi g‘oyasi asta-sekin tarixiy jarayon yo‘li bilan rivojlangan. Sudda vakillik – jarayonda bir shaxsning boshqasi bilan almashtirilishi bo‘lib, unda suddagi vakil faoliyatining barcha oqibatlari bevosita vakolat beruvchi zimmasiga yuklanadi. Vakillikning dastlabki g‘oyalari avvalo ikkita institut – oilaviy vakillik va yuridik shaxslar, davlatlar vakilligini nazarda tutgan. O‘rta asrlarda qarindoshlik vakilligi slavyan va nemis xalqlarida keng rivojlandi. Bolalar, aka-ukalar, jiyanlar va hatto qo‘shnilar va do‘stlar – mana shu shaxslar odatda vakillar sifatida qatnashishgan.

Boshqa tomondan, sudga shaxsan tashrif buyurish haqidagi qadimiy qat‘iy qoidani yuridik shaxslarga nisbatan bajarib bo‘lmasdi, chunki ularning bevosita sud oldida javob berishlarining iloji yo‘q edi. Qadimdayoq, hech qanday xususiy shaxslar sudda qarindoshlari yoki qondoshlik jihatidan tashqari, biror vakilga ega bo‘lmagan paytlarida ham, ular vakillarga murojaat qilish huquqidan foydalanganlar. O‘rta asrlarda, masalan, cherkovlar mana shunday huquqdan foydalanishgan – ularning suddagi vakillari dastlabki paytlarda rahbar ruhoniylar bo‘lishgan bo‘lsa, keyinchalik qonunlarga tushunuvchi ruhnoiyalar ichidan olingan begona shaxslar ham vakillik qilishgan. XIX asrda advokatura deganda tor ma'noda huquqni himoya qilish tushunilgan, keng ma'noda esa – huquqni himoya qilish va sudda vakillik qilish nazarda tutilgan. Huquqni himoya qilish deganda muhtojlarga qonunni maxsus o‘rganuvchi insonlar tomonidan yuridik

---

<sup>7</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-54503>

yordam ko‘rsatilishi tushuniladi.<sup>8</sup> Huquqni himoya qilish va sudda vakillik turlicha ehtiyojlar asosida yuzaga kelgan va ularning faoliyat sohasi bir-biriga muvofiq kelavermagan. Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida advokatura va sud vakillik ikkita turlicha institut sifatida mustaqil rivojlangan. G‘arbiy Yevropada huquqni himoya qiluvchilar advokat nomiga ega bo‘ldilar.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda ham sekin sekin shakllanib borayotgan bu institutning o‘rni har qanday holatda ham muhim ekanligiga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim. Aniqki, taraflar tengligi va tortishuvchanligi bu demokratik davlatda odil sudlovning asosiy prinsiplaridan biri. Advokatura o‘tgan yillar davomida odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylanishga harakat qilmoqda, advokatlarning huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan va ular tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilishiga halal berayotgan bir qancha cheklovlarni bekor qilishga va ularning davlat himoyasida bo‘lishlari uchun to‘liq mexanizm yaratish arafasida. Ma‘lumki, jinoyat protsessida ayblovchi va himoyachini maqomini “tenglik” sifatida o‘rnatilgandan so‘nggina adolatli hukmga erishish mumkin. Shu maqsadda, yaqinda qabul qilingan va allaqachon ijrosi ta‘minlashiga qadam qo‘yilgan “Taraqqiyot strategiyasi” da ham advokatura institutini rivojlantirish, tizimga yosh kadrlarni jalb qilish konsepsiyalarini ishlab chiqish, bu sohada byurokратиya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, zamonaviy axborot vositalarini olib kirish kabi loyihalarni o‘z ichiga olganligi, “Advokatura” sohasini O‘zbekiston hududida jadal rivojlanishi uchun ochib berilgan yo‘l bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Chunki, advokatura sohasi rivojlansa o‘z – o‘zidan odil sudlov ham ta‘minlanadi. Bu sohaga atab rejalashtirilayotgan va amalga oshirish uchun taqdim etilgan qonunchiliklarni ijro etilishiga umid qilamiz.

<sup>8</sup> <http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/140-huquq?download=11604:o-zbekiston-respublikasida-advokatlik-faoliyati-m-rustamboyev>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov.I.A. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”. 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent – “O‘zbekiston” – 2021.
3. Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to'g'risida”gi Qonun.
5. M.H.Rustamov va U.A.To'xtasheva “ O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati” darslik –T.: “ILM ZIYO” - 2012
- 6.<http://files.tsul.uz/student/14.pdf>
7. <http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/140-huquq?download=11604:o-zbekiston-respublikasida-advokatlik-faoliyati-m-rustamboye>



## MATEMATIKADA MATNLI MASALALARNI YECHISH USULLARI

**Jumaniyazova Durdoni To'liboy qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada olimpiadada tushadigan matnli masalalarni yechish usullarini sodda tartibda ishlash va tushuntirish maqsad qilingan. Bunday masalalarni yechishda matematikadagi teorema va formulalardan to'liq foydalaniladi hamda mantiqiy fikrlash qobiliyati oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** EKUK, EKUB, tub ko'paytuvchilar, murakkab sonning darajalari.

**1-masala.** A va B o'yinchilarning har birida dastlab 50 dollardan puli bor. Ular navbatma-navbat tanga tashlamoqda. Agar bir o'yinchi tangani gerb tomoniga tushirsa, ikkinchi o'yinchi unga 4 dollar beradi. Agar bir o'yinchi tangani raqam yozilgan tomoniga tushirsa, u ikkinchi o'yinchiga 3 dollar beradi. Har bir o'yinchi tangani 10 martadan tashladi. Bundan so'ng A o'yinchida B o'yinchiga nisbatan 42 dollar ko'p puli borligi aniqlandi. Agar A o'yinchi 6 marta tangani gerb tomoniga tushirgan bo'lsa, B o'yinchi tangani necha marta gerb tomoniga tushirdi?

**Yechish:**

B o'yinchi tangananing gerb tomonini  $x$  marta tushirgan bo'lsin. U holda  $10-x$  marta boshqa tomonini tushirgan.

A o'yinchi  $10-6=4$  marta boshqa tomonini tushirgan.

$$3(10-x)-4x+50+6 \cdot 4-4 \cdot 3=50-6 \cdot 4+4 \cdot 3+4x-3(10-x)+42$$

$$30-3x-4x+50+24-12=50-24+12+4x-30+3x+42$$

$$92-7x=50+7x$$

$$14x=42$$

$$x=3$$



*Javob: B o'yinchi tangani 3 marta gerb tomoniga tushirgan.*

**2-masala.** Izzat 1 dan boshlab bir nechta  $n$  ketma-ket natural sonlarning EKUKini hisoladi. Jalol Izzatning ro'yxatidagi oxirgi soniga 4 ni qo'shib, huddi Izzatdek 1 dan boshlab shu songacha bo'lgan ketma-ket natural sonlarning EKUKini hisobladi. Agar ular bir xil natijani hosil qilsa, Izzat ro'yxatidagi oxirgi soni eng kamida nechaga teng bo'lishi mumkin?

**Yechish:**

$$EKUK(1,2,\dots,n) = EKUK(1,2,\dots,n+3,n+4)$$

Bu yerda  $n$  oxirgi son bo'ladi.  $n$  dan keyingi 4 ta natural son orasida tub son bo'lishi mumkin emas. Chunki bu tub songa  $n$  gacha bo'lgan sonlar EKUKi bo'linmaydi.  $n=1$  ga teng bo'lsa, 2,3,5 tub sonlar.  $n=5$  ga teng bo'lsa, 7 tub son.  $n=7$  ga teng bo'lsa, 11 tub son.  $n=11$  ga teng bo'lsa, 13 tub son.  $n=13$  ga teng bo'lsa, 17 tub son.  $n=17$  ga teng bo'lsa, 19 tub son.  $n=19$  ga teng bo'lsa, 23 tub son.  $n=23$  ga teng bo'lsa, tub son yo'q. Undan keyingi sonlarga EKUK bo'linadimi? Shuning uchun sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratib tekshiramiz:

$$24 = 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 3;$$

$$25 = 5 \cdot 5;$$

$$26 = 2 \cdot 13;$$

$$27 = 3 \cdot 3 \cdot 3.$$

23 gacha bo'lgan sonlar tub ko'paytuvchilari orasida 3 ning kubi yo'q (EKUK da bir xil sonlarning darajasi bo'lsa, ularning ichidan katta darajasi olinadi). Demak 23 gacha bo'lgan sonlar EKUKi 27ga bo'linmaydi. Agar oxirgi sonni 24,25,26 desak ham baribir 3 ning kubi hosil bo'lmaydi.  $n=27$  bo'lsa, 31 tub son.  $n=31$  bo'lsa, tub son yo'q. Yana tekshirib ko'ramiz:

$$32 = 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2;$$

$$33 = 3 \cdot 11;$$

$$34 = 2 \cdot 17;$$

$$35 = 5 \cdot 7.$$

31 gacha bo'lgan sonlar tub ko'paytuvchilari orasida 2 ning 5-darajasi yo'q. Demak 31 gacha bo'lgan sonlar EKUKi 32 ga bo'linmaydi.  $n=32$  bo'lsa, tub son yo'q. Tekshiramiz:

$$33=3 \cdot 11;$$

$$34=2 \cdot 17;$$

$$35=5 \cdot 7;$$

$$36=2 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 3.$$

Bizda bu tub ko'paytuvchilarning barchasi bor. Demak  $n$  ning eng kichik qiymati 32 ekan.

**Javob:  $n=32$**

**3-masala.** Malika birinchi kunda 2017 sonini yozdi. Har keyingi kuni u oldingi kunda yozilgan son raqamlarining kublari yig'indisini hisoblab yozmoqda. Malika 2017-kuni qanday sonni yozadi.

**Yechish:**

1-kundagi son: 2017

2-kundagi son:  $2^3 + 0^3 + 1^3 + 7^3 = 8 + 0 + 1 + 343 = 352$

3-kundagi son:  $3^3 + 5^3 + 2^3 = 27 + 125 + 8 = 160$

4-kundagi son:  $1^3 + 6^3 + 0^3 = 1 + 216 + 0 = 217$

5-kundagi son:  $2^3 + 1^3 + 7^3 = 8 + 1 + 343 = 352$

6-kundagi son:  $3^3 + 5^3 + 2^3 = 27 + 125 + 8 = 160$

7-kundagi son:  $1^3 + 6^3 + 0^3 = 1 + 216 + 0 = 217$

Har uch kunda son raqamlarining kublari yig'indisi takrorlanyapti. Shuning uchun kunlar sonini 3 ga bo'lamiz:

$$2017 = 672 \cdot 3 + 1$$

Demak, 2017-kunda yozadigan son 217. Chunki birinchi kuni 2017 sonini yozdi va keyin har uch kunda 217 sonini yozib boshladi.

**Javob: 217 sonini.**

**4-masala.**  $EKUK(a,b,c) = 2^{2011}$  bo`lsa,  $EKUB(ab,bc,ca)$  ifoda nechta qiymat qabul qila oladi?

**Yechish:**  $a,b,c$  lar faqat ikkining darajalari yoki 1 dan iborat. Agar

$a = 1, b = 2, c = 2^{2011}$  bo`lsa,  $EKUB(ab,bc,ca) = 2$  bo`ladi.  $a = 1$  yoki  $a = 2$  bo`lsa,  $b = 2^2$  yoki  $b = 2$  bo`lsa,  $EKUB(ab,bc,ca) = 2^2$  bo`ladi. Eng katta  $EKUB$   $a,b,c$

sonlar teng va eng katta qiymatni qabul qilganda bo`ladi. Agar

$a = 2^{2011}, b = 2^{2011}, c = 2^{2011}$  bo`lsa,  $EKUB(ab,bc,ca) = ab$  yoki  $bc$  yoki  $ac$  bo`ladi.

Bunda  $EKUB(ab,bc,ca) = 2^{2011} \cdot 2^{2011} = 2^{4022}$  bo`ladi.  $a, b, c$  lar qabul qila oladigan

boshqa qiymatlarida  $EKUB(ab,bc,ca)$  ning qiymati quyidagi  $2^1; 2^2; 2^3; \dots; 2^{4021}; 2^{4022}$

sonlarni qabul qila oladi.  $a = 1, b = 1, c = 2^{2011}$  bo`lganda  $EKUB(ab,bc,ca)$  ning

qiymati faqatgina 1 ga teng bo`ladi. Demak,  $EKUB(ab,bc,ca)$  eng ko`pi bilan jami

4023 qiymat qabul qila oladi.

**Javob: 4023 ta**

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. “Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari”- A.S.Yunusov, S.I.Afonina, M.A.Berdiqulov, D.I.Yunusova. Toshkent-2007y;
2. [olympiad.uzedu.uz](http://olympiad.uzedu.uz)-sayti.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTISODIY TARBIYA VA IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

**Raximova Mushtariybegim Alisher qizi**

ADU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiya masalalari kurib chiqiladi. Bolalarni iqtisodiy tafakkurini, ko'nikma va malakani shakllantirishda turli ta'lim va tarbiya shakllari orqali rivojlantirish mumkinligiga haqida fikr mulohaza qilinadi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy tafakkur, xususiy mulk, mehnat.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, respublika bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan bordi. Mamlakatimizda boshlangan barcha o'zgarishlarning asosiy maqsadi inson, uning hayoti munosib turmush darajasidir. O'zbekistonning yangi jamiyati jahon sivilizatsiyasidan emas, balki mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning tarixiy mentalitetini hisobga olgan holda insoniyatni rivojlantirgan umuminsoniy qadriyatlardan iborat.

Odamlar tanlagan kasbidan qat'i nazar, ularning hayotiy faoliyati davomida o'zlarini ishonchli his qilishlariga imkon beradigan dastlabki iqtisodiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Har bir insonning hayotiy muvaffaqiyati nafaqat uning mehnat qobiliyatiga, balki iqtisodiy sohada o'z aql-zakovatiga, tadbirkorlikka va erishilgan pullardan oqilona foydalanishga bog'liq.

Iqtisodiy ta'lim-bu bolalarning iqtisodiy ongini to'g'ri shakllantiradigan jarayon. Bu jarayon bolalarning ma'naviy - moddiy asosini, axloqni, his-tuyg'ularni, iqtisodiy tafakkurni, bolaning jamiyatda ijtimoiylashuvini shakllantiradi, shuningdek,

bolalarning iqtisodiyot olamida qiziqishni rivojlantirishga yordam beradigan ma'naviy-iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Iqtisodiy tarbiya, V. N. Myasishchevning fikriga ko'ra, "o'ziga xos g'oyalar kontseptsiyasi, yaxshi xulq-atvori, mehnatsevarligi, unga xos bo'lgan muloqot qobiliyatlari" [1.,59-64]. Hozirgi vaqtda iqtisodiy ongni shakllantirish iqtisodiy ta'limsiz amalga oshirilmaydi, bu jamiyat a'zolariga o'z nuqtai nazarlari va g'oyalarini rivojlantirish, o'z iqtisodiy faoliyatini boshqarish uchun zarur bo'lgan qaror va baholashdan foydalanish uchun yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatadi.

L. A. Golubning fikriga ko'ra: "iqtisodiy ta'lim natijalari bolalarning o'z ishida, onataning mehnatiga va umuman mehnatga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi; mutlaqo barcha manbalarning samarali sarflanishi (pul, poyabzal, kiyim-kechak, elektr energiyasi, oziq-ovqat, suv, vaqt, chiqindilar, bolalar bog'chasi, mulk); iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq vaziyatni aniq tanlash qobiliyati; bolaning oila bilan birga egalik his-tuyg'ularini rivojlanishi, do'stlar va bolalar bog'chasiga to'g'ri moslashishi"[2.34-38].

Iqtisodiyotning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy maqsadi-ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirish, zamonaviy bozor munosabatlari bilan tanishishdir.

Ota-onalar va tarbiyahilarning asosiy vazifasi bolalarga to'g'ri ma'lumot berish va uni to'g'ri ishlatish qobiliyatidir. AA Bodalev [2.113-118] fikriga ko'ra, iqtisodiy ta'limning asosiy vazifalari iqtisodiy xulqni shakllantiruvchi ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning huquqiy o'rnini topish.

Iqtisodiy ta'lim bo'yicha ish jarayoni turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Turli shakllardan foydalanish pedagog-tarbiyachiga o'z ijodiy ishlarini, o'ziga xosligini namoyish etish imkonini beradi va ayni paytda, bu iqtisodiy bilim jarayonini qulay, qiziqarli qilish imkonini beradi. Eng muhimi, bolalarga tushunarli tilda qiyin iqtisodiy dunyo haqida gapirishdir. Natijada, shaxsiy va kognitiv rivojlanishda, bolalar uchun samarali va muhim bo'lgan, shaxsning rivojlanishiga ko'maklashadi, o'zini "Men" ni namoyon etadigan, mavzuli tadbirlar, o'yinlar va kechki dam olish komplekslariga ta'sir etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning muhim va yetakchi shakli o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin faoliyati yordamida bolalar atrofdagi dunyoni idrok etadilar va o'rganadilar. O'yin orqali amalga oshiriladigan tarbiya bola uchun tabiiydir. Bolaning iqtisodiy tarbiyasi uchun yaxshi sharoit yaratadigan iqtisodiy kontent o'yinlarida alohida imkoniyatlar mavjud.

A. S. Makarenko shunday deb yozgan edi: "o'yin bolalar hayotida muhim rol o'ynaydi, kattalar xizmat, ish, faoliyatni amalga oshiradi. Bola o'yinda qanday harakat qilsa, u kattalarga aylanganda ishlaydi. Shu munosabat bilan, kelajakda ishlaydigan xodimni o'qitish, birinchi navbatda, o'yin faoliyatida amalga oshiriladi. Bir ishchi sifatida insonning butun tarixi, o'yinni shakllantirish va vaqt o'tishi bilan uni ishga tushirish orqali ko'rsatilishi mumkin " [3, 6.]

Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish ustuvor o'rinlardan biri hisoblanadi, chunki bola uchun oila qoidalar, normalar va ijtimoiy xulq-atvor shakllarining standartidir. Bilimga ijtimoiy yo'nalish beriladi, bu esa bolaga keyinchalik o'z xatti-harakatlarini shakllantirishga imkon beradi.

Bolalar uchun ta'lim va tarbiya maktabgacha yoshdan boshlab, ular iqtisodiy munosabatlarda asosiy tajribaga ega bo'lganda, maktabgacha yoshdagi bilimlari uzoq vaqt davomida xotirada qoladi. Keyinchalik ular hayotda mohirlik bilan qo'llashlari mumkin. Bolalikda yaratilgan iqtisodiy fazilatlar hayotdagi muvaffaqiyatli insonni, nafaqat moddiy, balki ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan insonni tarbiyalash uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy tarbiyasi insonning axloqiy va iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishning maqsadli jarayonidir, masalan, tejamkorlik, mas'uliyat, samaradorlik, tadbirkorlik, kabi fazilatlarini rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Misyashev V.N. Ekonomika obrazovaniya kak nauka I uchebniy predmet [Tekst] - 1993 y.59-64 bet
2. Bodalev A.A. Psihologiya lichnosti [Tekst]/ A.A Bodalev.-M: Akademiya, 2001.- 113-118 bet.
3. Preschoolers iqtisodiyot haqida: maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun qo'llanma [matn] / E. N. Tabih. –Minsk: Oliy maktab, 2010.- 6c.



## **BO‘LAJAK MUHANDISLARNI UMUMKASBIY TAYYORGARLIGINI MODULLI O‘QITISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

**G‘ofirov Muzaffar Jumayevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

**Annotatsiya:** Bo‘lajak muhandislarni umumkasbiy tayyorgarligini modulli o‘qitish asosida oshirishda mehnat bozoriga tez moslasha oladigan, o‘zini o‘zi tarbiyalash faoliyati va kasbiy ijodkorlikka tayyor bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishning samarali tizimi va kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan ta‘lim muhitining mazmuni, usullari, vositalari, tashkiliy shakllarida sezilarli o‘zgarishlar zarur.

**Kalit so‘zlar:** Muhandis, modul, o‘qitish usullari, algoritmlashtirish, pedagogik texnologiya, o‘quv kursi, operativ modul, modulli tizim.

Bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini mehnat bozoriga tez moslasha oladigan, doimiy o‘zini o‘zi tarbiyalash faoliyati va kasbiy ijodkorlikka tayyor bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishning samarali tizimi uchun talabning individual xususiyatlariga javob beradigan va kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan ta‘lim muhitining mazmuni, usullari, vositalari, tashkiliy shakllarida sezilarli o‘zgarishlar zarur.

Bugungi kunda pedagogik texnologiya mavzusi umumiy shaklda aniq maqsadlarni belgilash, tizimlashtirish, o‘qitish usullarini algoritmlashtirish asosida tashkil etilgan barcha faoliyat turlarida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi amaliy o‘zaro aloqalar sohasini qamrab oladigan bilim sohasi sifatida tavsiflanadi deb takidlagan V.I.Zagvyazinskiy.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasini tadqiqotchilar ikki asosiy guruhga ajratadilar:



1. Pedagogik texnologiya-o‘qitishning zamonaviy texnik vositalari majmuasidir.

2. Pedagogik texnologiya-muloqot jarayoni.

Bugungi kunda "ta'lim vositalari" bilan sinonim bo'lmaslik, "pedagogik texnologiya" ta'limning barcha jabhalari bilan - qisqa o'quv fragmentidan tortib milliy tizimgacha bo'lgan aloqalarga ega bo'lgan fanlararo integratsiyadir. Asl ma'noda pedagogik texnologiya audiovizual vositalar, televizor, kompyuterlar va boshqa vositalar kabi aloqa sohasida inqilob natijasida hosil bo'lgan vositalardan pedagogik maqsadlarda foydalanishni anglatadi.

Pedagogik texnologiyaning to'liq va kengaytirilgan ta'rifi AQSH pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan berilgan: "pedagogik texnologiya-bu muammolarni tahlil qilish va rejalashtirish, bilimlarni egallashning barcha jihatlarini qamrab olgan muammolarni hal qilish, baholash va boshqarish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish bo'yicha g'oyalar, vositalar va usullarni o'z ichiga olgan murakkab integral jarayon."

Pedagogik texnologiya diagnostik qo'yilgan maqsadga aniq yo'naltirilgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning takrorlanadigan usuli sifatida Muallif Zair Bek S.I. tomonidan belgilanadi. Uning fikriga ko'ra, bu rejalashtirilgan ta'lim natijalarining ba'zi bir namoyishi, diagnostika vositalari, o'quv modellari to'plami, ushbu aniq sharoitlar uchun maqbul modelni tanlash mezonlaridan iborat majmua hisoblanadi. Biz ushbu muallifning ta'rifini yanada aniqroq va tadqiqotlarimiz uchun mos deb bilamiz, chunki bo'lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligi muammolarini hal qilish uchun modulli texnologiya usullari va vositalarini ishlab chiqishda biz uning nima ekanligini aniq bilishimiz va uning komponentlariga e'tibor qaratishimiz kerak. Texnika va strategiyalarni ishlab chiqish texnologiya doirasida biz rejalashtirilgan o'quv natijalarini shakllantirishimiz, diagnostika vositalari yordamida baholashimiz va aniq sharoitlar uchun maqbul modellarni tanlashimiz kerak.

Modulli ta'lim texnologiyasi nazariyasi uzoq vaqtdan beri mavjud. Modulli o'qitish ta'limi sohasida qirqinchi yillarda boshlangan va o'z rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan:

1. Modulli o‘qitishning Mini kursi.
2. O‘quv kursi.
3. Operativ modul.
4. Modulli tizim.

Aqshda modulli ta’lim texnologiyasi 60-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va oliy o‘quv yurtlari va maktablarda keng tarqalgan. Yevropa pedagogikasida modulli ta’lim texnologiyasi 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab ishlab chiqilgan.

"Modulli ta’lim" atamasining ma’nosi "modul" so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, (lotincha - modulus), ma’nolaridan biri funksional tugundir. Pedagogikada modul atamasi kompyuter fanidan kelib chiqqan bo‘lib, u turli xil axborot tuzilmalariga qo‘llaniladigan, ularning moslashuvchanligini, qayta tuzilishini ta’minlaydigan qurilishni anglatadi. "Pedagogikada moduldan ularning atributli xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish mazmunining asosiy birligini belgilash uchun foydalaniladi".

Modulli ta’lim texnologiyasining asosiy tushunchasi: modul. Modull-bu ma’lum kasbiy (asosiy) kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta’lim dasturining nisbatan mustaqil va tugallangan birligidir.

Modulli ta’limning mohiyati shundan iboratki, talaba katta yoki kichik mustaqillik darajasida unga o‘quv modulida ko‘rsatilgan o‘quv materiallari bilan ishlaydi. "O‘quv moduli-bu o‘quv kursining umumiy mavzusiga yoki dolzarb ilmiy-texnik muammoga bo‘ysunadigan turli xil va o‘qitish shakllarining integratsiyasidir".

Modulli kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy yetish mamlakatimizning zamonaviy ta’lim siyosatida istiqbolli va talab qilinadigan yo‘nalish hisoblanadi. Ta’limida modulli kompetensiyaga asoslangan yondashuvi ta’lim jarayonini tashkil etish modeli bo‘lib, unda talabaning kasbiy kompetensiyalari to‘plami o‘qitishning maqsadi bo‘lib xizmat qiladi va umumkasbiy ta’lim mazmunini modulli qurish unga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

G.V.Yarochkina, S.A.Yefimova ma’lumotlariga ko‘ra ta’limda modulli yondashuv xususiyatlarini quyidagi atamalarga qisqartirish mumkin:

1. Ta'lim mazmunining asosiy birligi yaxlitlikka, ma'lum ichki tuzilishga ega bo'lgan modul bo'lib, aniq o'quv maqsadlariga erishishga qaratilgan;
2. Modulli yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish faoliyat usullari va harakat usullarini ishlab chiqish uchun sharoit yaratishni talab qiladi, shu bilan birga o'quv mazmunini o'zlashtirish talabiga shunchaki ma'lumot uzatish orqali amalga oshirilmaydi;
3. Modulli o'qitishda moslashuvchan javob berish va aniq ta'lim sharoitlariga moslashish qobiliyati aniqlanadi: talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalash;
4. Amaliyotda modulli yondashuvdan foydalanish ta'lim jarayonida hamkorlik tamoyilini amalga oshirishni ancha soddalashtiradi, o'qitishning turli xil faol usullaridan foydalanish, faoliyatni o'qituvchidan talabaga qayta taqsimlash aniq bo'ladi.

Modulli ta'lim g'oyalarining tug'ilishi S.N.Pos-Tlethwait, J.D.Russell, B.Coldschmid, V.L.Coldschmid nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular o'quv mazmuni birliklarini yaratgan va rivojlantirgan, unga ko'ra o'quv materialining kichik bir qismini mustaqil mavzu deb hisoblash va o'quv dasturiga erkin kiritish mumkin. Dastlab bu birliklar "mikrokurs", keyin "minikurs" deb nomlangan. Keyinchalik bu tushunchalar umumlashgan "modul" tushunchasiga aylantirildi.

Modulli ta'lim texnologiyasi pedagogik nazariya va amaliyotning katta qismini birlashtirdi. Modulli ta'limni yaratish va rivojlantirish uchun asos dasturlashtirilgan ta'lim g'oyasi edi. U o'quv faoliyatini algoritmlashtirishga, o'quv dasturining chegara bo'laklarini qat'iy belgilashga, bilimlarni o'zlashtirishni darhol tasdiqlashga asoslanadi.

Dasturlashtirilgan ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- kichik mavzularga bo'lish;
- o'qituvchining individual fazilatlariga qarab nostandart mashqlar va natijada talabalar ijodkorligining o'sishiga hissa qo'shadi;

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqa mavjudligi, boshqaruv muammolarini hal qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini boshqarish elementlari va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak.

1. Modulli o‘qitishning mazmuni modullarning tugallangan mustaqil majmualarida keltirilgan bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida axborotlar banki va uni o‘zlashtirish uchun uslubiy qo‘llanma hisoblanadi.

2. Chet el adabiyotlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, modulli texnologiya sharoitida o‘quv natijasi uchun xorijiy mualliflar tomonidan o‘quv mazmunini tuzishga muhim ahamiyat beriladi.

3. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta‘siri ham mazmunli, ham kognitiv-operatsion birlik sifatida ishlaydigan modullar yordamida amalga oshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. // – T.: 2020 y.

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, TDPU, 2003.

3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008.

4. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzokova L., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta‘limi uslubiyati. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2006.

5. D.O.Himmataliyev, J.O.Hakimov, SH.S.Sharipova, M.F.To‘rayev, Z.Q.Murodova “Formation of didaktik competence of students as a pedagogical problem” PSYCHOLOGY AND EDUCATION Scopus international journal № 1. 2021, yanvar.

6. M.J.G‘ofirov, “Integrated learning concept” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) № 1. 2021, yanvar.

## TALABALARNING UMUMKASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNI MODELLASHTIRISH

**G‘ofirov Muzaffar Jumayevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

**Annotatsiya:** O‘quv kursi modullari tarkibini ishlab chiqish tanlangan malakani shakllantirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan kompetensiyalar tarkibini aniqlashga qisqartiriladi. Modul spetsifikatsiyasi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: modul nomi, o‘quv maqsadlari, kirish talablari, o‘qitishning standart davomiyligi, o‘quv natijalari, natijalarni baholash mezonlari, rivojlanish darajalari.

**Kalit so‘zlar:** O‘quv kursi, modul, mo‘dul tarkibi, modul spetsifikatsiyasi, modullarni baholash materiallari, o‘quv materiallari, yo‘naltiruvchi modul.

Ta’lim jarayonini modulli texnologiyalar asosida qurishda ikkita loyihalash sikli ajratiladi:

1. O‘quv kursi modullari tuzilishini ishlab chiqish.
2. O‘quv kursining asosiy bo‘linmalari sifatida modullar tarkibini ishlab chiqish.

O‘quv kursi modullari tarkibini ishlab chiqish tanlangan malakani shakllantirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan kompetensiyalar tarkibini aniqlashga qisqartiriladi. Ushbu kompetensiyalarning tarkibini aniqlash manbalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- kasb (mutaxassislik)bo‘yicha kasbiy standart;
- ishchi va xodimlar lavozimlarining malaka xususiyatlari;
- kasbiy xususiyatlari.

O‘quv kursi modullarining tuzilishi shakllantirilgandan so‘ng, keyingi loyihalash sikliga o‘tish — modullar tarkibini ishlab chiqish amalga oshiriladi. O‘quv kursining

har bir mlduli universal tuzilishga ega va bitta texnologiya yordamida yaratilgan.

Modulni tashkil etuvchi materiallar uchta komponentni o‘z ichiga oladi:

1. Modul spetsifikatsiyasi.
2. Modullarni baholash materiallari.
3. Modullarning o‘quv materiallari.

Modul spetsifikatsiyasi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: modul nomi, o‘quv maqsadlari, kirish talablari, o‘qitishning standart davomiyligi, o‘quv natijalari, natijalarni baholash mezonlari, rivojlanish darajalari. Modul spetsifikatsiyasini loyihalashning har bir bosqichida allaqachon ishlab chiqilgan komponentlarga qaytish va ularning bir-biri bilan muvofiqligini tekshirish kerak. Modul nomi asosiy kompetensiyani tashkil etuvchi ko‘nikmalardan birini aks ettiradi.

O‘quv maqsadini shakllantirish asosiy kompetensiyalarni birgalikda tavsiflovchi ko‘nikmalarning tavsifini o‘z ichiga oladi. Modulning maqsadlari ishlab chiquvchi (o‘qituvchi) nuqtai nazaridan modul asosidagi umumiy mazmun, yo‘nalishni anglatadi.

Ta’lim natijalarini baholash jarayonidan ajratib bo‘lmaydi. Ta’lim natijalari to‘g‘risida qaror qabul qilingandan so‘ng, ularni baholash uchun tegishli usullarni tanlash va tegishli baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Modulni loyihalash jarayonining navbatdagi bosqichi o‘quv materiallarini ishlab chiqishdir. O‘quv materiallari modulning majburiy komponenti bo‘lib, talabalarning rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishishini ta’minlash uchun didaktik vositalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. O‘quv materiallari modul spetsifikatsiyasi asosida ishlab chiqiladi.

Modulli ta’limga tahlil qilingan nazariy yondashuvlarni hisobga olgan holda va P.A.Yusevichena tomonidan ko‘rib chiqilgan modulli ta’lim tamoyillariga tayanib, biz ta’lim jarayonini modulli tashkil etishni ishlab chiqdik, unda modul ham mazmunli, ham yo‘nalish birligi sifatida ishlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bizning tadqiqotimizda fan va amaliyotda to’plangan fikrlar va o’z tajribamizni hisobga olgan holda, yo’nalish va tarkib modullari to’g’risida ishlaydigan tushuncha qo’llaniladi.

Modul ta’lim jarayonining eng kichik mustaqil qismi bo’lib, u quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- butun jarayonning o’ziga xos xususiyatlari va maqsadlarini aks ettiradi;
- o’zining didaktik vazifasi va uni yechish vositalariga ega;
- muammoni hal qiladi, natijalarni tekshiradi, kerakli tuzatishni amalga oshiradi yoki rejalashtiradi;
- oldingi va keyingi modullar bilan o’zaro aloqani ta’minlaydi;
- o’rganilayotgan fan davomida talabalarning keyingi harakati uchun yetarli asos yaratadi.


Dars materiali, bizning fikrimizcha, teng bo’lmagan qismlarga bo’linishi kerak. Ulardan birining assimilyatsiyasi mazmuni va maqsadlari to’g’risida tasavvurga ega bo’lish darajasida amalga oshirilishi kerak, shunchaki bu yerda ma’lumotli, chuqur assimilyatsiya qilish uchun yetarli bo’lmagan zamonaviy bo’limlardan olingan ma’lumotlar mavjud, ammo ular zamonaviy ilmiy dunyoqarashning asosi hisoblanadi va umumkasbiy bilimlarning zarur arsenaliga kiritilgan. Bizning fikrimizcha, biz bu yerda ergonomik yo’nalish modullari haqida gapirishimiz mumkin, ularning tarkibida birinchi navbatda vaqtni tejash bilan bog’liq asosiy talablar bajariladi. Yo’nalish tipidagi modullarning asosi o’rganilayotgan fanning ma’lumotnomalaridir.

V.S. Idiatullin tadqiqotlari muhandislik-texnik mutaxassisliklar va yo’nalishlar talabalari uchun ma’lumot xulosasi bilim olish jarayonini osonlashtirish va soddalashtirishga, ularni tushunarli shaklga keltirishga qaratilgan. Malumot xulosasida ma’lum bir mavzu kursining mazmunini tashkil etuvchi barcha asosiy qoidalar, tushunchalar, atamalar, omillar, oqibatlar va xulosalar mantiqiy ketma-ketlikda qisqacha shaklda keltirilgan. O’rganilayotgan barcha miqdorlar va ularning birliklari ta’riflarining aniqligiga, shuningdek ular o’rtasidagi munosabatlar tengligini o’rnatadigan qonunlarga alohida e’tibor beriladi. Ko’rsatilgan qo’llanmada

talabalarga amaliy, laboratoriya va individual mashg‘ulotlarda, shuningdek mustaqil ishlarida aniq muammolarni hal qilishda kerak bo‘ladigan barcha nisbatlar, ifodalar va formulalar keltirilgan.

Yo‘naltiruvchi modul fanning asosiy ilmiy g‘oyalarini yoritib beradi; ushbu g‘oyalar atrofidagi ta’lim mazmunini aniq bloklarga tuzadi; har tomonlama didaktik maqsadni shakllantiradi. Modulning ishlab chiqilgan elektron versiyasi asosida ushbu modullarning analoglari bosma asosda yaratiladi, ular takrorlanadi va birinchi darsdan oldin har bir talabaga beriladi, unda tashkiliy modul blokining mazmuni (ma’lumot xulosasi) o‘qituvchi tomonidan bir vaqtning o‘zida multimediya orqali taqdim etiladi. Materialni bu usul bilan o‘rganish talabalarni qiyinchiliklardan ozod qiladi: blokka o‘tiladi, asosiy g‘oya uqtiriladi — talaba esa uni tushunmay qolishidan va ortda qolishidan qo‘rqmaydi. U xotirjamlik bilan ishlaydi, tafsilotlarni aniqlaydi.

Auditoriya tizimiga asoslangan an’anaviy o‘quv jarayoni talabalar tomonidan asta-sekin ma’lumot to‘plashni o‘z ichiga oladi va oddiydan murakkabga o‘tishga asoslanadi. Bu chiziqli o‘quv jarayoni. Ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda an’anaviy yondashuv jamiyat tizimlari faoliyatining chiziqli ko‘rinishiga asoslanadi. Tashqi nazorat harakatlarining natijasi kompetensiyalarga muvofiq qo‘llaniladigan harakatlarning chiziqli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosiblik natijasidir (1-rasm).



**1-rasm. Chiziqli tizimlarda boshqaruv stereotipi sxemasi**




Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuv ta’lim jarayonini boshqarish uchun juda kam qo‘llaniladi. Say-harakatlar ko‘pincha befoyda yoki hatto zararli bo‘lib chiqadi, istalmagan va yengib bo‘lmaydigan inqiroz holatiga olib keladi, ayniqsa qiziqishlarning xilma-xilligi, shaxslarning ixtiyoriy intilishlari va harakatlarining roli hisobga olinmasa, bu har qanday ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishining sezilarli deformatsiyalariga olib keladi.

Ushbu xususiyatlar an’anaviy chiziqli ta’limning chiziqli bo‘lmaganga o‘zgarishini aniqlaydi, bu nafaqat klassik didaktikaning tegishli tamoyillariga, balki axborot tuzilmalari va jarayonlarining interaktivligi, aks etishi, chiziqli emasligi, ta’limning turli shakllaridan birgalikda foydalanish, multimediyadan majmuaviy foydalanish tamoyillariga asoslanadi.

Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuv ta’lim jarayonini boshqarish uchun juda kam qo‘llaniladi. Say-harakatlar ko‘pincha befoyda yoki hatto zararli bo‘lib chiqadi, istalmagan va yengib bo‘lmaydigan inqiroz holatiga olib keladi, ayniqsa qiziqishlarning xilma-xilligi, shaxslarning ixtiyoriy intilishlari va harakatlarining roli hisobga olinmasa, bu har qanday ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishining sezilarli deformatsiyalariga olib keladi.

Mazmunli modullar bo‘yicha o‘rganish jarayonida talabalarning ma’lumotni ongli ravishda idrok etishga yordam beradi. Ta’limning nochiziqli (intensiv) texnologiyasi, o‘rganish motivatsiyasi bilan talabalarga nazorat qiluvchi ta’sir stereotipining sxemasi talabani qiyinchiliklardan qo‘rqishdan ozod qiladi: blok qabul qilinadi, asosiy g‘oya tushuniladi — va u buni tushunmaydi va orqada qoladi degan qo‘rquv yo‘q. Intensiv o‘qitish texnologiyasi bilan tinglovchilarga ta’sirni boshqarish stereotipining sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Intensiv texnologiyalar vositasida ta’lim jarayonini boshqarish sxemasi**

Ma’ruza-vizuallashtirish og‘zaki va yozma ma’lumotlarni vizual shaklga aylantirishdan iborat bo‘lib, bu muhandislik tayyorgarligining kasbiy muhim sifati hisoblanadi. Talabalar o‘rtasida shu maqsadda tegishli ko‘nikmalarni rivojlantirish ta’lim jarayonida kasbiy faoliyat mazmunini aks ettirish usullaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. // – T.: 2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-3775-sonli Qarori. // -T:2018 y.
3. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzokova L., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta’limi uslubiyati. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2006.
4. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008.

5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, TDPU, 2003.
6. M.J.G’ofirov, “Integrated learning concept” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) № 1. 2021, yanvar.
7. D.O.Himmataliyev, J.O.Hakimov, SH.S.Sharipova, M.F.To‘rayev, Z.Q.Murodova “ Formation of didaktik competence of students as a pedagogical problem” PSYCHOLOGY AND EDUCATION Scopus international journal № 1. 2021, yanvar.



**TURLI TA'LIM MUASSASALARIDA UNIVERSAL MASOFAVIY TA'LIM  
SHAROITIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYALARI:  
MUAMMOLAR, TAJRIBALAR, ISTIQBOLLAR**

**Ibrohimova Marhabo Ulug'bek qizi**

O'zDJTU XTA 3-2103-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Shukurova Shohsanam**

O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turli xil ta'lim muassasalari o'rtasida masofaviy o'qitish texnologiyasining afzalliklari, istiqbollari va ta'rifi bilan tanishish metodikasi keltirilgan. Bundan tashqari, hujjatda masofaviy o'qitish muammolari va boshlang'ich va o'rta maktablar o'rtasida masofaviy o'qitish holatini yaxshilash uchun masofaviy kurslar va ob'ektlar va modul turlarini yaratishning kontseptual asoslari ko'rib chiqilgan. Masofaviy o'qitish an'anaviy ravishda doimiy ishchilar, harbiy xizmatchilar va norezidentlar yoki uzoq mintaqalardagi sinf ma'ruzalarida qatnasha olmaydigan shaxslar kabi noan'anaviy talabalar uchun ajratilgan. Biroq, masofaviy o'qitish ta'lim dunyosining yaxshi tashkil etilgan qismiga aylandi va tendentsiyalar o'sishni davom ettirishga ishora qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** norezident, internet-resurslari, Maykl Sendel, Youtube, iTunes, Moodle, Stanford, Garvard.

Mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirilib, ta'lim sifati yuksala boshlandi. Shu bois, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot mahsuli bo'lgan internet resurslari va masofaviy ta'lim dasturlarini qo'llagan holda elektron darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish zarur. Shu maqsadda umumta'lim va mutaxassislar

tayyorlash sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, jahon andozalari darajasidagi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, masofaviy o'qitish - bu telekommunikatsiya texnologiyalari va Internet-resurslaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, bir-biridan uzoq bo'lgan o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'limga asoslangan ta'lim turi.[6, 2-bet]

*Masofaviy ta'lim afzalliklari.* Ijtimoiy tarmoqlar orqali masofaviy ta'limga qo'shilish bu boradagi yangiliklardan birinchilardan bo'lib xabardor bo'lish, o'z natijalarini do'stlar bilan bo'lishish hamda do'stlarining ham yutuqlari bilan tanishish imkonini beradi. Ba'zi tinglovchilar blog yuritish bilan o'z fikrlarini bo'lishib boradilar[1, 145-bet]. Bu esa obunachilar orasida masofaviy ta'limning ommalashuviga hamda boshqa tinglovchilar uchun o'z bilimlarini mustahkamlashga ko'mak beradi. Mashhur xorij universitetlari ham internet orqali o'z masofaviy kurslarini taqdim etadilar. Bunda mazkur kurslarni tugatgan kishilar ushbu OTMning diplomiga ega bo'lmasa-da, professorlar, Nobeliy mukofoti laureatlarining ma'ruzalarini o'rganishlari mumkin bo'ladi. Bunday ta'lim turi an'anaviy ta'limga qaraganda bi rnecha barobar arzonroq bo'lishini ham ta'kidlab o'tish lozim. Zamonaviy ta'lim tizimi hozirgi davrning barcha deyarli barcha talablariga javob bera olmasligi ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan tan olinadi. [3, 12-24- bet] Bu vaziyatn io'zgartirishning asosiy usullaridan biri - ta'lim tizimidagi zamonaviy texnologik rivojlanishning eng yangi dasturiy ta'minoti va texnologiyasini keng doirada jalb qilishdir. Bunday vositalardan biri insonlarning ishlab chiqarish va boshqa kundalik ishlardan ajralmagan holda to'liq ta'lim o'rganish imkonini beruvchi raqamli platformalarda ochiq masofaviy ta'lim olish tizimidir (MOOC – ommaviy ochiq onlayn kurslar tizimlari). [4] Bir necha yillar oldin, ya'ni, 2012-yilning kuzida Stenford universiteti professorlari Sebastyan Trun va Piter Norvig onlayn rejimda barchani sun'iy intellekt bo'yicha ma'ruzalar tinglashga taklif qildilar. Darslar faqat onlayn shaklda shakllantirildi. Ma'ruzachilarning maksimal soni 2-3 ming talaba semestr boshida, garchi ular ushbu darslarga borishni rejalashtirgan bo'lsalar ham uning 200 ta

mamlakatdan 160 000 kishi darslarga yozilib bo‘lgan edi. Xuddi shunga o‘xshash masofaviy ta’lim tizimlari yanada murakkab va sifatli bo‘lib borayotganini ta’kidlamalik mumkin emas. Kun sayin yanada ko‘proq tajribali o‘qituvchi va professorlar o‘z ma’ruzalarini boshqalarga ham ochiq tarzda yetkazishni xohlaydilar va ushbu video qo‘llanmalarini Youtube va iTunes qo‘lanmalariga yozib qo‘ymoqdalar. Ularning ba’zilari, masalan, Garvard universitetining siyosiy falsafa professori Maykl Sendel “Adolat” deb atalgan ma’naviyat kursi ijtimoiy tarmoqlarda mashhurligi tufayli eng mashhur odamlardan biri bo‘lib qoldi. Ularning birgalikdagi sa’y-harakatlari dunyoning istalgan joyida yashovchi insonlarning zamonaviy va sifatli ta’lim olishlariga sabab bo‘lishi kuzatilyapti. Bu jarayonlar raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar yetishtirishga katta ahamiyat qaratilayotganidan darak beradi.

Bundan tashqari, masofaviy mashg‘ulotlar ba’zi nazariy fanlar uchun juda foydali bo‘lishi mumkin, ammo amaliy metodikada ushbu modullarni to‘liq o‘rganib chiqish qiyinroq bo‘lishi mumkin, masalan, musiqa va boshqa qator fanlarni o‘rganish.

*Ta’lim tizimida masofaviy o‘qitish tizimining o‘rni va ahamiyati.* Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro internet orqali muloqotda bo‘ladi, talaba o‘zi ustida ko‘proq ishlaydi va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida o‘qituvchi bilan doimiy muloqotda bo‘ladi. Eng muhimi masofaviy ta’lim joyga, vaqtga bog‘liq emas, talabalarning soni cheklanmagan. Masofaviy o‘qitish davomida talaba mustaqil o‘quv darsliklarni o‘zlashtiradi, nazorat savollariga javob berib boradi. Ta’limning bu turi sirtqi, maxsus sirtqi, malaka oshirish kurslari hamda oilali, yoshi kattalar va ishlaydigan talabalar uchun juda qulay ta’lim tizimi hisoblanadi.

*Masofaviy ta’lim tizimi istiqbollari.* Ta’lim sohasidan asta-sekin insonning siqib chiqarilishi va ularning o‘rnini sun’iy intellekt egallashi ko‘z o‘ngimizda amalga oshayapti. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda va bizning fikri-ojizimizcha, mamlakatimizdagi ta’lim jarayoniga raqamli innovatsion usullarni tezkorlik bilan va keng miqyosda tatbiq qilishni amalga oshirish uchun zudlik bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim [5, 6- bet]:

1) Turli xil ko‘rinishdagi ta’lim turlarining hosil bo‘lishi ta’lim vazirliklari qoshida malakali professor-o‘qituvchilarni (shu jumladan, nafaqaga chiqqanlarni ham) jalb qilgan holda raqamli interaktiv elektron kitoblar, elektron o‘quv qo‘llanmalari va alohida fanlar bo‘yicha masofaviy ta’lim kurslari tayyorlash zaruriyatiga olib keladi (bu ish hozirgiga o‘xshab tekinga emas, balki professor-o‘qituvchilar bilan shartnomalar tuzish asosida amalga oshiriladi). Bu esa ushbu ishlarni amalga oshirish bo‘yicha respublika ishchi kengashini (tashkilotini yoki kompaniyasini) tashkil qilish vazifasiga olib keladi. Uning zimmasiga respublika miqyosida zamonaviy hamda sifatli raqamli interaktiv elektron kitoblar, raqamli elektron o‘quv qo‘llanmalari va masofaviy ta’lim kurslari tayyorlash (yoki ularni chet tillardan o‘zbek tiliga o‘girish) vazifasi yuklanadi;

2) Bu ishga majburiy tarzda mamlakatda informatsion texnologiyalarning tatbiqi bilan shug‘ullanadigan barcha tashkilotlarni, ta’lim muassasalarini, kompaniyalarni va yetakchi institut hamda universitetlarni jalb qilish;[2, 8-bet]

3) O‘zbekistondagi turli sohalarda o‘rta va oliy ta’lim olishni istagan fuqarolarning ishlab chiqarish va boshqa kundalik yumushlardan ajralmagan holda to‘laqonli ta’lim olishiga imkon beradigan masofaviy ta’lim (distance education) tizimini rivojlangan chet ellarning “distance education – MOOC – massive open online courses” platformalari andozalari asosida tashkil qilish va ularni zudlik bilan ishga tushirish. Bu – birinchidan barcha ta’lim olishni istovchilar uchun teng imkoniyatlar yaratasa, ikkinchidan, ta’lim tizimi uchun sarflanayotgan mablag‘larni ancha kamaytirishga imkon beradi va uchinchidan, yosh yigit-qizlar uchun davlat tomonidan sarf-xarajat talab qilmaydigan juda ko‘p miqdordagi yangi ish joylarini yaratadi;

Shuni aytishim mumkinki, masofaviy ta’lim barcha o‘quvchi yoshlarga ayniqsa talabalarga katta imkoniyatlarni yaratdi. Endi o‘quvchi yoshlar har kuni akademik markazda yoki oliygohlarga shaxsan qatnashi shart emas, lekin yangi texnologiyalar orqali uydan darsni kuzatishlari mumkin. . O‘quv jarayonlari ham butunlay raqamli texnologiyalarga moslashtirilgan va masofaviy ta’lim har tomonlama yangi

qulayliklar yaratmoqda. Masofaviy ta’lim bugungi kunda nafaqat ta’lim muassasalari uchun, balki bugungi globallashuv jarayonida yirik korxonalar va muassasalar uchun ham zarur bo’lib, ularda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning bilim va ko’nikmalarini yuqori darajada saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy ta’lim bugungi kunda nafaqat ta’lim muassasalari uchun zarur, balki bugungi globallashuv jarayonida yirik korxonalar va muassasalar kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, bilim va ko’nikmalarni yuqori darajada saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masofaviy ta’limni qo’llash orqali aholining umumiy bilim darajasini va bu bilimlarning sifatini oshirish imkoniyati mavjud. Aholining barcha qatlamlarining ixtiyoriy ta’limga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish mumkin bo’ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o’qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. 145-b.
2. Ayupov Ravshan Hamdamovich. Masofali ta’lim va uning o’zbekistondagi rivojlanishi. –T: Maqola. 2020 8-b
3. Formaciony Estudios Trening mavzusidan A. A Islomov - T:Fan, 2015. 12-24-b
4. <https://prep.uz/news/umumiy/o-zbekistonda-masofaviy-ta-lim-imkoniyatlari>
5. [https://www.researchgate.net/publication/348916562\\_MASOFAVIY\\_TA'LIM\\_TIZIMI](https://www.researchgate.net/publication/348916562_MASOFAVIY_TA'LIM_TIZIMI)
6. <https://enjoybooks.ru/uz/rol-distancionnogo-obucheniya-v-shkole-rol-distancionnogo-obucheniya-v.html>



## MATEMATIKANING QIZIQARLI MISOLLARI

**Jumaniyazova Durdona To`liboy qizi**

Toshkent moliya instituti akademik litseyi matematika o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika qiziquvchilari bo`lmish o`quvchilar uchun ajoyib misollar va masala yechimlarini sodda tartibda ishlash va tushuntirish maqsad qilingan. Bunday misollarni yechishda matematikadagi teorema va formulalardan to`liq foydalaniladi.

**Kalit so`zlar:** ildiz, sonning butun qismi, tengsizlik, kvadrat ildiz.

**1. Soddalashtiring:** 
$$\frac{\sqrt{2} + \sqrt{3} + \sqrt{4}}{\sqrt{2} + \sqrt{3} + \sqrt{6} + \sqrt{8} + 4}$$

**Yechish:**

$$\begin{aligned} \frac{\sqrt{2} + \sqrt{3} + \sqrt{4}}{\sqrt{2} + \sqrt{3} + \sqrt{6} + \sqrt{8} + 4} &= \frac{\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2}{\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2 + \sqrt{2} \cdot \sqrt{3} + 2\sqrt{2} + 2} = \\ &= \frac{\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2}{\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2 + \sqrt{2}(\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2)} = \frac{\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2}{(\sqrt{2} + \sqrt{3} + 2) \cdot (1 + \sqrt{2})} = \\ &= \frac{1}{1 + \sqrt{2}} = \frac{1 - \sqrt{2}}{(1 + \sqrt{2}) \cdot (1 - \sqrt{2})} = \frac{1 - \sqrt{2}}{-1} = \sqrt{2} - 1 \end{aligned}$$

**Javob:**  $\sqrt{2} - 1$

**2. Yig`indini toping:** 
$$\frac{1}{1 + \sqrt{3}} + \frac{1}{\sqrt{3} + \sqrt{5}} + \frac{1}{\sqrt{5} + \sqrt{7}} + \dots + \frac{1}{\sqrt{79} + \sqrt{81}}$$

**Yechish:**

$$\begin{aligned} & \frac{1}{1+\sqrt{3}} + \frac{1}{\sqrt{3}+\sqrt{5}} + \frac{1}{\sqrt{5}+\sqrt{7}} + \dots + \frac{1}{\sqrt{79}+\sqrt{81}} = \\ & = \frac{\sqrt{3}-1}{(1+\sqrt{3})(\sqrt{3}-1)} + \frac{\sqrt{5}-\sqrt{3}}{(\sqrt{3}+\sqrt{5})(\sqrt{5}-\sqrt{3})} + \frac{\sqrt{7}-\sqrt{5}}{(\sqrt{5}+\sqrt{7})(\sqrt{7}-\sqrt{5})} + \dots \\ & \dots + \frac{\sqrt{81}-\sqrt{79}}{(\sqrt{79}+\sqrt{81})(\sqrt{81}-\sqrt{79})} = \frac{\sqrt{3}-1}{2} + \frac{\sqrt{5}-\sqrt{3}}{2} + \frac{\sqrt{7}-\sqrt{5}}{2} + \dots + \frac{\sqrt{81}-\sqrt{79}}{2} = \\ & = \frac{\sqrt{81}-1}{2} = \frac{9-1}{2} = \frac{8}{2} = 4 \end{aligned}$$

**Javob: 4**

**3. Tenglamani yeching:**  $\left[ \sqrt[3]{1} \right] + \left[ \sqrt[3]{2} \right] + \dots + \left[ \sqrt[3]{x^3 - 1} \right] = 400$

**Yechish:**  $\left[ \sqrt[3]{1} \right] + \left[ \sqrt[3]{2} \right] + \dots + \left[ \sqrt[3]{x^3 - 1} \right] = 400$

Tenglamada quyidagi  $\left[ \sqrt[3]{1} \right]; \dots; \left[ \sqrt[3]{7} \right]$  ( $\left[ \sqrt[3]{7} \right]$  ham qabul qiladi) sonlarning qiymati

1 ga teng.  $\left[ \sqrt[3]{8} \right]; \dots; \left[ \sqrt[3]{26} \right]$  sonlarning qiymati esa 2 ga teng.  $\left[ \sqrt[3]{27} \right]; \dots; \left[ \sqrt[3]{63} \right]$

sonlarning qiymati esa 3 ga teng,  $\left[ \sqrt[3]{64} \right]; \dots; \left[ \sqrt[3]{124} \right]$  sonlarning qiymati esa 4 ga

teng. Ushbu butun sonlar yig'indisini hisoblaymiz. Bunda  $7$  ta  $1$ ,  $26-7=19$  ta  $2$ ,  $63-26=37$  ta  $3$  va  $124-63=61$  ta  $4$  bo'ladi.  $7 \cdot 1 + 19 \cdot 2 + 37 \cdot 3 + 60 \cdot 4 = 400$ . Demak,

$\left[ \sqrt[3]{x^3 - 1} \right] = 4$  son eng oxirgi qo'shiluvchi bo'ladi, ya'ni  $\left[ \sqrt[3]{124} \right]$  sonidir.

$$\left[ \sqrt[3]{x^3 - 1} \right] = \left[ \sqrt[3]{124} \right]$$

$$\left( \left[ \sqrt[3]{x^3 - 1} \right] \right)^3 = \left( \left[ \sqrt[3]{124} \right] \right)^3$$

$$x^3 - 1 = 124$$

$$x^3 = 125$$

$$x = 5$$

**Javob:  $x=5$**

4. Noldan farqli  $a, b, c$  sonlar uchun  $a+b+c=26$ ,  $\frac{1}{a} + \frac{1}{b} + \frac{1}{c} = 28$  bo'lsa,

$\frac{a}{b} + \frac{b}{c} + \frac{c}{a} + \frac{a}{c} + \frac{c}{b} + \frac{b}{a}$  ni toping.

**Yechish:**  $a+b+c=26$ ,  $\frac{1}{a} + \frac{1}{b} + \frac{1}{c} = 28$

$$a+b=26-c$$

$$a+c=26-b$$

$$b+c=26-a$$

$$\frac{a}{b} + \frac{b}{c} + \frac{c}{a} + \frac{a}{c} + \frac{c}{b} + \frac{b}{a} = \frac{b+c}{a} + \frac{a+c}{b} + \frac{a+b}{c} = \frac{26-a}{a} + \frac{26-b}{b} + \frac{26-c}{c}$$

$$\frac{1}{a} + \frac{1}{b} + \frac{1}{c} = \frac{bc+ac+ab}{abc} = 28$$

$$bc+ac+ab=28abc$$

$$\begin{aligned} \frac{26-a}{a} + \frac{26-b}{b} + \frac{26-c}{c} &= \frac{(26-a)bc + (26-b)ac + (26-c)ab}{abc} = \\ &= \frac{26bc - abc + 26ac - abc + 26ab - abc}{abc} = \frac{26bc + 26ac + 26ab - 3abc}{abc} = \\ &= \frac{26(bc+ac+ab) - 3abc}{abc} = \frac{26 \cdot 28abc - 3abc}{abc} = \frac{abc(26 \cdot 28 - 3)}{abc} = \\ &= 26 \cdot 28 - 3 = 728 - 3 = 725 \end{aligned}$$

**Javob: 725**

5. Ixtiyoriy ABC uchburchak uchun  $h_a \leq \sqrt{p(p-a)}$  tengsizlik to'g'ri bo'lishini isbotlang.

**Yechish:**

**Isboti:** Uchburchak tomonlarini  $a, b, c$  deb belgilaymiz.

$$h_a \leq \sqrt{p(p-a)};$$

$$h_a \leq \sqrt{\frac{a+b+c}{2} \cdot \left(\frac{a+b+c}{2} - a\right)}$$

$$h_a \leq \sqrt{\frac{a+b+c}{2} \cdot \frac{b+c-a}{2}};$$

$$h_a \leq \frac{1}{2} \sqrt{(a+b+c) \cdot (b+c-a)};$$

$$2h_a \leq \sqrt{(c+b)^2 - a^2};$$

$$h_a = \frac{2}{a} \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$$

$$ah_a = 2 \sqrt{\frac{a+b+c}{2} \cdot \left(\frac{a+b+c}{2} - a\right) \cdot \left(\frac{a+b+c}{2} - b\right) \cdot \left(\frac{a+b+c}{2} - c\right)}$$

$$ah_a = 2 \sqrt{\frac{a+b+c}{2} \cdot \frac{a+b+c-2a}{2} \cdot \frac{a+b+c-2b}{2} \cdot \frac{a+b+c-2c}{2}}$$

$$ah_a = 2 \sqrt{\frac{a+b+c}{2} \cdot \frac{b+c-a}{2} \cdot \frac{a+c-b}{2} \cdot \frac{a+b-c}{2}}$$

$$ah_a = 2 \cdot \frac{1}{4} \sqrt{\left((b+c)^2 - a^2\right)(a+c-b)(a+b-c)}$$

$$2ah_a = \sqrt{(b+c)^2 - a^2} \cdot \sqrt{(a+c-b)(a+b-c)};$$

$$\frac{2ah_a}{2h_a} = \frac{\sqrt{(b+c)^2 - a^2} \cdot \sqrt{(a+c-b)(a+b-c)}}{2h_a}$$

$$2h_a \leq \sqrt{(c+b)^2 - a^2}$$

$$a \geq \sqrt{(a+c-b)(a+b-c)}$$

$$a^2 \geq \left(\sqrt{a^2 + ab - ac + ac + bc - c^2 - ab - b^2 + bc}\right)^2$$

$$a^2 \geq a^2 - (c^2 - 2bc + b^2)$$

$$a^2 \geq a^2 - (c-b)^2$$

Har qanday sonning kvadrati musbat. Shuning uchun bir sondan musbat sonni ayirsak undan kichik son hosil bo'ladi.

**Javob: Isbotlandi.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. “Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari”- A.S.Yunusov, S.I.Afonina, M.A.Berdiqulov, D.I.Yunusova. Toshkent-2007y;
2. *olympiad.uzedu.uz*-sayti.



**MAKTABGACHA YOSHDAGI TA`LIMDA BOLALARDA XORIJIY TIL  
O`RGANISHDA ULAR XOTIRASINING PSIXOLINGVISTIK  
RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

**Ruziyeva Nigora Sapar qizi**

Qarshi Davlat Universiteti magistranti

**Annotatsiya**

**Биологик хусусиятлари** Мош иссиқсевар ўсимлик бўлиб, уруғининг қийғос униб чиқиши учун энг қулай ҳарорат камида 12-15<sup>0</sup> С бўлиши керак. Яхши ривожланиши учун эса энг қулай ҳарорат 18-22<sup>0</sup>С. Ёзги жазирама иссиқлар мошнинг нормал гуллаб юқори ҳосил беришига қулай шароит яратади ҳамда кундузги иссиқ ва кечаси бўладиган салқин ҳавонинг ўзгаришига бардошли. Унинг шоналаш ва гуллаш фазаларида 20-25<sup>0</sup>С қулай шароит ҳисобланади. Бундай шароит мош анғизда етиштирилганда ёзнинг иккинчи ярмининг охирларида юзага келади. Мошнинг намликка бўлган талаби ўртача бўлиб, унинг "Радость" нави захира суви билан ўзига хос технология бўйича етиштирилганда илдизлари ернинг намли қатламларига тобора кириб бораверади. Мош такрорий экин сифатида етиштирилса, гуляш даври бирмунча қисқаради. Баҳорда экилганида эса гуллаши 15-20 кун давом этади. Шунинг учун ҳам мош иссиқсевар дуккакли-дон экини бўлганлиги сабабли Ўзбекистон, Туркменистон, Озарбайжон, Гуржистон, Хитой, Корея, Япония, Хиндистан ва бошқа давлатларда катта майдонларда етиштирилади.

Суғориладиган майдонларнинг сув таъминоти чекланган шароитларда ҳам мошни кузги буғдой анғизда етиштириб, юқори сифатли оксил ва бошқа қимматли озиқага бой бўлган мош дони етиштириш мумкин. Айни вақтда сув танқис бўлган худудларда мош юқори ҳарорат ва қурғоқчиликка бардошлилиги сабабли кўпроқ кузги бошоқли дон экинлари анғизда такрорий экин сифатида етиштирилмоқда.

Мошнинг республикамызда районлаштирилган ва истиқболли навларидан; Наврўз, Қахрабо, Радость, Дурдона, Турон, Маржон, Зилола каби навларидан фойдаланилмоқда.

**Анғизда мош етиштириш** Мамлакатимызда кузги бошоқли-дон экинлари йиғиштириб олинганидан кейин, уларнинг ўрнига такрорий экинлар етиштириш учун ажойиб имконият бор. Айтайлик, бошоқли-дон экинлари 15-

20 июн муддатида йиғиштирб олинса, ундан кейин тўрт ой, 120-130 кун иссиқ ва ҳароратли кунлар давом этади. Шу ойлар мобайнида 1600-1800<sup>0</sup> С фойдали ҳарорат йиғиндисини заминимиз қабул қилади. Бу эса республикамизда кузги бошоқли дон экинларидан кейин такрорий экинлар экиб, ҳосил олиш имкониятини беради.

Мош ем-хашак, сабзавот, дон экинлари учун ажратилган далаларга экилади. У жуда кўп экинлар, маккажўхори, кузги бошоқли дон экинлари, картошка сабзавот экинлари, ғўза учун яхши ўтмишдош.

**Тупроқни ишлаш** Мош анғизга экилганда биринчи экин ҳосили тез йиғиштириб олинади, дала суғорилади, ер етилиши билан 20-22 см чуқурликда ҳайдалади, бороналанади кейин талаб қилинса мола бостирилади. Ерда йирик кесаклар ҳосил бўлса, оғир бороналар ёки ҳалқали ғалтаклар билан ишланади. Қатор оралари ишланадиган экинлардан кейин дала бегона ўтлардан тоза, яхши ишланган бўлса, ерни ҳайдамасдан 10-12 см чуқурликда культивация қилиб юмшатиш кейин бороналаб, мола бостирилиб ер экишга тайёрланади.

**Ўғитлаш** Дуккакли дон экинлари айниқса мош экиладиган ерга фосфорли ва калийли ўғитларни солиш жуда фойдалидир, чунки улар илдизда туганак пайдо бўлишига ижобий таъсир кўрсатади. Мош фосфорли, калийли ўғитларга талабчан, баҳорда экилганда гектарига 30-40 кг азот, 60-90 кг фосфор, 30-60 кг калий солинади. Ўғит нормаси хўжалиқнинг тупроқ –иқлим шароитига қараб ҳамда экиннинг агробиологик хусусиятларига кўра ўзгариши мукин. Фосфорли, калийли ўғитлар ерни кузда шудгорлашдан олдин берилади. Азот экиш олдида култивация билан солинади. Органик ўғитлардан чириган гўнг гектарига 10-15 т солинганда уруғ ҳосили сезиларли даражада ошади.

**Экиш муддати** Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида мош экиш учун энг мақбул муддат апрелнинг биринчи ўн кунлиги, қолган вилоятлар учун иккинчи ўн кунлик ҳисобланади. Бунда тупроқ 12-14<sup>0</sup>С қизиқ, совуқ тушиш хавфи йўқолган бўлади. Анғизга экилганда июн ўртасида ёки охирида экилади. Мош



уруғлари анғизда 10 июлгача экиб тугалланиши лозим. Жуда кеч экилса ҳосил совуқдан зарарланиши ёки донлар етилмасдан қолиши мумкин.

**Экиш меъёри** Мутахассисларнинг таҳлиллари натижасида, мош ҳар гектар ер ҳисобига 400 минг дона кўчат ҳисобида 1 июлда экилганда октябрь ойининг ўртасида дон ҳосили 18,6-19,3, шу қалинликда 15 июлда экилганда 17,2-18,4 ва 1 августда экилганида эса 15,3-17,6 ц/га ни ташкил этди.

Дон учун экилганда қаторлаб экишда уруғ экиш меъёри гектарига 12-15 кг, яшил массаси ёки яшил ўғит (сидерат) учун экилганда экиш меъёри 50-60 кг/га оширилади ва ёппасига экилади.

**Экиш усули** Мош уруғлари қатор оралари 45-50 см, ёки лента усулида кўш қаторлаб ленталар ораси 45 см қилиб экилади. Бунда кўш қаторлар ораси 13-15 см бўлади. Бегона ўтлардан тоза, яхши ишланган далаларда мошни қаторлаб (15 см) экиш мумкин.

Кузатишларнинг кўрсатишича, қатор оралари 45 ва 60 см қилиб экилганда экиш меъёрларини ортиб бориши билан Победа-104 ва Радость навларида ривожланиш фазаларини ўташи тезлашди. Ўсув даври 2-4 кунга қисқарди. Ушбу кузатишларнинг якунида қатор ораларини 60 см қилиб экилганда энг юқори ҳосил Победа-104 навида 60x12 схемада экилганда 25,7ц/га, Радость навида 23,5 ц/га ни ташкил этди.

**Экиш чуқурлиги** Мошнинг уруғлари пневматик сеялкалардан СПЧ-6-8, янги замонавий сеялкаларидан фойдаланиб жойлаштирилади. Мош суғориладиган майдонларда нам тупроққа 3-4 см, нами қочган тупроқларга эса 5-6см чуқурликда экилади. Мош уруғининг тозаллиги 98,5 %, унувчанлиги 92 % дан кам бўлмаган юқори синф уруғлари экилади.

**Парваришлаш** Мошни парваришлаш комплекс тадбирлардан иборатдир. Бунга қатор ораларини культивация қилиш, суғориш, бегона ўтларни йўқотиш, зараркунанда ва касалликларга қарши кураш ҳамда экинларни озиклантиришдан иборатдир. Тупроқнинг ҳолатига, экиннинг аҳволи, сувнинг мавжудлиги, ўғитлар ва бошқа шарт-шароитларга қараб ишларнинг миқёси

ўзгарувчандир. Мош ўсув даврида, шоналаш-гуллаш ва дуккаклар ҳосил бўлиш даврида гектарига 800-1000 м/куб меъёрида 3-4 марта суғорилади.

Анғизга экилганида суғориш сони сизот сувлар сатҳининг жойлашишига қараб 1-2 марта суғорилади. Ўрганишлар натижасида мошнинг ўсув-амал даврида суғориш меъёрлари оширилиб, 900м<sup>3</sup>/га етказилиб, тупроқ 70-75-65 фоиз намликда ушланганда 29,9 ц/а ҳосил берди. Демак, намликнинг оширилиши мош ҳосилдорлигини ошишига олиб келади. Ўсимликларда биринчи 3 талик барг пайдо бўлиши билан қатор ораларини 6-8 см чуқурликда, иккинчи марта тўла гулга кираётганда 10-12 см чуқурликда культивация қилиниши зарур. Бу тупроқларни ғоваклигини ошириб ўсимликнинг яхши ўсишини таъминлайди, тупроқдаги микроорганизмларни яхшироқ ишлашига шароит яратилиб туганак бактерияларнинг фаолияти эртароқ бошланади ва дала бегона ўтлардан тозланади, тупроқда нам сақланади. Бегона ўтларни қолдирмаслик учун далани кетмон чопиғи ёки ўтоқ қилинади.

**Етиштирилган ҳосилни ўриб-янчиб олиш** Дуккакли дон экинлар ҳосилини ўриб-йиғиб олиш муддати ҳар қайси экин учун алоҳида белгиланади. Мош дуккаклари тўлиқ пишиб етилган пайтда ўрилса дуккаклари чатнаб кетилиши натижасида ҳосилнинг кўп қисми нобуд бўлади. Мош дуккаклари бир текис етилмайди. Пишган дуккаклари қораяди, донлар ўз навига хос тусга киради. Дуккаклари 70% етилганда ўрим-йиғим бошланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Атабаева Х.Н, Саттаров М.А, Идрисов Х.А Суғориладиган майдонларда мош етиштиришнинг интенсив технологияси бўйича тавсиянома. Тошкент 2019
2. Атабаева Х.Н, Худойкулов Ж.Б Ўсимликшунослик.Т “Фан ва технология”. 2018

## МОШНИНГ (PHASEOLUS AUREUS PIPER) ТАКРОРИЙ ЭКИН СИФАТИДА ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

**Идрисов Х.А.**, к.х.ф.ф.д (PhD)

ФарДУ Мевачилик ва сабзавотчилик кафедраси мудир

**Солиев. А**

ФарДУ УМС кўшма факультети Анорчилик таълим йўналиши

4-босқич талабаси

**Email:** [idrisovhusanzon@gmail.com](mailto:idrisovhusanzon@gmail.com)

**Аннотация;** Ушбу мақолада энг мухим озиқ-овқат экинларидан бири бўлиб ҳисобланадиган мош тўғрисида батафсил ва атрофлича маълумотлар келтирилган холда, такрорий экин сифатидаги қиммати ва аҳамияти тадқиқотлар мисолида аниқ таҳиллар билан баён этилган

**Калит сўзлар;** мош, ловия, соя, нўхот, оқсил, тупроқ, туганак, азот

Серкүёш заминимизда жуда кўплаб ноз-неъматлар пишиб етилиши учун зарур шарт-шароитлар мавжуддир. Она Ватанимизнинг қулай географик жойлашув, барча фаслларнинг ўз вақтида келиши, бир йилда 250-280 кун қуёшли куннинг борлиги, еримизнинг унумдорлиги, мазасини ҳеч бир ерда учрамайдиган меваларимиз, сабзавот ва поллизлар экинлари, ранги кўзни оладиган қирмизи донларимиз, ранги қордек опшоқ оқ олтин пахтаимиз, аёл-қизларнинг севимли кийими атласу-адрасга бебаҳо хом-ашё бўлмиш кумуш толамиз ҳақида қар қанча гапирсак оздек туюливеради. Лекин айна ҳақиқат шуки далаларимизнинг бор бастини кўсатадиган ҳосил кўпроқ деҳқоннинг омилкорлигига жуда ҳам боғлиқ. Буни асло унутиб бўлмайди. Шу ўринда алоҳида таъкидлаб ўтмоқчи бўлганим тилла ранг ловия ёки мош ҳақида

билишимиз керак бўлган маълумотлар талайгинадир. Буни айниқса ўзини ҳақиқий деҳқон ҳисоблаган фермерларимизга асқотади.

Юқорида бежиз тилларанг ловия иборасини келтирмадим. Сабаби айтилган гулга кирган маҳал олтинни эслатиб юборувчи гулларини кўрган киши беихтиёр олтинни эслайди. Гуллари кўзни қувнатувчи сариқ рангда товланаётгандек одамни ўзига тортади. Фермерларимизнинг кузги буғдойни йиғиштириш тараддуди кўриш билан бирга такрорий экин учун қайси экинни экишни кераклиги борасида мутахассислар билан маслаҳатлашгиси келади албатта.

Республикамиз шароитида кузги буғдойдан 60-70 ц/га, такрорий экин сифатида етиштириладиган мош экинидан эса 15-20 ц/га дон ҳосили етиштирилиб, бир мавсум давомида етиштириладиган дон ҳосилини 75-90 ц/га етказиш имкониятлари мавжуд. Ер юзида дуккакли-дон экинлари 135 млн.гектар майдонга экилади. Дуккакли-дон экинлари орасида мош экиладиган майдон ҳажми жиҳатидан жаҳонда соядан (дунё бўйича соя майдони 74 млн гектарга яқин) кейин иккинчи ўрин (25 млн гектарга яқин) ни эгаллаб, учинчи ўринда нўхот (дунёда жами 10 млн гектарга яқин) туради. Расмий маълумотларга қараганда юртимизда етиштириладиган мошнинг умумий майдони 18-20 минг\га ташкил этади. Асосан кузги буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида етиштириб келинади.

Марказий Осиё ва Кавказorti республикаларида мошдан озик-овқат саноатида кенг фойдаланилади. Мошдан тайёрланган ун макаронга кўшилса унинг тўйимлилиги янада ортади. Мош дуккакли-дон экинлар гуруҳига мансуб бўлиб, донида кўп миқдорда 24-28 % оқсил тўпланади. Ундан озик-овқат саноати билан бирга чорва хайвонлари учун тўйимли ем-хашак ҳам етиштириш мумкин. Шунингдек мошнинг илдизларида туганак бактерия ривожланиб, эркин азотни ўзлаштириб, тупроқ унумдорлигини оширади.

Инсоннинг овқатланиши унинг ёши, жинси ва меҳнат фаолиятига боғлиқ бўлган ҳолда турлича бўлиши лозим. Кундалик рационда инсон оқсил, углеводлар, витаминлар, минерал моддалар ва бошқаларни истеъмол этиши

лозим. Инсон қанчалик турли-туман озикланса, унинг ҳаёт фаолияти шунчалик фаол, организм эса шунчалик соғлом бўлади. Таъкидлаш лозимки, инсон организми маромда фаолият кўрсатиши учун оқсилга талаб бир кунда унинг вазнининг ҳар бир килограмми учун 0,7 гр дан кам бўлмаслиги лозим.

Озиқ-овқат учун ишлатиладиган дуккакли-дон экинлари орасида мош дони озиқалик қиммати, оқсил ва витаминларга бой бўлиши, калориясининг кўплиги билан ажралиб туради. Мош озиқалик қиймати билан буғдой, ловия, нўхат, кўк нўхат ва жавдар донларидан 1,5-2 баравар, тўйимлилиги бўйича эса 1,5 баравар устун туради. Мош таркибидаги оқсилнинг ҳазмланиши 86% га етади. Мош таркибида оқсил 24-28%, лизин 8%>, аргинин 7%> бўлади, В ва РР витаминлар кўп бўлади .

Ундан ташқари мош дони аминокислоталар ва магний, кальций, олтингугурт, натрий, темир, марганец, мис, бор, кобальт, никель, йод, фосфор тузларига бой. Айрим мамлакатларда ҳам мош донидан салат тайёрланади, Макарон ва кондитер саноатида мош ундан 30% қўшилса сифати тубдан яхшиланади. Ем-хашак сифатида етакчи ўринлардан бирини эгаллайди. Мош пичани таркибида ўртача 15% оқсил бўлади. Мош сидерат сифатида анғизда етиштирилса, ундан 200-250 ц/га кўк масса олиш мумкин.

Мош-энг яхши сидерат экин ҳисобланади, у кўкат ўғит сифатида ишлатилганда тупрокда 70 ц.га курук модда тўпланади. Бу 100 азот демакдир. Мош маккажухори, сабзавот ва бошка экинлар экиладиган ерларда энг яхши сидерат ҳисобланади. Мош ерда азот тўпловчи сифатида дон, техника экинлари ва сабзавотлардан олдин экиладиган энг яхши экинлардан бири. Уни баҳорда ёзда ҳам экиш мумкин. Мош ер ости сувлари юза жойлашганлигидан зарарланмайди, тез ўсади, ерни яхши соялайди ва бегона ўтлардан тозалайди.

Қишлоқ хўжалиги ўсимликларида ривожланишини чекловчи омиллардан бири-уларнинг азотли бирикмалар билан етарли даражада таъминлаб турилмаслигидир. Бундай яъни азот танқислиги шароитида ўсимликлар атмосфера ҳавосининг қарийб 80% ини ташкил этадиган молекуляр азот

куршовида бўлади. Дуккакли дон ўсимликлари ўзида азот тўпловчи хусусиятига эга. Дуккакли дон экинлари ерда кўп миқдорда органик моддаларни тўплайди, бу билан деҳқончиликдаги азот балансини яхшилаб уларнинг айримлари кийин эрийдиган фосфатларни ўзлаштирадиган шаклда айлантиради. Дуккакли ўсимликлар илдизлари туганакларидаги туганак бактериялар ёрдамида атмосфера азотини бириктириб олиб, азот билан тупроқни бойитади. Умуман, дуккакли дон экинлари деҳқончиликда учта асосий вазифани: ўсимлик оқсил масаласини, дон етиштиришни кўпайтириш ва тупроқ унумдорлигини оширишга ёрдам беради.

Шу ўринда яна бир фактни келтириш ўринлидир. Тупроқда жуда кўп микроорганизмлар учрайди, яъни бир 1г тупроқда миллионлаб ёки миллиардлаб бактерия бўлади. Ҳаво ва сувга нисбатан тупроқда бактериялар кўп учрайди. Тупроқ асосий манба бўлиб, ундан микроблар ҳаво ва сувга ўтиб туради. Таҳлилларга кўра, 1 га ҳайдаладиган ернинг 25 см чуқурликкача бўлган қатламида 3-5 тоннагача бактерия бўлади. Бактерияларнинг тупроқда тарқалиши тупроқнинг хусусиятига боғлиқдир.

Илмий манбалардан маълум бўлишича, мош вегетация даври давомида тупроқда 50-100кг\га биологик азот ва органик моддалар тўплаб, ернинг табиий унумдорлигини ошириши билан бирга оқсил ва витаминларга бой бўлган шифобахш дон берадиган экиндир.

Мустанов.С.Б, Хамдамов И. Х ва Джумаев М. Мларнинг маълумотларига қараганда, туганаклар турли катталиқ ва шаклда бўлади. Улар ўсимлик илдизида қанчалиқ кўп ва катта бўлса, тупроқда шунчалиқ кўп биологик азот тўпланади. Ўсимликлар ҳосил қилган азотнинг 60-75 фоизини ўзлаштириб, қолган 25-40% қисмини анғиз қолдиқлари билан органик модда ҳолда тупроқда қолдиради. Бир қисми денитрификация жараёнида йўқолади. И.Е.Елагин, П.Ш.Шукурулаевларлар келтирган маълумотларга кўра ўсимлик илдизидаги туганак бактериялар асосан гуллаш давригача интенсив ривожланади. Гуллашнинг бошланиши даврида углеводларнинг баргдан

илдизга ўтиши сусаяди, углеводлар гул ва мева ҳосил бўлиши учун сафарбар бўлади, шунинг учун гуллагандан сўнг бактериялар ўлиб туганак емирилиб, унинг азотли органик моддалари тупроқда тўплана бошлайди. Ундан ташқари уруғ таркибида ҳосил бўлган оксил моддаси ўртача 5-7 % туганаклар ҳисобида бўлади. М.М.Гуковнинг ёзишича об-ҳавонинг жазирама иссиқ кунларида ( $32^{\circ}\text{C}$ ) дуккакли ўсимликларнинг атмосферадан эркин азотни ўзлаштириб олиши қийинлашади, натижада ўсимликда азот етишмаслик ҳоллари кузатилади.

Дуккакли-дон ўсимликлари илдизида яшаб, ҳаводаги эркин ҳолдаги азотни ўзлаштирувчи туганак бактерияларнинг фаолияти ва фаоллиги хўжайин ўсимлик ҳаёти билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, уларнинг фаоллиги экинларни қай даражада парвариш қилишга, агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказишга, айниқса тупроқ-иқлим шароитидан келиб чиққан ҳолда уларни экиш муддатлари ва меъёрларини тўғри белгилашга боғлиқдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

- 1.Атабаева Х.Н, Саттаров М.А, Идрисов Х.А Суғориладиган майдонларда мош етиштиришнинг интенсив технологияси бўйича тавсиянома. Тошкент 2019
- 2.Атабаева Х.Н, Худойкулов Ж.Б Ўсимликшунослик.Т “Фан ва технология”. 2018

## DAVLAT BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISHDA PREZIDENTLIK INSTUTINING TUGAN O’RNI VA AHAMIYATI

**Kalimbetov Dilmurod Qahramon o’g’li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi bo’limi magistranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur ishda davlat boshqaruvini demokratlashtirishda hozirgi zamon tendensiyalariga mos harakat yo’nalishlari, ularni O’zbekistonda joriy etish masalalari, shu yo’lda uchraydigan muammo va kamchiliklar hamda ularga yechimlar, prezidentlik instutining bu yo’lda tutgan o’rni va ahamiyati xususida ba’zi xulosa va tavsiyalar keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Prezidentlik instuti, liberallashev jarayoni, konstitutsion o’zgarishlar, davlat boshqaruvining demokratlashuvi, hokimiyat bo’linishi prinsipi

O’zbekistonda ta’sis etilgan Prezident lavozimining huquqiy asoslarini tahlil qilib baralla aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda Prezidentning saylanishi, vakolatlari demokratik standartlarga mos to’la keladi.

Dunyoda prezident lavozimi mavjud bo’lgan davlatlarni shartli ravishda 3 ga ajratilib, prezidentlik va parlamentar, aralash respublikalar degan tasniflash mavjud. Bunda asosiy mezonlardan biri bo’lib, Prezidentning saylanish usuli hisoblanib, bevosita xalq tomonidan to’g’ridan-to’g’ri saylangan Prezident kuchli vakolatlarga ega bo’ladi. Prezident to’g’ridan-to’g’ri saylanganda fuqarolar uning saylovoldi dasturi bilan bevosita tanishish, mamlakat va fuqarolarni qiziqtirayotgan masalalarga nomzodlar e’tiborini qaratish imkoniyati mavjuddir. Konstitutsiyamiz 90-moddasiga ko’ra O’zbekiston Respublikasining Prezidenti O’zbekiston Respublikasining



fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga saylanadi.<sup>9</sup>

Prezidentni umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylash dunyoning 110 ta davlatida qabul qilingan usuldir.

O‘zbekistondagi Prezidentlik institutining o‘ziga xosligi shundaki, bizda davlat boshlig‘ining vakolatida fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishiga kafillik belgilanganligi, davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlashi, Prezident saylovi kuni Konstitutsiyada aniq belgilab qo‘yilgani, saylov komissiyalarining a‘zolari saylovdan manfaatdor biron bir partiya a‘zosi, yoki nomzod, uning ishonchli vakili bo‘lishi mumkin emasligi, Prezident saylovining moliyaviy ta‘minoti davlat mablag‘lari tomonidan qoplanishi va teng taqsimlanishi, nomzodlardan hech qanday saylov garovi, saylov fondini tashkil etish talab qilinmasligi, nomzodlarga saylovoldi tashviqotini o‘tkazish uchun davlat hisobidan teng efir vaqti va bosma maydon ajratilishi, yig‘ilishlar va uchrashuvlar o‘tkaziladigan vaqt hamda joy haqida saylovchilarga barvaqt xabar qilinishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishni tashkil etishda, zarur ma‘lumot va axborot materiallari olishda yordam ko‘rsatishlari shartligi kabilarda ko‘rishimiz mumkin.<sup>10</sup>

*“El-yurtimiz biz boshlagan xalqchil islohotlarga bugun xayrixohlik va qat‘iy ishonch bilan qarab, ularning hosili va samarasini tezroq ko‘rishni istamoqda. Ana shu haqli talabni inobatga olgan holda, biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqib, saylov jarayonida uni o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazdik”<sup>11</sup> – deya ta‘kidlagan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.*

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:https:// www. lex.uz

<sup>10</sup> Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.

<sup>11</sup> Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.

Shu ma'noda prezidentlik instituti demokratik institut hisoblanib, birinchidan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li saylanadi va fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda vakilligini ta'minlashdek konstitutsiyaviy funksiyani bajaradi. Ikkinchidan, Prezident lavozimiga nomzod bo'lishda O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoliga, irqiy yoki milliy mansubligiga, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatiga, mashg'ulot turi va xususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi. Uchinchidan, Prezident saylovi demokratik standartlarda belgilangan holda halollik bilan ochiq, shaffof o'tishi, erkin, ixtiyoriy, haqiqiy va adolatli tashkil etilishi va o'tkazilishi Konstitutsiya va qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. To'rtinchidan, Prezident vakolatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yiladi. Ya'ni bunda demokratik saylovlar orqali saylab qo'yilgan vakillari orqali xalq ishtirok etadi. Beshinchidan, monarxiyadan farqli o'laroq, Konstitutsimiz 1-moddasiga asosan O'zbekiston – suveren demokratik respublika bo'lganligi bois Prezidentning lavozimda bo'lish vaqti konstitutsiyaviy asosda ma'lum muddatlar bilan chegaralangan.<sup>12</sup> Ya'ni Asosiy qonunimizga asosan besh yil muddatga saylanadi. Bu ham demokratik standartlardan bo'lib, xalq davlat hokimiyatining manbai sifatida davriy asosda o'z nomidan, ya'ni xalq nomidan ish olib borishi mumkin bo'lgan shaxsni muqobillik asosida saylab turish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:[https:// www.lex.uz](https://www.lex.uz)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. -T.: “O’zbekiston”. 2018. 3-tom.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:[https:// www. lex.uz](https://www.lex.uz)
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.04.2003 480-II-son.



## PREZIDENTLIK INSTUTI TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

**Kalimbetov Dilmurod Qahramon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi magistranti.

### ANNOTATSIYA

Mazkur ish davlat boshqaruvining demokratlashtirishdagi prezidentlik institutining tutgan o'rnini va ahamiyati, prezident faoliyatining tizimli va samarali mexanizmini yaratish masalalarini tahlil etishga va ularni huquqiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bag'ishlangan. Bundan tashqari prezident vakolatlarini optimallashtirish, bu bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasiga asoslangan va amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqilgan.

### ANNOTATION

The work focuses on the role and importance of the presidential institution in the democratization of public administration, the analysis of issues of creating a systematic and effective mechanism of presidential activity and their legal and practical improvement. In addition, proposals have been developed to optimize the powers of the president, based on the experience of foreign countries and have practical significance.

**Kalit so'zlar:** Prezident, Prezidentlik instituti, hokimiyat bo'linishi, konstitutsion o'zgarishlar, davlat boshqaruvining demokratlashuvi

Prezident lavozimining joriy etilishi o'zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, *“Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildiradi. Chunki shunchaki emas, balki haqiqiy davlatchilik hokimiyatning bunday tuzilmasini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega. ... Prezident boshqaruvini hayotning o'zi, qayta*

*qurishning mantig‘i, mohiyati, uning murakkab va ziddiyatli jarayonlari taqozo etdi”<sup>13</sup>*

Sobiq ittifoqning oxirgi yillaridagi ijtimoiy hayotning hamma sohalaridagi tartibsizliklar, inqirozlarga uchrash O‘zbekistonda ham yaqqol sezila boshladi. Hamma sohalarining mutlaqo izdan chiqib ketishi respublika miqyosida yangicha boshqaruvga o‘tishni, Respublika bilan ittifoq o‘rtasida yangicha munosabat o‘rnatishni taqozo eta boshladi.

Buning uchun Respublikada aholini birlashtira oladigan, markaz hujumlariga bardosh beradigan, markazning roziligisiz, ishtirokisiz vujudga keladigan davlat boshlig‘i lavozimiga ehtiyoj sezildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston shu paytda ham mustaqil respublika – davlat hisoblansa-da, davlat boshlig‘i degan lavozim (bunday lavozimlar ittifoqda ham yo‘q edi) bo‘lmagan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi barcha davlatlar konstitutsiyalari o‘rnatgan davlat boshlig‘i degan institutni chetlab o‘tgan edi. Davlat boshlig‘i vazifasini har doim kommunistik partiya rahbarlari bajarib kelgan edi. Bu hech bir qonunda qayd qilinmagan edi. Shuning uchun bo‘xronli 90-yillarning oxirida har qanday mamlakatda legitim davlat boshlig‘i lavozimi bo‘lishini davrning o‘zi taqazo etdi. Shuning uchun avval sobiq ittifoqda davlat boshlig‘i – prezident lavozimi o‘rnatildi va 1990-yil mart oyida O‘zbekistonda sobiq ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo‘lib Prezidentlik lavozimi – instituti o‘rnatildi.<sup>14</sup>

Dastlabki bosqichda prezidentlik instituti davlat hokimiyati tizimida markaziy o‘rinni egallab, siyosiy tizimning o‘zagiga aylandi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevorini barpo etish hamda davlatning bosh islohotchi bo‘lishi zarurati o‘tish davrida Prezident zimmasiga katta mas’uliyat va strategik vazifalarni hal etish zaruratini yuklash barobarida uning keng vakolatlarga ega bo‘lishini taqozo etdi. Prezident davlat va ayni vaqtda ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sifatida islohotlarning tashabbuskori, yangilanish va o‘zgarishlar jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi.

<sup>13</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 142, 144.

<sup>14</sup> Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.

O‘zbekistonda prezident instituti (lavozimi) joriy qilinarkan, u yoki bu davlatga o‘xshash uchun harakat qilishga yoki prezidentlik eng yaxshi yo‘lga qo‘yilgan davlatlarning tajribasi shundayligicha olinmadi. Yoki Respublika prezidentlik respublikasi bo‘ladi yoki parlamentar respublika bo‘ladi, degan maqsadlar qo‘yilmadi.

Prezidentlik joriy qilinarkan, shu lavozimdan foydalanib mustaqillikka erishish, uni saqlash, boshqa davlatlar bilan kelisha oladigan davlat qurish, insonni eng oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish va shu maqsadlar yo‘lida mamlakatdagi ba‘zi kuchlarni birlashtira oladigan, iqtisodiy bozor munosabatining tamoyillari asosida qura oladigan vosita sifatida Prezidentlik tanlandi.<sup>15</sup>

Milliy davlatchiligimiz va biz uchun yangi bo‘lgan erkin bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va qaror topayotgan dastlabki yillarda Prezidentga berilgan huquq va vakolatlarning bir qismini hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tuzilmalariga berish ishlari izchillik bilan olib borilmoqda. Agar mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 7 marta o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilingan bo‘lsa, ularning 5 tasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga oid XIX bobdagi qator moddalarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgani prezidentlik institutining huquqiy asoslari sezilarli takomillashayotganidan dalolat qiladi.

Erkinlashtirish davlat qurilishi va boshqaruvidagi islohotlarning asosini tashkil etib, u boshqa hokimiyat tarmoqlariga, shu jumladan, Prezidentning maqomiga ham taalluqli bo‘ldi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilgan voqealardan biri 2002-yil 27-yanvarda bo‘lib o‘tgan referendum va uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan qonun bo‘ldi. Shular asosida Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar tufayli Oliy Majlis ikki palatali tuzilishda tashkil qilinadigan bo‘ldi. Prezidentning vakolati besh yildan yetti yilga o‘zgartirildi. Prezidentning ayrim vakolatlari Oliy Majlis Senatiga o‘tkazildi va Konstitutsiyadan Prezidentning Vazirlar Mahkamasi Raisi

<sup>15</sup> Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.

haqidagi qoida chiqarildi. Bularning barchasi demokratlashtirishning amaliy ifodasi edi.

2007-yil 11-apreldagi Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qonunga asosan Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilib, uning 89-moddasi quyidagi tahrirda bayon qilindi: “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi”.<sup>16</sup> Bu norma O‘zbekiston Prezidentining davlat hokimiyati tizimidagi o‘rnini, asosini, Prezidentning maqomini va eng asosiy vazifasini belgiladi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanada “... *bosh qomusimizni chuqur o‘rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so‘zsiz amal qilish barchamizning burchimizdir*” degan so‘zlari orqali ham jamiyat va davlat hayotida qonuniylikni taminlashda Konstitutsiyaning o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.<sup>17</sup>

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda prezidentlik instituti O‘zbekistonni davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili bo‘ldi, respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o‘tilishini bildirdi hamda prezidentlik instituti qaysidir ma‘noda davlat mustaqilligi kafili hamda davlat ramziga aylandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
2. Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:[https:// www. lex.uz](https://www.lex.uz)
5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.04.2003 480-II-son. URL: [https:// lex.uz/docs/-32913](https://lex.uz/docs/-32913)

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. 89-97-moddalar. URL:[https:// www. lex.uz](https://www.lex.uz)

<sup>17</sup> Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.

## “FARHOD VA SHIRIN” BADIYYATINING AYRIM MASALALARI

**Sayidova Shahruza Sohibovna**

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Hazrat Alisher Navoiyning tashbih, ruju’, iyhom, talmeh, husni ta’lil kabi an’anaviy she’riy san’atlardan foydalanish mahorati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, "Farhod va Shirin", she’riy san’at, mavzu, g’oya, fikr, tashbih, ruju’, iyhom, talmeh, husni talil, mahorat

Hazrat Navoiy ijodi cheksiz bir ummon, bu ummonda ajabtovur, qimmatbaho marvaridlar bisyor. Bejiz buyuk adibni so’z san’atkorini deb atamaymiz. Boisi uning bebaho fikr dengizida so’zlardan terilgan dur-u gavharlar diqqatimizni tortadi.

O’zbek mumtoz adabiyotining o’ziga xos jihatlari she’riyat bag’ridan unib chiqqan badiiy-tasviriy vositalarning nafosati bilan ham belgilanadi. Shoirning mahorati u qo’llagan she’riy san’atlarning betakrorligi, adabiyotning estetik vazifasini qay darajada umumlashtirishi bilan ham belgilangan. Bu borada Alisher Navoiy asarlari, ayniqsa, e’tirof etishga joiz. Chunki kichik qit’alardan tortib, yirik “Xamsa” dostonlarigacha badiiyatning bu kabi yuksak namunalari bir necha bor uchratish mumkin. “Farhod va Shirin” dostonining badiiyatini ta’minlagan muhim omil ham ulug’ so’z san’atkorining badiiy-tasviriy vositalardan mohirona foydalana olganligidadir. “Farhod va Shirin” dostonining badiiy mukammalligini ta’minlashda badiiy-tasviriy vositalarning o’rni beqiyos. Quyida ulardan ayrimlariga to’xtalib o’tamiz.

Tashbeh san’ati. Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo’lib, o’xshatish ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o’rtasidagi haqiqiy



yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Tashbih san'ati quyidagi to'rt juzv asosida yuzaga keladi:

1. Mushabbah – nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbahi bih – nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shibh – o'xshatish sababi.
4. Vositai tashbeh (odoti shibh) – o'xshatish vositasi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida tashbeh san'atining go'zal na'munalarini yaratadi. Quyida ularning ayrimlarini havola etamiz.

**Magar vahm adhamidur tez raftor,**

**Ne adham, jardai Shabdez raftor. (2;5)**

Bu yerda shoir qalamni tasvirlar ekan, hayotiy misollar orqali uning tez yurarligi va qora iz qoldirishini uchqur qora otga o'xshatadi. Keyigi misrada fikrlarini davom ettirib qalamni Xusrav parvezning oti Shabdezga mengzaydi. Keyingi baytda go'yoki Navoiy fikridan qaytgandek bo'ladi, ammo fikr yanada kuchaytilib qalam yuqori darajaga ko'tariladi.

**Dema Shabdez, bir qushdur xushovoz,**

**Qanotsiz aylabon har sori parvoz.(2;5)**

Ushbu baytda Alisher Navoiy ruju' (arabcha “qaytish” manosini bildirib, she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo'llangan tasviriy vositasidan qaytgandek bo'ladi. Keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usuli. 10.47) san'atidan foydalanib tashbeh san'atining go'zal na'munasini yaratadi. Yuqoridagi misralarda qalamni Shabdez otga o'xshatgan ijodkor bu baytda fikridan qaytgandek bo'ladi, endi Navoiy qalamni xushovoz qushga o'xshatib, u qanotsiz ham hamma yerda parvoz qila oladi deya e'tirof etadi.

**Shaba minqoridin har sori zohir,**

**Valekin ul shaba sohib javohir. (2;5)**

Navoiy qalamning tarif-u tavsifini keltirar ekan undan sochilayotgan harflarni ham unutilib qo'ymaydi, yuqoridagi baytda qora siyohda bitilgan harflarni qimmatbaho qora munchoq toshga o'xshatiladi. Ushbu baytda Navoiyning yana bir qirrasini ko'zga tashlanadi, Navoiy tasavvufiy shoir, din va dunyo ishlarini mukammal bilgan va shu yo'lda bir qator asarlar bitgan ijodkordir. Navoiy so'zda shunday qudrat borligini tasvirlaydiki go'yo qalamdan yozilayotgan harflar qora munchoq tosh, ya'ni "Hajarul asvad" ga o'xshatiladi, bizga ma'lumki bu tosh Ka'badada joylashgan va yer sayyorasining hech bir burchagida bunday toshga duch kelmaymiz. Hadisi sharifda keltirilishicha Ibrohim alayhi salom kabani bunyod etayotganlarida farzandlari Ismoil alayhisalomdan o'zgacha bir tosh olib kelishlarini so'raydilar. Ismoil alayhisalom qancha axtarmaslar o'zgacha tosh topolmaydilar va otalari oldiga qaytib kelib o'zgacha tosh topolmaganlarini aytadilar. Shunda Ka'ba ichida oppoq, boshqalariga o'xshamaydigan tosh paydo bo'lib qolganini payqaydilar va otalaridan bu qanday tosh ekanligini so'raganlarida bu toshni Jabroil alayhisalom jannatdan olib keganligini aytadilar". Boshqa bir hadisi sharifda "Hajarul asvad" toshi dastlab oppoq rangda bo'lganligi, insonlarning gunohlari sababli u qopqora tusga kirib qolganligi" ham aytiladi. Navoiy nazdida so'z ham jannatda, u yerga dahldor emas.

**Tutib gavharlari yaksar jahonni,**

**Nechukkim hayli axtar osmonni.(2;6)**

Ushbu baytda Alisher Navoiy tashbeh sa'anti bilan bir qatorda husni ta'lil (arabcha "chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko'rsatish san'ati. 10.27) san'atini ham mohirona qo'llaydi. Navoiy so'zlarni misli yo'q, qimmatbaho gavharlarga o'xshatib jahonni har yerini tutganligini qayd etadi, keyingi misrada so'zlar jahonni egallashini go'yoki osmonni yulduzlar qoplab olganligiga o'xshatadi, O'quvchi tasavvurida so'zlarni yulduzlarga o'xshatish barobarida, yulduzlar osmonni qanday qoplab olgan bo'lsa, so'zlar ham jahonni shunday qoplab olgan deyish orqali fikrini chiroyli dalillaydi.

Keyingi baytda Alisher Navoiy ustozini Xusrav Dehlaviyni tasvirlar ekan, dunyoda hech kim shakar sochuvchi hinduiyzoda Dehlaviydek gavhar ulasholmaganligini qayd etadi.

**Kishi mundoq bo'la olmay guharrez,  
Magar ul hinduyi zoti shakarrez.(2;7)**

Alisher Navoiy Xusrav Dehlaviyni tasvirlar ekan ruju' hamda tashbeh san'atini yonma-yon qo'lash orqali ustozining tarifi - tavsifini go'zal satrlar orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantiradi.

**Ne hindu, to'tiyi shirin maqol u,  
Ne to'ti, bulbuli sho'rida hol u. (2;7)**

Bu baytda Navoiy go'yo yuqoridagi fikridan qaytgandek bo'ladi, ammo fikr yanada kuchaytirilib, Dehlaviy tasvifi ortib boradi. Yo'q sen uni hinduiyzoda dema, u shirinsoz to'ti de. keying misrada, uni to'ti ham dema balki uni parishonhol bulbul deb ata” deyish orqali Dehlaviyni dastlab to'tiga, so'ng parishonhol bulbulga o'xshatadi.

Dehlaviy tarifi keyingi baytlarda ham xuddi shu usulda kuchaytirib boriladi.

**Bo'yig'a nazm solg'on xulla axzar,  
Dema to'ti, degil Xizri payambar. (2;8)**

Ushbu baytda Alisher Navoiy Dehlaviy obrazini yaratishda to'rt xil badiiy san'at uyg'unligida ustozlarini tarifu-tavsif qiladilar. Dastlabki misrada Dehlaviy egnida nazm yashil ipakdan to'qilgan to'n yopingan” deya tasvirlanadi. Bizga ma'lumki Xizr payg'ambar eginlarida yashil mo'yna bo'lgan. Bu haqida Imom Navaviy “Tahzibul asmo va lug'ot” kitoblarida (Imom al Buxoriyning “As-Sahih” kitoblarida rivoyat qilingan) “Payg'ambar (s.a.v) uni Xizr deb atalishining sababi , mo'ynaning ustida o'tirgan edi,bir vaqt mo'yna uning ortidan yashil holda silkindi”-deydilar”. Bundan tashqari Xizr so'zi “yashil”, “zangori” ma'nolarni ham anglatadi. Bu baytda Navoiy Dehlaviy egnidagi nazm yashil ipakdan to'n borligini Xizr paygambar orqali chiroyli dalillaydi, Alisher Navoiy Dehlaviyni Xizr payg'ambarga tashqi o'xshashlikda tasvirlashdan tashqari ichki o'xshashlik mavjudligigiga ham ishora

keltiradi. Ulamolarning iltifotiga ko'ra, Xizr – Alloh Taolo rahmat va ilm bilan fayzlantirgan solih bandalardan edi. Navoiy nazdida Dehlaviy ham Xizr paygambardek Alloh Taolo tomonidan ilm bilan fayzlantirilgan edi.

Baytda uni to'ti dema, Xizr payg'ambar degil deyish orqali ruju' san'ati, Xizr payg'ambarni yodga olish orqali esa talmeh (nazar somoq. She'r yoki nasrda mashur tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, afsonalarga ishora qilish sa'ati 10,41) san'ati yuzaga kelgan.

“Farhod va Shirin” dan tahlilga tortilgan baytlar asosida xulosa qilish mumkinki, ko'p asrlik mumtoz adabiyotimizning bezavol xazinasini yaratgan Alisher Navoiy mumtoz she'riy san'atlardan o'rnida va me'yorida foydalangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: Badiiy adabiyot, 1964. Porso Shamsiyev nashri. -432b
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1989. Doston matnini Porso Shamsiyev nashrga tayyorlagan. -592b
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami 20 jildlik, 8-jild. Toshkent: Fan, 1991. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni asosida Suyuma G'aniyeva – 647 b.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: O'qituvchi. 2006. Vahob Rahmonov nashri, lotin yozuvida- 405b
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 1-tom. Fan, Toshkent: 1983-656b
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 2-tom. Toshkent: Fan, 1983-644b
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 3-tom. Toshkent: Fan, 1984-649 b.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 4-tom. Toshkent: Fan, 1985-636b
9. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. Botirbek Hasanov tomonidan tayyorlangan. Toshkent: Fan, 1993-375b
10. A. Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: Sharq. 1998 -160b

## BUXORO VILOYATI DAVLAT ARXIVINING INNOVATSION FAOLIYATI

**Murodova Dilrabo Shomurodovna**

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro viloyati davlat arxivining zamonaviy faoliyatidagi raqamlashtirish jarayonlari va soha rivojida qo`llanilayotgan innovatsiyalar to`g`risida ma`lumotlar beriladi.

**Kalit so`zlar:** Arxiv, hujjat, raqamlashtirish, saqlov birligi, shaxsiy tarkib, elektron arxiv, ijtimoiy-huquqiy so`rov, mavzuli so`rov.

Buxoroi Sharifning XX asr tarixini yoritishda Buxoro viloyat Davlat Arxivi (BVDA) fondlarida saqlanayotgan manbalar va ularning ilmiy ahamiyati nihoyatda kattadir. Tarixiy tadqiqotlarning manbaviy asosini shakllantirish va milliy-madaniy boylik hisoblangan yozma va tasviriy hujjatlar bilan muntazam ravishda jamlab borish va ularni but saqlanishini ta'minlashda davlat arxivlarining o`rni muhimdir.

BVDAning 2019 yil yanvar holatidagi umumiy fondi 781 tani tashkil etadi. Hujjatlarning saqlov birligi esa 243.108 tadan iborat. Hozirgi umumiy fonddagi boshqaruv hujjatlari 205.813 ta saqlov birligidan iborat. 2020 yil 01. 01 holatida esa jami 820 ta fond bo`lib, ularda 346496 saqlov birligidagi hujjatlar mavjud. Shundan 215450 saqlov birligida boshqaruv hujjatlari, 40947 saqlov birligida shaxsiy tarkib hujjatlari, 781 saqlov birligida esa shaxsiy kelib chiqish hujjatlari, 89318 saqlov birligidagi vaqtinchalik saqlanadigan hujjatlardir. 2020 yilda jami 488 saqlov birligidagi 111592 kadr, jami esa 3.114 saqlov birligidagi 607.366 kadr alohida qimmatli hujjatlar raqamlashtirilgan.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma`naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi,

zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida prezidentimiz tomonidan 2020 yilga “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berilgandi. Shu munosabat bilan, belgilangan sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, aholiga qulaylik yaratish maqsadida prezidentimiz tomonidan davlat arxivi tizimini elektron shaklga o'tkazilishi masalasi ham ilgari surildi. Quvonarlisi shundaki, BVDA da bu boradagi ishlar 2015 yildan boshlangan bo'lib, 2020 yil fevral holatiga raqamlashtirilgan hujjatlarning saqlov birligi 1667 tani tashkil etadi. Bugungi kunga kelib BVDA tomonidan jami 368977 ta hujjat raqamlashtirilgan.

BVDA direktori Abbosova S.I.ning ma'lumotiga ko'ra, viloyat arxivida “Arxiv fondi” deb nomlangan dasturiy ta'minot yaratilgan bo'lib, unda BVDA dagi fondlar ro'yxati, ro'yxatlar, ularning topografiyasi raqamlashtirilgan shaklda saqlanmoqda. Shuningdek, raqamlashtirilgan alohida qimmatli hujjatlar bazaga joylashtirilgan. Bundan tashqari, alohida qimmatli hujjatlar, ya'ni qarorlar, farmoyishlar va ularning mohiyatini yorituvchi tayanch atamalar ham dasturga bosqichma-bosqich kiritilmoqda. Viloyat arxivida shaxsiy tarkib hamda boshqaruv hujjatlari ro'yxatlari ham raqamlashtirilmoqda. Shaxsiy tarkib hujjatlari bazasi tez kunda “O'zarxiv” agentligi tomonidan yaratilayotgan tizimga kiritilishi rejalashtirilgan. Raqamlashtirish ko'lamini oshirish maqsadida BVDA da “aursoring” xizmati tashkil etilgan bo'lib, axborot xavfsizligini ta'minlash va arxiv xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida ushbu jarayonga arxiv xodimlarining o'zi jalb qilingan. Viloyat arxividagi shaxsiy tarkib hujjatlari 36.526 ta saqlov birligini tashkil etadi<sup>18</sup>. Shaxsiy kelib chiqish hujjatlari esa 781 ta saqlov birligidan iborat. 2009-2017 yillarda Buxoro idoralararo Shaxsiy tarkib hujjatlari arxivi alohida faoliyat yuritgan bo'lib, bino bilan bog'liq muammolar tufayli yana BVDA ga qo'shib olingan. Shaxsiy tarkib hujjatlari orasida nafaqat Buxoro, balki, O'rta Osiyo xalqlarining boy turmush tarzi, urf-odat va an'analari, me'morchilik san'ati, etnografiyasi, xududda olib borilgan

<sup>18</sup> Краткий справочник по фондам.-Б.2008.- 64 б.

arxeologik tadqiqotlarga oid boy ma'lumotlar saqlanadi<sup>19</sup>. Shaxsiy tarkib hujjatlari tarkibida Buxoro Davlat Universitetida faoliyat yuritgan professor-o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar va rahbar kadrlarga tegishli hujjatlar ham saqlanadi<sup>20</sup>. Bugungi kunda viloyat arxivi aholiga ijtimoiy-huquqiy masalalarda ham yaqindan yordam berib kelmoqda. BVDAga 2021 yil 1-yarim yillik davomida 2892 ta ijtimoiy-huquqiy so'rov va 349 ta mavzuli so'rov kelib tushgan. Ijtimoiy-huquqiy so'rovlar asosan, fuqarolarning oylik ish haqi, ish staji bilan bog'liq ma'lumotlardan iborat. Mavzuli so'rovlar esa fuqarolarning uy-joy, mol-mulklari bilan bog'liq masalalar bilan bog'liq. Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida 2017 yildan boshlab viloyat arxivida Infokiosk o'rnatilgan bo'lib, unda BVDAning Nizomi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, shaxsiy tarkib hujjatlari va fondlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan. Bu esa arxivga tashrif buyuruvchi fuqarolar uchun qulay imkoniyatlar yaratilganligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayrami arafasida “O'zarxiv” agentligi tizimida Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan 2021 yilga mo'ljallangan “Yoshlar Dasturi” ga ko'ra 2021 yil 7-8 iyun kunlari Buxoro shahrida bo'lib o'tgan “Yosh arxivchilar Forumi”da ham “Elektron arxivlar: arxivlar faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiya” mavzusidagi konferensiya ham tashkil etildi. Tadbir doirasida respublika arxivlarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh mutaxassislar sohaga oid yutuq va muammolar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan istiqbolli rejalar bo'yicha taklif va mulohazalarini muhokama qildilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Краткий справочник по фондам.-Б.2008.- 64 б.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1235-fond,1-ro'yxat ,5-yig`majild, 224-varaq.
3. Инсон хотираси муқаддас.Т.:Фан,2007.- 50б.

<sup>19</sup> Buxoro viloyat davlat arxivi, 1235-fond,1-ro'yxat ,5-yig`majild, 224-varaq.

<sup>20</sup> Инсон хотираси муқаддас.Т.:Фан,2007.- 50б.

## JAMIYATIMIZDA OILANING TUTGAN O’RNI VA UNING HUQUQIY ASOSINI MUSTAHKAMLASH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

**Teshayeva Yulduz Hakim qizi**

Buxoro davlat universiteti tarix fakulteti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi roli va oilaning huquqiy asosi sifatida Prezidentimizning “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmonidan o’rin olgan masalalar xususida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** oila, tarbiya, ta’lim, Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, jamiyat, mahalla, millat, ijtimoiy qatlam, madaniyat, ayollar huquqi, gender tenglik.

Sharq mamlakatlarida oila qadimdan muqaddas maskan sifatida ulug’lab kelingan. Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Oila - bu kichik Vatan. Bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan. Oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma’naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog’lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iboratdir. Bu – har bir millat, har bir davlat, har bir xalq zimmasidagi sharaflig vazifa.

Oila jamiyatning bir bo’lagi, shunday ekan, inson shaxsini shakillantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo’lib, biologik, ijtimoiy guruh munosabatlarining birlashuvi natijasida vujudga keladi. Inson axloqiy, ma’naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada quriladi. Yosh avlod tarbiyasining izchil va tartibli amalga oshirilishida oila muhiti muhim rol o’ynaydi. Prezidentimizning “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmonidan o’rin olgan 71-maqсадda “Yangi O’zbekiston - ma’rifatli



jamiyat”<sup>21</sup> konsepsiyasi ilgari suriladi. Buning uchun oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash kerakligi aytib o’tiladi. Ma’rifatli jamiyat – yuksak tarbiyali, ziyoli va ilmga chanqoq insonlar jamiyati demakdir. Bunday jamiyat qurishning asosida birinchi navbatda oila instituti muhim o’rin egallaydi.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an’analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo’lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e’tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg’ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug’bek va boshqalargacha o’z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a’zolari o’rtasidagi o’zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o’rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida ahamiyat berganlar. Yusuf Xos Xojib mashhur “Qutadg’u bilig” asarida bola tarbiyasi haqida to’xtalib shunday deb yozadi: “Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo’lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug’ bo’ladi”<sup>22</sup>. Yangi taraqqiyot strategiyasida aholini kitobxonlikka da’vat qilish va “Kitobsevar millat”<sup>23</sup> umummilliy g’oyasini amalga oshirish yetakchi maqsadlardan biri qilib belgilanganligining tub zamirida ham bilimga, ma’rifatga bo’lgan e’tibor yotadi.

The study of synonyms is especially indispensable for those who learn English as a foreign language because what is the right word in one situation will be wrong in many other, apparently similar, contexts. It is often convenient to explain the meaning of a new word with the help of its previously learned synonyms. This forms additional associations in the student's mind, and the new word is better remembered. Moreover, it eliminates the necessity of bringing in a native word. And yet the discrimination of synonyms and words which may be confused is more important. The teacher must show that synonyms are not identical in meaning or use and explain the difference between them by comparing and contrasting them, as well as by showing in what contexts one or the other may be most fitly used.

Translation cannot serve as a criterion of synonymy: there are cases when several English words of different distribution and valency are translated into mother tongue by one and the same word. Such words as *also*, *too* and *as well*, all translated by the Uzbek word *ham*, are never interchangeable. A teacher of English should always stress the necessity of being on one's guard against mistakes of this kind. Every writer has to make up his mind right from the start as to which of the possible synonyms he prefers, and stick to it throughout his text to avoid ambiguity. Thus, the interchangeability is, as it were, theoretical and cannot be materialized in an actual text. The same misunderstood conception of interchangeability lies at the bottom of considering different dialect

names for the same plant, animal or agricultural implement and the like as total (absolute) synonyms.

In conclusion, we can stress that even if there are some synonyms which *are* interchangeable, it is quite certain that there are also others which are not. A criterion, if it is a criterion at all, should be applicable to all synonyms and not just to some of them. Otherwise it is not acceptable as a valid criterion.

### References

1. Abayev V.I. “Synonyms and their Semantical Features” T. O’qituvchi 1981 pp. 4-5, 8, 26-29.
2. Akhmanova O.S. Lexicology: “Theory and Method”. M. 1972 pp. 59-66.
3. Arnold I.V. “The English Word” - M. High School 1986 pp. 143-149.
4. Buranov A. Muminov J. “Readings on Modern English Lexicology” T. O’qituvchi 1985 pp. 34-47.
5. Cruse D. A. «Lexical Semantics». - Cambridge 2001.
6. Ginzburg R.S. et al. “A Course in Modern English Lexicology”. M., 1979 pp.72-82.
7. Smirnitsky A.I. “Synonyms in English” M.1977 pp.57-59, 89-90.
8. Davidson D., Harman G. [Eds.] Semantics of Natural Language. – Dordrecht: Reidel, 2008. – 496 p.
9. Juan Shao. Synonymy and Lexical Priming -- A Cross-Linguistic Investigation of Synonymy from Corpus and Psycholinguistic Perspectives. - 29th March, 2018
10. Li C. [Ed.] Subject and topic. Ed. By C. Li. – New York: Harcourt, Brace and World, 2006. – 584 p.
11. Lyons, John. - Semantics. – Vol. 2. – Cambridge: Camb. Univ. Press, 2008. – P. 374-897
12. Quine W.V.O. Word and Object. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 2008. – 525- p

## РОЛЬ ВОСТОЧНЫХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ РУССКОГО ЯЗЫКА

Исроилова Дилором Тулкин кизи

Гулистанский государственный университет

**Аннотация:** В статье рассматриваются лексические заимствования из восточных языков. Восточная лексика анализируется с разных точек зрения в научной литературе, но обычно они представляют один аспект исследования или проецируются на единый набор восточных заимствований.

Объектом данного исследования являются лексические заимствования из восточных языков.

Значительное внимание уделяется восточным заимствованиям, которые нуждаются во всестороннем, многомерном и более детальном изучении как самостоятельный объект.

Обосновывается мысль о том, что человеческие знания и представления о мире вербализуются с помощью слов и форм слов, а результаты познавательной деятельности человека воплощаются в возникновении и развитии понятий.

**Ключевые слова:** интернационализация, лингвистическая тенденция, мультиконтактность, восточные заимствования, иноязычия, актуализация, тюркизмы и др.

Как все мы знаем, наиболее важным источником для изучения истории людей является язык, потому что именно язык, особенно его словарный состав, передает все аспекты жизни людей.

Кроме того, язык отражает национальную историческую связь между народами, с помощью которого можно получить ответы о взаимном влиянии национальной культуры и истории. Представление процесса заимствования

происходит в рамках межъязыковых отношений. Можно сказать, что эти процессы являются устным отражением непрерывного взаимодействия этнических групп, наций и культур. Наиболее подвержен изменению и изменению со временем уровень словарного запаса языковой системы, определяемый различными экстралингвистическими факторами.

На современном этапе развития русского языка можно наблюдать коммуникативно-когнитивную потребность в увеличении и гибкости номинативных средств, что обуславливает интенсивное проникновение иноязычных лексем в русский язык. Это объясняется, во-первых, действием общеязыковой тенденции к интернационализации русского словарного состава, во-вторых, – усилившимися потребностями в номинации новых предметов и понятий, входящих в российскую жизнь.

Заимствование новых слов представляет собой естественный и закономерный процесс, один из важнейших механизмов процесса неологизации языка наряду с внутренними ресурсами языковой системы и структуры. В связи со сказанным изучение заимствованной лексики явилось «одним из значимых явлений для современного русского языка. Это мотивируется тем, что заимствование влечет за собой изменения, которые затрагивают все уровни языковой системы: фонетический, словообразовательный, морфологический и др.

С конца XX века вместе с процессом интенсификации заимствования новых слов активизируется и другой процесс – процесс актуализации ранее заимствованной лексики. Отличительной чертой процесса заимствования на современном этапе является и его многоконтakтность: к традиционным активным языкам-донорам прибавляются новые языки-источники.

Многие элементы восточных реалий вместе с языковыми единицами как наименованиями этих реалий вливаются в русский язык, адаптируются в нем.

«Как невозможна жизнь государств, стран и народов без экономического, политического, культурного и других видов сношений, так и немыслимо

общение без вытекающего как следствие этого взаимообогащения словаря ...»[1].

Во многих научных исследованиях заимствование рассматривается как трансфер единиц одного языка в другой; единицы, подвергшиеся такому трансферу, постепенно адаптируются в системе языка-реципиента.

«Сторонники другой теории заимствования – теории аналогии, не принимая «ключевое слово» *переход* в традиционной трактовке данного процесса, объясняют заимствование как создание средствами принимающего языка лексических единиц по иноязычным образцам ...» [2], то есть заимствования считаются образованиями внутри языка- реципиента. По словам Е.В. Мариновой, указанные теории заимствования объединяет то, что в обеих концепциях подчеркивается деятельностный характер языка; можно также отметить и то, что в любом случае заимствование ведет к обогащению языка новыми единицами [3].

Особенно актуально данное утверждение применительно к современному этапу процесса заимствования, в связи с этим можно отметить:

- переоценку социальных и нравственных ценностей и смещение акцентов с партийных приоритетов на общечеловеческие;
- ориентацию на Запад в области политической структуры государства, экономики, в сферах культуры, моды, спорта, музыки, торговли и др.

В разные эпохи развития России на ее авансцену выходили разные социокультурные ориентации: Киевская Русь демонстрировала сильное византийское влияние, Московская – влияние восточных языков, начиная с Петровской эпохи, вектор развития России был направлен в сторону Запада. Таким образом, многоконтактность всегда была характерна для языковой ситуации Русского государства. Однако в связи с ориентацией русской идеологии на европейские государства значимость такой составляющей процесса заимствования, как восточное влияние, зачастую преуменьшалось, «адаптированные же в русской языковой системе восточные лексемы

воспринимались как этнознаки русской культуры» [4]. Однако именно заимствования из восточных языков представляют одну из наиболее значимых страниц в развитии словарного состава русского языка. З.К. Тарланов справедливо утверждает «что русско-восточные культурно- исторические контакты, сложившись на заре русской государственности, не прерывались на протяжении всей ее истории и тем самым по своей продолжительности и плотности превосходили соответствующие русско- западные контакты» [5]. Явления восточной культуры и быта в значительной мере отразились в этногенезе и культуре, архитектуре и орнаменте, в употреблении предметов домашнего обихода и некоторых деталей быта и обычаев, в фамилиях и прозвищах, в топонимах и гидронимах русского языка и русской культуры в целом.

Таким образом, как и любые другие иноязычия, восточные заимствования отражают определенные исторические этапы языковых контактов русского народа с разнообразными восточными этносами, при этом вклад каждого конкретного языка в пополнении лексического состава русского языка не одинаков.

Начиная с исходного языка, заимствованные слова могут не только подвергаться ассимиляции (различный характер), но и оставаться в положении экзотики (название страны) и варварства (наименее освоенный вид заимствования).

Принято рассматривать не только слова, прямо заимствованные из тюркского языка, но и слова, входящие в русский язык косвенно через тюркский язык. Иными словами, слово сначала было введено в тюркский из того или иного исходного языка, а затем заимствовано из русского. Или, наоборот, любой язык заимствовал тюркские исходные слова, а затем ввел их в русский язык. Поэтому так принято называть все слова, происходящие из тюркского языка, независимо от исходного языка. Основная часть тюркского языка в русском была от шестнадцатого до семнадцатого веков.

Чтобы облегчить изучение и систематизацию, заимствованная лексика часто классифицируется. Группировка может быть основана на различных флагах. Что касается словарного запаса, то одним из наиболее удобных оснований для классификации является предметная ссылка.

Распознать тюркский в русском языке можно по нескольким фонетическим символам. Один из них - гармония гласных, что означает повторение одной и той же гласной в слове. Примерами тюркского языка в русском языке могут быть бриллианты, тараканы, чугуны, обувь, грудь и т. Д. Еще один знак, заимствованный из тюркских, - окончание -ча и -лик: каланча, саранча, парча, таг, башлык, шашлык. Наконец, это часто встречается в названиях мест.

На наш взгляд, к странам Востока можно отнести, помимо государств Ближнего и Среднего Востока, Северо-Восточной, Юго-Восточной и Южной Азии, еще и народности России и бывших советских республик с восточным менталитетом.

В процессе усиления научного интереса к проблеме восточного влияния на русский язык происходит детализация определения рассматриваемого термина. Наглядное изменение объема и содержания данного наименования можно наблюдать в диахроническом аспекте.

В более поздних работах трактовка рассматриваемого термина практически не меняется. Так, в работе И.У. Асфандиярова «Восточная лексика в русском языке» находим: «До самого последнего времени заимствования русским языком тюркских (тюркизмы) и заимствования через тюркские языки из восточных в специальной литературе даются недифференцировано, как тюркизмы» [6].

«Синонимичные данному понятию терминологические словосочетания «восточные заимствования», «восточная лексика», «восточные слова», обозначают в первую очередь тюркскую лексику, а также арабские, персидские, монгольские слова, обогатившие словарный состав тюркских языков и, как правило, попавших в русский язык через посредство соседних тюркских народов» [7].



На современном этапе наблюдается расширение объема понятия «восточные языки», в которое включают и языки восточноазиатского региона.

Постоянное обогащение русского языка иноязычными элементами, их разная адаптация, увеличение этимологического, тематического, функционального разнообразия инолексем приводит к сложности, многоуровневости пласта иноязычных слов в русском языке.

Отсутствие единой типологии лексических единиц ведет к терминологическому разнообразию в системе специальных наименований. лингвокультурный концепт представляет собой многомерный ментальный комплекс, а означает, есть много способностей для построения виртуальных моделей. Хотя лингвисты по-разному структурируют концепт, но все сходятся во мнении, что в состав концепта входит много слоев. Человек мыслит концептами.

Состав слов тюркского происхождения разнообразен. Он включает в себя: названия блюд, напитков (азу, айран, балык, кумыс, бешбармак, долма, каймак, урюк); названия одежды и головных уборов (архалук, армяк, епанча, бешмет, ермолка, клобук); названия тканей, материи (атлас, парча); названия жилых и хозяйственных построек (айван, арык, сераль, духан); названия растительного мира (аир, алыча, саксаул, кок-сагыз, скумпия); названия животного мира (бактриан, джейран, каракал, сайгак, кулан); лексика, связанная с коневодством (каурый, чалый, буланный, караковый); названия по профессии, возрастным, социальным признакам (аксакал, ашуг, басмач); названия понятий и предметов, связанных с особенностями восточной культуры (мечеть, намаз, курултай, сабантуй); названия селений, частей населённого пункта (аил, кишлак, майдан, каганат); сказочные герои, герои устного народного творчества (богатырь, кашей бессмертный, шайтан); названия денежных единиц (алтын, деньги).

Заимствования из арабского языка в русском языке имеют долгую историю и являются разнообразными как семантически, так и исторически.

Подводя итоги, можно сказать, что недостаточное изучение лексики тюркских диалектов может объяснить отсутствие точных выводов по тюркским

заимствованиям. В исследованиях этого типа необходимо полагаться не только на словарные данные, которые фиксируют только литературные языки, но и на диалекты, которые особенно важны, поскольку они отражают генетическую связь языков. Поэтому успех дальнейших исследований русско-тюркской лексики напрямую зависит от развития тюркской диалектики.

### Список литературы:

1. Юналеева, Р.А. Опыт исследования заимствований // Тюркизмы в русском языке сравнительно с другими славянскими языками - Казань: Изд-во Казан. ун-та, 1982. - 3 с.
2. Маринова, Е.В. Иноязычная лексика современного русского языка: учеб. Пособие – М.: Флинта: Наука, 2012. – 92 с.
3. Маринова, Е.В. Иноязычные слова в русской речи конца XX -XXI в.: проблемы освоения и функционирования / ЭЛПИС, 2008. - 495 с.
4. Габдуллина, А.Х. Когнитивные основания и лингвокультурологические факторы заимствований из японского языка: автореф. канд. филол. наук: 10.02.19– Челябинск, 2012. – 23 с.
5. Тарланов, З.К. О евразийских заимствованиях в русском языке // Русская речь. – М.: Феникс, 2006. - № 5. – 72 – 76 с.
6. Асфандияров И.У. Восточная лексика в русском языке. - Ташкент: Фан, 1991 - 38 с.
7. Габдуллина, Г.Х. Восточные заимствования в языке Московской Руси: автореф. дис. докт. филол. наук: 10.02.01 - Казань, 2011 - 5 с.

## ANDRAGOGIKANING SHAKLLANISHI VA KATTALAR TA'LIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Nimatova Moxinur Sobit qizi**

A.Avloniy nomidagi xalq muammolarini o'rganish va ularning istiqbollari belgilash  
ilmiy tadqiqot institutining magistranti

[nimatovamohinur@gmail.com](mailto:nimatovamohinur@gmail.com).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada andragogika sohasining shakllanish bosqichlari shuningdek katta yoshli inson qanday ta'lim olishi, uning o'quvchi yoki talabdan qanday farqlari borligi, ular bilan ishlashda qanday usullar samarali ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Andragogika, kattalar ta'limi, kattalar ta'limi ahamiyati, rivojlanish, uzluksiz ta'lim.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются этапы становления области андрагогики, а также то, как учится взрослый, чем он отличается от школьника и какие методы эффективны в работе с ним.

**Ключевые слова:** Андрагогика, образование взрослых, важность образования взрослых, развитие, непрерывное образование.

**Annotation:** This article discusses the stages of formation of the field of andragogy, as well as how an adult learns, how he differs from a student, and what methods are effective in working with them.

**Keywords:** Andragogy, Adult Education, Importance of Adult Education, Development, Continuing Education.

Bugungi kunda andragogika sohasi rivojlanib, katta yoshdagilarga ta'lim berish — dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Katta yoshdagilarga ta'lim berish, ularni rivojlantirish ish kuchi malakasini oshirishga xizmat qiladi. 2019-yil

“O‘zbekistonda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish: dolzarb holat va rivojlanish istiqbollari” loyihasi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada O‘zbekistonda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish boshqa joylarga qiyoslanganda juda past darajada ekanligi ma’lum bo‘lgan.

2020-yil 23-sentabr kuni «Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri Prezident tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Mazkur Qonunning 2-bob 15-moddasida ilk bor ta’lim xizmatlarini sezilarli darajada kengaytirishga asos bo‘ladigan ta’limning “oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish”, “inklyuziv ta’lim”, “katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish” kabi quyidagi turli shakllari keltirilgan. Katta yoshdagilar butun hayoti davomida bilimlarini kengaytiradi, ko‘nikma va malakalarini boyitadi va talab etiladigan kasbni egallaydi.

Katta yoshdagilar jahon mehnat bozorining xilma-xilligi bilan kurashishlari kerak bo‘lganligi uchun ba’zida yangi kasb yoki hunarni o‘rganishga majbur bo‘ladilar. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Kattalarni o‘qitish” amaliyoti va nazariyasi butun jahon tajribalaridan foydalangan holda, keng ommaga kirib keldi. Bu tajribalar bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Tarixiy bosqich: “Andragogika” deb nomlanadi. Bu esa kattalarni o‘qitish amaliyotidagi ilk g‘oya sifatida o‘rganiladi. Bu g‘oya 100 yil davomida uzluksiz o‘rganildi.
2. XIX asrning 30 yillaridan so‘ng ko‘plab Evropa va Amerika shaharlarida ishlab chiqarish ko‘p bo‘lgani sababli kattalar o‘rtasida o‘qishga bo‘lgan talab kuchaydi. “Andragogika” atamasining birinchi marta qo‘llanilishi XIX asrning 30-yillarda Germaniya olimlari o‘rtasida juda katta munozaralarga sabab bo‘ldi. Bunda aholining ongini rivojlantirishga, ularni bilimli bo‘lishlariga katta e’tibor qaratilgan.
3. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va boshqa chet mamlakatlarda kattalarni o‘qitish uchun kechki o‘qishlar, yakshanba kunlari o‘qish, xalq maktablari, kutubxona, muzeylar va o‘quv dasturlari tashkil etildi.
4. XIX asr oxirida “Kattalarni o‘qitish”ga bo‘lgan e’tiborning ortishi bilan aholining turli qatlamlarida mustaqil o‘qishga bo‘lgan harakatlar sezilarli tarzda

kuchaydi va kattalarning ongini o‘stirish maqsadida aholi uchun madaniy-ma’rifiy ishlar olib borildi. Ushbu davrdan boshlab bunday o‘qish an’anaga aylanib bordi va turli mamlakatlarda institutlar tashkil etildi. Buning natijasida yorqin shaxslar yetishib chiqdilar. Bunday ishlarni tashkil qilishda juda ko‘p insonlar bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shunday o‘qitish natijasida Daniyalik Nikolay Gruntvig Skandinaviyada “Xalq maktablarini” tashkil etgan. Kattalarni o‘qitish jarayonida turli xil muammolar yuzaga keldi va muammolarni xalq etish uchun “Qanday o‘qitish kerak?, nima uchun o‘qitish kerak?” degan savollarga yechimlar izlana boshlandi.

5. XX asr boshlariga kelib “Kattalarni o‘qitish”dagi muammolar olimlarning ilmiy ish mavzulariga kirib keldi, ya’ni katta odamlarni o‘rganish uchun birinchi navbatda ularning ichki-ruhiy olamini, katta yoshli shaxs psixologiyasini tadqiq etish boshlandi. Shu davr nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda, tadqiqotchilar insonlarni turli yoshda ham o‘ziga xos qobiliyatlari bilan o‘qiy olishlarini isbotlab bera olishgan. Amerikalik olim E.Torndaykning “Kattalarni o‘qitish psixologiyasi” nomli kitobining nashrdan chiqishi olimlar, E.Erikson, R.Gould, O.Brim va boshqalarda kuchli qiziqish uyg‘otdi. Andragogika rivojlangani sari institutlar, alohida kafedralar, dasturlar, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shart-sharoitlar, kattalarni o‘qitish uchun o‘quv qo‘llanmalar yaratildi va bir qator kongresslar, konferensiyalar tashkil etildi. Asta-sekinlik bilan andragogikani rivojlantirish orqali mamlakatlar va olimlarning o‘zaro tajribalar almashinuvi yuzaga keldi. Shunday qilib, andragogikaning fan sifatida rivojlanishi uchun ijtimoiy sohalarda o‘qitishning quyidagi vazifalari ishlab chiqildi:

- kattalarni o‘qitish amaliyotini kengaytirish hamda murakkab ijtimoiy va shaxsiy ehtiyoji bo‘lgan o‘qitish sohasiga e’tibor qaratish;
- kattalarni o‘qitish uchun, uzluksiz o‘qitish mazmunini rivojlantirishga doir shart-sharoitlarni izlash va yaratish;
- kattalarning turli ijtimoiy vaziyatlarda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish darajasining psixologik qonuniyatlarini aniqlashtirish.

Hozirgi vaqtda andragogika pedagogika fanining katta yoshdagi shaxsni butun hayoti davomida o‘qitish, tarbiyalash va tarbiyalashning nazariy va amaliy muammolarini ochib beruvchi sohasi sifatida tushuniladi. “Andragogika” (grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, andros-erkak, odam; agogeyn-yetaklash) degan ma’noni bildiradi. Ya’ni, andragogika bu – “Katta odamni yetaklash”dir. Andragogika tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833-yilda nemis pedagog-tarixchisi A.Kapp tomonidan fanga kiritilgan. 1970-yilda M.Sh.Noulz andragogika bo‘yicha “Kattalar ta’limining zamonaviy amaliyoti”, “Andragogika pedagogikaga qarshi” nomli fundamental asarlarini nashrdan chiqardi va andragogikaning yanada rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Katta yoshdagilar qanday o‘qiydilar?

Ko‘pincha biz atrofimizdagi insonlarning “Endi mening xotiram avvalgiday emas, bizga o‘qish nimaga kerak? farzandlarim o‘qishsin” degan fikrlarni eshitib qolamiz va hattoki o‘zimiz ham shu fikrda bo‘lamiz. Biroq katta yoshlilarning ko‘pchiligi televizorda ko‘rsatilayotgan seriallar mazmunini barcha tafsilotlarigacha so‘zlab beradilar yoki oilaviy hayotning (o‘zlariniki va boshqalarniki) mayda-chuydalarini yodga oladilar. Bu bizning fiziologik va neyropsixologik xususiyatlarimizga emas, balki bu biz aynan nimani eslab qolishni xohlashimizga bog‘liq xolos. Biz o‘qish deganda partalarda o‘tirib bir yarim soat ma’ruza eshitishni tasavvur qilamiz. Lekin katta yoshli insonlar ta’limida bunday ma’ruzalarga o‘rin yo‘q. Katta yoshli insonlar ham butun hayoti davomida o‘zining yoshiga mos tarzda o‘qishlari mumkin. Kattalar guruhi bilan mashg‘ulotni rejalashtirayotganda material tayyorlash vaqtida juda ko‘p kitoblarni varaqlashga, qiziqarli misollarni tanlab, reja tuzishga to‘g‘ri keladi. Agar xohlasangiz so‘zlaydigan nutqingizning butun matnini tuzib chiqishingiz ham mumkin, natijada ko‘pchilik tinglovchilar mehnatingizning qadriga yetadilar. Lekin siz auditoriyada zerikishni boshlagan kattalar guruhini o‘zingizga jalb qilish uchun dars jarayonini boshqarishni ularning o‘zlariga topshirishingiz ham mumkin bo‘ladi. Shunda o‘zaro muhokamalar boshlanib, auditoriya faol ishtirok etishi mumkin. Kattalar ta’limi xususiyatlari bilan jiddiy shug‘ullanayotgan YUNESKO tashkiloti

ko‘p yillik tadqiqotlar natijasida kattalarga ta‘lim berishda "Kattalar uchun o‘qish quvnoq (qiziqarli) tashkil qilinishi kerak!" degan asosiy tamoyilini taklif etdi.

Psixologlar katta yoshli ta‘lim oluvchini o‘quvchi yoki talabdan farqlab turuvchi 5 ta asosiy belgini ko‘rsatadilar:

- ❖ u o‘zini tobora mustaqil, o‘zini o‘zi boshqaradigan shaxs sifatida anglaydi;
- ❖ u doimiy ravishda o‘sib borayotgan hayotiy (maishiy, kasbiy, ijtimoiy) tajribani to‘playdi, bu o‘zi va hamkasblari uchun muhim bilim manbaiga aylanadi;
- ❖ uning bilim olishga tayyorligi (motivatsiyasi) uning hayotiy muammolarini hal etish va o‘quv faoliyati yordamida aniq maqsadlarga erishish istagi bilan belgilanadi;
- ❖ u o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va qadriyat yo‘nalishlarini darhol amalga oshirishga intiladi;
- ❖ uning ta‘lim faoliyati ko‘p jihatdan vaqtinchalik, fazoviy, maishiy, kasbiy, ijtimoiy omillar (shartlar) bilan belgilanadi;

Ushbu fanda ta‘limning andragogik modeli deb nomlangan katta yoshli kishilar bilan ishlashning asosiy qoidalarini, katta yoshli kishilarga ta‘lim berish qonuniyatlarini bilish va unga amal qilgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda o‘tkazish talab etiladi.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash joizki, Andragogika –bu shaxsning o‘z ustida muntazam ishlashi va rivojlanishidir. Kattalar ta‘limining rivojlanishi nafaqat bugunning, balki kelajakning ham yutug‘i hisoblanadi. Kattalar ta‘limini rivojlantirishda albatta andragog mutaxassislarni tayyorlash ham muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda yurtimizni dunyoga tanitishda ta‘limning o‘rni beqiyosdir. Nafaqat yoshlarimiz shu qatorida kattalar ham zamonga hamnafas uzluksiz ta‘lim olib, dunyo mamlakatlari qatorida yetakchi o‘rinlarni, yangi bilimlarni egallashlari muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son qarori.
2. O‘.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva “Andragogika” Namangan-2014.
3. Мирсолиева М.Т. “Андрогогиканинг тараккиёт йуналишлари”
4. КАТТАЛАР ТАЪЛИМИНИНГ БУГУНГИ КУНДА ДОЛЗАРБЛИГИ  
С.Ачилова, СамДУ магистранти
5. Змеев С.И. Основы андрагогики. Учебное пособие для вузов. М.,1999.





## ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МУАРРИХИ ФАСИХ АҲМАД ХАВОФИЙНИНГ «МУЖМАЛИ ФАСИХИЙ» АСАРИ ХУСУСИДА

**Сардор Абдуллаев Шамсиддин ўғли**

Қарши давлат университети Тарих факультети талабаси

**Аннотатсия:** Ушбу мақолада Темурийлар даври таниқли муаррихи Фасих Аҳмад Хавофий ва унинг «Мужмали Фасихий» асари хусусида баъзи фикр-мулоҳазалар баён этилган.

**Калит сўзлар:** Амир Темур, Темурийлар, Фасих Аҳмад Хавофий, «Мужмали Фасихий», Шоҳрух мирзо, манба, солнома, Ҳирот, Рай, девон раҳбари.

Соҳибқирон Амир Темур ва темурийлар даврида яшаб, самарали ижод қилган йирик тарихнавислардан Фасих Аҳмад Жамолуддин Муҳаммад ал-Хавофий (Хофий) 1375 йилнинг 28 сентябрида Рай шаҳрида туғилган ва тахминан 1445-1446 йилларда вафот этган. У Ҳиротда таълим-тарбия олгандан сўнг, 1405 йили давлат ишлари билан Самарқандга Халил Султон саройига жўнатилиб, “Муваджаҳи девон” – девон вазири (1416-1417) ва девон бошлиғи (1417-1418) лавозимларда ишлаган. Бу даврда нуфузли амирлардан Алоуддин Али Тархон, кейин Шоҳрух мирзо саройида хизмат қилган.

У Шоҳрух мирзо томонидан Кермонга (1422-1424) юборилган. 1425-1430 йилларда Шоҳрух мирзонинг ўғли Бойсунғур Баҳодирхон саройида девон бошлиғи мансабига тайинланган. Бироқ кўп вақт ўтмай Темурийлар саройидаги хизматдан бутунлай четлаштирилган. Унинг араб тилидаги бирдан-бир асари «Мужмали ут-таворих» («Тарихий саналар йиғиндиси»)ни ёзган (1433-1442). Бу асар «Мужмали Фасихий» ҳам деб юритилади. У 1442 йил 6 майда Шоҳрух

мирзога 1354-1442 йиллар воқеаларини ўз ичига қамраб олган Темурийлар тарихига оид «Мужмали Фасихий» асарини тақдим этган.

Фасих Аҳмад Хавофий ушбу тўпламни сарой ишларидан четлатилгандан кейин, яъни 1433-1442 йилларда тuzган бўлса-да, бироқ китоб дебочасидаги ёзувда асардаги маълумотларни муаллиф илгарироқ, тарихий китобларни ўқиб юрган кезларида қисқа-қисқа тарзда ёзиб юрган. Муаллифнинг таъкидлашича «бу нусхани, - узoқ йиллар давомида улуғларнинг тарихларидан ва салафларнинг китобларидан жамлаган».

Китоб муқаддима, икки мақола ва хотимадан иборат бўлиб, муқаддима Одам Атодан тортиб Муҳаммад пайғамбарнинг таваллудигача (570—580) бўлган тарихни ўз ичига олади. Биринчи мақола «Муқаддима»нинг бевосита давоми бўлиб, «Пайғамбарнинг 53 ёшигача, яъни унинг Маккадан Мадинага қилган ҳижратига (622 йил) қадар бўлган тарихдан ҳикоя қилади. Асарнинг асосий ва катта қисмини иккинчи мақола ташкил қилиб, 622 йилдан 1442 йилгача бўлган воқеалар шарҳидан иборат. Шунингдек хотима ҳам келтирилган.

Бу қисм муаллиф ватани бўлмиш Ҳирот шаҳри ҳақидаги баъзи маълумотларни ўз ичига олиши кўзда тутилган. Асарнинг асосий қисмида муаллиф томонидан араб халифалари, саффорийлар, сомонийлар, ғазнавийлар, салжуқийлар, ғурийлар, хоразмшоҳлар тўғрисида маълумот бергач, темурийлар тарихига батафсил тўхталган. Асарда, ўша даврдаги шунингдек, шоирлар, фақиҳлар, муҳаддислар, шайхлар, шунингдек, иқтисодий ва маданий ҳаёт, ўша пайтда қурилган меъморий обидалар ҳақида муфассал маълумот берилган. Ва асар хотимаси Ҳирот шаҳрига бағишланган.

Мазкур асарда Амир Темур авлодига бағишланган «Фойда» деб аталувчи бўлим мавжуд бўлиб, асарда тарихий далил ўзига хос бир йўсинда шарҳланганки, воқеалар жараёни бир-бирига узвий боғланган, турли-туман тафсилотлар жуда қисқа тарзда баён қилиниб, содир бўлган йиллари тартиби билан жойлаштирилган. Мазкур асарнинг Ҳавофий яшаган даврга ва бунга

бевосита яқин бўлган йилларга оид маълумотлари, яъни асар иккинчи мақоласининг охири қисми қимматлироқ дейиш мумкин.

Шу боисдан ҳам, асарни нашрга тайёрлаган Махмуд Фаррух ундаги 1301—1442 йиллар воқеаларинигина киритган, халос. Бу даврда содир бўлган сиёсий воқеа асарда Ўрта Осиё ва Ўрта Шарқ мамлакатларида мўғуллар ҳукмронлигининг инқирозга учраб, аста-секин емирилиб бориши, ажнабий ҳукмдорлар зулмига қарши маҳаллий аҳоли орасида норозилик ҳаракатлари акс эттирилган. 1365 йили Самарқанддаги сарбадорлар ҳаракати тобора кучайиб, мўғуллар инқирозини тезлаштирганлиги ва улар давлати ўрнида Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва юксалиши каби муҳим воқеаларнинг хулосаси қисқа баён этилиб, саналари билан кўрсатилган.

Асарда маданий турмушга, шоирлар, олимлар каби ўз даврининг кўзга кўринган зиёлилари ҳаётига оид маълумотлар ҳам жуда кўп учрайди. Хавофий айрим шахслар тўғрисида гапирар экан, уларнинг ёзиб қолдирган асарлари, вафот қилган йили, баъзан туғилган йилларини ҳам албатта қайд ўтган. Масалан, «Нузҳат ал-арвоҳ» («Рухлар хузурида») асарининг муаллифи Амир Саййид Олим ал-Хусайний вафот қилган йилини (1318 йил 11 декабрь) келтириб, шу билан бирга Хиротда вафотини айтади, унинг тасаввуфда шуҳрат топганлигини, Баҳовуддин Закариё Мўлтонийнинг муриди бўлганлигини ва бир қанча асар ёзганлигини ҳам зикр этган.

Асарда Темурийлар даврида олиб борилган ободончилик ишлари ҳақидаги маълумотларнинг мавжуд бўлиб, бу даврда бунёд этилган йирик мадрасалар, қазилган ариқлар ва бошқа ишларнинг бажарилган йилларини ҳам Хавофий мунтазам равишда қайд қилиб борган. Муаррихнинг маълумотича, Амир Темур Чингизхон даврида харобага учраган Банокат мавзеидаги шаҳарни 1382 йилда қайтадан тиклаб, унга Шоҳрухия деб ном берган. Шунингдек, 1403 йили Амир Темур Байлақон шаҳрини (Аракс дарёсининг Кура қўшиладиган ерида жойлашган) ҳам қайтадан тиклаган ва у шаҳарга сув келадиган Барлос канали

(Наҳри Барлос)ни қаздирган. 1404 йили эса Шохрух мирзо фармони билан Ҳирот шаҳри, унинг дарвозалари ва буржлари қайта тикланган.

Алломанинг диққат марказида ҳар хил табиий офатлар, халқ бошига тушган қийинчиликлар ҳам бўлган. Асарда 1337 йили Ҳирот вилоятларидан бири бўлмиш Ҳавофда, 1363 йили Ҳиротда, 1405 йили Нишопурда содир бўлган зилзилалар, 1350 йили Яздда, 1388 йили Табризда, 1406 йили Ҳиротда содир бўлган очарчилик ва қаҳатчилик, 1345 йили Хоразмнинг Журжониясида (Кўҳна Урганчага яқин), 1346 йили Табризда, 1459 йили Озарбайжонда тарқалган вабо касаллиги ҳақидаги маълумотлар ҳам келтирилганлиги диққатга сазовордир.

Фасиҳ Ҳавофий Соҳибқирондан сўнг тирик ўғли ва набиралари 36 нафар эканлигини ёзиб қолдирган. Айниқса, улар орасида Шохрух мирзо (1377-1447) ва унинг ўғли Мирзо Улуғбек (1394-1449) алоҳида ҳурмат билан тилга олиб ўтилган. Шу давр муаррихлари тахт эгалиги кўпроқ Шохрух мирзони маъқул кўриб, унинг инсоний сифатларига юқори баҳо берган, чунки у тахт эгаси бўлишидан аввал оқил ва илмли, зукко ва тақводорлик сифатлари билан ҳурмат қозонган эди.

«Мужмали Фасихий» асари муаллифи ўзи яшаган даврга оид маълумотларни кўп ҳолларда кўриб-билганлари асосида ёзган, чунки у умрининг анчагина қисмини Темурий ҳукмдорлар хизматида ўтказганлиги учун, ўз даври ҳаёти билан яқиндан таниш бўлган, Соҳибқирон кўли остидаги вилоятларнинг аксариятини иш жараёнида бориб кўрганлиги диққатга сазовордир дейиш мумкин.

Асар бизнинг давргача кам нусхада етиб келган. Шундай асар мавжудлиги ҳақида фақат XIX аср охирларидагина илмий адабиётда қисқача маълумотлар келтирилган. Бу асар ўз даврида В.В.Бартольд, Э.Браун, В.Розен, Дорн, Х.Раверти сингари олимлар эътиборини тортган эди.

Муаррих воқеаларни бетараф туриб ёритишга интилганлигини бир нечта тадқиқотчилар қайд этишган. Масалан, таниқли рус шарқшуноси В. В. Бартольд асарга шундай баҳо берган эди: «Шохрух даврида Аҳмад ибн

Муҳаммад Фасиҳ ал-Хавофий ўзининг сарой кирдикорларидан холи бўлган «Мужмали Фасиҳий» номли асарини яратди. Бу асар катта бир тарихий жараёни ўз ичига олган бўлиб, унда воқеалар йилма-йил, бирин-кетин баён этилган. Асар мухтасар бўлишига қарамай, жуда фойдалидир, у бизга Ўрта Осиё ва Эрон шайхлари ҳамда адиблари ҳақида янги маълумотлар беради».

Демакки, «Мужмали Фасиҳий» асари ўзига хос солнома бўлиб, «дунёнинг яратилиши»дан муаллифнинг замониғача Шарқ мамлакатларида, шунингдек Мовароуннаҳр ва Хуросонда бўлиб ўтган муҳим воқеалар, машҳур кишилар, олимлар, шоирлар, давлат арбоблари, рассомлар, бунёд этилган муҳташам бинолар (масжид, мадраса, карвонсарой ва сув иншоотлари) ҳақида қимматли маълумот беради. Бўлиб ўтган воқеалар асарда йилма-йил кўрсатилган, бу ҳол ундан фойдаланишни бир мунча енгиллаштиради.

Мазкур асар матни 1961-1963 йилларда Эронда, унинг рус тилига қилинган таржимаси (фақат иккинчи қисми) Тошкентда 1980 йили чоп этилган

Хуллас, Фасиҳ Аҳмад Хавофийнинг «Мужмали Фасиҳий» асари XIV— XV асрдаги Марказий Осиё халқларининг сиёсий ва маданий ҳаётига оид қимматли манба бўлиб, унда келтирилган тарихий воқеалар, саналар ва бошқа маълумотлар Амир Темур ва темурийлар даври тарихини янада теранроқ ўрганишга яқиндан кўмаклашадиган мўътабар манбалардан бири ҳисобланади.

### **Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати**

1. Юсупова Д.Ю. Мужмали Фасиҳи как источник по истории Средней Азии и Среднего Востока. –Т., 1974. с.26
2. Юсупова Д.Ю. “Мужмали Фасиҳи” – свод исторических сведений XIV-XV вв. – ОНУ, 1972, №, с.61-64
3. Юсупова Д.Ю. Фасиҳ Аҳмад Хавофий. – Маънавият юлдузлари. –Т.: “Халқ мероси”, 2001, Б.249-252
4. Ражабов Қ. Фасиҳ Аҳмад Хавофий. – ЎзМЭ, 9-ж, -Т.: ЎзМЭ ДИН, 2003, Б.208

5. Фасих Аҳмад Ҳавофий. “Мужмали Фасихий”дан. Форс тилидан Д. Юсупова таржимаси. – Темурийлар бунёдкорлиги даври манбаларида. Т.: “Халқ мероси”, 1996, Б.113-157
6. Юсупова Д.Ю. Фасих Аҳмад Ҳавофий “Мужмали Фасихий”дан. –Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. –Т.: “Ўқитувчи”, 1996, Б.194-224
7. Фасих Аҳмад ал-Ҳавофи. “Мужмал-и Фасихи” (“Фасихов свод”) – Пер. с перс., примеч и указат. Юсуповой Д. –Т., 1980. –346 с.
8. Дадабоев Ҳ. Амир Темур даврдошлари. –Т.: “Navoi universiti” НМУ, 2018, Б.193-194
9. Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв.. Т.,1988
10. Юсупова Д.Ю. Фасих Аҳмад Ҳавофий. –Буюк сиймолар, алломалар, 2-китоб, -Т.: “Халқ мероси”, 1996, Б.95-97
11. Амир Темур жаҳон тарихида. 2-нашри, -Т.: «Шарқ», 2001. Б.204



## XOR IJROSIDA DIKSIYANING AHAMIYATI

**Nuraliyeva Zuhra Anvarovna**

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi akademik xor dirijorligi yo'nalishi

2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: dotsent **Y. M. Xusnitdinova**

**Annotatsiya:** ushbu maqola xor ijrosida diksiyani rivojlantirish va xorda uchraydigan diksion muammolarni bartaraf etish uchun tadqiq qilindi.

**Kalit so'zlari:** xor san'ati, diksiya, artikulyatsion apparat, orfoepiya, xonandalar, xormeyster, tovush, she'riy matn, intonatsiya, kompozitsiya.

*“Yaxshi aytilgan so'z-uning yarim kuylanganidir”*

**F. I. Shalyapin**

Xor san'ati – musiqa va she'riy ijodiyotni organik birlashtiruvchi san'atdir. Xor ijrochiligida she'riy matnning tinglovchilarga yetkazib berishda xor diksiyasiga– unli va undosh tovushlarning talaffuzi va orfoepiya –adabiy tilda qabul qilingan talaffuz me'yorlariga (fonetik va grammatik) rioya etilishiga bog'liq. Diksiya – lotincha “diction”- nutq, aniq so'z talaffuzi ma'nosini anglatadi. Xor talaffuzi qo'shiq ovozining eng muhim fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi, nafas olishni faollashtiradi, baland pozitsiyada tovushni shakllantirishga yordam beradi, yorqin va yaqin tovushga erishadi, energiyani tejamkorlik bilan sarflab, eng katta tovush kuchiga erishishga yordam beradi. So'zlarning va hatto alohida bo'g'inlarning talaffuzining aniq va ravshanligi ko'proq xonandaning artikulyar apparatining (og'iz, lablar, til, yumshoq va qattiq tanglay) harakatchanligiga bog'liq. Shuning uchun diksiya ustida ishlashda artikulyatsiya apparatini o'rgatish kerak. Xonandalarning og'ziga alohida e'tibor berish ham muhimdir. Ayrim so'zlarni kuylashda lablar konturi va og'izning ochilishi u yoki bu talaffuz qilinadigan unli tovushga mos kelishi kerak.

Xor diksiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu qo'shiq, vokal bo'lib, uni nutqdan (kundalik va sahnadan) ajratib turadi. Ikkinchidan, bu jamoaviy. Shuning uchun uni vokal va xor deb belgilash to'g'riroq bo'ladi. Xor bilan diksiya ustida ishlaganda xormeysterlar odatda xonandalarga undosh tovushlarni iloji boricha aniq va ravshan talaffuz qilishga o'rgatishga harakat qiladilar. Lekin xonandalarni unllarni to'g'ri shakllantirish va talaffuz qilishga o'rgatish (xususan, unllarni qisqartirishni o'rgatish), nutq mantig'ining qonuniyatlari va qoidalarini o'rgatish ham birdek muhim. Qo'shiq aytishda unllarning qisqarishi turli shakllarga ega. Urg'usiz A va E dinamik ravishda zaiflashadi va fonetik jihatdan urmalilarga qaraganda kamroq yorqin talaffuz qilinadi, urg'usiz O ko'p hollarda A deb talaffuz qilinadi. Urg'usiz I “Yee” deb talaffuz qilinadi, lekin so'z oxirida u doimo bo'lishi kerak. tovush aniq. Ko'p hollarda qo'shiq aytishda E ning qisqarishi bu tovushni dinamik ravishda zaiflashtirish orqali hal qilinadi. Ikki unlining birikmasi alohida fonetik ravshanlikni talab qiladi. Bu holda urg'usiz O aniq A sifatida talaffuz qilinadi. Undosh tovushlar bir necha guruhlariga bo'linadi. Sonor undoshlar - m, n, l, r - kuylash, aniq intonatsiya qilish mumkin bo'lgan tovushlar. Qolgan undoshlar bu sifatlarga xos emas. O'zbek alifbosining oltita undoshlari ovoqli, tovush paychalarining ishtirokida talaffuz qilinadi va to'rtta yo'lashgan unli harflar: ye, yo', yu, ya bor, ya'ni yo'lashgan unli harflar “y”, “ye”- undan keying unli tovushni qo'shib talaffuz qilishdan yuzaga keladi, Ko'pgina jarangli va jarangsiz undoshlar qat'iy va bo'shashmasdan talaffuz qilinadi. Ovozsi ch, x, h juft ovoqli tovushlarga ega emas. Vokal-xor diksiyasining o'ziga xos xususiyati xorning barcha xonandalari tomonidan bir xil qoidalar va artikulyatsiya usullaridan foydalanishdir. Ulardan ba'zilari : Chiroyli, ifodali unli tovush chiroyli ovoz chiqaradi, aksincha, tekis unli tovushlar tekis, xunuk, unsiz tovushni hosil qiladi. Agar so'zda yoki so'z birikmasida ikkita unli yonma-yon turgan bo'lsa, u holda ularni qo'shiq aytishda birlashtirib bo'lmaydi - ikkinchi unli yangi hujumda, go'yo yana talaffuz qilingandek kuylash kerak. Qisqartirilgan unli qanchalik uzun bo'lsa, u ovoqli nutqqa shunchalik yaqinroq bo'ladi; qanchalik qisqa bo'lsa, suhbatga shunchalik yaqinroq bo'ladi. Masalan: xor



tomonidan ijro etilgan M.I. Glinka “Попутной песни” asari tez aytishni eslatib nafratdagi qisqartirilgan unlilar nutqdagi kabi noaniq talaffuz qilinadi; ohangdor epizodlarda esa to'liq va cho'zilgan. Bir tembrli unli tovushga erishish kuylash jarayonida artikulyar shaklning barqarorligi bilan chambarchas bog'liq. Iloji boricha uzoqroq aytiladigan unli tovushlardan farqli o'laroq, undoshlar oxirgi daqiqada talaffuz qilinishi kerak. Bo'g'in tugaydigan undosh keyingi bo'g'inga, so'zlar yaqin bog'langan so'zni tugallagan undosh esa keyingi so'zga qo'shiladi. Bu qoida birinchi navbatda legato qismlariga taalluqlidir; stakkato undoshlari bilan ko'chirilmaydi. Qo'shiqdagi undoshlar o'zlari yondosh bo'lgan unlilarning balandligida talaffuz qilinadi. Ushbu qoidaga rioya qilmaslik xor amaliyotida “sirg'anish” deb ataladigan narsalarga, ba'zan esa nopok intonatsiyaga olib keladi. Yakunlovchi undoshlarning noaniq, noaniq talaffuzi matnni tushunishni qiyinlashtiradi. She'riy matnni tinglovchilarga yaxshiroq yetkazish va qo'shiqning badiiy ifodaliligiga erishish uchun ba'zan undosh tovushlarning bir oz chizilgan artikulyatsiyasidan foydalanish foydali bo'ladi. Biroq, ularning talaffuzidagi "ikki barobar" va hatto “uchlik” ni qabul qilish faqat alohida holatlarda (dramatik xarakterdagi asarlar, tantanali madhiyalar) mos keladi. Xor asarlarini tez sur'atda ijro etishda so'zlarni yengil, "yaqin" va juda faol, artikulyar apparatlarning minimal harakatlari bilan talaffuz qilish kerak. Umuman, aniq talaffuzga rioya qilish sharti bilan kuylash diksiyasining tabiati musiqaning o'ziga xos xususiyatlariga, asar mazmuniga, obrazli tuzilishiga, uslubiga, janriga bog'liq. Sokin, ohangdor, lirik kompozitsiyalarda matn yumshoq talaffuz qilinadi; dramatiklarda - baquvvat, qo'pol, ifodali; yurganlarda - qat'iy, qo'shiq aytishdi. Matnning talaffuz sifatiga tovush kuchi va tessitura ta'sir qiladi. Diksion ansamblini yaratish uchun eng yaxshi shartlar xor qismlari diapazonining o'rta qismida mo'tadil tovush kuchidir. Yuqori va pastki registrlarda umumiy vokal qiyinchiliklar tufayli ovozlarning lug'at imkoniyatlari kamayadi. Muayyan xor qismi tomonidan matnning talaffuzining ravshanligi va qavariqlik darajasi ko'p jihatdan uning kompozitsiya teksturasidagi rolga bog'liq. Tematik funktsiyani bajaradigan ovoz yoki ovozlarda, bu vaqtda barqaror tovushlarda to'xtab qoladigan ovozlarga qaraganda, matnni yanada

aniqroq chiqarishi kerak. Diksiya ansamblining maxsus turlari polifonik asarlarni ijro etishda paydo bo'ladi. Bu yerda asosiy ansambl murakkabligi turli qismlarda so'zlarning bir vaqtning o'zida talaffuz qilinmasligi, og'zaki takrorlash va alohida ovozlarda so'zlarning qisqartmasidan iborat. Biroq, talaffuzning o'ziga xosligi asarning she'riy matnini ijrochi tomonidan uzatish shartlaridan biridir. Uni orfoepiya nuqtai nazaridan to'g'ri talaffuz qilish kam emas, balki undan ham muhimroqdir, chunki orfoepik me'yorlar grammatik, leksik, orfografik me'yorlar kabi inson nutqi madaniyatini va, albatta, san'atkorning, ijodkorning nutq madaniyatini tavsiflaydi. Lekin xor a'zolari va xor dirijyorlarining ifodali nutq, ifodali, badiiy so'z san'atini puxta egallashlari muhimroqdir. So'z va musiqa o'rtasidagi munosabat xor dirijyorining ko'rish sohasida doimo bo'lishi kerak bo'lgan eng muhim muammodir. Ushbu muammoni uchta maxsus savollar guruhiga bo'lish mumkin. Mazmunga kelsak, bular musiqiy tasvirning og'zaki matn tasvirlari bilan o'zaro bog'liqligi, ularning badiiy muvofiqligi darajasi masalalari. She'riy va musiqiy kompozitsiya o'rtasidagi munosabatlarga oid savollarni o'z ichiga oladi. Ekspressiv vositalar bilan bog'liq masalalar birlashtirilgan, ya'ni: ovozli deklamasiya masalalari, musiqiy va nutq intonatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar, musiqa va nutq urg'usi va iboralarni taqqoslash. Diksiya tovushli so'zning badiiy sifati ustida ishlashning tarkibiy elementlaridan biridir. Gapni qurish mantig'i, urg'u, urg'u, pauza va umuman diksiyani to'g'ri joylashtirish, birinchi navbatda, nutqning ekspressivligi va uning semantik ta'sirini belgilaydi. She'riy matnini ovoz chiqarib aytayotganda, ijrochi musiqiy o'qishning “noto'g'riligini” - urg'uli bo'g'inlarning kuchli bo'g'inlar bilan, urg'usiz bo'g'inlarning zaif o'lchovlari bilan mos kelmasligini yumshatishga sezilmas qilishga intilishi kerak. Xormeyster, qo'shiqchi singari, qo'shiq aytish jarayonida urg'usiz bo'g'inlar ajralib turmasligiga ishonch hosil qilishi kerak (metrik musiqiy urg'u va baland tovushlarga “sakrash” ko'pincha buni qo'zg'atadi) va ta'kidlangan so'z haqiqatan ham eng muhim va zarur bo'lgan iboraning ma'nosini tushuntira olishi kerak. Demak, asarni xor bilan tayyorlash jarayonida musiqa bilan bir vaqtda adabiy matn ustida ham ish yuritish kerak. Asar mazmunini chuqur anglash, aspsiy

g'oyayasinin yuzaga chiqarish va ularni aniq ravshan diksiya irqali tinglovchilarga ifodali qilib yetkazish bilan bog'liq bo'lib, asarni xor bo'lib badiiy ijro etishning zaruriy shartlaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh, Ro'ziyev “Xorshunoslik” Toshkent 1987
2. N. Sharafiyeva “Xorshunoslik” Toshkent 1987
3. G. Mansurova “Xorshunoslik va xor jamoalri bilan ishlash uslubiyoti”  
Toshkent 2008
4. V.L. Jivov “Xor ijrosi” nazariyasi metodologiyasi amaliyoti
5. V.A. Samarina “Xorshunoslik”
6. V. Sokolov “Xor bilan ishlash”
7. R. Tursunov, B. Shomagdiyev “Xor dirijorligi”

## **BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARIDA O’QUVCHILARGA MAQOM HAQIDA NAZARIY BILIM BERISHNING AFZALLIKLARI**

**Xolmatova Nodirabegim Arabboy qizi**

Andijon shahar 1-son BMSM nazariya bo’limi o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqomlarni o’rganish biz uchun qanchalik muhurligi, prezident qaroridan so’ng milliy maqom san’atiga e’tibor kuchaytirilgani, bolalar musiqa va san’at maktablarida kichik sinfdanoq maqomning nima ekanligini o’quvchilar ongiga singdirib boorish kerakligi eslatib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** O’zbek mumtoz musiqa, maqomot, bolalar musiqa va san’at maktabi o’quvchilari, musiqa madaniyati.

*“O’tmish merosi o’rgatilmasa, yangi musiqa madaniyatini  
ham yaratib bo’lmaydi.” (V.A.Uspenskiy)*

Cheksiz g’ayrat, tordagi nola, ko’ngil munojoti, so’z jarangiyu, kuy zavqi bularning bari maqomda mujassamdir. Bilamizki maqom o’zbek mumtoz musiqasining yetakchi janri bo’lib, ular juda qadim zamonlarda Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlari musiqa madaniyatida mavjud bo’lgan. Maqom lirik turkum va asar janri sifatida mumtoz musiqa toifasiga kiradi.

O’zbek klassik musiqasining sarchashmasi bo’lgan maqom san’atida olam va odam borligi, borliq ilmi hikmati namoyondir. Asrlar osha sayqal topgan maqomot an’analari rivoj topmoqda. Bu o’tmish aks sadodi emas, balki, kelajakni ham obod etishga qodir ma’naviy kuchdir.

“-Agar biz haqiqiy san’atni bilmoqchi, o’rganmoqchi bo’lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o’rganishimiz kerak. Agar bu san’atni madaniyatini ko’tarmoqchi bo’lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini ko’tarishimiz kerak”-deya,

bejizga prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytmaganlar. Maqom san'atining hayotimizdagi o'rnini oshirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ 3391-sonli qaroridan so'ng bu yo'nalishga e'tibor yanada kuchaytirildi.

O'zbek mumtoz musiqasi xalq qo'shiq va ashulalari xalqimiz madaniyatining ajralmas qismidir. Yosh avlodni manashu merosga bo'lgan muhabbatini shakllantirish ta'lim muassasalari, xususan, bolalar musiqa va san'at maktablarining asosiy qismidir, Shuni inobatga olgan holda, maqom san'atini bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilariga chuqur o'rgatish jarayoni bilan bo'g'liq bo'lgan yangiliklar bizni mamnun qiladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida hozirgi kunda faqatgina an'anaviy xonandalik va an'anaviy sozandalik yo'nalishigagina emas, balki, musiqa maktabidagi har bir o'quvchilarga maqomning ilk saboqlari ya'ni nazariyasi o'rgatilimoqda. Shu jumladan, 5yillik cholg'u bo'limi o'quvchilariga 1-sinfdan, 7yillik cholg'u bo'limi o'quvchilariga 3-sinfdan boshlab “Maqom alifbosi” fani kiritilib, o'quvchilarga ilk saboqlar berilmoqda. Bu fanni o'tilishining afzalliklari busan'at maktabidagi har bir o'quvchi maqom haqidagi tushunchaga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Barcha o'quvchilar maqomning kelib chiqishi, tarixi va ahamiyati, bizgacha yetib kelgan boy merosimiz to'g'risida tushunchaga ega bo'lib bormoqdalar.

Musiqaning ruhiy ta'siri kuchliligini inobatga olsak, har bir xalqning musiqasini uning ruhiyatini ochib beradi. Ya'ni biror xalqning musiqasini tinglay turib uning manaviyati qay darajada ekanligini bilish mumkin. O'zbek mumtoz musiqasiga tenglasha oladigan asar dunyoda topilmaydi. Mana shu bebaho boyligimizni asrashimiz kerakligini o'quvchilarga o'rgatib borishimiz kerak.

Maqomlarning asrlar osha o'z badiiy qiymatini yo'qotmasligi va ayni paytda millionlab odamlar qalbidan o'rin olganligining asl sabablaridan biri ham ularni teran ma'nolarga yo'g'rilgan go'zal navolariyu, beqiyos shaklu shamloillari bilan izohlanadi. Zero, manaviyatdan uzilgan har qanday go'zallik oxir oqibat yoqimsizdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, biz murabbiylar yosh avlodga ota bobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy musiqamizni, ayniqsa, maqom san'ati badiiy qiymati haqidagi tushunchalarni ilk boshdan boshlab, singdirishga alohida e'tibor berishimiz zarur. Shunday qilsak mustaqil O'zbekistonimiz manfaatiga xizmat qiluvchi, san'ati, madaniyati va adabiyotini yuksak darajada biluvchi va qadrluvchi farzandlarni tarbiyalashga hissa qo'shgan bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ishoq Rajabov- “Maqomlar” – Toshkent 2006y
2. Otanazar Matyoqubov- “Maqomot”
3. Sh.M.Mirziyoyev- “O'zbek milly maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari tog'risida”gi PQ 3391-sonli qarori,- Toshkent 2007y
4. Yunus Rajabiy- “Musiqqa merosimizga bir nazar” 1957y
5. Internet ma'lumotlari: Wikipedia, ziyo.net.

## YER MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH USULLARI

**Aralov Muzaffar Muxammadiyevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

**Oripov Umarjon Odilxonovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yerlarni monitoring qilishda turli xil usullar yordamida monitoring qilish va xatlov nazoratini kuchaytirish maqsadida zamonaviy usullardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Yer, monitoring, zamonaviy usullar, karta, plan va dronlar.

Berdaq o‘z asarlarida faqatgina insonni ulug‘lab, uning ijobiy sifatlari qanday bo‘lishini tasvirlabgina qolmadi. U o‘z asarlarida tugal ma‘nodagi ijobiy qahramonlar siymolarini ham yaratdi. Bu qahramonlarida mukammal insonga xos sifatlarni mujassamlashtirishga harakat qildi. U inson nomiga isnod keltiruvchi nomunosib shaxslarning qilmishlarini ayovsiz tanqid ostiga oldi.

Berdaq bu boradagi falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan omillar haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo u qanday muhitda tug‘ilganini, qanday muhitda yashaganini yana bir bor yodga olsak xato qilmagan bo‘lamiz. Berdaq shoir, baxshi bo‘lishiga qaramay o‘z she‘rlarida, qo‘shiqlarida, falsafiy g‘oyalarni ilgari surdi. Chunki uning falsafiy qarashlarini o‘sha she‘r, qo‘shiqlarida ko‘ramiz. Bunda qanday falsafa yotadi degan savolga esa, uning she‘rlarini o‘qigan inson biladi. Uning falsafiy g‘oyasida Allohni borligiga ishonish, zolim amaldorlarni, otaliq boylarni bir kun kelib Alloh jazolashini ta‘kidlab o‘tadi. Qolaversa, Qur‘oni Karimda insonlarini bu dunyoda bajarishi kerak bo‘lgan amallarni barchasi bilan tanishib chiqqanligi uchun insoniyatni ulug‘laydi. Shunda ham oddiy insonlarni ularni hayoti yaxshilanishi, farovon hayot kelishiga ishonib yashagan. Qolaversa, Berdaq yolg‘onchilikni, oddiy xalqni ezib ularni boshigaog‘ir kunlarni solgan insonlarni juda yomon ko‘rgan va qattiq tanqid ostiga olgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Falsafa qomusiy lug‘at, Toshkent, Sharq N. - 2003.
2. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.:1987. 42-b.
3. И.Сагитов. Бердахтын творчествосты. Нукус. 1977.
4. Бердах. Танламалы шыгармалар жыгйнагы. Нукус. 1977. 99-b.
5. Из философского наследия народов Восточка. Изд. «Фан» Уз. Ташкент. 1982.
6. <http://www.berdaq.com>
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI MAVHUM OTLARNING SEMANTIK- USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Ismatova Vasila Shodmanovna**

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Lingvistika [o‘zbek tili] 2-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llanilgan mavhum otlar,ularning semantik-uslubiy xususiyatlari va ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilida qay holda qo‘llanilishi xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiy xalqlar, tarix, abstract otlar, semantik, sinonim, omonim, fonetika, hozirgi o‘zbek adabiy tili

## SEMANTIC AND METHODOLOGICAL FEATURES OF A SUMMARY IN DEVONU LUG'ATIT TURK

**Ismatova Vasila Shodmanovna**

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature 2nd year Master's degree  
in Linguistics [Uzbek]

### **Abstract**

This article discusses the abstract names used in Mahmud Kashgari's Devonu Lug'otit Turk, their semantic and methodological features, as well as how they are used in the modern Uzbek literary language.

**Keywords:** Turkic peoples, history, abstract names, semantics, synonyms, homonyms, phonetics, modern Uzbek literary language

Shakli har xil bo‘lsa ham ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlar sinonimlar deyiladi. Bir xil ma‘noning bir necha so‘z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So‘zlarning o‘zaro sinonim munosabatda bo‘lishi sinonimiya hodisasi deyiladi. Bir umumiy ma‘nosi bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorida bir so‘z asosiy so‘z hisoblanadi. Bu so‘z barcha uslublarda qo‘llana oladi, shuning uchun [bosh so‘z], “neytral so‘z”, “betaraf so‘z”, “uslubiy neytral so‘z”, “dominanta” atamaları bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so‘z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so‘z yuzdir.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti turk” asarida ham mavhum otlarning ma‘nodoshlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda hozirgi adabiy tilimizda *tuhmat, qasam, baxt, tilak, shov-shuv, evaz, yaxshilik, uyat* kabi mavhum ma‘no ifodalovchi so‘zlarning ma‘nodoshlarini sharhlashga harakat qildik.

**تېلداغ** – تَدَاغٌ -*bo‘hton, tuhmat* [DLT., I., 430.] ma‘nolarini anglatuvchi so‘z devonda **Жала- يلا** – *tuhmat, birov haqida yomon fikrda bo‘lish* ma‘nosida [DLT., III., 32] shuningdek **سزك** - *sezgi, gumon* ma‘nosida [DLT., I., 387] qo‘llanilgan.

**تېلداغ** – تَدَاغٌ -*bo‘hton, tuhmat* ma‘nolarini anglatuvchi so‘zni devonda muallif quyidagi gap bilan izohlab beradi. **قَلْوَر تَدَاغٌ اَنْكُرْ اَنْ** – **ол аңар тїлдағ кїлур** – U unga bo‘hton qildi. Shuningdek bu so‘zning forschaga tarjimasi “bahona” dir deb izohlaydi. Ammo S.Mutallibov bunga izoh berib, “Textda shunday, ammo arabcha izohga to‘g‘ri kelmaydi; ehtimol kotib xatosi bilan **بُهْتَان** o‘rniga **بِهَانَه** yozilib qolgan bo‘lsa” degan izohni keltiradi.

**Жала- يلا** – *tuhmat, birov haqida yomon fikrda bo‘lish* ma‘nosini anglatuvchi so‘zni Mahmud Qoshg‘ariy devonda quyidagi gap orqali izohlaydi: *Bir xil qat-qat nonga jalachi jurga deyiladi. Ya‘ni nozikligidan bir narsaga tegishi bilan ushalib ketadigan non demakdir. Non yopuvchi buni sen sindirding deb odamga tuhmat qiladi*, deyiladi Ushbu so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda qo‘llanilmasa-da ularning anglatadigan ma‘nosini ifodalovchi *tuhmat, bo‘hton, gumon* so‘zlarini iste‘moldagi so‘zlar deyishimiz mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da bu so‘z “*ayblash, ayblov,*



*ya'ni birovni ayblash va qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo, bo'hton* ” deya izohlanadi. Masalan, Uying kuygurda ikki oy qadar ishladim. Keyin haydadi. Boshimga qancha **tuhmatlar** ortdi yana. Oybek, Tanlangan asarlar. [O‘TIL., 226.]

Devonda qo‘llanilgan mavhum otlardan yana biri hozirgi adabiy tilimizda *qasam, va‘da, ahd* ma‘nolarini anglatuvchi so‘z besh o‘rinda turlicha nomlanib qo‘llanilgan. Jumladan, **элкү-أَلْكُو** –ahd,va ‘da [DLT., I., 149], **Эндкәү – اِنْدَكَو** –qasam [DLT., I.,427.], **бичғас- بِيخْغَاس** va ‘da, void, so ‘z berish [DLT.,I., 427.], **бачиғ-بَچِغ** – va ‘da, ahd [DLT.,I.,352.], **кiрту- كِرْتُو** - qasam [DLT.,I.,394.]

Devonda **бичғас** va **Эндкәү** so‘zlari quyidagi she‘r tarkibida kelganligiga guvoh bo‘ldik. **Бичғас** битiк кiлурлар

**Эндкәү** жама бөрүрләр,

Хандан басут тiләрләр

Басмiл чумул тiркәшүр.

Mazmuni: Yakobu jangiga hoqonni yordamga chaqirib aytadi. Bizning odamlar podshohga qarshilik ko‘rsatmaslik uchun muohada yozadilar.Hozir Basmil va Jumul qabilalari biz bilan urushmoqqa yig‘ildilar . Hoqon ularga yetishdi, hatto ularning qonlarini to‘kdi va asir qildi. [DLT.,I.,427.]

**Бачиғ-بَچِغ** – va ‘da, ahd [DLT.,I.,352.] so‘zi devonda quyidagi gap tarkibida qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘zning hozirgi o‘zbek adabiy tilida anglatadigan ma‘nosi saqlanib qolganigiga ishonch hosil qildik.

**Ол мәнiң бiрлә бачиғ кiлдi.** Ya‘ni, u men bilan va‘dalashdi. Ushbu so‘zlar anglatadigan ma‘nosi nafaqat asar yaratilgan davrda, balki Alisher Navoiy asarlarida ham va‘da, ahd, *ishontirish* ma‘nolarini anglatganiga guvoh bo‘ldik: Ey ko‘ngul, dahr ahlig‘a yo‘q **vadau** paymon durust, Necha kuygung sen dog‘i, uz **va‘da** buz, paymonni ham. [*Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, I jild, 366 b*]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da va‘da so‘zi *so‘z berish, va‘da; muddat* ma‘nolarida izohlangan. Masalan, To‘qsonov jo‘nayotganida, muallimni almashtirish to‘g‘risidagi va‘dasi bilan Tojiboyni qattiq ishontirib ketgan edi. P.Tursin, O‘qituvchi. O‘rmonjonga, Bo‘taboyga, Kanizakka ko‘pdan-ko‘p salom aytdi va

“Qo‘shchinor” ga shu hafta ichi, va‘dasidan burunroq borishini aytdi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. [O‘TIL., 446.]

Hozirgi adabiy tilimizda *qut, baxt davlat* ma‘nolarini anglatuvchi so‘zlarni Mahmud Qoshg‘ariyning devonida ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, **قُوت-كُوت** – baxt,davlat [DLT., I.,320.] , **قُوت-كُوت** – qut, baxt, davlat [DLT., I.,311.] so‘zlari ma‘nodoshlik kasb etganiga guvoh bo‘ldik. **Кут** **күтүп** бәрсә ізім қоліңа, Күндә іші жүкәбән жуқар ағар. *Tangri bandasiga baxt bersa, kun sayin ishi yuqorilaydi, avj oladi.* Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da ham M.Qoshg‘ariy devonida ham *qutlug‘* so‘zi **qut**dan kelib chiqqanligini ta‘kidlab o‘tilgan. Qut so‘zi hozirgi adabiy tilimizda ham *qut,baxt, davlat* ma‘nolarini ifodalashidan tashqari shakldosh so‘z ham sanaladi. *Endi xotinning rang-quti joyiga kelgan va basharasidan qo‘rqish alomati yo‘qolgan edi.*S.Ayniy, Qullar. [O‘TIL., 389.] Bu gapda **qut** so‘zi **yuzning rangiga** nisbatan qo‘llanilgan. “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” da bu so‘z *yemak, ovqat, oziq; ruh, jon* ma‘nolarida qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz: Ey mug‘bacha, dayr ichra meni mast eta ko‘rkim, Jon **quti** ko‘ngul quvvatidur, sofigu durdung. [Xazoyin ul-maoniy]<sup>6</sup> Yiroqdin ko‘rub o‘g‘li tobutini, Uzub charx aning umrining **qutini**. [Saddi Iskandariy] [NATIL.,83b]<sup>7</sup>

---

تۈش - түш

Devonda **تۈش** - түш - tush so‘zi ham shakldosh so‘z sifatida uchraydi. Jumladan, tush vaqti; uyqudagi jarayon; to‘g‘risi; teng kabi ma‘nolari izohlanadi. Masalan, **аниң түши** – uning tengi; **эвим түши** – uyimning to‘g‘risi, uyimning ro‘parasi; **түш өді** – tush vaqti ( DLT, III, 138 б) kabi. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” da bu so‘z uyqu, tush,xob; taraf, jonib; tomon; tushmoq, pastga tushmoq; safar vaqtida to‘xtamoq; tushib qolmoq; zimmaga yuklanmoq; duch kelmoq,uchramoq; yuz bermoq, paydo bo‘lmoq; yetishmoq, erishmoq; ko‘z, nazar tushmoq tarzida qo‘llanilgan baytlar orqali izohlangan.

**Tushumda** obi hayot ichdim ohim, kelmas,

Ko‘ngulga la‘lini o‘lmakdin o‘zga ta‘bire - uyqu,tush ma‘nosida;

Erur ishq oyatikim nuqtasining donasin ko‘rgach,

Tushar arvohi qudsiy qushlari beixtiyor anda - tushmoq, pastga tushmoq ma‘nosida;

Bu ish manga tushubtur – zimmaga yuklanmoq ma‘nosida; Gar Navoiydek boshingga tushsa bir qotil g‘ami, Anda dog‘i ko‘rgasen ne bo‘lsa qismat, ey rafiq-duch kelmoq, uchramoq ma‘nosida (NATIL, 263 6) izohlanganiga amin bo‘ldik.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da tush so‘zi ikki xil ma‘no ifodalashi izohlanadi. 1) uyquda vujudga keladigan sub‘yektiv psixik hodisa, jarayon; uyquda ko‘riladigan obrazlar, narsalar. *Qani endi shularning hammasi tushim bo‘lsa-yu, uyg‘onib ketsam! ..Qadamimni bilib bosar edim.* A.Qahhor, Og‘riq tishlar; 2) quyosh qoq tepaga kelgan payt. *Tushda dam olmoq. Devonaning aqli tushdan keyin kiribdi.* Maqol.

سَاغ – caF

Devonda uchraydigan سَاغ – caF – sag‘ so‘zi ham shakldosh so‘z sifatida berilgan bo‘lib, 1) سَاغ – caF – aql; 2) سَاغ – caF – o‘ng, 3) سَاغ – caF – ziyraklik, tuyrakik, zehni o‘tkirlik (o‘g‘uzcha); 4) سَاغ – caF – sog‘lik, 5) سَاغ – caF – toza;

6) سَاغ – caF – yung yuvadigan savag‘ich ma‘nolarida izohlanadi. СЭНДА caF жоқ-санда ziyraklik yo‘q; jиниң caFмы - taning sog‘mi?; caF элик – o‘ng qo‘l. Bu birikmada hamma so‘z o‘g‘uzcha ekanligini, ayrim turkiy qabilalar bu so‘zlarni bilmasligini devonda ma‘lumot sifatida beradi. CaF cyw – toza, shirin suv; CaF көңүл – ko‘nglida kiri yo‘q, oq ko‘ngul odam.

NATIL da bu so‘z sog‘ tarzida beriladi va quyidagi ma‘nolari izohlanadi: 1) omon, salomat, sog‘lom; 2) hushyor, es-hushi joyida, oqil; 3) sog‘; mastning ziddi; 4) sog‘moq, sut sog‘moq (NATIL, III., 110)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham sog‘ so‘zi shakldosh so‘z sifatida berilgan. Sog‘<sub>I</sub> – kasali yo‘q, sihat-salomatligi yaxshi; sog‘lom. Sog‘ tish. Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l! Cog‘<sub>II</sub> - shevada, o‘ng ma‘nosini bildiradi. *O, bu go‘zal yo‘llar, ajoyib yo‘llar, Gul bilan qoplangan sog‘-u so‘llari. Uyg‘un. Tong qo‘shig‘i.* (O‘TIL, III., 562)

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. Т. I, 1963.
  2. Болтабоев Х., Дадабоев Х.. Девону луғотит турк, I, II, III жилдлар. Тошкент: 2006-2008.
  3. М. Кошғарий. Девону луғотит турк. I. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. – Т.: ФзФА нашриёти. 1963.
  4. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати., 836, Ўзбекистон ССР Фан нашриёти., 1983.
  5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати., 226. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий
  6. Хакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Тошкент-2009
- Elektron ta'lim resurslari:
- [http://www.kitab.uz/cms/q=node/223\\_o1.04.08.](http://www.kitab.uz/cms/q=node/223_o1.04.08)
- [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
-

## DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS' UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS

**Atakhujaeva Shahlo Anvarovna**

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent Region

Faculty of Pedagogy 2nd year master's degree in pedagogy and psychology

**Annotation:** This article provides a brief overview of the causes of destructive behavior among young people, their changes and methods of working with them.

**Keywords:** deviant behavior, adolescents, deviant behavior, conversation, interview

Before making a diagnosis, a psychologist must have knowledge of the ethical and legal norms that are part of the general theory of social norms. Moral and ethical norms are the rules of behavior adopted by society for interaction, which are manifested in the form of life habits among the majority of the population. Spiritual-ethical norms are an example of what people should say and act on each specific reality.

Value Direction Questionnaire (I.G.Senin's Methodology) It is known that many experts use certain life goals and values as a criterion in diagnosing personality orientation. The reason is that the system of values determines the main content of a person's orientation and determines his attitude to the world, people, himself, the content of motives for life, worldview. Values can be divided into two types: 1) target values and 2) intermediate values.

Values that are directed toward specific life goals are called target values. In other words, each person is characterized by having their own common life ideas, their own leading life goals. This theoretical view of values was first put forward by M. Rokich and later with the full support of all experts. Diagnosis of Conflicting Behavior.

The reasons for deviant behavior of adolescents can be disagreement with parents, teachers and classmates, as well as various other contradictions. The psychologist who begins to make the diagnosis must be well versed in the theory of conflict and contentious behavior. The word —conflict is derived from Latin and —conflictus means "conflict". It is a conflict of views, opinions, characters, patterns, which are absolutely contradictory. In order to achieve a positive goal, it is necessary to radically change the conflict approach.

People clash to defend their ideas, principles, characters, aspirations. Conflicts are interpersonal, interpersonal. An interactive is a disagreement between two or more individuals. Such a conflict is evident in the disruption or complete cessation of even normal treatment. If the interaction is repeated even after the conflict, then in many cases people will not see each other at all. Sometimes such situations cause people to compromise. In human conflict, people have different views, desires, and worldviews.

Often, the dialogue of quarreling people is followed by mutual accusations, insults, hitting each other on the ground. Internal conflict is the result of conflicting opinions, interests, internal content, and conflicting worldviews. Considering the individual-mental characteristics of the person, it can be said that the inner at the heart of the conflict lies a sense of self-dissatisfaction. Such disagreements lead to their sharp clash in social reality. Analysis of conflicts shows that they can be divided into: competition, adaptation, cooperation, agreement, avoidance.

One-on-one interviews, questionnaires, and tests to analyze the causes and consequences of adolescent conflict behavior are appropriate. In doing so, he establishes a positive emotional connection with him and explains the goals and objectives of the task to be performed. Conversation allows information about the adolescent as a method of psychological research. Conversation may be conducted on the basis of pre-prepared questions or may be of an involuntary nature.

At the same time, the researcher should not ask questions that the child does not like during the interview, which are relevant to the child, his family or peers. The

interview will determine the characteristics of the child's personality, his physical and mental condition, his ability to work.

Socio-cultural level, education, interests, needs, thinking skills of the examiner are determined. In some cases, the interview is conducted for psychoprophylactic and psychotherapeutic purposes, which eliminates the fear, anxiety, insecurity of the child. During the lesson, each student receives the information provided by the teacher based on specific internal mental processes.

Thus, the educator needs to gain important information about the child's life in relation to the task set by the research during the interview.

### References:

1. Primary education: problems and solutions. Conference materials. M. Uzakova.
2. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution JE Usarov, NJ Eshnayev, SA Haydarova IEJRD-International Multidisciplinary Journal 5 (8), 6 45 2020
3. Problems of formation of learning motives in pupils UJ Eshbekovich, EN Jumayevich, KI Davronovich IEJRD-International Multidisciplinary Journal 5 (8), 6 27 2020
4. Peculiarities of scientific research of spiritual and moral problems NJ Eshnaev Academic research in educational sciences 2 (Special Issue 1), 364-369 18 2021
5. CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF DISTANCE LEARNING SYSTEM DEVELOPMENT UJ Eshbekovich, EN Jumaevich, BX Nematovich INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL?? 14 2020 Issues of introducing a system of psychoprophylactic services in the Uzbek national cinema and culture NJ Eshnaev, GM TG'Maratov Oriental Art and Culture 3, 156-165

## GOMOGEN SIMSIZ SENSOR TARMOQLAR VA SIMSIZ SENSOR TARMOQLARINING QURILISH TAMOYILLARI

**Ashurov Azizbek Ergash o'g'li**

**Butunov Javohir Yakubovich**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

[azizbekashurov995@gmail.com](mailto:azizbekashurov995@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqola simsiz sensor tarmoqlar tuzilishi, boshqa tarmoqlardan nimasi bilan farq qilishi, qayerlarda qo'llanilishi haqida.

**Kalit so'zlar:** gomogen, sensor tarmoq, signallar, datchik, simli, simsiz, tarmoq.

**Annotation.** This article is about the structure of wireless sensor networks, how they differ from other networks, and where they are used.

**Keywords:** homogeneous, sensor network, signals, sensor, wired, wireless, network

Avvalo gomogen tarmoq haqida to'xtalib ta'rif beradigan bo'lsam bu o'xshash konfiguratsiyalar va protokollardan foydalaniladigan va kompyuterlardan tashkil topgan kompyuter tarmog'idir.

Bir hil tarmoqlar - bu barcha tugunlar tarmoqda bir xil funksiyaga ega bo'lgan tarmoqlardir. Bitta foydalanuvchi bajaradigan asosiy funksiyasi bilan keyingisi bilan almashtiriladi. Masalan, shahar telefon tarmog'ida har bir tugun (telefon) asosan boshqa funksiyalarni bajaradi va telekommunikatsiya tarmoqlari umuman olganda, ko'pincha bir hil hisoblanadi.

So'ngi yillarda simsiz sensorli tarmoqlarni samarali loyihalash tadqiqotning yetakchi sohasiga aylandi. Sensor biror jismoniy yoki muhit sharoitlaridan kelayotgan signallarni aniqlash va ularga javob berish vazifalarini bajaradigan qurilmadir. Sensorning javob beruvchi signali odatda elektr signal hisoblanadi, o'z navbatida



bunday javob signallari kontrollerlarga navbatdagi ishlov berishlar uchun yuboriladi. Simsiz sensor tarmog'i radiokanal orqali bir-biriga ulangan ko'plab sensorlar va bajaruvchi qurilmalar tarmog'i bo'lib bunday tarmoq o'z-o'zini tashkillashtiradi. Bunday tarmoqlar bir necha metrdan bir necha kilometracha bo'lgan sohani qamrab olishi mumkin, bunda xabarlar bir tugundan ikkinchisiga manzilga yetgunga qadar qayta yuboriladi. Boshqacha aytganda, simsiz sensorli tarmoq simsiz ulanish yordamida kuzatuv ostidagi maydondan olingan ma'lumotni yetkaza oladigan qurilmalar tarmog'i sifatida aniqlanishi mumkin. Simsiz sensor tarmog'i simsiz sensor tarmoq bo'lib tayanch stansiyalar va ko'plab tugunlardan iborat. Ushbu tarmoqlar jismoniy yoki atrof-muhit sharoitlarini tovush, bosim, harorat yordamida kuzatib borish uchun foydalaniladi va birgalikda tarmoq ichidagi ma'lumotlarni tarmoq orqali asosiy manzilga yetkazadi.

Agar dunyodagi tarmoq misolida oladigan bo'lsam, gomogen tarmoqning o'rnini quyidagicha tavsiflashim o'rinli bo'ladi. Ya'ni yagona tarmoq arxitekturasi va operatsion tizimidan foydalanadigan tarmoq. Masalan, barcha mashinalarda Microsoft Windows Server ishlaydigan Ethernet mahalliy tarmog'i (LAN). Yana bir misol - bu faqat Microsoft Exchange Server ga asoslangan korporativ darajadagi xabar almashish tizimini misol qilib keltirishim mumkin.

Simsiz sensor tarmoqlarini odatdagi hisoblash tarmoqlari (simli va simsiz) dan birinchi navbatda nimasi bilan ajralib turishini ta'kidlaylik:

- Biron bir kabelning ishlatilmasligi - elektr, aloqa va boshqalar
- Datchiklarni atrof-muhit ob'ektlariga ixcham joylashtirish yoki hatto birlashtirish imkoniyati;
- Ikkala alohida elementlarning va eng muhimi, butun tizimning ishonchliligi; ba'zi hollarda faqat 10-20% datchiklar yaxshi ishlasa butun tarmoq ishlashi mumkin; O'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish uchun xodimlarga ehtiyoj yo'q. Sensor tarmoqlarining dizayni ko'plab omillarga, shu jumladan chidamlilik, miqyosi, ishlab chiqarish xarajatlari, ish muhiti turi, sensorlar tarmog'ining topologiyasi, apparat cheklovlari, aloqa modeli va energiya sarfiga bog'liq. Ushbu omillar ko'plab

tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarning hech biri tarmoqlarni loyihalashga ta'sir qiluvchi barcha omillarni to'liq hisobga olmaydi. Ular sensorli tarmoqlar uchun protokol yoki algoritmlarni ishlab chiqish uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qilganligi sababli muhim xisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu omillar yordamida turli xil modellarni taqqoslash mumkin.

Sensor tarmoqlari ko'plab dastur sohalarida ishlatilishi mumkin. Simsiz sensorli tarmoqlar - bu istiqbolli yangi texnologiya va barcha tegishli loyihalar asosan ishlab chiqilmoqda. Keling, ushbu texnologiyani qo'llashning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib o'tamiz:

- Mudofaa tizimlari va xavfsizlik;
- Atrof-muhitni nazorat qilish;
- Sanoat uskunalari monitoring;
- Xavfsizlik tizimlari;
- Qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish;
- Yuklarni tashishni kuzatish;
- Insonning fiziologik holatini kuzatish;
- Kadrlar nazorati.

Sensor tarmoqlari turli xil atrof – muhit sharoitlarini o'lchashga qodir sesmik maydon, termal infraqizil, akustik kabi har xil turdagi sensorlardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan:

- ✓ Harorat
- ✓ Namlik
- ✓ Avtomobil harakati
- ✓ Chaqmoq holati
- ✓ Bosim
- ✓ Tuproq tarkibi
- ✓ Shovqin darajasi
- ✓ Ob'ektning tezligi, yo'nalishi va hajmi kabi dinamik xususiyatlar.

Datchiklardan hodisalarni uzluksiz sezish, aniqlash va aniqlash uchun foydalanish mumkin. Mikro sezgirlik konsepsiyasi va simsiz ulanish bunday tarmoqlar uchun ko'plab yangi dasturlarni va'da qiladi. Biz ularni asosiy yo'nalishlar bo'yicha tasnifladik:

- ✓ Harbiy dasturlar;
- ✓ Ekalogik tadqiqotlar;
- ✓ Sog'liqni saqlash;
- ✓ Uylarda foydalanish va boshqa sohalar

Ammo biz ushbu tasnifni kengaytirib, kosmik tadqiqotlar, kimyoviy qayta ishlash va tabiiy ofatlarni bartaraf etish kabi ko'proq toifalarni qo'shishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. G.D. Abowd, J.P. Sterbenz, IEEE Personal Communications (2000 yil oktabr) 36-40 yillarda aqilli muhitni tadqiq qilish masalalari bo'yicha idoralararo seminarda yakuniy hisobot.
2. M. Bxardvaj, T.Garnet, A.P.Chandrakasan, Sensor tarmoqlarining ishlash muddati yuqori chegaralari, IEEE Xalqaro aloqa bo'yicha ICC01 konferensiyasi, Xelsinki, Finlandiya, 2001 yil iyun.



## JAMIYATIMIZ HAYOTIDA AYOLLARNING O’RNI VA ROLI

**Ibragimova Komila Odiljon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatimizda, xalqimiz orasida ayollarning o’rni va roli, ularning har sohada faolliklari haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so’z:** Ayol, e’tibor, muqaddas, oila, mehr-shavqat, sadoqat, sabr-matonat.

Jamiyat a’zolarining yarmidan ko’pini tashkil qiladigan xotin-qizlar barcha zamonlarda moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratishda erkaklar bilan baqamti zahmat chekib kelganlar. Ko’hna Sharq tarixi zarvaraqlaridan ayol zakovatiyu jasorati, karomatiyu matonati xususida ko’plab misollar keltirish mumkin. Shuning uchun ham hamma ma’naviyati yuksak yurtlarda ayollar oila sardori-ona, elning teng huquqli a’zosi sifatida e’zozlangan, erki muhofaza qilingan.[1] Xalqimiz orasida “Ayol muqaddas” , “Ayol ojiza” , “Ayol uy farishtasi” , ayol mehr-shavqat, sadoqat timsoli kabi iboralarni juda ko’p eshitganmiz. Ayol deganda avvalo, ko’z o’ngimizda ulug’, muqaddas, siz uchun dunyodagi eng go’zal va latofatli, mehribon inson “Ona” siymosi gavdalanadi. Onani e’zozlash- har bir xalq, har bir millat uchun oliy qadriyatdir. Dunyoda onani madh etmagan, uni o’z asarlariyu, she’rlarida ta’riflamagan xalq bo’lmasa kerak. Buyuk bobokalonimiz, Alisher Navoiyning “Jannat onalar oyog’ ostidadir” yoki bo’lmasa, “Ayollar – farishtalarning opa-singillaridir” degan so’zlarini anglash, bu so’zlar zamirida chuqur ma’no borligini his qilish, qiyin deb o’ylayman.

So’nggi yillarda yurtimizda ayollarga juda kuchli e’tibor qaratilib, bir qator imkoniyatlar ham yaratilib berilmoqda. Xususan, ularning ta’lim olishlari, kasb-hunar o’rganishlari, o’z bizneslarini yo’lga qo’yishlari uchun ham moddiy ham ma’naviy ko’mak berilmoqda. Ularning hayotda o’z o’rnini topishlari, kelajakda sog’lom, barkamol avlodni voyaga yetkazishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Faqatgina sog’lom onadan sog’lom farzand, sog’lom avlod dunyoga keladi.

Faqatgina ma’rifatli, madaniyatli, aql-zakovatli, bilimli onalargina o’z farzandini komil inson qilib tarbiyalay oladi. Ayol uy bekasi, bir kichik vatanning tayanchidir. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Oila sog’lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror”. Shunday ekan, ayolga e’tibor, kelajakka e’tibordir.

Ayollarga hurmat, ehtirom ko’rsatish, ularni e’zozlash nafaqat xalqimizning, balki muqaddas dinimizning ham yuksak qadriyatidir. Oddiy bir misol, Abu Xurayra roziyalloxi anxudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollalloxi alayhi vasallam: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo’lsa, qo’shnisiga ozor bermasin va ayollarga doimo yaxshilik qiling! Chunki ular qovurg’adan yaratilgandirlar. Qovurg’aning eng egri joyi yuqori qismidir. Agar uni to’g’irlayman deb urinsang, sindirasan. Agar uni tek qo’ysang, egriligi bo’yicha qolur. Ayollarga doimo yaxshilik qiling!” dedilar”. [2]

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan buyon ayollarga hurmat-e’tibor, ularning jamiyatimizdagi o’rni va roli, ularning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan. Shular qatorida 1998- yil “Oila yili” , 1999- yil “Ayollar yili”, 2001- yil “Ona va bola yili” , 2012- yil “ Mustahkam oila yili” , 2016- yil “Sog’lom ona va bola yili” , bundan tashqari yurtimizda 2021-yil 28-apreldagi “Moddiy yordam va ko’makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi Vazirlar Mahkamasining 250-son qarori asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo’llab quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” yo’lga qo’yilgan. “Ayollar daftari” ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tartibini belgilaydi.[3]

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, ayollar jamiyatimizning yarmini tashkil etsa, qolgan yarmini tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Shunday ekan ayollarni bilimli, hunarli, hayotda o’z o’rnini topishlari uchun ko’maklashish har birimizning burchimizdir.

Quyida xotin-qizlarga ko’maklashish borasidagi o’z takliflarimni keltirib o’taman.

Birinchiidan, maktab, akademik litsey, kollej, texnikum ,oliy ta’lim muassasalarida xotin-qizlar bilan ishlash tizimini faol tarzda yo’lga qo’yish,har bir sinf, guruhlarda xotin-qizlar sardorini tayinlash.

Ikkinchiidan, maktab, akademik litsey, kollej, texnikum, oliy ta’lim muassasalarida o’quvchi, talaba qizlar uchun haftada bir martalik hunarmandchilik to’garaklarini tashkil qilish.

Uchinchiidan, talaba xotin-qizlar ichida xorijiy til kurslarini biluvchilarni aniqlab, o’z tengdoshlariga ko’maklashish maqsadida arzonlashtirilgan xorijiy til kurslarini tashkil etish.

To’rtinchiidan, maktab, akademik litsey, kollej, texnikum, oliy ta’lim muassasalarida xotin-qizlar jamoasidan iborat “Zakovat” intellektual o’yinini tashkil etish.

Beshinchiidan, maktab, akademik litsey, kollej, texnikum, oliy ta’lim muassasalarida xotin-qizlar bilan ishlovchi xodim barcha maktab, akademik litsey, texnikum, kollej, oliy ta’lim muassasalarida o’quvchi xotin-qizlar bilan alohida sinf, guruhli tarzda ochiq suhbat olib borish, ularning mavjud muammolariga yechim topish, o’smir yoshdagi qizlarning psixologik va jismoniy o’zgarishlariga alohida e’tibor qaratishi, davra suhbatlariga psixolog, shifokor, o’qituvchilarni jalb etish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xamidjon Xomidov. “Avesto” fayzlari. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent.2001
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. –T.: “Hilol-Nashr”. Toshkent.2020
3. “Moddiy yordam va ko’makka muhtoj oilalarni xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi Vazirlar Mahkamasi Qarori
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda\\_yillar](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_yillar)

## TA'LIMNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, BU RIVOJLANISHMI YOKI INQILOB?

**Ibrohimova Maftunakhon Nozimjon qizi**  
magistrant, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

### **Annotatsiya**

Yangi texnologiyalarning rivojlanishi o'quvchilarga yanada samarali, qulay va moslashuvchan tarzda bilim olishga imkon beradi. O'quvchilar hozirda jamiki aqlli qurilmalardan foydalanishlari uchun eng avvalo, simsiz tarmoqlardan foydalanish bilan bir qatorda, mustahkam bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqlari darkor. Yigirma birinchi asrning boshlaridan axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi hamda “smart” va “digital” ya'ni “aqlli” va “raqamli” tushunchalari eng dolzarb tushunchalar qatoridan joy oldi. Hozirgi kunga kelib esa, ushbu tayanch tushunchalarsiz insoniyat o'z hayotlarini tasavvur eta olmaydigan darajaga yetishdi. Quyida “Ta'lim 1.0” davridan “Ta'lim 4.0” davrigacha bo'lgan rivojlanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** smart, digital, ta'lim, aqlli ta'lim, Ta'lim 1.0, Ta'lim 2.0, Ta'lim 3.0, Ta'lim 4.0.

Ko'plab davlatlarda raqamli davr yangi ta'lim eshigini ochdi va bu esa dunyoning istalgan chekkasida turib har bir o'quvchi uchun ta'lim olish imkonini yaratdi. Lekin barcha mintaqalarda ham universal ta'lim olish imkoniyati mavjud emas. Dunyo aholisining kamida yarim qismi hali hanuz internet orqali ta'lim olish imkoniyatidan mosuvo bo'lib qolmoqda. Quyida siz ta'limning rivojlanishi (yoki inqilobi) bosqichlari bilan tanishasiz.

### ***Ta'lim 1.0 (Education 1.0)***

Ta'lim 1.0 davri– bu o'qituvchini tinglash orqali qabul qilishdir (eslatma olish, matni o'rganish, vazifalarni bajarish va hokazo). O'quvchilar bu bilimlarning qabul

qiluvchisi sifatida qaraladi va ular o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'la olmaydi. Barcha bilimli va bilimsiz o'quvchilar bir xil deb qaraladi. Bu esa standartlashtirilgan ta'lim sifatida qabul qilinadi va shuningdek, ushbu ta'lim davrining asosiy bosqichlari quyidagilarni tashkil etadi:

- Talaba passiv qabul qiluvchi hisoblanadi;
- O'qituvchiga yo'naltirilgan tizim (o'qituvchi sinfda mutlaq yetakchi sifatida bilim beradi);
- Darsda texnologiyadan foydalanish taqiqlanadi.

Bugungi kunda biz bilganimizdek, ta'lim texnologiya yutuqlaridan oldin o'qituvchilar axborotning asosiy darvozabonlaridan biri bo'lgan. Ta'limning bu davri ko'pincha tarixdagi o'sha davr resurslari va texnologiyalarini hisobga olgan holda eng yaxshi tanlov edi. Kutubxonalar va axborot vositalaridan tashqari, talabalarni ma'lumot bilan ta'minlash o'qituvchiga bog'liq edi. Shunday qilib, Internetning boshlang'ich bosqichlariga o'xshash o'qituvchining asosiy roli talabalarga bir tomonlama bilimlarni berish edi. Ushbu davrda talabalar o'qituvchilardan ta'lim olish uchun maktabga borar va ularga dars yozuvlari, tarqatma materiallar, darsliklar, videolar kabilar taqdim etilar edi. Talabalar asosan ularga yetkaziladigan axborot resurslarining iste'molchilari bo'lib, ular shu resurslarga asoslangan faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin bo'lishgan. Ta'lim 1.0 davri an'anaviy pedagogik ta'lim tizimi xususiyatlariga mos keladi. Talabalar uchun eng muhimi, talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda o'rgatishdir. O'qituvchilar, shuningdek, muvaffaqiyatni baholash vositasi sifatida muvaffaqiyat sinovlari ballariga e'tibor berishadilar. Ta'lim nazariyasida bilim o'qituvchi tomonidan talabaga beriladi. Pedagogika yoki o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ta'lim, odatda, ma'lumki, o'quvchini o'qituvchining ko'rsatmalariga rioya qilishni talab qiladigan bo'ysunuvchi rolga qo'yadi. U o'quvchilar faqat o'qituvchi ularga nimani o'rgatganini bilishlari kerak degan taxminga asoslanadi. Ushbu muhim, instruktivist, pedagogik o'qitish modeli hali ham hozirgi bolalar bog'chasida eng ustun modeldir. Ushbu davr XX asrning boshlarida o'z hukm doirasida bo'lgan va hozirgi kunga kelib esa u mavjud emas.



**Ta'lim 2.0 (Education 2.0)**: Andragogik, konstruktivistik yondashuv

- Muloqot va hamkorlik rivojlana boshladi;
- Imtihonga asoslangan yondashuv (imtihon natijalari bilan birgalikda);
- E'tiborga olinmagan talabaga yo'naltirilgan yondashuv;
- Maktablar hali ham soatlab o'qitish haqida gapirmoqda. Ammo biz soatlab o'rganish haqida gapirishimiz kerak;
- Texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarga bostirib kirish;
- Talabalar texnologiyalarni o'qituvchilarga qaraganda yaxshiroq bilishadi;
- Talabalar o'z o'qituvchilariga texnik bilimlarni berishadi.

Haqiqiy, real dunyo muammolariga, tarmoqqa ulangan o'rganishga va hamkorlikdagi raqamli vositalardan foydalanishga qaratilgan loyihaga asoslangan ta'lim andragogik yo'nalishga mos keladi. Pedagoglar soni ortib borayotgani ta'limda yangi davr kelganidan darak bermoqda. Ko'pgina maktablarda ta'lim dasturlari va onlayn vositalardan foydalanish yangilik emas. Andragogik, konstruktiv ta'lim muhiti odatda quyidagi xususiyatlarga ega:

- Konstruktiv ta'lim muhiti voqelikning bir nechta tasvirini beradi;
- Bu tasvirlar real dunyoning murakkabligini ifodalaydi;
- Bilimlarni qayta ishlab chiqarishdan ko'ra bilimlarni qurishga urg'u beriladi;
- Talabalar mazmunli kontekstda autentik vazifalarni bajarishda ishtirok etadilar;
- Haqiqiy dunyo sozlamalari taqdim etiladi;
- Tajriba haqida o'ylangan fikr yuritish rag'batlantiriladi;
- Talabalar o'rtasida hamkorlik va ijtimoiy muzokaralar rag'batlantiriladi;
- Oldingi bilimlarni birlashtirib, faollashtiriladi;
- Kashfiyotlarni o'rganish, hamkorlikdagi faoliyat va amaliy mashg'ulotlar ko'pincha o'quv faoliyati bilan birlashtiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'lim davri XX asrning o'rtalaridan rivojlana boshladi va hozirda u taraqqiy etishda davom etmoqda.

**Ta'lim 3.0 (Education 3.0)** davri o'qitish va o'rganishga ko'proq bog'liq yondashuvdir. O'qituvchilar, o'quvchilar, tarmoqlar, aloqalar, ommaviy axborot

vositalari, resurslar va vositalar individual o'quvchilar, o'qituvchilar va hatto jamiyat ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan noyob ob'ektni yaratadi:

- Talaba - markazga yondashuv;
- O'qituvchi - koordinator, maslahatchi, o'quvchi va amaliy qo'llanmaga aylanadi;
- Talaba izlanmoqda;
- Flip classroom usuli qo'llaniladi;
- Ko'proq muloqot, texnologiya hamma joyda, talaba o'zini o'zi o'rganadi;
- Klassik uslubdagi sinf xonasi endi mavjud emas;
- Dars rejalari endi o'quv rejalari deb ataladi;

Konnektivist yo'nalish Education 3.0 bilan chambarchas mos keladi. O'qitish va o'rganishga yondashuvda o'quvchilar yuqori darajada avtonom va o'zini o'zi belgilashadi va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor beriladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ular nafaqat o'rganish yo'nalishini belgilabgina qolmay, balki tegishli kontent sohasi yoki o'qish sohasiga qo'shimcha qiymat qo'shadigan tarkibni ham ishlab chiqishi mumkin. O'rganishning yangi va global aloqalari uchun imkoniyatlar yaratdi.

Jorj Siemens (2004) konnektivizmning xususiyatlarini quyidagicha belgilagan:

- Ta'lim va bilim fikrlar xilma-xilligiga tayanadi;
- Ta'lim - bu maxsus tugunlar yoki axborot manbalarini ulash jarayoni;
- Ta'lim insonga tegishli bo'lmagan qurilmalarda bo'lishi mumkin;
- Ko'proq bilish qobiliyati hozirda ma'lum bo'lgan narsadan muhimroqdir;
- Uzluksiz o'rganishni osonlashtirish uchun aloqalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur;
- Sohalar, g'oyalar va tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra bilish asosiy mahorat hisoblanadi;
- Aniq va dolzarb bilim hammaning maqsadidir;

• Qaror qabul qilishning o'zi o'rganish jarayonidir. Nimani o'rganish kerakligini va kiruvchi ma'lumotlarning ma'nosini tanlash o'zgaruvchan haqiqat ob'ektivi orqali ko'rinadi.

Ta'limning ushbu tamoyillarining barchasi tabiiy ravishda Ta'lim 3.0 ga olib keladi:

- Ular nimani o'rganishni xohlashlarini aniqlab, o'z ta'limini rivojlantirib va kerakli kurs natijalarining keng doirasiga asoslangan maqsadlari asosida o'rganadilar;
- O'qituvchi tomonidan taklif qilingan yoki o'rnatilgan ijtimoiy tarmoq vositalaridan foydalanib, o'zlarining ta'lim hamjamiyatlarini shakllantirish. Mumkin bo'lgan tarmoqlar, ko'pchiligi tegishli ilovalarga ega: Facebook, Twitter, Instagram, blog saytlari, YouTube va boshqa ijtimoiy tarmoqlar;
- Ularning o'rganishlarini ular uchun eng mos bo'lgan usul va vositalar orqali ko'rsatish. (Bu o'z mobil qurilmalaridan blog qilish, foto insholar yaratish, skrinshotlar qilish, video yoki podkastlar yaratish, rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish va hokazolarni o'z ichiga olishi mumkin).

Ta'limning yuqoridagi davri bu XXI asr boshlaridan boshlab 2019-yilgacha bo'lgan ta'limga to'g'ri kelib, bu davr butun dunyo COVID-19 pandemiyasi davrida judayam ommalashib ketdi va ta'limning 4- davri yaralishiga asos bo'la boshladi.

#### ***Ta'lim 4.0 (Education 4.0):***

- Markazda birgalikda yaratish va innovatsiyalar;
- Interfaol amaliy mashq - yuzma-yuz;
- Ta'lim uyda yoki maktabdan tashqarida amalga oshiriladi, maktabda esa o'quvchilar ko'nikmalarni rivojlantiradilar;
- Shaxsiylashtirilgan ta'lim va ta'limni rivojlantirish;
- O'quv rejalari endi ijodkorlik rejalari deb ataladi;
- Zamonaviy texnologiya (unga bepul va oson kirish mumkin);
- Virtual haqiqatdan foydalanishning ortishi;
- Doimiy evolyutsiya va innovatsiyalar, shuning uchun hamma tomonidan doimiy uzluksiz ta'lim va yangi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati.

Ta’limning 4.0 davri asosan butun dunyo COVID-19 pandemiyasi davrida yanada tez jadal rivojlanib va yanada rivojlanishda davom etayapti.

Mamlakatning yuqori darajali ish unumdorligini va iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasini ta’minlash imkoniyati ham aynan ta’lim darajasiga bog’liqdir. Aholisi ancha savodli mamlakat ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o’rinlarini tashkil etishborasida nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega bo’ladi. Ta’lim aholining salomatlik darajasi va uning kutilayotgan umr ko’rish davomiyligi, ya’ni inson rivojlanishining yana bir muhim ko’rsatkichi bilan bevosita bog’liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Academic Partnerships. (2013). Education 3.0: Learning anywhere, anytime. *Faculty eCommons*. Retrieved from <http://facultyecommons.org/education-3-0-learning-anywhereanytime/>
2. Gerstein, J. (2014). *SAMR as a framework for moving towards Education 3.0*. Retrieved from <http://usergeneratededucation.wordpress.com/2014/02/23/samr-asa-framework-for-moving-towards-education-3-0/>
3. Moving from Education 1.0 Through Education 2.0 Towards Education 3.0  
Gerstein, J. (2013). *Education 3.0 and the pedagogy (andragogy, heutagogy) of mobile learning*. Retrieved from <http://usergeneratededucation.wordpress.com/2013/05/13/education-3-0-and-the-pedagogy-andragogy-heutagogy-of-mobile-learning/>
4. Horn, M. (2014). KAIST doesn't wait for change in Korea, pioneers 'Education 3.0'. *Forbes*.
5. Retrieved from <http://www.forbes.com/sites/michaelhorn/2014/03/17/kaistdoesnt-wait-for-change-in-korea-pioneers-education-3-0/> Moravec, J.
6. MATHGames: Games and Mathematics in education for adults 2015-2018 <http://www.vmsmedien.de/mathgames/>
7. MATH-Labyrinth: Increasing the level of knowledge through solving mathematical problems 2015-2017 <http://www.math-labyrinth.eu/>
8. MATH-Debate-The Voice of Students-Searching Excellence in Math education through Increasing the Motivation for Learning 2016-2018 [www.mathdebate.eu](http://www.mathdebate.eu)

## INSON QADR-QIMMATI

**Muborak Toshboyeva**

Toshkent davlat agrar universiteti,  
Mevachilik va uzumchilik yo'nalishi 21/50 guruh talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatdagi insonlarning qadr-qimmati to'g'risidagi fikrlar keltirilgan. Tarixdagi jahon urushlari va ularning insonlar hayotidagi salbiy oqibatlari ham aytib o'tilgan. Biz kelajak avlodning ham bunday ayanchli vaziyatlarga bo'lgan qarashlari ham yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, tarbiya, jahon urushlari va uning oqibatlari, milliy qadriyatlar va qarashlar.

Inson qadri — ulug'. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotidan rozi va mamnun bo'lib yashashi kerak. Yaxshiliklar, xayrli ishlar bardavom bo'lib, inson qadri ulug'langan yurt doimo taraqqiy etadi. Xalqi hamjihatlikda, mehr-muruvvatda umrguzaronlik qiladi. Shu bois, mamlakatimizdagi bosh islohotlarda inson sha'ni, uning qadr-qimmatiga katta e'tibor berilmoqda. Taraqqiyotimizning yangi davrida aholimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongu shuurida inson qadriga bo'lgan e'tiborning amaliy ifodasi shakllanmoqda, ushbu fazilatlar xalqimiz turmush tarzida tobora mustahkam qaror topib bormoqda.

Tinchlik bu - qanchalik to'p ma'noga ega. Tinchlik musaffo osmondagi qushlarning erkin parvozi, bolalar kulgusi, beshik quchoqlab o'tirgan ona tabbasumi va a'llasi, tandirdan uzulgan issiq non, choyxonada o'tirgan yoshi ulug' insonlarning davrasi. Shu emasmi tinchlik? Bu farovon hayotga erishguncha tariximizda qanday mashaqqatli kunlar bo'lmagan. Bugungi davr uchun jahon urushlari odamzod tarixida eng yirik qonli urushlardan biri hisoblanadi. Urushda 38 ta mamlakat qatnashgan, ularda jami o'rtacha 1.5mlrd ortiq aholi yashar edi. Urushda esa 74mln ga yaqin insonlar vatan uchun janga safarbar etildi. Jami 10mln dan ortiq kishilar jangda halok

bo'lgan. Ko'p aholi esa ochlikdan, yuqumli kasallikdan olamdan ko'z yumgan . Davlatlar o'z milliy boyliklarining uchdan bir qismini yo'qotdilar. Ikkinchi jahon urishida esa Jahon tarixida eng yirik urish bo'lib, bunda jami bo'lib 61 ta davlat qatnashgan. Ulardan 47 tasi “Aksihetlar ittifoqi” tarafida,14 tasi o'q mamlakatlar tarafida bo'lgan. Urish talofatsiz bo'lmagani kabi bu talofatlar 6 yil davom etdi. Bunda 110 mln ga yaqin harbiylar ishtirok etgan va 60 mlnga yaqin odam halok bo'lgan. Halok bo'lganlar safida begunoh va beg'araz insonlar bo'lganligi ayanchli holat. Jahon urishi yillarida fashizmga qarshi qo'lga qurol olib jang qilgan O'zbekistonlik jangchilarning soni nihoyatda ko'p bo'lib, bu 263000 dan ziyod kishi halok bo'lgani, 132670 ta kishilar bedarak yo'qolgan qanchadan qancha insonlar urishdan nogiron bo'lib qaytishganlari juda alamlidir. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki bu urishlar insoniyatga talofatdan boshqa hech nima bera olmadi. Urush o'z nomi bilan urush edi, bu janglardan kamdan-kam yurtdoshlarimiz omon qaytishdi. Bir qanchalarining hoki o'zga yurtlarda qolib ketdi, bir qanchalari mayib-majruh, nogiron bo'lib qaytishdi. Yurtdoshlarimiz faqat frontlarda jang qilishmadi, ular mamlakat ichkarisida ham xalq xo'jaligini tiklash, xalq farovonligini yuksaltirishishida chinakam matonat ko'rsatishdi. Ular boshiga kelgan sinov va musibatlar faqat bugina emas, ota-bobolarimizning kattagina qismi qatagon yillarining qurboni bo'lishi. Faqatgina insonlarning qadr-qimmati toptalgani qoldi halos. Bu esa xalqlarni o'z qadryati, qarashlaridan mahrum bo'lishi darajasiga olib keldi. Aslini olganda inson qadr-qimmati nima? .Bu insonning erkin yashashi, mustaqil fikrlashi, istagan diniga e'tiqot qilishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi emasmi? .Bu fojiali urishlar esa insonlarni bu huquq va erkinliklardan mahrum qildi. Bu kulfatlarning sababchilari kim deb o'ylaysiz? Bunga albatda insonning o'zi ham tom ma'noda sababchi bo'lib qoladi. Biz hozir ilm-fan rivojlangan tarraqiyot dunyoda yashayabmiz. Nahotki biz insonlarga tarixda yo'l quyilgan xatolar dars bo'lmadi. Insonlar tarixni bilib, o'qib, o'rganib yana nega xatoga yo'l qo'ymoqdalar.Tarixda bo'lgan kulfat yo'qotishlar dars bo'lmadimi?- deb o'ylab qolasan kishi. Nega bu dunyoda urishsiz va yo'qotishlarsiz insonlar yashay olishmaydimi?. Hozirgi kunda bo'layotgan voqealarga men va men kabi yoshlarning

fikrlarimiz tamoman boshqacha: urish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi va biz erkin va farovon hayot sari intilamiz. Haqiqatan, el-yurt manfaati yolida fidokorlik korsatib, bugun qarilik pallasida turgan ota-bobolarimiz mehnati va jonbozligini qadrlash, ularga hurmat va ehtirom korsatish bugungi avlodlarning sharaflı burchi, chuqur masuliyatidir. Alloh taologa beadad hamdu sanolar aytamizki, mana bugun ulug' ajdodlarimiz orzu qilgan buyuk nemat – Vatan ozodligi va mustaqilligiga erishilgan nurli kunlarga etib keldik. Bugungi davrda Yangi O'zbekiston “Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SHAVKAT MIROMONIVICH MIRZIYOYEV 2022-yilni “INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA” YILI deb nomlanishi bejiz emas. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya masalasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib borishi va inson manfaati va qadri ustuvor ekanligining dalolatidir. Inson dunyoda umid bilan yashshaydi. “Orzularimizga yetay, shinam uy-joyim bo'lsa, yon atrofimsa qulay sharoit, bekamu ko'st muhit hokum sursa, jamiyatga, raiyatga, davlatga, oilamga, ota-onamga, do'st-u yorlarga, mahalla ko'yga, qishlog'imga, yurtimga foydam tegsa, murodu maqsadim ushalsa” deydi. muhtaram perezidentimiz o'z nutqlarida. Bizning mustaqil O'zbekistonimizda inson qadriyati oliy darajada qadrlanadi. Chunki bunyodkorlik - xalqimizning eng olijanob fazilati. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, o'zbek tom ma'noda bunyodkordir, do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, erkinlashtirish jarayonlari va bunyodkorlik ishlari bunga yorqin misol bo'ladi. Bu muhitda o'sgan yosh avlod bundanda buyuk farovon kelajak barpo eta olishi shubhasizdir. Biz kelajagimizni shunday ulug' darajada ko'ra olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)

## **IQTISODIYOTNING XALQARO INTEGRATSIYASIDA INVESTITSIYALARNING O’RNI VA AXAMIYATI**

**N.J.Rahimova**

TMI "Xalqaro Moliya va kredit" kafedrası magistranti

Ilmiy rahbar: **U.A.Yuldasheva,**

TMI "Xalqaro Moliya va kredit" kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya’ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o’sishi ko’p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog’liq. Bizga ma’lumki, mamlakatdagi investitsion jarayonlar investitsion siyosat orqali amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Investitsion siyosat mamlakatning investitsion salohiyatini oshirishga va investitsion faoliyatni kengayishiga yordam beradi. Darhaqiqat, bugun O’zbekiston mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash, ayniqsa, xususiy sektorni rivojlantirar ekan, investitsion faoliyatni jadallashtirishdagi xalqaro tajribalarga suyanmog’i lozim.

**Kalit so’zlar:** Xalqaro iqtisodiy integratsiya, integratsiya jarayonlari, investitsiya, investorlar, xalqaro TMKlar, tashqi savdo, raqobat, ichki va tashqi investitsiyalar, xalqaro mehnat taqsimoti, savdo-sotiq, innovatsion texnologiyalar, inflyatsiya.

### **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ИНТЕГРАЦИИ ЭКОНОМИКИ**

Магистрант: **Н.Ж.Рахимова**

Научный руководитель: **У.А.Юлдашева**, доцент кафедры

“Международные финансы и кредит”

**Аннотация:** От инвестиционных процессов в стране во многом зависит уровень развития каждой страны, то есть развитие и экономический рост экономики. Как мы знаем, инвестиционные процессы в стране осуществляются и регулируются посредством инвестиционной политики. Инвестиционная



политика способствует повышению инвестиционного потенциала страны и расширению инвестиционной деятельности. Действительно, сегодня Узбекистан должен опираться на международный опыт дальнейшего реформирования и модернизации экономики страны, особенно в части развития частного сектора, ускорения инвестиционной деятельности.

**Ключевые слова:** Международная экономическая интеграция, интеграционные процессы, инвестиции, инвесторы, международные ТНК, внешняя торговля, конкуренция, внутренние и внешние инвестиции, международное разделение труда, торговля, инновационные технологии, инфляция.

## **THE ROLE AND IMPORTANCE OF INVESTMENT IN THE INTERNATIONAL INTEGRATION OF THE ECONOMY**

Master's student: **N.J.Rahimova**

Scientific adviser: **U.A.Yuldasheva** Docent PhD at the  
“International Finance Credit” Department of  
Tashkent Financial institute

**Annotation:** The level of development of each country, that is, the development and economic growth of the economy largely depends on the investment processes in the country. It is known to us that the investment processes in the country are carried out and regulated by investment policies. Investment policy helps to increase the investment potential of the country and investment activities. In fact, today Uzbekistan should rely on international experience in further reforming and modernizing the country's economy, especially in the development of the private sector, to accelerate investment activity.

**Keywords:** International economic integration, integration processes, investment, investors, International TCCs, Foreign Trade, Competition, domestic and Foreign Investment, International Labor distribution, trade, innovative technologies, inflation.

### **Kirish.**

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta ta'mirlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

Mamlakatda iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, uni tarkibiy jihatdan o'zgartirish, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, keng ko'lamdagi ichki va tashqi investitsiyalarni talab qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "... davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega"[1].

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** – bu milliy xo'jaliklar (davlatlar) o'rtasida o'zaro ko'p tomonlama barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.[2] Integratsiya - jahon mamlakatlari o'rtasida yangi tovarlar oqimini shakllantirish orqali "resurslar cheklanganligi" muammosini bartaraf etish yo'li. Bu orqali jahon mamlakatlarida nisbatan serxarajat tovarlar ishlab

chiqarishga chek qo'yilib, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, ya'ni, ITTKIga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – davlatlararo iqtisodiy kelishuvlar shaklini oluvchi davlatlarning xo'jalik-siyosiy birlashish jarayonidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani amalga oshirishda davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtiriluvchi turli davlatlarning kompaniyalari darajasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilish muhim turtki bo'ldi. XXI asr boshida jahonda 100 dan ortiq davlatlarni qamrab oluvchi 30 ga yaqin integratsion guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya - bu turli shakl va turli darajadagi o'zaro muvofiqlashgan ishlab chiqarish tarkibining milliy iqtisodiyotlar mehnat taqsimoti asosidagi chuqur va barqaror aloqalardan iborat mamlakatlarning xo'jalik-siyosiy birlashuv (qo'shiluv) jarayonidir. Mikrodarajada bu jarayon kapitalning faoliyati orqali alohida xo'jalik subektlarining (korxonalar va firmalar) qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy kelishuvlar tizimini shakllantirish orqali xorijda filiallarni tashkillashdir. Davlatlararo darajada integratsiya davlatlararo iqtisodiy birlashmalarning shakllanishi asosida muvofiqlashgan siyosatni amalga oshirishdir.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Investitsiya va integratsiyalarning mazmun-mohiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Xorijiy hamda mahalliy mualliflarning iqtisodiy adabiyotlarda, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida xam ushbu atamalar turlicha talqin etiladi.

Prof.N.H.Haydarov investitsiyalar mazmun-mohiyatiga quyidagi ta'rifni beradi: “Investitsiya-bu mulk shaklidan qat'i nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashdir”. [3]

Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va diversifikatsiyalash jarayonlarini kengaytirish masalalari A.Bulatov, A.Kireev, P.Krugman, V.Zubenko, V.Kovalev, R.Xasbulatov, M.Eskindarov, E.Zvonova singari olimlarning asarlarida tadqiq etilgan.[4] Ko'pchilik xorijlik olimlarning fikriga ko'ra «integratsiyaga doir

ko‘plab tadqiqotlar uni rivojlantirishning ijobiy samarasi ko‘p hollarda boshqa samaralardan ustunlik qilishini ko‘rsatadi». Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Alimov, I.Hamedov, J.Jalolov, I.Axmedov, I.Nematov, G.Nazarova, X.Xalilov, R.X. Shodievlarning[5] asarlari jahon integratsiyasi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan.

### **Tahlil va natijalar.**

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosan ikki ko‘rinishda(mikro-transmilliy korporatsiyalar(TMK)ning tashkil etilishi orqali, makro-iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali) amalga oshiriladi.

**Mikro miqyosdagi integratsion jarayonlar** - bir-biriga hududiy jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning kapitallarini o‘zaro ta’sir doirasi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, ushbu davlatlar o‘rtasida integratsion jarayonlar iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi, kichik shahobchalar, sho‘ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi.

Tashkil topgan korxonalar va firmalar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning tez rivojlanishi tovar almashuvini, xizmat sohaslarini, kapital va ishchi kuchining mamlakatlararo erkin harakatini ta’minlashga, ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy-texnologik, tashqi iqtisodiy va mudofaa, moliyaviy va valyuta sohasida yagona siyosatni o‘tkazish zaruriyati tug‘iladi.

Yagona valyuta va moliyaviy fondlar, infratuzilmalar va umumiy davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo‘lgan iqtisodiy majmualar yaratiladi.

**Makro miqyosdagi integratsion jarayonlar** - davlatlararo darajada integratsiya davlatlar iqtisodiy birlashmalarining shakllanishi hamda iqtisodiy siyosatlarning kelishuvi asosida amalga oshadi.<sup>2</sup>

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston MDH, ShHT kabi yirik mintaqaviy integratsiya birlashmalariga a‘zo hisoblanadi. Dunyo tajribasiga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga transmilliy korporatsiyalarni jalb qilish O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya tuzilmalarida samarali va chuqur ishtirok etishining muhim omili bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo mintaqasi, MDH doirasidagi integratsiyalashuv jarayonlarida o'ziga xos xalqaro qo'shma kontsernlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kompaniyalarning tashkil topishi, hamkor mamlakatlarning sanoat ishlab chiqarish sohasidagi xo'jalik sub'yektlari orasida tarixiy shakllangan murakkab kooperatsiya aloqalarining qo'llab-quvvatlanishiga, Markaziy Osiyo integratsiyasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining tezlashishi va rivojlanishiga olib keladi.

Iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilardan iboratdir:

1. Erkin savdo hududi. Uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladilar, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo to'siqlarini buzmaydi. Ya'ni maqsadi- qo'shni qatnashchi mamlakatlarning sustroq bojxona to'sig'i orqali uchinchi mamlakatlardan hududga kirib keluvchi import tovarlar uchun soliq undirish yoki uni ta'qiqlash.

2. Bojxonalar ittifoqi. Qatnashchi mamlakatlar tashqi savdo to'siqlarining yagona tizimini ta'sis etish.

3. Umumiy bozor. Qatnashchilar savdodan tashqari ishlab chiqarish omillarining barchasini bema'lol ko'chirish erkinligiga ega bo'lish.

4. To'la iqtisodiy ittifoq. Qatnashchi mamlakatlarning barcha iqtisodiy siyosatlarini bir xillashtirish.[6]

Iqtisodiy integratsiya natijasida resurslar erkin xarakat qiladi, raqobat kuchayadi, samaradorlik ortadi, tovarlar sifati yaxshilanadi, iste'molchilar talabi ortadi, Tovar turi ortadi, ishsizlik darajasi pasayadi, umumiy bozor shakllanadi, farovonlik oshadi, iqtisodiyot rivojlanadi va h.k.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, transmilliy korporatsiyalar o'zining tashkil topishi va faoliyat yuritish mexanizmi jixatidan xalqaro xarakter kasb etadi. TMKning xalqaro doirada faoliyat ko'rsatishi uchun esa ma'lum bir shart-sharoitlar va imkoniyatlar bo'lishi talab etiladi. Transmilliy korporatsiyalar uchun yaratilishi kerak bo'lgan bunday imkoniyatlarni biz, bevosita O'zbekiston a'zo bo'lgan integratsiya uyushmalaridan izlamog'imiz darkor. O'zbekiston miqyosida tashkil etilishi lozim bo'lgan transmilliy korporatsiyalarning xalqaro doirada faoliyat ko'rsatishi, bizning

nazarimizda O'zbekiston a'zo bo'lgan integratsiya uyushmalarining taraqqiyot yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, mazkur integratsiya uyushmalarida qatnashchi mamlakatlar o'rtasidagi har taraflama xo'jalik aloqalarining chuqurlashuvi ma'lum bir mintaqaviy bozorlarni shakllantirish kerak ekanligini talab etadi. Chunki, tashqi bozorlarsiz mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyati chegaralangan bo'ladi.

Shu sababli TMKning, shuningdek, chet el investorlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga kirib kelishi ob'ektiv zarurat bo'lib, buni biz mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashuvida va ishbilarmon tadbirkorlarning va ko'plab xorijiy mamlakatlar kapitallarining erkin ishlab chiqarish sanoat tarmoqlariga kirib kelishi jarayonlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish jarayonlarini amalga oshirishda, jahon bozorlarida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini investitsiyalash jarayonlarining borishida ko'zga ko'ringan TMKlar bilan hamkorlik qilish nihoyatda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham TMKlar investitsiyalarining kirib kelishi quyidagi omillarda namoyon bo'lishi mumkin:

- respublikada iqtisodiy va texnik taraqqiyot darajasining o'sib va tezlashib borishida;
- O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini yangilash va modernizatsiyalashda;
- respublikada ishlab chiqarish sanoat korxonalarini ilg'or uslubiy boshqaruv imkoniyatlariga ega bo'lishligida;
- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi mutaxassis-kadrlarni respublikada tayyorlash imkoniyatining mavjudligi va hokazolarda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ko'plab xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan islohotlarni o'tkazishda va bu mamlakatlarni iqtisodiy inqirozdan olib chiqishda TMKlar investorlarini jalb qilish katta ahamiyatga egadir. Chunki tarixiy

va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bir xo'jalik tizimidan ikkinchi bir siyosiy xo'jalik tizimiga o'tish jarayonida u yoki bu mamlakatlar iqtisodiyotini ko'tarish uchun juda katta investitsiya va boshqa moliyaviy yordamlar talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi ham boshqa MDH mamlakatlari kabi bu sohada o'ziga xos muammolarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- birinchidan, O'zbekiston Respublikasini hududiy kattaligi (447,4 ming kv.km) va respublikada xalqaro transport kommunikatsiya tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalarining (dastgoh va asbob-uskunalar) eskirib qolganligi va hozirgi davr jahon standartlari, xo'jalik rivojlanishi talablariga javob bermasligi;
- uchinchidan, respublikada qishloq xo'jaligida yetarli resurslar mavjudligiga qaramay (tabiiy va inson resurslari, iqlim sharoitlari va hokazolar) past unumdorlik va hosildorlik darajasining saqlanib qolganligi va boshqalar.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududiga TMK investorlarini kirib kelishi uchun qulay investitsion iqlim mavjuddir. Buni biz respublikani barqaror siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida ko'rishimiz mumkin.

AQSh, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Shveysariya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi qudratli davlatlarning TMKlari va shuningdek, nufuzli xalqaro moliyaviy muassasalar (ETTB, OTB, ITB va boshqalar) bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida milliy sanoat korxonalariga, xizmat ko'rsatish sohalariga yangi mashina-uskunalarni, texnika va texnologiyalarni yetkazib berish, qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlash borasida bir qator muhim xujjatlar imzolangan. Bundan tashqari, xo'jalikni moliyalashtirish, Qashqadaryo va boshqa viloyatlardagi gaz-neft konlarini qidirish, o'zlashtirish loyihalarini kreditlash bo'yicha qator bitimlar imzolangan. Ayniqsa, neft-gaz konlarini o'zlashtirish bo'yicha Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Yaponiya TMKlari bilan bo'lgan munosabatlarning faol rivojlanib borishi respublika iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning paxta xom-ashyosini tayyor mahsulot sifatida xalqaro bozorlar talabiga javob beradigan

darajada qayta ishlaydigan to'qimachilik sanoat korxonalarini tashkil qilishda Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, Shveysariya va boshqa mamlakatlarning kompaniyalari bilan birga milliy kompaniyalar va banklar ham ishtirok etmoqda. Respublikada tadbirkorlikni, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki bilan yaqindan hamkorlik qilish, yangi kredit liniyalarini ochish respublika rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasiga TMKlar investorlarini jalb qilinishi uchun quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- O'zbekiston hududi tabiiy resurslarga-neft, tabiiy gaz, qurilish materiallari, oltin, mis va boshqa qimmatbaho metallarga ega ekanligi;
- Respublikada ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi yangi texnologiyani tezda o'zlashtirib oluvchi malakali mutaxassis kadrlarning mavjudligi;
- O'zbekiston Respublikasida nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi;
- O'zbekiston hududida ichki bozorlarning kengligi va ko'pligi;
- Respublikada iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va erkinlashtirish, sanoat korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarining jadal sur'atlar bilan olib borilayotganligi va ularda TMKlar investorlarining to'liq qatnashish imkoniyatining mavjudligi va boshqalar.

Respublikada rivojlangan davlatlarning TMKlari tomonidan ko'rsatilayotgan kapital mablag'lar tizimining o'sishi sanoat uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnik uskunalarni, texnologiyani sotib olish imkoniyatini bermiqda.

### **Xulosa.**

Davlatlar xalqaro iqtisodiy integratsiyasini amalga oshirishda keyinchalik davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtiriluvchi turli davlatlarning kompaniyalari darajasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilish muhim turtki bo'ladi. XX asr nihoyasida 100 dan ortiq davlatlarni qamrab oluvchi 30 ga yaqin integratsion guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya milliy va xalqaro tadbirkorlik tuzilmalari manfaatlariga javob beradi, chunki:



- korxonalar faoliyatining geografik doiralarini kengaytirishga;
- tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchini xalqaro ayirboshlashda chegaraviy to'siqlarni bartaraf qilishga;
- masshtab effekti afzalliklarini realizatsiya qilishga;
- davlatlar o'rtasida texnologiyalar almashish bo'yicha bitimlar va yangiliklar kiritish oqimining o'sishiga;
- integratsion guruh a'zo davlatlar kompaniyalarining ITTKIga harajatlarini ko'paytirish hisobiga raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

Integratsiya jarayoni dinamikasining asosiy ko'rsatkichlari:

- mamlakatlararo tovar ayirboshlashning jami YaMMdagi ulushi;
- integratsion guruhga a'zo mamlakatlarning umumiy tovar aylanmasi hajmida ularning mamlakatlararo ayirboshlashining ulushi;
- integratsion guruhga a'zo mamlakatlarning o'zaro BXI hajmini ularning boshqa dunyo mamlakatlariga BXI hajmi bilan solishtirish;
- integratsion guruh ichida kompaniyalar birlashmalari sonini boshqa davlatlar firmalari bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish va qo'shilishlar soni bilan taqqoslash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.:“O'zbekiston”,2018-yil.B.22
- 2.Tursunova M.R. Xalqaro menejement. Darslik. – IQTISODIYOT DUNYOSI, 2022
- 3.Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. – М.: Юристъ, 2012. – 240 с.;
- 4.Nasirov.E.I., Asomxodjaeva.SH.SH.Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Darslik.-T.:“Iqtisod-Moliya”,2020.-145b
- 5.Tursunova M.R. Xalqaro menejement. O'quv qo'llanma. – IQTISODIYOT DUNYOSI, 2022.
- 6.Tursunova M.R. Xalqaro menejement. Darslik. – IQTISODIYOT DUNYOSI, 2022

## IS`HOQXON IBRAT SHE`RIYATIDAGI ANTONIMLIK XUSUSIYATI

**Murodova Gulchiroy Muhiddinovna**

Buxoro davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Is`hoqxon Ibrat she`riyatiga badiiy va lingvistik jihatdan yondashilib, uning she`rlarida qo`llanilgan antonimlik xususiyatining o`ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, zid ma`nolilikning Is`hoqxon Ibrat she`riyatida tutgan o`rni, ahamiyati haqida batafsil ma`lumot berilib, yuqoridagi fikrlarga isbot tariqasida Is`hoqxon Ibrat she`rlaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi. Antonimlik xususiyatlarining Is`hoqxon Ibrat ijodidan o`rin olishi muallif ijodining mazmunini yanada kuchaytirishga yordam bergani maqolada o`z aksini topgan.

**Kalit so`zlar:** Is`hoqxon Ibrat she`riyati, antonimlik, antonimlik hodisasining Is`hoqxon Ibrat she`riyatida o`z aksini topishi, badiiy yondashuv, lingvistik yondashuv.

### ANTONYMONIC PROPERTY IN IS`HAKHAN IBRAT'S POETRY

**Murodova Gulchiroy Muhiddinovna**

Master of Bukhara State University

**Annotation.** In this article, Is`hakhon Ibrat's poetry is approached from an artistic and linguistic point of view, and the peculiarities of the antonym used in his poems are studied. In addition, detailed information is given about the role and significance of the opposite meaning in the poetry of Is`hakhon Ibrat, and examples of the poems of Is`hakhon Ibrat are given and analyzed as proof of the above ideas. The article reflects the fact that the presence of antonyms in the work of Is`hakhon Ibrat helped to further strengthen the content of the author's work.

**Keywords:** Is`hakhon Ibrat's poetry, antonyms, reflection of antonyms in Is`hakhon Ibrat's poetry, artistic approach, linguistic approach.

### АНТОНИМИЧЕСКАЯ СОБСТВЕННОСТЬ В ПОЭЗИИ ИСХАКХАНА ИБРАТА

**Муродова Гульчирой Мухиддиновна**

Магистр Бухарского государственного университета


**Аннотация.** В данной статье к поэзии Исхакхана Ибрата подходят с художественно-лингвистической точки зрения, исследуются особенности антонима, используемого в его стихах. Кроме того, дается подробная

информация о роли и значении противоположного смысла в поэзии Исхакхона Ибрата, а также приводятся и анализируются примеры стихотворений Исхакхона Ибрата в доказательство вышеизложенных идей. В статье отражен тот факт, что наличие антонимов в творчестве Исхакхона Ибрата способствовало еще большему усилению содержания авторского произведения.

**Ключевые слова:** поэзия Исхакхона Ибрата, антонимы, отражение антонимов в поэзии Исхакхона Ибрата, художественный теория, лингвистический теория.

Adabiyotimiz tarixida shu qadar qalami o`tkir, mohir ijodkorlar yetishib chiqqanki, ularning asarlari hali-hanuz o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q, bugungi kun uchun ham ularning asarlari birdek qadrlil. Ana shunday chin ijodkorlik qobiliyatiga ega shoirlardan biri Is`hoqxon Ibrat hisoblanadi[4]. Is`hoqxon Ibrat she`r yozish bilan birgalikda qator faoliyatlar ham olib borgan. Iste`dodli shoir, bilimli ulamo, nashriyot sohasining o`ziag xos vakili, malakali ustoz, qator asarlar tarjimoni sifatida biz Is`hoqxon Ibrat ijodi bilan yaqindan tanishmiz.

#### Is`hoqxon Ibrat haqida(1-chizma).



Is`hoqxon Ibrat she`riyati o`ziga xos ohangga va ovozga ega bo`lib, uning ijodidagi noziklikni boshqa ijod olamidagi shoirlar she`rlaridan topa olmaysiz. Buning sababi

shundaki, Is`hoqxon Ibrat she`rlarida qo`llanilgan badiiy tasvir vositalari muallif tomonidan o`rinli qo`llanilgan bo`lib[8], bugun biz aynan Is`hoqxon Ibrat she`rlaridagi antonimlik hodisasi bilan alohida tanishib chiqamiz. Antonimlik nima, uning gapdagi vazifasi qanday va ushbu hodisaning Is`hoqxon Ibrat she`rlaridagi ahamiyati qanday kabi savollarga tilshunos va adabiyotshunos sifatida badiiy va lingvistik jihatdan javob beramiz.

**Antonimlik** hodisasi bu qarama-qarshi, zid ma`noli so`zlarning ishlatilish hodisasi sanalib[3], mumtoz adabiyotda zidlantirish san`ati tazod deya yuritiladi. Antonimlik hodisasining o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lib, uning gapda qay tarzda yuzaga kelganligiga ko`ra ikki guruhga ajratish mumkin, ya`ni ochiq ifodalangan antonimlar va ishora qiluvchi antonimlar. Ochiq holda ifodalangan antonimlarda zid ma`noli so`zlar aniq ko`rsatilgan bo`ladi, ya`ni yaxshi-yomon, katta-kichik kabi. Biroq ishora qiluvchi antonimlik hodisasi aniqlikdan birmuncha yiroq bo`ladi, ya`ni unda ifodalanayotgan zidlikka aniq ishora berilmay, zimdan ifoda qilinadi.

**Antonimlikning yuzaga kelganligiga ko`ra turlari(2-chizma).**

Ochiq holda  
ifodalangan antonimlar

Ishora qiluvchi  
antonimlar

Aynan Is`hoqxon Ibrat she`riyatida ham biz ochiq holdagi va zimdan ishora qilingan antonimlik hodisasining kuzatilganiga guvoh bo`lishimiz mumkin.

*Boy ila kambag`al yo`q, yo`q zanlarini farqi,  
Barcha libosi haftrang, bir nogahon bo`lubdur[6].*

Is`hoqxon Ibratning *“Bo`lubdur”* g`azalidan olingan ushbu parchada ochiq-oydin ifodalangan antonimik birliklar mavjud, ular “boy” va “kambag`al” so`zlari hisoblanadi. Bir-biriga qarama-qarshi ma`noni ifodalagan ushbu so`zlar mohiyatan ziddiyat asosiga qurilgan. Bundan tashqari, ijodkorning “Dunyo aylab safarlar...” deya boshlanuvchi g`azalida ishora qiluvchi antonimik hodisa mavjud bo`lib, bunda ushbu holatning mantiqiy asosga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, so`zlar ifodalagan ma`no orqali zidlik hodisasining mohiyatini aniqlash mumkin, e`tibor bering:

*Dunyo bo`ylab safarlar, topmadim xo`b orqadosh,*

*Hasrati dilni deyolmay, hech etmay sirni fosh.*

Ushbu baytdagi zimdan ishora qiluvchi zid ma`noli so`zlar sifatida sir – fosh so`zlarini olish mumkin. So`z turkumlari jihatidan xilma-xillikni ifodalasa-da, biroq unga mantiqan yondashadigan bo`lsak, undagi *“sir”* so`zi *yashirin* bo`lishi evaziga, *“fosh”* so`zi *oshkora* bo`lishi evaziga bir-biri bilan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Aytish joizki, ushbu tur zid ma`noli so`zlarni matn tarkibidan aniqlash qiyin bo`lib, ularni topish uchun kishidan bilim talab qilinadi.

*Halol o`rniga kechdi g`iybat degan,*

*Takalluf rasmi tomoq odat ekan.*

*Bular topsa erdiki ilmu adab,*

*Demas erdi bu xil so`zi bo`lmag`on.*

Yuqorida keltirilgan “Gazet haqida” she`ridan olingan parchaga e`tibor bering, unda ham ishora qilish xususiyatiga ega bo`lgan *“halol-g`iybat”* leksemalari mavjud. Halol so`zi mohiyatan g`iybat so`zi bilan qarama-qarshilikni yuzaga keltirgan. Bunga Islom dini nuqtayi nazaridan ham yondashadigan bo`lsak, bilishimiz mumkinki, halollik bu poklik sifatiga ega tushunchalarni ifoda etsa, g`iybat esa dinda harom qilingan, ya`ni man etilgan voqeliklar sirasiga kiradi.

Xulosa sifatida aytadigan bo`lsak, Is`hoqxon Ibrat she`rlarida qo`llangan antonimlik, ya`ni zidlik hodisasi shoir ijodining yanada ta`sirli va betakror bo`lishiga xizmat qilgan. Ya`ni unda qarama-qarshi qo`yilgan birliklar she`r ruhini ko`tarib, mutolaa qiluvchi uchun yoqimli bo`lishiga sabab bo`lgan. She`rlarida aks etgan aniq

ifodalagan antonimlik hodisalari yoki bo`lmasa mantiqqa asoslanuvchi , zimdan ishora qiluvchi voqeliklarning yoritilishi muallif mahoratidan darak beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirahmedova, S. N. (2021). IS'XOQXON IBRAT ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Academicresearch in educational sciences*, 2(5), 770-778.
2. Axrorova, U. X. (2021). NAMANGAN MADANIY-MA'RIFIY HAYOTIDA IS'HOQXON IBRAT MAKTABINING O'RNI. *Scientific progress*, 2(1), 1087-1093.
3. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2009.
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: “Talqin”, 2005.
5. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: “O'qituvchi”, 1992.
6. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. Toshkent: “O'qituvchi”, 1972.
7. Алиназарова, Д. В. (2019). NAMANGANDA VAQTLI MATBUOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXIDAN. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (20).
8. Teshayev, A. T. O., & Boboqulov, O. (2021). TURKISTONDA YANGI USUL MAKTABLARINING FAOLIYATI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Scientific progress*, 2(3), 269-275.
9. [www.hozir.org](http://www.hozir.org)
10. [www.google.com](http://www.google.com)
11. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

## IT IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

**Jangibayev Nursulton**

An English teacher at the school №36

Zamin district, Djizak

### **Abstract**

Information technologies have affected every aspect of human activity and have a potential role to play in the field of education and training, specially, in distance education to transform it into an innovative form of experience. The need of new technologies in teaching learning process grows stronger and faster. The information age becomes an era of knowledge providing sound and unmatched feasibility for discovery, exchange of information, communication and exploration to strengthen the teaching learning process.

**Key words:** Information technology (IT), multimedia, aspects

### **Introduction**

It is very difficult to imagine our lives today without technology. In particular, the telephone, computer and the internet are an integral part of human life turned around. That's why the 21st century is called the Age of Technology. Nowadays, technology is so advanced that every field, every science it serves as a foundation for development and prosperity. Education classes using modern technologies in the system independent search for knowledge by students; to analyze them, to evaluate their knowledge, to draw the right conclusions aimed at teaching.

### **IT in teaching**

Computers, the Internet, and multimedia are also used in learning and teaching foreign languages and other technology exhibitions are important. New information technologies offer great opportunities in foreign language teaching, science plays an important role in improving the quality of education and the effectiveness of

education. As you know, there is no such thing as a modern course and the lesson should not take place without a teacher or student presentation. That's why half of all foreign language textbooks are multimedia, games and more consists of presentations and foreign language lessons without modern technology can't pass.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 “Foreign language on Measures to Further Improve the Education System “From modern pedagogical and information-communication technologies through the introduction of advanced teaching methods using teaching the next generation a foreign language that they can speak fluently radical improvement of the training system and its implementation based on their global development achievements as well as world information resources to benefit widely, to develop international cooperation and dialogue creating the conditions and opportunities for “ work and a number of things to do the need to perform important tasks. So from 2013 onwards Foreign languages have been taught since the 1st grade. The textbooks are also step-by-step is changing.

Foreign languages are taught in 4 aspects. They are: speaking, listening, writing and reading . I am going to tell you each of these aspects based on the experience with the role and importance of technology. It includes the followings:

The process of *listening* without the computer, player, CDs can't be done. Listening is the most important part of language teaching is one of the parts. In this case, the student simultaneously pronounces the pronunciation of the speaker, adherence to grammatical rules, attention to vocabulary and its meanings required to give. That's why it's important to listen and understand in every class textbook various cartoons, videos, multimedia and games are provided. From this in addition to those who want to learn independently, movies, songs and more they can easily learn a foreign language by watching and listening to videos. Students never want a real language environment if they want to learn a foreign language can't learn a foreign language without listening. It is important to learn a foreign language well the condition is to listen more and listen again.



IT can also be used in the process of *speaking*, and this ensures that the result is effective. He writes down what he says when he hears again, he realizes the mistakes in his pronunciation, and so on tries not to repeat the error. Some where you can learn a foreign language there are books and programs that act as live chatters with us. That is why we don't need anyone else. This is also modern technology is an achievement. If we look at the *writing* process, how much is IT? We can see that For example, we are on a computer analyzes each word as you type, and the error is underlined draws a line. Also a story written by others over the internet, an essay and letters. Also across the country in our telegram group, which includes all foreign language teachers we analyze students 'writing and how to write to them we learn by discussing teaching.

Technology also has a special place in the *reading* process. Here are some suggestions on how to look or get an appointment for independent reading copy and distribute to students or display the text on a monitor, while one student is reading, the rest of the students can follow the text and will be able to analyze. This is also a foreign language of technology one of the advantages of teaching.

### **Conclusion**

In the same way, teachers use the Internet to teach foreign languages and students will also have better opportunities in their work The introduction of ICT in the teaching process is also a topical issue. Modern educational programs for lesson effectiveness, searching for information on the Internet, results Growing interest in learning foreign languages as an international, intercultural understanding of communication, the ability to expand the scope of the learning environment is obtained on the basis of.

### **References**

1. Eshmuhammedov R. "Innovative pedagogical technologies in education and upbringing" T .: Teacher, 2008.
2. Isomiddinov T. "Pedagogical technology" (Text of lectures)
3. Internet sources

## KARTOSHKANING ZAMBURUG`LI KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI ZAMONAVIY KURASH CHORALARI

**Jo`rayeva Sarvinoz Farhod qizi**

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

O`simliklar himoyasi, Agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

**Numonova Maftuna Hayotjon qizi**

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

O`simliklar himoyasi, Agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kartoshka o`simligi va unda uchraydigan har xil zamburug`li kasalliklar, ularning yuqush yo`llari, o`simlik organlarida rivojlanib, turli xildagi belgilarni namoyon qilishi hamda ularga qarshi zamonaviy kurash choralari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Solanaceae, makrosporioz, fomez, fuzarium, alternarioz.

**Kartoshka haqida umumiy tasnif:** Kartoshka ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub bo`lib, bu oila 90 turkumga kiruvchi 3000 turni birlashtiradi va bular yer sharining mo`tadil iqlimli, tropik, subtropik mintaqalarda, xususan, Janubiy va Markaziy Amerikada keng tarqalgan. O`zbekistonda 7 ta turkumga oid 25 turi o`sadi. Kartoshka (lotincha: Solanum tuberosum L.) – Solanaceae oilasiga mansub tugunak mevali ko`pyillik o`tsimon o`simlik; asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo`lgan bir-yillik oziq-ovqat, texnika va xashaki ekin.

**Kasalliklar:** So`lish kasalligi – kasallangan o`simlik so`liydi, keyinroq qurib qoladi. O`simlik poyasi kesib qaralganda zararlangan nay to`qimalari qo`ng`ir tusda bo`ladi. Kasallik issiq kunlarda ko`proq tarqaladi;

Makrosporioz – barglarda qo`ng`ir to`garak dog`lar paydo bo`ladi. Keyinchalik kattalashib, bargni butunlay qoplab oladi, bunday burglar quriydi. Kasallik o`simlik poyasiga ham o`tib, ularda cho`ziq qo`ng`ir dog`lar hosil qiladi;

Qora chirish – poya hamda pastki burglar sarg`ayadi, yuqoridagilari qayiqcha shaklida buraladi. Keyinchalik poyaning ostki qismi qorayadi, ingichkalashadi, kartoshka hosil bo`lmaydi;

Halqasimon chirish – kasallikning boshlanishida kartoshka palagi so`liydi, tugunagi chiriydi (kesilganda qo`ng`ir halqasimon chirish ko`rinadi).

Bundan tashqari kartoshkaning aynishi, gotika, mayda barglilik, barglarning buralishi kabi kasalliklar ham kartoshkaning normal o`sishi, rivojlanishi va hosiliga jiddiy zarar yetkazadi. Qo`ziqorinlar, bakteriyalar va viruslar kartoshka kasalliklarini keltirib chiqaradi. Ular o`simlik tanasiga ildiz, barglar, jarohatlangan joylar orqali kirib boradilar.

### **Qo`ziqorin kasalliklari:**

Patogen qo`ziqorin sporalari havo oqimi va suv tomchilari bilan tarqalishi mumkin. Ular uyqu holatida harakatlanib, kartoshka barglari yuzasiga yopishib oladilar va rivojlanish uchun qulay sharoitlar paydo bo`lishini kutadilar. Bularga misollar:

**Fomoz:** U o`sinh davrining ikkinchi yarmida rivojlanadi va fomozning birinchi belgilari o`simlik barglarida noaniq shaklning qorong`u joylari. Poyada siz to`p shaklida kichik o`sishni ko`rishingiz mumkin. Kartoshkani qazishda dehqon ildiz mevalarda kasallik alomatlarini topa olmaydi, ammo ular saqlash paytida paydo bo`ladi. Bu fomozning hiyla-nayrangidir. O`rim – terimdan so`ng, ildiz quruq chirish bilan qorong`u joylarni hosil qiladi. Uning diametri 5sm ga yetishi mumkin. Har bir kartoshkada ba`zida bir emas, balki bir nechta dog`lar topiladi. Kasallikka qarshi profilaktika usullari bilan kurashish tavsiya etiladi. SHu maqsadda urug`lik kartoshkalari yerga singib ketishdan oldin maxsus preparatlar bilan, masalan, Maksim bilan ishlov beriladi. Qayta ishlangandan so`ng, ko`chat materiallari quritiladi va sepiladi.

**Fuzarium kasalligi:** Kasallik ko`pincha quruq cherish deb ataladi. U issiq havoda namlikning kuchli bug`lanishi paytida rivojlanadi. Kasallikning rivojlanishi uchun zarur shart o`simliklarni ortiqcha sug`orish bo`lishi mumkin. Kartoshkada fusarium kasalligining belgilari: Barglarning rangsizlanishi; Pastki barglarning qirralari biroz binafsha rangga aylanadi, butaning tepasi porlaydi; Kasal tupning barglari

elastikligini yo`qotadi va susayadi; Sopi jigarrang bo`ladi; Oq yoki kulrang tukli qoplama bilan qoplangan ildiz mevalaridagi dog`lar paydo bo`ladi; Vaqt o`tishi bilan sabzavotlar chiriydi. Afsuski, kasallik bir tupdan boshqasiga juda tez tarqaladi. Yoyilishning oldini olish faqat ta`sirlangan tupni o`z vaqtida olib tashlash bilan amalga oshiriladi.

Fungitsidlar bilan ekishdan oldin urug`lik kartoshkasini qayta ishlash kasallikning rivojlanish ehtimolini pasaytiradi. Kartoshkaning fuzariy so`lishiga chidamli navlari: “Detskoselskiy”, “Priekulskiy erta” va boshqalar.

**Alternarioz:** Bu kasallikni quruq dog` deb ham atashadi. Qulay sharoitlarda kasallik 30% gacha hosilning katta qismini yo`q qilishi mumkin. Alternaroz belgilari: barglardagi juda katta jigarrang dog`lar, ular ko`pincha gullash boshidan 2-3 hafta o`tgach kuzatilishi mumkin. Vaqt o`tishi bilan dog`lar butun plitani qoplaydi, natijada o`simlik o`ladi. Ildizdagi kasallikning alomati quyruq rangdagi ozgina singdirilgan dog`lardir. Ularning sirtidagi po`stlog`iga ajin tushadi. Alternativoz bilan kurashish uchun fungitsidlar va boshqa ba`zi biologik va kimyo- viy preparatlar qo`llaniladi. Ular orasida “Acrobat MC”, “Ditan M-45”, “Mankotsev” mavjud. Tepaliklarni muntazam ravishda tekshirish va kasal tupni o`z vaqtida yo`q qilish barcha ekin maydonlari bo`ylab yuqtirishni oldini olishga yor- dam beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Balashev N.I, Zeman G.O, Sabzovatchilik, T., 1977
2. Abdugarimov D, Safarov T, Ostonaqulov T, Dala ekinlari seleksiyasi, urug`chiligi va genetikasi asoslari, T., 1989.

## KOLORADO QO'NG'IZI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

**Nilufar Hosilova**

**Mirzahamdanova Shohsanam**

TOSHDAU "O'simliklar himoyasi, agrakimyo va tuproqshunoslik fakulteti  
3-bosqich talabalari

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolani yozishdan maqsad kartoshkaning Kolorado qo'ng'izining qishloq xo'jaligidagi va tabobatdagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda, o'simlikka zararlarini tekshirib va unga qarshi agrotexnik va sanitariya tadbirlari va kimyoviy kurash choralarini tadbiq qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** tamaki, regent, buldok, konfidor, detsis, pulga, maspilan

Kolorado qo'ng'izi (*Leptinotarsa decemlineata* Say.) — bargxo'rlar turkumining qo'ngizlar oilasiga mansub hasharot, ashaddiy xavfli o'simlik zararkunandasi. Tanasi o'z. 9 – 12 mm, yelka va ust qanoti sarg'ish yoki sarg'ishqizil, oldingi yelkasida 12—14 ta qora dog'lari bor, qanoti ustidan 5 ta qora chiziq o'tgan. Tuxumining kattaligi 1,2—1,8 mm, qurti uz. 15–16 mm, pushtiqizil, g'umbagi 10–12 mm. Kolorado qo'ng'izi tuproqda (20—50 sm chuqurlikda) qo'ng'izlik davrida qishlab, aprel oyida qishlovdan chiqadi va o'simliklar bilan oziqlanadi. Urg'ochi qo'ng'izlari o'simliklar bargi orqasiga, o'simlik qoldiqlariga 12—80 tadan to'p-to'p qilib tuxum qo'yadi. Bitta urg'ochi qo'ng'iz 500—800, ba'zida 2400 gacha tuxum qo'yadi. Tuxumlarining rivojlanishi 3—5, g'umbagini 6—9 kun. Tuxumdan chiqqan qurtlar 20 kun atrofida o'simliklar bargi bilan ovqatlanadi va tuproqda g'umbakka aylanadi. 1—2 havftadan so'ng yosh qo'ng'izlar paydo bo'ladi, barg bilan ovqatlanib, yana tuxum qo'yadi. Kolorado qo'ng'izi kartoshka, pomidor, baqlajon, tamaki, qalampir, yosh terak va turli ituzumsimon o'simliklarga zarar yetkazadi. Bir tup kartoshkada o'rtacha 20—40 qurt va qo'ng'iz to'g'ri kelganda o'simlik bargining yarmisini yeb,

hosilni 2—3-marta kamaytiradi. Bargi to‘liq yeb bitirilgan o‘simliklar hosili esa 10-martagacha kamayishi mumkin.

**KURASH CHORALARI.** Kolorado qo‘ng‘iziga qarshi samarali kurash vositalari yo‘q.. Kimyoviy preparatlardan fozalon, buldok, detsis, konfidor, maspilan, xostation, regent, sumialfa va boshqalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kolorado kartoshka qo‘ng‘izi lichinkalarining rivojlanish bosqichlari: rivojlanishning birinchi bosqichida Kolorado qo‘ng‘izining lichinkasi to‘q kulrang, tanasi 2,5 mm gacha va mayda mayda sochlari bor. U juda yumshoq yosh barglar bilan oziqlanadi, ularning go‘shini pastdan iste‘mol qiladi; ikkinchi bosqichda lichinkalar allaqachon qizil rangga ega va 4-4,5 mm gacha bo‘lishi mumkin. Ular faqat bitta markaziy tomirni qoldirib, butun bargni eyishlari mumkin; uchinchi bosqichda lichinkalar rangini qizil-sariq rangga o‘zgartiradi va uzunligi 7-9 mm gacha ko‘payadi. Endi uchinchi bosqichdagi shaxslar tanasi yuzasida tuklar yo‘q; rivojlanishning to‘rtinchi bosqichida qo‘ng‘iz lichinkasi yana rangini o‘zgartiradi - endi sarg‘ish-to‘q sariq ranggacha va 16 mm gacha o‘sadi. Uchinchi bosqichdan boshlab, lichinkalar o‘simlikdan o‘simlikka emaklaydilar, shu bilan birga nafaqat barglarning pulpasini, balki yosh kurtaklarni ham iste‘mol qiladilar, shu bilan o‘simliklarga katta zarar etkazadilar, ularning rivojlanishini sekinlashtiradilar va fermerlarni kutilgan hosildan mahrum qiladilar. Kolorado kartoshka qo‘ng‘izi lichinkasining rivojlanishining to‘rt bosqichi ham taxminan 3 hafta davom etadi, keyin u qo‘g‘irchoqqa aylanadi. "Voyaga etgan" lichinkalar 10 sm chuqurlikda tuproqqa kirib boradi, u erda ular qo‘g‘irchoqlashadi. Pupa odatda pushti yoki to‘q sariq-sariq rangga ega. Qo‘g‘irchoq fazasining uzunligi ob-havoga bog‘liq. Agar u tashqarida iliq bo‘lsa, u holda 15-20 kundan keyin u er yuziga chiqadigan kattalar hasharotiga aylanadi. Agar u salqin bo‘lsa, unda bu jarayon 2-3 marta sekinlashishi mumkin. Bugungi kunda zararkunandalarga qarshi kurashning ikki turi eng faol qo‘llanilmoqda:

- ✓ Kimyoviy moddalar
- ✓ Xalq tabobati

Katta fermer xo'jaliklarida kartoshka ekishning katta maydonlari odatda qo'ng'izlarga qaramlikni keltirib chiqarmaydigan maxsus tizimli insektitsidlar bilan ishlov beriladi. Ular qimmat va juda zaharli. Shuni esda tutish kerakki, oxirgi davolash o'rim-yig'imdanda oldin 3 haftadan kechiktirmasdan amalga oshirilishi kerak, chunki zararli toksinlar kartoshka tuplarida to'planadi. So'nggi bir necha yil ichida Kolorado qo'ng'izi uchun biologik nazorat agentlari paydo bo'ldi. Bunday dorilar asirlarda va ildizda to'planmaydi. Ushbu nazorat usulining eng katta kamchiligi bu muolajalar soni va oralig'iga qat'iy rioya qilish zarurligidir. Istalgan effektga erishish uchun aniq bir hafta oralig'ida kamida uchta davolashni amalga oshirish kerak. Kimyoviy moddalar (hasharotlar, biologik ta'sir) har doim qadoqlashda bosilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilishda, muayyan qoidalarga rioya qilgan holda va har doim shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishda foydalanilishi lozim. Bog'bonlar, dehqonlar va qishloq xo'jaligi firmalari zararkunandalarga qarshi kurashdan aziyat chekmasliklari uchun seleksionerlar ko'p yillar davomida kartoshka koloradasi qo'ng'iziga chidamli kartoshka navlarini va boshqa tungi kunlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqdalar. Bundan tashqari, ushbu parametr bir qator omillarga - parvarish qoidalarga, barglarning ta'miga va boshqalarga bog'liq bo'lishi mumkin. Olimlar shu vaqt ichida bu borada aniq xulosalar qilishgan. Entomologlarning fikriga ko'ra, Kolorado qo'ng'izining o'rtacha umri taxminan bir yil. Shu bilan birga, ba'zi bir bardoshli odamlar qishga osonlikcha va hatto bir nechtasiga chidashlari mumkin. Buni qanday qilishadi? Bu juda oddiy - ular diapozaga (qish uyqusiga) tushadi, shuning uchun bunday namunalarda uch yoshga to'lgan yosh ham chegara emas. Issiq mavsumda hasharotlar er yuzida yoki ular boqadigan o'simliklarda yashaydi. Kolorado qo'ng'izlari kuz va qishni kutib, yarim metrgacha tuproqqa singib ketadi va u erda minus 10 darajagacha sovuqqa chidamli. Bahor kelganda va tuproq yaxshi isinganda - + 13 darajadan yuqori bo'lsa, qo'ng'izlar erdan chiqib ketishadi va darhol oziq-ovqat va nasl berish uchun juftlik izlay boshlaydilar. Bu jarayon unchalik katta emas va odatda 2-2,5 oy davom etadi, bu zararkunandalarga qarshi kurashni ancha murakkablashtiradi. Kolorado qo'ng'izining yashash joyi bir yarim asr davomida deyarli bir necha ming marta ko'payganiga qaramay, dunyoda bu

zararkunanda hali ko'zlarida ko'rilmagan va xavfli deb bo'lmaydi. Kolorado qo'ng'izi - bu juda katta hasharotlar. Kattalar uzunligi 8 - 12 mm gacha va kengligi 7 mm gacha o'sishi mumkin. Qo'ng'izlar tanasining shakli ma'lum darajada suv tomchisini eslatadi: cho'zinchoq, pastda tekis va tepada qavariq. Voyaga etgan qo'ng'iz 140-160 mg vaznga ega bo'lishi mumkin. Qo'ng'iz tanasining yuzasi qattiq va biroz porloq. Bunday holda, orqa tomon bo'ylama chiziqlar bilan sarg'ish-qora, qorin esa och to'q sariq rangga ega. Qo'ng'izning qora uzun bo'yli ko'zlari yumaloq va keng boshning yon tomonlarida joylashgan. Qo'ng'izning boshida uchburchakka o'xshash qora nuqta, shuningdek 11 qismdan iborat harakatlanuvchi, segmentlangan antennalar mavjud. Kartoshka qo'ng'izining qattiq va juda kuchli elitrasi tanaga mahkam yopishadi va odatda bo'ylama chiziqlar bilan sarg'ish-to'q sariq, kamroq sariq rangga ega. Kolorado qanotlari to'rlangan, yaxshi rivojlangan va juda kuchli, bu qo'ng'izga oziq-ovqat manbalarini izlash uchun uzoq masofalarga borish imkoniyatini beradi. Qo'ng'izlarning urg'ochilari odatda erkaklarnikiga qaraganda bir oz kichikroq va ulardan hech qanday farq qilmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [www.vikapediya.uz](http://www.vikapediya.uz)
2. "Kolorado qo'ng'izi va unga qarshi kurash choralari"



## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O‘QITISHDA IZCHILLIKNI TA‘MINLASH**

**Abdiraimova Gulrux Samad qizi**

QarDU Pedagogika fakulteti Ta‘lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang‘ich ta‘lim)

O‘zbekistonda ta‘lim islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo‘nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo‘yildi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 5-sentabrda “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon imzolandi. Unga ko‘ra “-umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta‘minlash; -xalq ta‘limi tizimiga ilg‘or xorijiy tajribani, o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta‘lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish” vazifasi qo‘yildi. Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitishda izchillik muhim ahamiyat kasb etadi va matematika fanini kichik maktab yoshidagi bola ongiga singdirishda mazkur aspektga e‘tibor qaratilmasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlar boshlang‘ich ta‘lim matematika kursi mazmunini ilg‘or xorijiy tajribaga asoslanib qator yangi mavzular bilan boyitish, natijada o‘quv adabiyotlar mazmunini ham shunga moslashtirish vazifalarini qo‘ydi. Matematika fani rivoji davrida sharq va g‘arb mutafakkirlari qarashlari hozirgi mazkur fanning fundamenti hisoblanadi.

Forobiy o‘z pedagogik nazariyalarini, psixologik, fiziologik muammolarni falsafaning muhim qismi sifatida talqin etadi hamda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat ekanligini aytib, uni bir butun holda o‘rganishni tavsiya etadi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o‘quvchiga bilim berishda: -o‘quvchini zeriktirmaslik; - bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik; -uzviylik, izchillik; - yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e‘tibor berish kerakligini uqtiradi.

Bu borada g‘arb olimlarining ham qarashlari mavjudki, ularning izlanishlari sohani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. *Pestalotsining* ta‘lim metodlari, tarbiya haqidagi nazariy, didaktik fikrlari bolaning izchillikda rivojlanishini ta‘minlovchi mashqlarni to‘g‘ri tanlash, bolani o‘z tabiiy imkoniyatlarini uyg‘unlikda namoyon etishini ta‘minlash haqidagi qarashlari, shaxsiy tajribalari asosida yuzaga keldi. Pestalotstsi boshlang‘ich ta‘limni osondan murakkabga, ya‘ni induktiv usul asosida tashkil etdi, bunda uzluksizlikka e‘tibor berdi.

Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida maktabda o‘qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi. 1. Onglik va faollik. 2. Ko‘rsatmalilik. 3. Izchilik va tizimlilik. 4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash. Izchillik tamoyilida- fan asoslarini izchil bayon qilish va sistemali tarzda o‘rgatish talab etiladi. Izchillik tamoyilida kun, oy, yilga vazifa qo‘yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o‘qishning bola yoshiga mos bo‘lishi, material izchillik bilan o‘rganilishi, ya‘ni bugungi material ertangi bilan bog‘lanishi va keying o‘tiladigan materialga yo‘l ochishi kerak.

“Boshlang‘ich matematika dasturi, avvvalo, natural sonlar, natural sonlar asosida to‘plamlardan foydalangan holda ular ustida to‘rt arifmetik amallar bajarishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda algebra va geometriyaning asosiy tushunchalari, asosiy miqdorlar kiritilgan. Ular to‘rt arifmetik amallar bilan qo‘shib o‘rgatiladi”. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘lim matematika mazmuniga yuqorida keltirilganidek natural sonlar va ular ustida to‘rt arifmetik amallar bajarish, asosiy miqdorlar, vaqt o‘lchov birliklari, uzunlik o‘lchov birliklari, sig‘im o‘lchov birliklari, yuza o‘lchov birliklari, geometrik figuralar, harfiy ifodalar, tenglama va tengsizliklar, koordinata o‘qi hamda so‘ngi yillarda kasr tushunchalari, kombinatorikaga oid masalalar,

mantiqiy masalalar, mulohazalar kabi yangi tushunchalar bilan ham boyitildi. Bu tushunchalar soddadan murakkabga qarab izchillik va uzviylik asosida yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘rta maktabda matematika o‘qitish, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirildi. Matematikani o‘qitishning asosiy vazifasi matematika fanining asoslarini o‘rganish hamda umumiy intellektual rivojlanish - matematikani o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning to‘liq ishlashi uchun zarur bo‘lgan fikrlash fazilatlarini shakllantirishdan ham iboratdir. Zamonaviy jamiyatdagi odam, odamning bu jamiyatga dinamik moslashuvi uchun o‘ziga xos matematik bilimlarga asoslangan, insonning individual faoliyati uchun, atrofdagi dunyoni matematika yordamida bilish va anglash uchun shart-sharoitlarning shakllanishi, albatta, maktab matematika ta‘limining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent PF-5538 2018-yil 5-sentabr
2. M.E.Jumayev, Z.Tadjiyeva “Matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent-2005
3. O‘. M. Asqarova va boshq. “PEDAGOGIKA”. T-«TALQIN» - 2008
4. Shodiyev R.D., Abduraimova G.S. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda izchillik” maqola. “Муғаллим” Qoraqalpog‘iston 2021-yil 2-son

## MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANISHIGA YO‘NALTIRILGAN MASHQLAR TIZIMI

**Xalilova Zilola Zamirovna**

Qarshi davlat universiteti, 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning xotira va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo‘ljallangan bir nechta mashqlarni quyida keltirib o‘tilgan va ularni qaysi darslarda foydalanish mumkinligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** emotsional holat, assotsiatsiya, mashq, xotira.

Bolalarning xotira va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo‘ljallangan bir nechta mashqlarni quyida keltirib o‘tamiz. O‘quvchilarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirilishi o‘quv matnlarini ma’no jihatidan qayta ishlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Matn rejasini tuzish uchun, uning har bir qismidan asosiysini ajrata bilish, assotsiatsiyalarni topish, ularni eslab qolish kerak.

Bunday mashqlarni turli darslarga kiritish mumkin, ular ko‘p vaqtni olmaydi. Lekin ularga shu darsning o‘zida yoki keyingi darsga qaytish lozim bo‘ladi. Bolalar nima o‘ylab topganlarini eslashlari va yana bir marta o‘z javoblarini daftarlariga yozishlari kerak bo‘ladi, xotira shu tarzda rivojlantiriladi.

Holatda kelib chiqib, bu mashqlarni bajarishda musoboqa elementini kiritish ham mumkin: masalan, kim ko‘p to‘g‘ri javobni keltirdi, kim tez hisobladi va shu kabilar. Buni faqat ehtiyotlik bilan olib borish kerak: oldingi o‘rinda har doimgi bolalar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bolalarni erishgan yutuqlarini taqqoslashga o‘rgating, bolani har bir oldinga qarab siljishini u sezilarli bo‘lmasada qayd eting. Bolalar uchun har doim muvaffaqiyatli holatni tashkil etish lozim.

Darslarda ijobiy emotsional holat – bu yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ta‘lim olishi va rivojlanishidagi asosiy faktorlardan biridir.

**“Nima nimaga o‘xshaydi” mashqi?**

O‘qituvchi doskada 10 ta so‘zni yozadi. Bolalarga ularning ma’nosiga bog‘liq so‘zlarni o‘ylab topish vazifasi beriladi.

*O‘qituvchi. Chiziqdan yuqoridagi so‘zni o‘qing va bu so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan predmet yoki holatlarni eslang. Masalan, belkurak so‘zini o‘qiganingizdan keyin, u qanday ko‘rinishga egaligini eslang hamda qanday rangda bo‘lishi mumkinligini, nima uchun mo‘jallanganligi haqida o‘ylab ko‘ring. Sizningcha bu so‘zga mos va yaqin bo‘lgan so‘zni tanlang hamda uni chiziq pastidan yozib qo‘ying.*

Daftarga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Har bir so‘z juftligi kasr shaklida yoziladi: yuqorida o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan so‘zlar, pastda o‘quvchi tomonidan taklif etilgan so‘zlar. O‘qituvchi bitta so‘z ustida mulohaza yuritadi.

Topshiriq bajarilgandan so‘ng o‘quvchilar o‘zlari bajargan ishlarini o‘qib berishadi, so‘zlar to‘g‘ri topilganligi yuzasidan muhokoma olib boriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘ylab topilgan so‘zlarni eslab qolish haqida topshiriqni beradi.

Keyingi darsda o‘quvchilar bu so‘zlarni eslashlari va yana bir marta daftarga yozishlari kerak.

### “Shifrlangan sonlar” mashqi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga shifrlangan ikki xonali sonlarni yozmasdan turib, shifrini ochishni va eslab qolish haqidagi topshiriqni berdi. Bu mashqni o‘yin sifatida bajarish mumkin.

Doskada shifrlangan son va kalit yoziladi.

VA MK VO KE ST IO

Kalit

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	M	V	YE	K	O	S	I	P	T

O‘qituvchi. Sizlar bilan razvedkachilar o‘yinini o‘ynaymiz, ya’ni biz harflar yordamida berilgan sonlarni shifrini ochishimiz kerak. Razvedkachilarning xotirasi

juda yaxshi bo‘lishi lozim. Ular ko‘p narsani xotirasida saqlashi kerak, lekin iloji boricha hech narsa yozmasligi lozim. Agar biror narsa yozish kerak bo‘lsa ham, juda muhim ma’lumotlarni shifrlar orqali ifodalashlari kerak, chunki bu qanaqa ma’lumot ekanligini hech kim bilmasligi lozim. Duskada harflar orqali oltita son yozilgan. Kalit yordamida qanday sonlar yozilganligini toping. Ularni eslab qoling, bu sonlarni yozish mumkin emas. Bu topshiriqni bajarish uchun bir minut vaqt ajratiladi. Shundan so‘ng bolalar javob berishadi.

Shu darsning oxirida bolalarga shifrlari ochilgan sonlarni yana bir marotoba eslashni taklif qilinadi.

*Eslatma: agar bolalar uchun oltita sonni eslab qolish qiyinlik qilsa, to‘rtta sondan boshlash kerak bo‘ladi.*

**“Shifrni oching va eslab qoling” mashqi.**

O‘quvchilarga yettita shifrlangan so‘z va kalit taqdim qilinadi. So‘zlarni shifrini ochish, ularni eslab qolish va ortiqcha so‘zlarni ajratib ko‘rsatish kerak. Bu mashqni ham oldingisi singari o‘yin shaklida o‘tkazish mumkin.

**Kalit**

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
I	t	k	z	R	a	b	o‘	u	ch

6740	434675	6849	674
183	48925	521290	

O‘qituvchi. Hozir biz sizlar bilan yana razvedkachilar o‘yinini o‘ynaymiz. Kalit yordamida so‘zlarni ochishni o‘rganamiz. Bu so‘zlarni o‘qing va eslab qoling. Ularni hozircha yozish shart emas. O‘ylab ko‘ring va bu yerda qaysi so‘z ortiqcha ekanligini ayting. Bu topshiriqni bajarish uchun sizlarga ikki-uch minut ajratiladi.

Bolalar topshiriqni bajarishadi, ortiqcha soʻzni aniqlashib, nima uchun u ortiqcha ekanligi haqida bahslashishadi. Shundan soʻng oʻqituvchi bu soʻzlarni daftarga yozib, eslab qolishlarini aytadi.

Shu darsning soʻnggida yoki keyingi darsda bu mashqqa qaytish kerak boʻladi. Bolalardan daftarga qaramasdan turib, shifri ochilga soʻzlarni eslash aytish soʻraladi.

### “Tanish maqol” mashqi

Oʻquvchilarga shifrlangan maqollar taklif etiladi: unda har bir maqol ikkita qismga ajratilgan, ularning har birining oʻz kaliti mavjud. Oʻquvchilar maqolni toʻliq aniqlab, shifrini ochishlari kerak boʻladi. Doskada kalit yozilgan.

Kalit:

0 – bir kes...

1 – nima eksang...

2 – sanaydilar...

3 – oltin hisoblanavermaydi...

4 – temirni ...

5 – joʻjani kuzda...

6 – issigʻida bos...

7 – shuni oʻrasan...

8 – hamma yaltragan narsa...

9 – yetti oʻlchab...

Oʻqituvchi. Yana bir marta sizlar bilan biz shifrlarni ochishga harakat qilamiz. Dastlab siz bu yerda qanday maqollar shifrlanganligini bilishingiz. Har bir maqol ikki qismdan iborat, shu sababli ikkita raqam bilan shifrlangan boʻlishi kerak. Maqolni ikki xonali son koʻrinishida shifrlang. Bu raqamlarni daftaringizga yozing. Bu topshiriqni bajarishingiz uchun sizlarga uch minut vaqt ajratiladi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi, so‘ngra javoblar muhokoma qilinadi. Albatta maqollarning ma‘nosiga to‘xtalib o‘tish lozim, ularni birgalikda tushuntirish kerak. O‘qituvchi bu sonlarni eslab qolish kerakligini aytadi.

To‘g‘ri javoblar: 17, 46, 52, 83, 90.

Darsning so‘ngida o‘qituvchi bolalardan dastlab ikki xonali sonni, so‘ngra shifrlangan maqolni eslashlarini so‘raydi.

### “Antiq misollar” mashqi.

Bu mashqda ham bundan oldingi jadval-kalitdan foydalaniladi. U doskada yozilgan bo‘lishi kerak. Bolalar noodatiy holda yozilgan misollarni yechishadi.

Nima eksang+issig‘ida bos = ?

Yetti marta o‘lchab : oltin hisoblanavermaydi = ?

Temirni issig‘ida x nima eksang = ?

10: jo‘jani kuzda = ?

Temirni issig‘ida bos – Hamma yaltiragan narsa oltin hisoblanavermaydi = ?

Yetti marta o‘lchab bir kes – jo‘jani kuzda sanaydilar = ?

O‘qituvchi. Siz shifrlangan misollarni yechishingiz kerak. Dastlab uni kalit yordamida shifrini ochib, so‘ngra yeching. Javoblarni daftarlaringiz yozing.

Bolalar topshiriqni bajarishib, javoblarni tekshirishadi. O‘qituvchi javoblarni eslab qolishlarini so‘raydi. Shu darsning oxirida yoki kelgusi darsda ular to‘g‘ri javobni eslashadi.

### “Asosiy belgi” mashqi.

Bolalarga doskada yozilgan o‘nta so‘zdan belgi-so‘zni tanlash taklif qilinadi.

*O‘qituvchi.* doskada turli o‘nta so‘z yozilgan. Ularni o‘qing va har biriga to‘g‘ri keladigan belgi-so‘zni tanlang. Belgi-so‘z predmetning xossasini aniqlaydi va qanday? - degan savolga javob beradi. Masalan, qum sariq, issiq, mayda va boshqa bo‘lishi mumkin. sizningcha eng yaqin bo‘lgan belgi-so‘zni tanlang va uni chiziq tagiga yozing.

Daftarga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: so‘zlar juftligi kasr shaklda yozilib – tepada o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan so‘zlar, pastda – o‘quvchi tomonidan taklif etilayotgan so‘zlar. O‘qituvchi bitt misolni muhokoma qiladi.



O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi. So‘ngra o‘quvchilar yozgan so‘zlar muhokoma qilinadi. Sinf bilan birgalikda belgi-so‘zlar to‘g‘ri tanlanganmi yoki yo‘qligi muhokoma qilinadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga bu so‘zlarni va ularga tanlangan belgi-so‘zlarni eslab qolish haqidagi topshiriqni beradi.

Keyingi darsda o‘qituvchi so‘zlarni juft-jufti bilan va ularga tanlangan belgilarni eslashni, ularni daftarga yozishni, so‘ngra oldingi darsda yozgan yozuvlari bilan solishtirishni so‘raydi.

### **“Uchinchi so‘z” mashqi.**

O‘qituvchi bir-biri bilan ma‘no jihatida bog‘liq olti juft so‘zni o‘qiydi. Har bir juftlikka ma‘no jihatidan mos uchinchi so‘zni tanlash va uni daftarga yozish kerak.

*O‘qituvchi.* Endi men sizlarga so‘z juftliklarini o‘qiyman. Har bir so‘z juftligi o‘zaro ma‘no jihatidan bog‘langan. Siz shunday so‘zni tanlangki u ma‘no jihatidan ular bog‘liq bo‘lsin va uni daftaringizga yozing.

Tovuq – tuxum (mumkin bo‘lgan javob: jo‘ja).

O‘rmon – daraxt (mumkin bo‘lgan javob: taxta).

Gul – kapalak (mumkin bo‘lgan javob: gulzor).

Daryo – qayiq (mumkin bo‘lgan javob: eshkak).

Kitob - bet(mumkin bo‘lgan javob: rasm).

Yo‘l – mashina (mumkin bo‘lgan javob: haydovchi)

Vazifa bajarilgandan so‘ng bolalar tomonidan javoblarning muhokomasi olib boriladi. O‘qituvchi ushbu so‘z juftliklarini va o‘ylab topilgan so‘zlarni eslab qolish haqidagi topshiriqni beradi.

Darsning oxirida o‘qituvchi bolalarga olti juft so‘zni va ularga nisbatan o‘ylab topilgan so‘zlarni eslashni taklif qiladi.

Keyingi darsda o‘qituvchi o‘quvchilarga har bir juftlikdan birinchi so‘zni o‘qib, ikkinchi va o‘ylab topilgan so‘zni eslashni hamda ularni daftarga yozishni so‘raydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Хрестоматия по возрастной психологии: Учебное пособие для студентов / Сост. Л.М. Семенюк; Гл. ред. Д.И. Фельдштейн. – М.: МОДЕК, 1998. – S. 210.
2. Обухова Л.Ф. Детская психология: теории, факты, проблемы. – М.: Тривола, 1995. – С. 192
3. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка: Пер. с франс. и англ. / Сост., коммент., ред. перевода Вал. А. Лукова, Вл. А. Лукова. – М.: Педагогика-Пресс, 1994. – С. 235.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Уч. пос. – М.: Народное образование, 1998. – С. 102.



## DAVLATLARNING TA'LIM SOHASIDAGI XALQARO TASHKILOTLAR VA DASTURLAR DOIRASIDAGI HAMKORLIKLARI

**Rashidxo'jayev Muxriddinxo'ja Muxsinxo'ja o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Ommaviy axborot vositalar huquqi” yo'nalishi magistranti

[mukhriddinkhujarashidkhujjev@gmail.com](mailto:mukhriddinkhujarashidkhujjev@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Global tarzda rivojlanib borayotgan bugungi kunda shaxs, jamiyat va davlatning rivoji va taraqqiyoti, ko'p jihatdan ta'lim tizimi va davlatlarning ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyatiga bog'liq holda, uning huquqiy jihatlarini tartibga solish borasidagi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sohasidagi faoliyatning rivojlanishida ko'p jihatdan, ushbu sohada ish olib boruvchi xalqaro tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyatining ahamiyati, xalqaro tashkilotlarning ta'lim hamkorlik faoliyatida tutgan o'rni, ushbu faoliyatni xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari dolzarb bo'lib ulgurdi. Ushbu maqolada ham aynan bugungi kunda axborot olamida yuz berayotgan turli hil hujum va ta'sir choralariga qarshi kompleks chora-tadbirlar ko'rishning usul va vositalari haqida qisqacha tahlil berib o'tilgan.

### АННОТАЦИЯ

В современном глобализованном мире развитие и прогресс личности, общества и государства во многом зависят от системы образования и сотрудничества государств в сфере образования, приоритетными становятся вопросы регулирования его правовых аспектов. Во многом важную роль в развитии деятельности в этой сфере играют международные организации, работающие в сфере образования. В связи с этим на сегодняшний день актуальными стали значение сотрудничества в сфере образования, роль международных организаций в образовательном сотрудничестве, вопросы

международно-правового регулирования этой деятельности. В данной статье также дается краткий анализ методов и средств принятия комплексных мер против различных атак и воздействий, происходящих сегодня в информационном мире.

### ABSTARCT

In today's globalized world, the development and progress of the individual, society and the state, in many respects, depends on the education system and the cooperation of states in the field of education, the issues of regulating its legal aspects are becoming a priority. In many respects, international organizations working in this field play an important role in the development of activities in the field of education. In this regard, the importance of cooperation in the field of education, the role of international organizations in educational cooperation, the issues of international legal regulation of these activities have become relevant today. This article also gives a brief analysis of the methods and means of taking comprehensive measures against various attacks and influences taking place in the information world today.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro ta'lim tizimi, xalqaro ta'lim hamkorligi, xalqaro ta'lim tashkilotlari, YUNESKO, ERASMUS, TEMPUS, xalqaro ta'lim kodeksi.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi rivojlanib borayotgan davrda har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida ta'lim tizimining ahamiyati va unga qo'yiladigan talablarning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishga nazar soladigan bo'lsak, davlatlarning ta'lim sohasidagi hamkorliklari natijasida ilm fan yuksak darajada rivojlanishiga olib kelgan. Bugungi kunga kelib, ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilotlarning faoliyati tobora kengayib, xalqaro ta'lim hamkorligining rivojiga, xalqaro ta'lim tizimining modernizatsiyalashuviga olib kelmoqda. Shuningdek mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talblar

asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir<sup>39</sup>.

Xalqaro ta‘lim hamkorligi doirasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro konvensiyalar xalqaro ta‘lim hamkorligining huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa kengashi va YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan “Oliy ta‘limga oid malakalarni tan olish to‘g‘risida”gi konvensiya 1997-yil 11-aprelda Lissabonda qabul qilingan bo‘lib, ushbu konvensiyani 32 ta davlat ratifikatsiya qilingan va keyinchalik yana 11 ta davlat tomonidan imzolangan<sup>40</sup>. ushbu xalqaro konvensiyaga a‘zo davlatlar quyidagi asosiy bandlarga rioya etishlari belgilab qo‘yilgan:

- Bir tomonda berilgan malaka egalari, boshqa tomonda ushbu malakalarni baholash uchun tegishli ruxsatga ega bo‘lishi kerak;
- Ta‘lim oluvchining jinsi, irqi, rangi, nogironligi, tili, dini, siyosiy qarashlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmaydi;
- Baholash tizimining talablarga javob bermasligi uchun javobgarlik baholashni amalga oshiruvchi organga yuklanadi;
- Har bir Tomon, agar u o‘z malakalari va o‘quv kurslari malakalari o‘rtasida jiddiy farqlar mavjudligini ko‘rsatmasa, oliy ta‘limga kirish, o‘qish muddatlari yoki oliy ta‘lim darajalari uchun malakalarni o‘z tizimidagi tegishli malakalarga o‘xshash deb tan oladi;
- Barcha tomonlar o‘zlarining oliy ta‘lim muassasalarini tan olinishini osonlashtirish uchun o‘z talabalariga Diplom ilovasini berishga undaydilar. Diplom ilovasi Yevropa Komissiyasi, Yevropa Kengashi va YUNESKO tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan hujjat bo‘lib, malakani oson tushunarli tarzda

<sup>39</sup> Barakayevich Q. S., Baxtiyorovna A. S. Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta‘lim muhitini yaratish //Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2021. – T. 1. – №. 02. – C. 132-137.

<sup>40</sup> The full text and a continually updated list of signatures and ratifications may be found at <http://conventions.coe.int>; search for ETS 165.

tavsiflashga va uni berilgan oliy ta'lim tizimiga bog'lashga qaratilgan<sup>41</sup>.

Yuqorida keltirilgan bandlarni barcha a'zo davlatlar huquqiy jihatdan to'liq amalga oshirishi belgilab o'tilgan. Shuningdek, konvensiyani amalga oshirish yuklangan asosiy organlar, ya'ni konvensiya qo'mitasi va ENIC tarmog'i ishtirokchi davlatlar vakillaridan, xususan, oliy ta'lim uchun mas'ul davlat organlaridan iborat. Bu muhim jihat chunki, davlat hokimiyati organlari oliy ta'lim berishda monopoliyaga ega bo'lmasa ham, buning uchun katta mas'uliyat yuklanishi kerak<sup>42</sup>.

Ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar ichida BMT ning YUNESKO tashkilotining muhim jihatlari yana shunda ko'rinadiki, ushbu tashkilot tashabbusi bilan 2017-yilda tuzilgan Xalqaro ta'lim olish huquqi kodeksida quyidagi 4ta ta'lim standarti belgilab berilgan:

**1. Mavjudligi.** Ishlayotgan ta'lim muassasalari va dasturlari mavjud bo'lishi kerak:

- a) binolar;
- b) har ikki jins uchun sanitariya inshootlari;
- v) xavfsiz ichimlik suvi;
- d) mamlakat ichida raqobatbardosh ish haqi oladigan o'qituvchilar;
- e) o'quv materiallari

**2. Foydalanish imkoniyati.** Ta'lim muassasalari hamma uchun ochiq bo'lishi kerak:

1. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik: ta'lim qonun va haqiqatda hamma uchun ochiq bo'lishi kerak;
2. Qulay geografik joylashuvda yoki zamonaviy texnologiya ega bo'lish

**3. Qabul qilish imkoniyati.** Ta'lim shakli va mazmuni talabalar va ota-onalar uchun maqbul bo'lishi kerak:

- a) tegishli, madaniy jihatdan tegishli ta'lim muhitiga mos bo'lishi;
- b) yaxshi sifatga ega bo'lish va boshqa talablar berib o'tilgan<sup>43</sup>.

<sup>41</sup> Bergan S. Providing standards for higher education: international education conventions as alternatives to trade agreements //seminar organized by UNESCO and the Norwegian Ministry of Education. – 2003.

<sup>42</sup> The following points have been taken from Sjur Bergan: "Higher Education as a "Public Good and Public Responsibility": What Does It Mean?" presented at a seminar organized by the Greek authorities in Athenai on February 19 – 20, 2003.

<sup>43</sup> This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.

YUNESKO tashkilotining 1960-yilda qabul qilingan “Ta’limda kamsitishga qarshi” konvensiyasida ta’lim hamkorligini olib borishda davrlarning huquqiy majburiyatlari teng bo’lishi va hamkorlik qiluvchi hech bir davlatni huquqi kamsitilishiga yo’l qo’yilmasligi qat’iy belgilangan<sup>44</sup>. Yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlar ta’lim hamkorligining rivojlanishiga katta hissa qo’shib kelmoqda, davlatlarning har tomonlama taraqqiyotda muhim o’rin tutuvchi ta’lim tizimining rivojlanishida YUNESKO tashkiloti doirasida amalga oshirilgan islohotlar, tashabbuslar natijasida ta’lim hamkorligi kengayib, global miqyosda ilm fanning yuksalishiga olib kelmoqda. Shuningdek jahonda ta’lim sifatiga yagona talablar bankini yaratish, umumiy talablar ustidan nazoratni ta’minlash va shu orqali ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. YUNESKO tomonidan ta’limni butun dunyo uchun yagona talablar asosida tashkil etish, yagona hujjatlar asosida nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ta’limni yakunlash uchun chiqarilgan hujjatlarni unifikatsiya qilish yoki tan olish, qonuniylashtirish va nostrifikatsiyalash bo’yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro konvensiyalar qabul qilindi. Umuman olganda, bu boradagi ishlar sezilarli yutuqlarga erishdi va butun dunyo bu jarayonni qo’llab-quvvatlamoda<sup>45</sup>.

Ta’lim tizimining taraqqiyoti natijasida har bir davlatda kredit modul tizimi yaratilib, ushbu asosda ta’lim jarayoni tashkil etila boshlandi. Ushbu jarayon natijasida ta’limda integratsiyalashuviga olib keldi. Ta’lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989-yilda Yevropaning minglab balabalari Yevropa hamjihatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlar asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. ERASMUS dasturi bo’yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o’rtasidagi talabalar almashinuvi sxemasi dastavval 145 oliy o’quv yurtlarini qamrab olgan edi. 2001-yilda o’quv jarayonini tashkil

<sup>44</sup> UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960

<sup>45</sup> Muxtorov O. et al. TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 135-138.

etishning kredit texnologiyasi ECTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo'llanilgan edi. Ta'lim berishning modul texnologiyasi, talabning o'zlashtirishini baholash bilan birga bilimni o'sishi dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga talabning butun o'qish davrida ish unumdorligi baholash natijadorligini aniqlash hamda o'z vaqtida o'zlashtirishini pasayishini aniqlab, unga tegishli choralar ko'rish imkon darajasida yordam berishni yo'lga qo'yadi. Hamda talabaga u yoki bu fanni sifatliroq o'zlashtirish imkonini beradi<sup>46</sup>. Yuqoridagi xalqaro dasturlar asosida talabalarning xorijda ta'lim olishlariga, xorijiy tajribalarni o'rganishga va ilmiy tadqiqot ishlarining samarali olib borishlariga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Xalqaro ta'lim sohasidagi tashkilotlarning faoliyati ta'limning integratsiyalashuviga ko'p jihatdan bizning davlatimizni ham ta'lim tizimining rivojlanishiga, xalqaro doirada munosib o'ringa egallashga doir islohotlar amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi paytlarda Osiyo davlatlarining rivojlanishida ta'lim hamkorligi va ta'limga kiritilgan investitsiya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan mamlakatimizning Janubiy Koreya respublikasi, Yaponiya, Xitoy va singapur kabi rivojlangan Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorliklari natijasida yurtiizda ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlarning samarasi tobora yuksalib bormoqda. Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan “INHA” universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi “Yodju” Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonli qaroriga asosan 2020-2021 o'quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg'ona shahridagi “Koreya xalqaro universiteti”ni oliy ta'lim tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e'tirof etish joiz<sup>47</sup>. Davlatimizning YUNESKO doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro ta'lim dasturlarida munosib ishtirok etayotganligi, rivojlangan ta'lim tizimiga ega bo'lgan

<sup>46</sup> Ganievich K. I. et al. SCIENTIFIC BASIS FOR THE USE OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM IN HIGHER EDUCATION //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – C. 91-93.

<sup>47</sup> Махмудов С. ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O'ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. №10.



davlatlar bilan hamkorlik faoliyati yo'lga qo'yilganligi ta'lim tizimimizning rivojlanishiga va xalqaro reytingimiz o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. Mamlakatimiz tomonidan yuqorida keltirilgan xalqaro dastur hamda tashkilotlar bilan olib borayotgan hamkorliklari natijasida yurtimizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, zamon taraqqiy etib borar ekan, har bir jamiyat va davlatda bugungi ta'lim tizimi va ilm fan tez suratlarda rivojlanib borayotganligini hisobga olib, xalqaro doirada ta'lim rivoji yo'lida olib borilayotgan xalqaro ta'lim dasturlari, shuningdek ta'lim sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan ta'lim dasturlarida munosib ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz tomonidan ushbu ta'lim dasturlarida faol ishtirokini ta'minlash, kelajakda xalqaro ta'lim reytinglarida yuqori o'rinlarni egallashimizga turtki bo'ladi.

### **REFERENCES**

1. Barakayevich Q. S., Baxtiyorovna A. S. Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish //Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2021. – T. 1. – №. 02. – C. 132-137.
2. The full text and a continually updated list of signatures and ratifications may be found at <http://conventions.coe.int>; search for ETS 165.
3. Bergan S. Providing standards for higher education: international education conventions as alternatives to trade agreements //seminar organized by UNESCO and the Norwegian Ministry of Education. – 2003.

4. The following points have been taken from Sjur Bergan: "Higher Education as a "Public Good and Public Responsibility": What Does It Mean?" presented at a seminar organized by the Greek authorities in Athenai on February 19 – 20, 2003. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. ---T., 2003. -- №1 –2-M
5. This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.
6. UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960
7. Muxtorov O. et al. TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 135-138.
8. Ganievich K. I. et al. SCIENTIFIC BASIS FOR THE USE OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM IN HIGHER EDUCATION //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – C. 91-93.
9. Махмудов С. ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O'ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. №.10.



**POLIMER MATERIALLAR: PLASTMASSALAR, TOLALAR,  
KOMPOZITLAR, NANOKOMPOZITLAR**

**Jurayev Ural Bayirovich**

Samarqand davlat universiteti fizika fakulteti optika kafedrası dotsenti

**Rahmatov Bekzod Mansur o‘g‘li**

Samarqand davlat universiteti fizika fakulteti 2- bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Polimer fani va texnologiyasi sohasidagi yutuqlar materiyaning asosiy tabiatini o‘rganish uchun foydali bo‘lgan boy materiallar to‘plamini taqdim etadi. Ushbu bobda turli xil polimerik materiallar, jumladan elastomerlar, plastmassalar, tolalar, ularning aralashmalari va kompozitlari, ularni qayta ishlashning asosiy usullari va qo‘llanilishi haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. Ko‘p komponentli polimer materiallarning yangi avlodi paydo bo‘ladi. Kelgusi yillarda bu materiallarning amalda qo‘llanilishi urug‘lardan qanday o‘sib borishini hozir ko‘rish kerak.

**Kalit so‘zlar:** polimerlarni qayta ishlash, polimer aralashmalari, kompozitlar, nanokompozitlar.

**Abstract:** The advances in the area of polymer science and technology provide a rich set of materials useful for probing the fundamental nature of matter. This chapter presents a brief overview of various polymeric materials including elastomers, plastics, fibers, their blends and composites, their major processing techniques and applications. A new generation of multicomponent polymeric materials is emerging; it now remains to be seen how the practical application of these materials will grow from the seeds over the coming years.

**Key words:** polymer processing, polymer blends, composites, nanocomposites.


### **Polimer materiallarning umumiy ko‘rinishi**

Kishilik jamiyatida har bir shu davrdagi qurilish materiallaridan foydalanish orqali ataladigan bo‘sa: tosh davri, bronza davri va boshqalar, bizning davrimizni polimer davri deb atash mumkin. Polimerlar bizning zamonamizda qadoqlash va o‘rash materiallari, shishalar, konteynerlar, to‘qimachilik, qurilish materiallari, mebellar, yelimlar va yopishtiruvchi moddalar, avtomobil saloni dizayin ishlari, elektr jihozlarning qismlari va nihoyat shaxsiy buyumlarni, shu jumladan qalamlar, ustalar, tish cho‘tkalari va boshqalarni tashkil qiladi. Biz hatto polimer paketlardan foydalanamiz. Biz har kuni duch keladigan deyarli har bir oddiy narsalar uning ichida yoki atrofida qandaydir polimerni o‘z ichiga oladi yoki bizga polimer materiallar bilan o‘ralgan holda keladi. Yunoncha "ko‘p" va meros, "qismlar" degan ma‘noni anglatuvchi polimer so‘zlarining birikmasi bizga ushbu moddalarni tashkil etuvchi molekula - polimer so‘zini beradi. Polimerlar deb ataladigan barcha moddalar molyar massalari bir necha mingdan bir necha milliongacha bo‘lgan yirik molekulalardan tashkil topgan.

Ularni tashkil etuvchi alohida qismlar, ya‘ni grekcha mono so‘zidan olingan monomerlar juda ko‘p sonda bir-biriga qo‘shilib, molekulyar massasi o‘n minglab atom massa birliklaridan millionlabgacha bo‘lgan polimerlarni hosil qiladi. Ular zanjir shaklida, ba‘zan cho‘shab, ba‘zan ikki o‘lchamli, uch o‘lchamli panjara shaklida bo‘lishi mumkin.

Polimerni oddiy molekuladan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlardan biri bu polimerga aniq molyar massani belgilashning mumkin emasligidir. Bu polimerlanish reaksiyasida hosil bo‘lgan zanjir uzunligi butunlay tasodifiy hodisalarga bog‘liqligining natijasidir. Kondensatsiya reaksiyasida bu mos keladigan reaktiv guruhning mavjudligiga, qo‘shimcha reaksiyada esa zanjir tashuvchining ishlash muddatiga bog‘liq. Polimerning molekulyar massasini hisoblashda biz o‘rtacha hisoblash usuli uchun son kasr yoki massa ulushidan foydalanishimiz mumkin. O‘rtacha molekulyar massani o‘lchashning turli usullari mavjud va ularning barchasi bir xil natija bermaydi.

Konformatsiya atamasi polimerning uch o'lchamli geometrik joylashuviga ishora qilganda qo'llaniladi, bu bog'lanishlar aylantirilganda osongina o'zgaradi, molekuladagi kimyoviy bog'lanish bilan mustahkamlangan *cis* va *trans* izomerlari yoki *d* va *l* shakllari konfiguratsiyalar sifatida nazarda tutiladi. Kimyoviy bog'lanishlar uzilib, isloh qilinmaguncha polimerning konfiguratsiyasini o'zgartirib bo'lmaydi. Chidamlilik, mo'rtlik, qattqlik, egiluvchanlik, elastiklik, optik tiniqlik, kimyoviy va erituvchi qarshiligi va boshqa shu kabi xususiyatlar polimer materiallarga xosdir va ular plastifikatorlar, rang beruvchi moddalar, stabilizatorlar va boshqalarni qo'shish orqali yanada o'zgartirilishi mumkin. Shunday qilib, polimerlar bizga xilma xil xususiyatlarga ega materiallarni beradi.



1-rasm. Polimer zanjirlarining tasodifiy joylashuvi

### **Tabiiy va sintetik polimerlar**

Kelib chiqishiga ko'ra polimerlar tabiiy va sintetik turlarga bo'linadi. Tabiiy materiallardan olingan polimerlar tabiiy polimerlar deb ataladi, masalan: tabiiy kauchuk, paxta, ipak, jun, tsellyuloza va boshqalar kichik molekulyar massali

namunalardan sintez qilingan polimerlar sintetik polimerlar deb ataladi, masalan: neylonlar, poliesterlar, epoksilar va boshqalar.

### **Organik va noorganik polimerlar**

Kimyoviy tuzilishiga ko'ra polimerlar organik va noorganik polimerlarga ham bo'linadi. Asosiy zanjiri uglerod-uglerod bog'lanishlaridan ( $-C-C-$ ) tashkil topgan polimerga organik polimer deb ataladi masalan: tabiiy kauchuk, polietilen va boshqalar. Noorganik polimerlarning asosiy zanjiri kremniy kabi uglerod bo'lmagan atomlarni o'z ichiga oladi, masalan: shisha, silikon kauchuklar, poligerman va boshqalar.

### **Elastomerlar, tolalar va plastmassalar**

Polimer materiallarni zanjir egiluvchanligiga qarab elastomerlar, tolalar va plastmassalar kabi turlarga bo'linadi. Oddiy qilib aytishimizda elastomerik materiallar o'ta egiluvchanlikni namoyon qiladi masalan: tabiiy kauchuk, silikon kauchuk va boshqalar. Tola hosil qiluvchi materiallar zanjiri qattiqlikka ega masalan: neylon, terilen va boshqalar. Plastik materiallar odatda kuchli va qattiqdir, masalan: polistirol, polivinilxlorid va boshqalar, lekin guruhlar o'rtasida qat'iy ajratish chizig'i yo'q. Qattiq plastmassalar va tolalar deformatsiyaga chidamli bo'lib, yuqori modulli va past foizli cho'zilishlar bilan ajralib turadi, elastomerlar osonlik bilan deformatsiyaga uchraydi va kichik kuchlanish ostida teskari cho'zilishlarni namoyon qiladi.

### **Termosetlar, termoplastiklar va elastomerlar**

Termoplastik polimerlar deb ataladigan namunalarda qizdirilganda yumshaydigan yoki eriydigan polimerlar kuchli molekulyar bog'lanishlarga ega, ammo zaif molekulalararo bog'larga ega bo'lgan chiziqli yoki tarmoqlangan zanjir molekulalaridan iborat. Ushbu polimerlarning erishi va qotib qolishi teskari bo'lib, ularni issiqlik va bosim ta'siri orqali qayta shakllantirish mumkin. Ular yarim kristalli yoki amorf tuzilishga ega. Masalan, polietilen (PE), polistirol (PS), neylonlar, polikarbonat (PC), poliatsetatlar, poliamid, polietilnetil keton (PEEK), polisulfon polifenilen sulfidi. Ular yumshamaydi, lekin qizdirilganda parchalanadi. O'zaro bog'lanish jarayonlari bilan mustahkamlangandan so'ng, ularni qayta shakllantirish

mumkin emas. Termosabil polimerlarning keng tarqalgan misollariga epoksilar, poliesterlar, fenol-formaldegid va boshqalar kiradi.

### **Gomopolimerlar va sopolimerlar**

Hosil bo'lgan monomerlarning turiga ko'ra, polimerlar ham gomopolimerlar va sopolimerlarga bo'linadi. Gomopolimerlar faqat bitta turdagi monomerni polimerlash orqali hosil bo'ladi, sopolimerlar esa ikki yoki undan ortiq turdagi monomerlarni polimerlash orqali hosil bo'ladi, shunda alohida polimer zanjirida monomerlarning har birining qoldiqlari bo'ladi. Sopolimerda monomer birliklarining joylashishi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ko'pgina muhim sanoat materiallari zanjir bo'ylab tasodifiy taqsimlangan monomer birikmalari bilan tasodifiy sopolimer (–ABAABBAAAAABABBABBBAAB–) tartibiga yaqin. Blok-sopolimerda (–AAAABBBBAAAABBBBAAAAB–) bir takrorlash birligining ketma-ketligi yoki bir blokidan keyin boshqa takroriy blokning takrorlanishi bilan davom etadi.

### **Polimerli kompozision materiallar.**

Kiyingi yillarda sanoatda, ishlab chiqarishda keng ko'lamda polimer materiallar bilan birgalikda, ularning kompozitlari yanada effektiv ravishda qo'llanilmoqda. Bunga asosiy sabab qilib ularni sintez qilish jarayonining yaxshi o'rganilganligi va ishlab chiqarish ortishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan turli xil polimer materiallarning o'zaro aralashmalari ya'ni kompozision materiallar xossalari uni tashkil qiluvchi komponentalarning xossalari ko'ra ijobiy tomonga yaxshilanishini ko'rsatish mumkin. Polimerli kompozision materiallarning muhim xossalari quyidagilar hisoblanadi: solishtirma og'irligining materiallarga nisbatan kichikligi, mustahkamligi esa ulardan ham ortiq, yuqori haroratlarga bardoshliligi, ularning tannarxi qiymatining arzonligi, mustahkamligi esa ulardan ham ortiq, yuqori haroratga bardoshliligi, ularning tannarxi qiymatining arzonligi, past tempera turada ham ishlash diapazoning kengliklari kabi parametrlarini keltirish mumkin. Ularning ana shunday sifatlarini inobatga olgan holda ulardan aerokslik sohalarida: samalyot qanotlari, dumlari, fyuzelajlar, samalyot salonining ichki tomonini dizayin ishlarida, suvda suzuvchi qayiq, poyga avtomobili korpuslarida, quyosh panili substratlarida,

turli xil antenna reflektorlarida va boshqa konstruktiv detallar tayyorlashda ishlatilmoqda.

Polimer kompazitsion materillar asosan polimer matretsa va polimer to'ldiruvchilardan tashkil topadi. Ularning dizayin ko'rinishini yaxshilash maqsadida turli xil to'ldiruvchilar – kichik molekulyar birikmalar ham qo'shish mumkin. Ularning mustahkamligini oshirish maqsadida qattiq zanjirli polimer materiallar – armirolovchilardan ham foydalaniladi

1. Tabiiy kompazitsion materiallar: yog'och, suyak bambuk, turli xil tabiiy to'qimallar (muskil to'qimallari)
2. Makrokompozitlar: po'lat (temir, marganes, xrom, rux va boshqa materiallar aralashgan qotishmalar ) temir beton va boshqalar.
3. Mekrokompozitlar – turli xil qotishmalar, qattiq xoldagi termoplastiklar, mustahkamligi oshirilgan termoplastiklar eposid, fenolik, polialibli birikmalar.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, polimerli kompazitlar mikrokompozitlar sirasiga kiradi. Mustahkamlash turiga qarab polimerli kompazitlar taloni yoki laminar kompazitlar bo'lishi mumkin.

Mayda zarralar bilan mustahkamlangan kompazitlar despers fazoda zarralarning katta kichikligiga qarab mikro va nanokompazitlar sifatida baxolanishlari mumkin. Kiyingi yillarda ayniqsa nano o'lchamdagi kompazitsion o'lchamdagi kompazitsion materiallarga qiziqish ortib bormoqda. Nano o'lchamdagi kompazitlar avvalgilariga qaraganda ko'proq ijobiy xossalarga ega ekanligi ayon bo'lmoqda. Ulardan ko'proq yuqori samarali qoplamalar, katotli, elektronika, magnet va beomedikal ashyollar sifatida qo'llanilmoqda.

Polimerli nanokompazitlar tadbqiq qilishdan maqsad molekulyar yoki nano o'lchamdagi, mustahkamligi o'ta yuqori bo'lgan materiallar ixtiro etishdan iborat. Shuningdek ular judda yuqori erish haroratiga ega bo'lishi talablariga ham javob berishi lozim bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda nanokompazitlar kelajak materiallari hisoblanadi.



**Adabiyotlar:**

1. M.A. Islam, M.R. Alam, M.O. Hannan, Multiresponse optimization based on statistical response surface methodology and desirability function for the production of particleboard, Compos.
2. M. Baskaran, R. Hashim, O. Sulaiman, S. Hiziroglu, M. Sato, T. Sugimoto, Optimization of press temperature and time for binderless particleboard manufactured from oil palm trunk biomass at different thickness levels.
3. N. Ayrilmis, J.H. Kwon, T.H. Han, Effect of resin type and content on properties of composite particleboard made of a mixture of wood and rice husk.
4. E. Guntekin, B. Karakus, Feasibility of using eggplant (*Solanum melongena*) stalks in the production of experimental particleboard, Ind. Crops Prod.



## STUDY OF PROPER NAMES IN ENGLISH-UZBEK LANGUAGE, AND THEIR LEXICO-SEMANTIC AND STRUCTURAL-GRAMMARAL STRUCTURE

Supervisor: **Khojamurod Jabborov**, Doctor of Philological Sciences

**Nusratov Javohir**, MA Student

Karshi State University

### Abstract

One of the important tasks in general linguistics is the study of the formation and sources of development of nouns in any language system and the structural-grammatical and lexical-grammatical features, the problem of the human factor in their formation. Today, comparing and substantiating the comparative-historical, linguoculturological and sociolinguistic aspects of proper nouns with primary sources, especially in the example of different structural languages, two and three languages, different stages of language development, comparative linguistic analysis of proper names in different historical processes and conditions and the use of the anthropocentric paradigm in illuminating the commonalities and differences between them is proving to be effective.

**Key words:** proper names, comparative-historical, lexical-grammatical features, linguoculturological aspects, sociolinguistic aspects, structural languages.

In recent years, in the development of proper nouns, including Uzbek proper names, A.P. Dulzon, E.M. Murzaev, V.N. Toporov, O.N. Trubaechev, B.A. Serebrennikov, A.K. Matveev, V.A. Nikonov, Yu.A. Karpenko, A.V. Superanskaya, A.I. Popov, B.M. Pospelov, V.A. The influence of the ideas of a number of scientists, such as Juchkevich, was noticeable. At the same time, great attention was paid to the study of toponyms of the Turkic peoples, including the names of Kazakhstan, Turkmenistan, Bashkortostan, Kyrgyzstan, Karakalpakstan. In this regard, D.G.

Kiyikboev, T. Januzaqov, D.X. Karmisheva, G.K. Konkashbaev, A. Abdurahmonov, G.I. Donidze, M. Mametov, S. Ataniyozov, A.A. Scholars such as Kamolov have devoted their research to the study of Turkic linguistics.

In the field of Turkology, more effective work has been done on the study of proper names. M.M. Ginatulin<sup>48</sup>, V.G. Naumov<sup>49</sup>, N.V. Danilina's PhD dissertation<sup>50</sup>, V.H. Makhpirov's "Old turkish proper nouns ", V.E. Staltmanen's Onomastic Lexicography, I.V. Drone and S.S. Kroglo's Sovremennaya Gagauzskaya toponymy and anthroponymy are among them. In addition to the collection "Социолингвистический аспект имени собственного " (M., 1984), which reflects the problems of the study of proper names, since 2004 the journal " Вопросы ономастики " has been published in Ekaterinburg. The first issue of the magazine announced its goals, objectives and direction. In Uzbek linguistics, some work has been done to study the proper names system and its different types. In particular, dissertations on the study of toponyms and anthroponyms were defended, monographs, dictionaries were created.

In the study of proper names in the West, mainly J.S. Mill's ideas dominate, and proper names are often understood as semantically meaningless characters, which is what J.C. Butler [Butler 2012] argues that it has a negative impact on the development of science. At the same time, it is worth noting that the socio-historical approach to the study of names has been studied in depth, focusing on the origin of names and their importance in society (R.D. Alford, R. Dankling, S. Clark, E.D. . Loson, R. McKinley, X.E. Wilkinson, A. Fauler, P. Hanks, S.Dj. Herrison)<sup>51</sup>.

Analytical methods related to the study of proper names can be divided into three groups:

1. Analysis of terms related to onomastic theories: scientific toponymy, onomastic direction, onomastic research, the principle of restoration of historical names,

<sup>48</sup> Гинатулин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц. – Алма-ата, 1973. – С. 27.

<sup>49</sup> Наумов В.Г. Явления мотивации в системе диалекта (лексикологический аспект). – Томск, 1985. – С. 17.

<sup>50</sup> Данилина Н.В. Нижегородская антропонимия XIV-XVII веков. – Горький, 1986. – С. 24.

<sup>51</sup> Alford R.D., Fowler A., Clark C., Dankling L., McKinley R.A., Hanks P., Harrison Simon J., Lawson Edwin D., Wilkinson.

historical-etymological direction, methodology of proper names, onomastic laws, special proper names, general proper names.

2. Scientific directions of studying proper names: ethnography of names, different motives of anthroponyms, semantics of anthroponyms, analysis of anthroponyms from the point of view of time, social origin of anthroponyms, connection of anthroponyms with environment, cartographic toponymy, onomastic lexicography, toponymic lexicography, toponymy, toponymy historical-etymological study of toponyms, encyclopedic dictionary of toponyms, etymological dictionary of toponyms, etymological study of toponyms, etc.

3. Methods of scientific research: onomastic classification, anthroponymic classification, anthroponymic stratification, chronological classification, extralinguistic classification, aesthetic classification and others.

Naming is not a spontaneous phenomenon, but a process that must meet specific linguistic and non-linguistic laws, needs, and requirements. The features of this process are referred to in onomastic research in certain terms:

1. Terms that generally express the concept of naming (nomination): name, naming, naming system, naming function, naming, nomination, onimization, onomastic nomination, nomination system, naming culture, naming art, etc.

2. Concepts related to the naming method: naming up to four genealogies, naming up to six genealogies, attributing to a seed name, nickname, naming objects individually, naming by father, official naming, Arabic method of naming, naming by two names, naming in honor of people, multiplicity, neighborliness, and so on.

3. The process and laws of naming: toponymy - the transition of a relative word (appellation) to a system of nouns, changing its function, becoming a place name.

4. Phytonimization - the process of transition of an attractive plant to a proper names (Лили=Lily –Марварид= Pearl, Нилуфар= Lily).

We base our study on anthroponymy and etymology and focus on determining the true meaning and final point of contact of personal names. Anthroponyms combine into a lexical system (system) with their general and specific features. It

serves to distinguish between individuals by combining linguistic-speech and encyclopedic information (meanings).

In conclusion, we can point that words in the category of names have the ability to perform two different semiological functions, and they serve not only to name things but also to describe them. The fact that these functions fall on a single unit leads to the formation of specific predicative and attributive compounds.

When it comes to the semantic properties of names, first of all, it is necessary to distinguish their place among the nominative units and denotative meanings that are activated in their participation in speech structures. In the first case, the denotation is a generalized notion of the object (or subject class) in reality as the object of the term, and in the second, the denotative linguistic sign interacts with the object in the speech process, that is, with its referent.

#### References:

1. Alford R.D., Fowler A., Clark C., Dankling L., McKinley R.A., Hanks P., Harrison Simon J., Lawson Edwin D., Wilkinson.
2. Гинатулин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц. – Алма-ата, 1973. – С. 27.
3. Данилина Н.В. Нижегородская антропонимия XIV-XVII веков. – Горький, 1986. – С. 24.
4. Наумов В.Г. Явления мотивации в системе диалекта (лексикологический аспект). – Томск, 1985. – С. 17.
5. Oxford Dictionary of English. Second edition. Volume 1. A-Bazouki. CLAREDON PRESS. OXFORD 1989

## FUNDUK (CORYLUS) – O’SIMLIGINING BIOLOGIYASI, XUSUSIYATLARI VA KO’PAYTIRISH USULLARI

**Xolmatova Dilafroz Murodjonovna**

Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti

O’rmonchilik yo’nalishi magistri

**Annotatsiya:** Fundukning ahamiyatli tomonlari juda ko’p hisoblanadi. Funduk vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalarning koni hisoblanadi. Ular sog’lom ovqatlanish, an’anaviy tibbiyot, kosmetologiya va farmasevtikada qo’llaniladi. Ushbu yong’oqning yog’i juda ko’p foydali xususiyatlarga ega, chunki uning tarkibida E, B, PP, C vitaminlari, oqsillar, aminokislotalar va minerallar mavjud.

**Kalit so’zlar:** ko’chat, urug’, ildiz, po’stloq, yong’oq, suv, sharoit, o’simlik, daraxt, tuproq, ildiz bachki, parhesh.

**Аннотация:** Есть много важных аспектов фундука. Фундук- это кладезь витаминов, минералов и других питательных веществ. Они используются в здоровом питании, народной медицине, косметологии и фармацевтике. Масло этого ореха обладает многими полезными свойствами, так как содержит витамины E, B, PP, C, белки, аминокислоты и минеральные вещества.

**Ключевые слова:** рассада, семена, корни, кора, орехи, вода, условия, растение, дерево, почва, корневые бачки, паркеша

**Annotation:** There are many important aspects of funduk. Funduk is a deposit of vitamins, minerals and other nutrients. They are used in healthy eating, traditional medicine, cosmetology and pharmaceuticals. The oil of this nut has many beneficial properties, as it contains vitamins E,B,PP,C . proteins, amino acids and minerals.

**Keywords:** seedling, seeds, roots, bark, nuts, water, conditions, plant, tree, soil, root cups, parquesh

Funduk – qayindoshlarga mansub buta yoki daraxt. O'rmon yong'ogi'ning mevali turi bo'lib, Janubiy Yevropa va Osiyoda tarqalgan. O'rta va Janubiy Yevropa, Turkiya, AQSH, Kavkaz, Qrim va boshqa joylarda o'stiriladi. Bo'yi 3-10 m, bir uyli, guli ayrim jinsli, changchisi kuchalasimon to'pgulga, urg'ochisi yakka- yakka yoki 2-3 tadan yig'ilgan. Sentabr va oktabr oylarida pishadi, mevasi yirik, cho'zinchoq, po'sti yupqa. Mag'zi tarkibida 52-71 % yog', 12-18% oqsil va 3-10 % uglevod bor. Funduk mag'zi qovurilgan yoki xom holatda iste'mol qilinadi, qandolatchilik sanoatida ishlatiladi, yog, olinadi. Funduk urug'idan, parhish, ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Ko'chatlari 8x6 yoki 8x10 m sxemada ekiladi. Ko'chati o'tqazilgach 4-6-yili hosilga kiradi. Hosildorligi 10-30 s/ga.

Fundukning bog' shakli, to'q yashil barglari va yong'oqlari bo'lgan, balandligi 3 m gacha bo'lgan ixcham buta o'simlikdir. Asosan bizning mamlakatda shahar atrofi hududida manzarali o'simlik sifatida tarqalgan. U hatto shimoliy kengliklarda ham o'stiriladi, chunki ba'zi turlari -50 C gacha haroratga bardosh beradi. Funduk 4-6 yil ichida meva bera boshlaydi. Seleksioner olimlar fundukning ko'plab navlarini yetishtirishgan. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega- mevalarining hajmi va ta'mi, meva berish davri, ma'lum kasalliklarga chidamliligi.

O'simlikning quyidagi turlari bor:

**Erta Trebizond-** uzun bo'yli butalardan hosil yig'ish iyul oyining oxiriga to'g'ri keladi. Yong'oqlari – katta, oval, oldingi qismi biroz uchli. Mevasining po'sti yupqaligi bilan ajralib turadi.

**Kosford-** yong'og'I avgust oyining o'rtalaridan boshlab daraxtdan yig'ib olinadi. Mevalari katta, cho'zinchoq shaklda. Xilma-xilligi shundan iboratki, u keng tarqalgan kasalliklar va zararkurandalarga chidamli.

**Varshava qizil-** qizil bo'lgan barglari buta sharsimon shakl hosil qiladi. Ushbu turdan asosan bog'bonlar hosildorligi bilan bir qatorda uning manzaraliligini ham inobatga olib ko'paytiradilar.

**Bodom shaklidagi turi-** g'ayrioddiy ta'mi tufayli o'z nomini olgan- urug'lari bodom ta'miga ega. Mevalari o'rtacha kattalikda, ingichka qobiq bilan qoplangan. O'sish sharoitiga qarab daraxtlar yuqori hosil beradi.

**Barselona-** O'simlik zich, juda bargi ko'p. Qulay sharoitda u 5 m gacha o'sishi mumkin. Ushbu o'simlikning funduklari sovuqqa chidamli hisoblanadi. Yong'oqlari – juda katta, biroz silliq. Meva markazlari – mazali, suvli, nozik qobiq bilan qoplangan. Barselona turning asosiy kamchiliklari monilozga nisbatan zaifligi.

**Rim-** sara katta yong'oq bilan mashxur, ular avgust oyiga qadar pishadi. O'simlik zararkuranda va kasalliklarga chidamli.

**Galle-** daraxti zich bargli hisoblanadi. Yong'oqlari konus shaklida, katta, qalin qobiqli. Ushbu funduk navi janubiy mintaqalarida yetishtirish uchun ko'proq mos keladi, chunki mevalari sentabr oyining oxirida pishib yetiladi. Galle barcha turlarning eng mashxuri hisoblanadi.

Fundukni qayerda o'stirish mumkin- degan savol tug'iladi. Funduk o'rmon o'simligi bo'lgani uchun issiq, quyoshli, kuchli shamollardan himoyalangan hududlarda o'stiriladi. O'simlikning ekish oralig'ini kengroq bo'lishi talab etiladi. Sababi oralig'I yaqin bo'lsa ildiz tizmida ozuqa moddalari yetishmay qoladi. Funduk tez-tez suv bosadigan yerni yoqtirmaydi. Uni bahorda ko'p namlik yig'ilmaydigan joyda saqlash kerak. Yer sathi suvlari yer sathidan 1,5 m dan oshmasligi kerak. Funduk o'simligi tuproq tanlamaydi, faqatgina ekishdan oldin yerni yaxshi tayyorlasangiz, hosilingiz yuqori bo'ladi. Ushbu o'simliklar –qumli, yuqori darajada kislotali va botqoq yerlarni yoqtirmaydi. Agar yer kislotali tuproq bo'lsa, yerlarni ohak bilan davolash kerak. Buning uchun  $1m^2$  uchun 500 g miqdorda ohak solish zarur. Bu jarayonni o'simlikni ekishdan bir yil oldin qilish kerak, aks holda yosh nihol ildiz otmaydi. Ko'chatlarning yaxshi rivojlanishi uchun yerning yuqori qatlamlarini o'g'itlash zarur. O'g'itlash uchun 50 g kaliy tuzi va 200 g superfosfat solinadi.

Funduk ekish uchun eng yaxshi vaqt oktabr oyining boshi hisoblanadi. Daraxtda tinim davri qisqa bo'lganligi sababli, bahorda ko'plab ko'chatlar ildiz otmaydi. Agar



ushbu davrni o'tkazib yuborgan bo'lsangiz, mart-aprel oylarida bahorgi ko'chat o'tqazish davrini kuting.

Funduk ekilganidan so'ng to'g'ri parvarish qilishni ta'minlash zarur. Funduklar botqoqlarni yoqtirmasligiga qaramay, bu mo'l-ko'l sug'orishga yaxshi javob beradi. Bu ayniqsa quruq yozda juda muhimdir – agar suv yetishmasa o'simlik nobud bo'ladi. Ob-havoga qarab oyiga 1-2 marta sug'orib turiladi. Bundan tashqari o'g'itlab boorish zarur. Asosan organik o'g'itlardan foydalanish bilan bir qatorda, kaliy va fosforgia muhtoj bo'ladi. Meva davrida, ildiz atrofiga 1-2 chelak chirindi qo'shish zarur. Yosh ko'chat atrofini ishlov berish jarayonida chuqur ishlov bermaslik kerak. Qish faslida yosh novdalarni o'rab himoya qilinadi. O'simlik mevasini esa qo'l bilan terish maqsadga muvofiqdir.

Funduk o'simligining tarqalishi 3 xil usulda ko'payadi. Urug'lar orqali- urug'larini ko'paytirish qiyin masala. Urug'larini bahorda va kuzda ekish mumkin. Kuzgi ekish payti sentabrning oxiri mevalarni 4-6 sm chuqurlikka qadaladi. Bahorda esa urug'larni ekishdan oldin iliq joyda saqlash kerak. Xona harorati 18-22 C bo'lishi zarur. Va urug'larni stratifikatsiya qilinib may oylarida yerga qadaladi.

Parhesh usulida esa sog'lom novdani egib, sayoz yerlarga joylashtiriladi. Yosh novda ildiz otgandan keyin 1 yilgacha asosiy daraxtdan ajratilmagan holda o'stiriladi.

Ildiz bachkilar orqali- yoyilib ketgan ildizlardan kurtaklar paydo bo'ladi va ona daraxtdan ajratib olinadi. Ushbu usul eng oson usul hisoblanadi.

Funduk o'simligini turli xil zararkurandalar va kasalliklarga chidamli hisoblanadi. Kasalliklarning paydo bo'lishining asosiy sababi- qurg'oqchilik, suv bosgan tuproq hisobiga zamburug' kasalligi kelib chiqadi. Zamburug' bilan kasallangan funduk o'simligining barglarida kukunli chirish belgilari paydo bo'ladi. Agar barglarda shunday holat kuzatilsa, o'simlikning shikastlangan qismini olib tashlanadi va yoqib yuboriladi. Ohak va oltingugurtning 2 % li eritmasini 10 kunda bir dorilab boriladi.

Fundukning ahamiyatli tomonlari juda ko'p hisoblanadi. Funduk vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalarning koni hisoblanadi. Ular sog'lom ovqatlanish, an'anaviy tibbiyot, kosmetologiya va farmasevtikada qo'llaniladi. Ushbu

yong'oqning yog'I juda ko'p foydali xususiyatlarga ega, chunki uning tarkibida E,B,PP,C vitaminlari, oqsillar, aminokislotalar va minerallar mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Арахис и фундук посадка уход обор урожая Сергей Холодный изд Лотос 2018
2. Константин Юрий «Орехи- целители Грецкие кедровые кешью фундук кокос арахис...» изд Центр полиграф 2016
3. В.Г.Пахно Ю.И.Паутов «Фундук» изд Днепр 2019
4. Р.С.Верник «Ореховы леса Узбекистана»
5. Е.Т.Стрела «Орех грецкий»



## ARBOLIT CONCRETE

**Tlemisov Zayfun Aymuratovish**

Karakalpak State University, Master of Construction Materials

[zayfuntlemisov@gmail.com](mailto:zayfuntlemisov@gmail.com)

**Annotation:** Arbolite belongs to the category of lightweight concrete. The main difference between these composite building materials is the presence of wood chips as a filler. Sliver serves as a bonding component in the monolithic composition of cement paste. The second name of arbolita is wood concrete.

Like any other building material, arbolite product has its advantages and disadvantages. If you carry out precise quality control at all stages of production, you can deal with the latter. The positive qualities allow the use of blocks to create large walls, hollow products, thermal insulation boards, mixtures for filling barriers.

**Keywords:** Arbolite, concrete, building materials, etc.

Arbolite concrete is a Greek word meaning "arbor" tree, "litos" stone. The structure belongs to the class of very light concrete. It is one of the best building materials today. Wood chips, Portland cement 500 and additional chemicals (hydrochloric acid) are added to the structure. As for the history of arbolite concrete, in ancient times people tried to build houses that were cool in the hot summer in the winter. The oldest houses are made of wood, stone and other building materials. Homes protected people from heat, cold, and tearing animals. The increase in demand

for wood in the Middle Ages increased the demand for this raw material. This has led to the development of new technologies instead. By the middle of the 19th century, the effective use of sawdust had grown exponentially. We recognize the United States as the home of arbolite concrete. In the 19th century, the Russian inventor Kostovich Ogeneslov Stepanovich invented the "Paner" from wood. He also invented glue to glue the panels together. And he called it "Arborit."

In the 1930s, the United States underwent tremendous changes. The growth of capitalism has grown exponentially, and the slogan “pay for everything” and rising fuel and coal prices have become a source of concern.

Low-cost housing has become a modern requirement. These houses were low-rise, compact, with high thermal insulation (i.e., cool in summer, warm in winter). In the United States, Arbolit's original name was WOOD STOWN. That is, "Wood" means wood, and "Stone" means stone. Currently, the maximum height of construction of arbolite concrete houses in construction is 2 meters. Block dimensions are 300x200x500 mm. It is 500 mm long, 200 mm high and 300 mm wide. Strength 400... 800 kg / m<sup>3</sup>, Compression 0.5... 6.0 MPa. As for the structure, it is produced like ordinary concrete. That is, the fillers are wood chips, not gravel. Wood chips (dry), Portland Cement 400 and sand. Arbolite concrete belongs to the class of lightweight concrete. It weighs 15-20 kg. It is an environmentally friendly product, resistant to fire and cold.

When assembled, houses are assembled with concrete or with custom adhesives. It is now common in the construction industry for wood chips to be discarded or destroyed. Instead, we should make extensive use of arbolite concretes. They are more effective than raw gish. Ordinary bricks withstand heat and cold quickly, and arbolite blocks keep the air cool. That is, your home breathes. Insects do not affect the block in the event of any damage. The block does not transport or store them. The 21st century has taught us to use high-quality materials.

**List of used literature:**

- 1.Sultonov A.A, Tulaganov A.A “Building materials and technology of materials” Samarkand 2012
- 2.Qosimov. E “Building Materials of Uzbekistan” T-2003
- 3.Najimov J.B “Binding materials” Nokis 2018
- 4.Sokolov A. Nanaznashvili I.X “Doma iz Arbolita” M 2014
5. <http://Arbolitdom.ru>



## BITIRUVCHI TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA O'QITUVCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

**Mamantayeva Zamira Xamitjonovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti magistratura bo'limi  
Aniq va tabiiy fanlar o'qitish metodikasi (biologiya) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

Bitiruvchi talabalarni pedagogik faoliyatida o'qituvchilik mahoratini shakllantirish uchun yechiladigan vazifa bo'yicha masalaning sharhini berish va holatini tahlil qilish, vazifalar yechimiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish, variantlarini qarab chiqish, va eng ma'qul variantini belgilash, ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash bizning asosiy maqsadimizdir.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik maxorat, metodika, psixologiya ko'nikma va malakalar, bitiruvchi talabalar.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ushbu muammolarning echimini topishda “Pedagogik mahorat” chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da ta'rif quyidagicha izohlangan: “O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin: Yuqori darajada, bilimdon va aql-zakovatli, o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi, pedagogika va

psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish qobiliyatiga ega insondir. Bundan tashqari o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi, pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi, kasbiga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi muhimdir. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish, pedagogik texnika sirlarini puxta egallash, barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining memori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u voshlami g'oyaviv-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobilivati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim. Shunga asosan, bitiruvchi talabalardan o'z kasbini, mutaxassisligini yaxshi biladigan mahoratli va mas'ulyatli kadrlarni tayyorlash muxim axamiyatga ega. Bitiruvchilarni pedagogik mahoratini shakillantirish avvalo o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi. O'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. O'qituvchilarning pedagogik faoliyati

samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuza tuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimol bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabi tashkilotchilik tashkilot etadi.

Bitiruvchi pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachi mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'ri shaxsiy bilimlar tizimini egallaydilar.
3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'analarimizda va O'rta-Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.
4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.
6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.
8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachi zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra



olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zi da tarkib toptirishi lozim. I.P.Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: “pedagogik mahorat ([www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi) deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbi malaka va ko'nikmalarini mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetilik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

## YIRIK E-SAVDOLARNING RIVOJLANISHI VA KENG IMKONIYATLARI

**Yuldasheva Irodaxon Abdug‘affor qizi**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda elektron savdo (e-savdo) yoki elektron tijorat (e-tijorat) kabi tushunchalar kirib kelib, ular an'anaviy iqtisodiyotning odatdagi o'rtacha o'sish sur'atlaridan ancha yuqori sur'atlarda o'sishni namoyish etadigan modellarni ilgari surayotganliklari hamda global iqtisodiyotda o'zlarining qulayliklari va keng imkoniyatlari orqali o'z o'rnilarini topdilar. Mazkur soha (ayniqsa, AQSH da) XX asrning boshlarida juda muhim bir evolyutsiyani boshdan kechirgan holda, so'nggi yigirma yil ichida elektron tijoratning doimiy o'sishini aks ettiruvchi to'siqlar bartaraf etildi. Ushbu maqolada yirik elektron savdolarning rivojlanishi, ko'plab imkoniyatlari, shuningdek, afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** elektron savdo, tovar va xizmatlar, marketing strategiyasi, menejment, iste'molchi, yetkazib beruvchi, minimal kapital.

Internet va elektron savdo muqarrar ravishda bir biriga o'xshash yo'lni bosib o'tdi hamda hozirda bu tushunchalar bir-birini inkor eta olmaydi. Axborot texnologiyalari yangiliklari bir zumda onlayn biznes dunyosida aks etdi. Amerika Qo'shma Shtatlarida mintaqaviy kelib chiqish asosida oddiy tarzda ishlatilishi tufayli e-savdo butun dunyo bo'ylab Internet texnologiyalari bilan bog'liq yangiliklar tufayli tez tarqaldi.

Yirik e-savdo prognozi real iqtisodiyotning rivojlanish bosqichiga to'liq mos keladi. Rivojlanish darajasi yuqoriligi sababli, axborot texnologiyasining infratuzilmasi bilan bog'liq holatga ko'ra, ba'zi davlatlar mustahkam bazani yaratishga va saqlashga muvaffaq bo'lishdi. Bugungi kunda tovar va xizmatlarni sotib olishning qulay usulidan (e-savdodan) mahrum bo'lgan iste'molchilar yutqazmoqda, chunki hozirgida

dunyoning istalgan burchagidan deyarli har qanday mahsulotni qo'shimcha qiyinchiliklarsiz, masofadan buyurtma berish asosida sotib olish mumkin.

Internet (axborot) texnologiyalar (World Wide Web, intranetlar, extranetlar va boshqalar) va ularni biznesda qanday amalga oshirishni bilish texnologiya va biznes o'rtasidagi bog'liqlik asosida yotgan konsepsiyaning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, u yirik elektron savdo deb nomlanadi. Umumiy nuqtai nazardan tahlil qilinadigan bo'lsak, yirik e-savdo uchta asosiy komponentni o'z ichiga olishi mumkin:

- tadqiqot, rivojlantirish, marketing, ishlab chiqarish, logistika, menejment va boshqalar bilan bog'liq jarayonlar hamda faoliyatni o'z ichiga olgan inson tomonidan amalga oshiriladigan o'lchov;
- axborot texnologiyalariga o'xshash bo'lgan texnologik komponent;
- savdo yoki e-savdoning bir qismi bu birinchi navbatda hodisa sifatida qabul qilingan, elektron tijorat deb nomlanuvchi atamadan farqli ma'noga ega, asosan Internet texnologiyalaridan foydalangan holda tovar va xizmatlarni sotib olish.

Dastlab, elektron va savdo tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq edi (ko'p hollarda chalkashlik muqarrar edi), keyinchalik tafovut qilingan va hozirda bir birining ajralmas qismi deb hisoblanadigan elektron savdo tushunchasi tarzida qo'llanilmoqda. Ko'pgina ta'riflarda elektron savdo, asosan, elektron ommaviy axborot vositalari orqali o'zaro aloqada bo'lgan bitimning bir turi sifatida ta'kidlangan.

Jahon kompaniyalarining texnologik rivojlanishlarga moslashishi ularni onlayn bozorga kirishga bo'lgan urinishni, butun iqtisodiy jarayonni qayta qurish va o'zgartirishni hisobga olishga majbur qildi. Agar yirik e-savdoni qo'llash paytida ba'zi kompaniyalar texnologiyaning jihati va ahamiyatini e'tiborsiz qoldirgan bo'lsa, endi bu kompaniyalar yangi boshqaruv va ishlab chiqarish talablariga moslashdilar.

Hozirda reklama yoki marketing strategiyasiga yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Shu bilan birga, qattiq elektron kurash boshlandi va potensial mijozlar soni sezilarli darajada ko'payganligi sababli kompaniyalar mijozlarni jalb qilishga ko'proq qiziqish bildirishni boshlashdi.

Ushbu sohadagi qonunchilikning sustligi bu jarayonda tuzatildi, bu o'z ta'sirini ko'rsatdi, chunki potensial xaridor yirik e-savdo qonunchiligiga ko'proq ishonishi mumkin. Biroq, ushbu sohadagi ba'zi provayderlar tomonidan amalga oshirilgan ko'plab sug'urtalarga qaramay, tijorat aktlarini himoya qilish usullarini cheklash hali ham mavjud. Iste'molchilarga qulaylik yaratish nuqtai nazaridan, yirik e-savdo tovar va xizmatlarni taklif qiluvchilar bilan toifadagi tovarlarga, ular uchun to'lashga tayyor bo'lganlarning o'zaro aloqalari to'g'risida shaxsiy eslatmani yetkazishga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi vaqtda mobil tijorat komponenti (smartfonlar va boshqalar) klassik e-savdo vositalari bilan bir qatorda asta-sekin rivojlanib bormoqda.

Yirik e-savdoni tashkil etishning asosini tashkil etadigan elektron tijorat bilan bog'liq asosiy tushunchalar asosan biznesdan biznesga (business-to-business, B2B), biznesdan iste'molchiga (business-to-consumer, B2C), biznesdan hukumatga va hukumatdan biznesga (Business-to-government and government-to-business, B2G/G2B), iste'molchodan iste'molchiga (Consumer-to-consumer, C2C) toifalaridir. Ushbu terminologiya sxematik ravishda iqtisodiy jarayonning asosiy ishtirokchilari kim va ushbu jarayonlarning maqsadi nima ekanligini, ya'ni kim oxirgi foyda oluvchi ekanliklarini tasvirlaydi.

Yirik e-savdo texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga olgan turli mezonlarga muvofiq tasniflanishi mumkin:

1. Ishlab chiqaruvchi kompaniya uchun afzalliklari:

- faqat minimal kapital bilan yetkazib beruvchilar yoki butun dunyo bo'ylab biznes hamkorlar bilan bog'lanish;
- kompaniya tarkibidagi ichki tuzilmalarni qayta tashkil etish va optimallashtirish;
- logistik moslashuvchanlikni ta'minlash;
- mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni saqlash va mustahkamlash;
- turli xil biznes jarayonlar bilan bog'liq xarajatlarning kamayishi;
- aloqa tezligini oshirish;

– e-savdolarni muqobil savdo usuli sifatida qabul qilish.

2. Xaridorlar uchun afzalliklari:


- vaqt omilini hisobga olmagan holda tezkor xaridlar; tezkor yetkazib berish va xaridor uchun yuqori qulaylik;
- onlayn kim oshdi savdosi kabi tadbirlarda qatnashish;
- turli xil mahsulotlarni yanada samarali taqqoslash imkoniyati.

3. Ishlab chiqaruvchilar uchun afzalliklari:

- yangi mijozlarni jalb qilish qobiliyati;
- kirish imkoni bo'lmaydigan bozorlarga oson kirish;
- tovarlar va xizmatlarni taqdim etishdan tashqari xarajatlarni kamaytirish.

4. Umumiy afzalliklari:

- vositachilarni iqtisodiy faoliyatdan siqib chiqarish;
- yetkazib beruvchi va xaridorning ikki tomonlama turli tadbirlarga sarflanadigan vaqtini qisqartirish;
- ba'zi geografik to'siqlarni olib tashlash.



1-rasm. Internet va uning elektron savdoga ta'sirining o'zaro bog'liqligi

Har qanday texnologiyada kamchiliklar muqarrar va bu sohada asosan tranzaksiya jarayonlari bilan bog'liq xavfsizlik muammolari va zarur infratuzilmaning etishmasligi bilan bog'liq. Shuningdek quyidagi kamchiliklar mavjud:

- tegishli qonunchilik bazasining yo'qligi;
- ba'zi geografik hududlarda yoki faoliyat sohalarida mijozlar yetarli emasligi sababli investitsiya xarajatlarining oqlanmasligi;
- internetga kirishning qimmatligi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, elektron savdo makroiqtisodiy darajadagi bir muncha katta foizni tashkil etadigan iqtisodiy jarayonning ulkan bir qismi bo'lib bormoqda. Davom etayotgan globallasuv jarayonini inobatga olgan holda, hozirgi paytda, ayniqsa, rivojlanayotgan global bozorlarni ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri keladigan bo'lsa, kelgusi yillarda bu faoliyat yanada shiddatli bo'ladi, ularning ba'zilari hali kengayish bosqichida. Agar rivojlanishni global miqyosda va asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholash mumkin bo'lsa, alohida firmalar va kompaniyalarning rivojlanishi bilan yirik e-savdolarni kelgusida ulkan rivojlanish bosqichi kutib turganini isbotlash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Andam, Z., R., E-Commerce and E-Business, e-Asean Task-Force, UNDP-APDIP, December 2010.
2. Chaffey, D., Define E-Business and E-Commerce, UK, 2010.
3. Feng, L., What is E-Business?: How the Internet Ttransforms Organizations, Blackwell Publishing, Oxford, UK, (2017) 136-137.
4. S. Mirescu. The premises and the evolution of electronic commerce. Titu Maiorescu University, Bucharest, Romania. 2020.

## MONITORING OF LAND COVER CHANGE DYNAMICS USING REMOTE SENSING AND GIS IN MOUNTAINS AND FOOTHILL OF PARKENT FOR ECOSYSTEM SERVICES

Zulaykho Marsova<sup>1,2</sup>, Dilfuza Vafoyeva<sup>1</sup>

<sup>1</sup>National research university “TIIAME”, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** Remote sensing and Geographical Information System (GIS) are the most effective tools in spatial data analysis. Natural resources like land, forest, and water, these techniques have proved a valuable source of information generation as well as in the management and planning purposes. This study aims to suggest possible bare land/open land, agriculture land, and forest land management strategies in mountains and highlands of East Tian-shan based on land cover analysis and the changing pattern observed during the last twenty years. Nowadays human encroachment is taking place for more land for the misuse of pastures. The changes were well observed in the land use and land cover in the study region. A large part of fallow land and open forest were converted into bare land/open land. Geo-informatics and remote sensing techniques give an opportunity to obtain results with low costs, less time consumption, and good accuracy of land cover changing. Continuously capture the Earth’s surface and decision-makers can easily apply satellite imagery to monitor dynamics of change land cover.

**Keywords.** Ecosystem, GIS, Remote sensing, Land cover, Mapping, Monitoring

### 1 Introduction

Nowadays developing remote sensing technology and Geographic Information Systems (GIS) allow us to analysing and monitoring landscape ecology and spatial analysis approach to address the problem of deforestation. [6]. Monitoring and studying of recent changes in natural resources like land, forest using remote sensing and geo-information technologies have put forward a new dimension and interactive approaches in mapping and analysis. Studying forest resources during the last twenty years, the availability of remote sensing data (Landsat 5TM, Landsat 8OLI). [5]. Land cover changes it embraces, for example, the quantity and type of surface vegetation, water, and soil cover. Land-cover changes fall into a modification class of

<sup>52</sup> Corresponding author: [zulaykho.marsova@gmail.com](mailto:zulaykho.marsova@gmail.com)

land-cover. The latter is a change of condition within a land-cover category, such as the thinning of a forest, bare land/open land, and agricultural area composition. [12]. The purpose of the research discussed in this paper was analysing land cover changes and creating map that occurred from 2001 to 2021, using pre-existing land cover map data sets as inputs. This work aimed to assess apparent land cover changes during the observed time frame mainly with respect to forest bare land and agricultural areas. Such information was needed to augment understanding and interpretation of land cover effects on remote sensing analysis [19].


In Central Asia, the work related to land cover change dynamics seen in the works of various researchers. Most researchers work on the land in a micro watershed in the mid-elevation zone of mountain and highland areas. The vegetation cover was altered drastically with inefficient land-use pressure (both human and animal), human activities, and inefficient use of pastures. Geo-informatics and remote sensing analysis of give opportunity to increase machine learning capacity and obtain efficient monitoring land use and land cover changing [11]. Important in any studying any changes of land use creating map also key important of managing to complete mapping capacity may prevent completion of a lands create ecological penalties [20, 25]. Remote sensing data analyse loggers can easily generate and store time and position information of monitoring large areas [18]. Remote sensing data analysis and algorithms can provide managers with essential information for analysing machine learning [15]. Information about land use and monitoring of land resources is essential for correct management planning and management the use land area of such resources.

## **2 Study area**

This study area is located on the northern slopes of the East Tian shan ridge. This area an administrative division constitutes the discitis of Parkent Tashkent region of Uzbekistan. (Fig. 1). Preparation of remote sensing images of land cover of remotely sensed data ten years (2011 and 2021). Suggesting some possible measures for the improvement of the area based on the results obtained for land cover changes is the prime aim of this study. The region currently extends between 41° 00' N to 41° 30' N



latitude and 69° 51' E to 71° 23' E longitude. The territory of the reserve is a mountain range with a well-expressed zonation: low land, middle and high mountains, located at an altitude of 550 - 3500 m above sea level. The southern part of the reserve occupies the steep slopes of the Chotqal ridge, cut by deep gorges; the western part has a smoother relief with terraces covered with a thick layer of marls and loess-like loams. On the territory of the reserve, three types of juniper grow together: Chotqol, hemispherical and Quraman. Juniper hemispherical forms mixed plantations in the upper part of the slopes with the Turkestan juniper, and in the lower part with the Qurama juniper.




**Fig. 1.** Study area Tashkent region and Parkent districts

To achieve additional increases of monitoring land cover changes, the grower deliberately applies approximately of the substance in certain areas of the area to test the correct application of remote sensing [12]. This technology became possible to the development of Geo-informatics, data progress in the land cover of automation of machinery learning, the development of remote sensing data and measuring complexes for collecting information in the land use land cover changes [17], understanding how land use land cover changing analysis [6] and assessing the effects of future land use change and monitoring[9].

## 2 Materials and methods

For the current research data periods of 2001, 2011, 2021 (Landsat 5 TM thematic mapper and Landsat 8 OLI operational land imager) provided by the USGS (United

States Geological Survey) Earth Explorer database system. The spatial resolution of Landsat imageries is the equals 30 m. To analysing of the study area is mountainous and ground data reference for visual interpretation the classification of images used Google Earth Pro. Processing classification steps were completed using the software packages and tools ArcGIS 10.6. The data reprocessing steps included the assignment of the borders, coordinate system, and sub-setting the images based on the polygon of the research area. For Land classification were used supervised classification methods and maximum likelihood algorithm of ArcGIS. Fig.3. Maximum likelihood algorithms are most used and well-known in assessing Landsat satellite imageries [15]. Land classification classes were identified in the study area: bare land cover, forest, waterbodies, agriculture area and built-up areas. For obtaining more accurate land cover classification maps, for every land classes 20 training samples were selected from study area. Fig. 2.




**Fig. 2.** Flow chart for adopted methodology

### 3 Results and discussion

Results of study land use/land cover index for transforming remote sensing data was proposed and evaluated for mapping forest area and bare land/open areas. The index was able to study of changing forest and bare land/open areas with a Maximum likelihood classification. The classification indices could perfectly differentiate between forest and bare land/open land because both of these land types show

significantly spectral responses in all Landsat 5 TM+ bands, Landsat8 OLI. The 2011-2021 land cover change map indicates a mix of forest and bare land /open land change classes. Although some of the study area has undergone noteworthy land cover change over the 10-year interval from 2011 to 2021, extensive areas of forest and bare lands were not converted to some other land use. Some of the apparent land cover change during the observation period appeared to be of an agricultural area. Fig.4. In addition, the land cover change map included areas with deforestation, which help to illustrate the dynamic anthropogenic factors of land cover changes in the region during the observed 10-year time frame.


The relief map of the study area is taken from the DEM file from the resource earthdata.nasa.gov. The relief map of the studied area identifies the elevation zones of that area, and in the surface classification it is possible to determine at what altitudes the classification has changed. The results of the analysis show that between 2011 to 2021, forests in the study area, mainly in the area of 1000 m up to 2500 m, decreased and became open lands. (Fig. 3.)



**Fig. 3.** Relief map research area. (Source: earthdata.nasa.gov)


The Land cover changes index is rather a hint at what is currently happening on the land. Maximum likelihood algorithms usage for land analysis: at the beginning, in the middle, and at end of the growing season (summer). Growing of the season, the

Maximum likelihood algorithms index helps to understand how the plant and trees has changes over the time (Fig. 4).



**Fig. 4.** Land cover changing map.

Nevertheless, it should be kept in mind that high Maximum likelihood algorithms identification land cover classes needed to check using google earth pro this area. Land cover categories confirmed variation in the univariate statistical values of radiation heat flux parameters (Fig. 3). Spatial parameters characterized by gradational change in the values of each parameter. Fig 2 maps shows the range of each parameter under study with their average and standard deviation values gave the best results in terms of land cover classification accuracy. Fig.4 shows the comparison of classes and accuracy for every land cover classes for classifications. Land cover highlighted relative increase in accuracies for all the land cover categories forest and bare land which show increase and decrease in the classification accuracy.



**Fig. 5.** Land cover changing of ten-years data (2011-2021).

Ten-years data (2011-2021) have been taken into account to analyse the pattern of land cover changes. For the year 2011, Forest area covered nearly 61 % of the total area of study area. Bare land and open land constituted nearly 28%, agricultural land covered nearly 12% of the area. Year 2011, displayed nearly 32 % share area under the total Bare land and open land an increase in nearly 7 % during the 2011-2011. From 2011 to 2021 changes are significantly Bare land and open land an increase up to 45 % of total area. And forest has decreased from 61 % (2011) to 42% in the year 2021. This shows a decrease of forest are 19% during the last 20th years. Fallow land shows the highest change in the pattern.

#### **4 Conclusions**

Remote sensing methods with accurate Landsat data and monitoring results can support assessing the further behaviour of land cover monitoring. The achieved results show that within 10 years the land cover changes of the mountains and highlands of Qotqol significantly. As a result of 10 years of inefficient use of pastures in the mountainous and foothill areas of Chotqol, these areas have become open lands. The study area exhibits different land cover changes and that land changes can causes soil erosion, floods, and landslides in future – all of which can turn into hazards once elements are at risk. The land cover changing maps resulting from this study will be further used for landslide susceptibility mapping of study area, which will support the governmental authorities and stakeholders to establish land-use planning for the local government in order to prevent natural hazard losses.

#### **References**

1. Y. Peng, F. Li, N. Xu, R. Kulmatov, K. Gao, G. Wang, Y. Zhang, Y. Qiao, Y. Li, H. Yang, S. Hao, Q. Li, S. Khasanov, Chinese Journal of Eco-Agriculture, **29**(2), 312-324 (2021)
2. I. Mondal, S. Thakur, M. Juliev, J. Bandyopadhyay, T. K. De, Journal of Coastal Conservation, **24**(4), 50 (2020)

3. K. Khakimova, I. Musaev, A. Khamraliev, In E3S Web of Conferences, **227**, 02003 (2021)
4. Spruce, J. Bolten, I.N. Mohammed, R. Srinivasan, V. Lakshmi, Frontiers in Environmental Science, 8, xxxx (2020)R.
5. Kulmatov, A. Taylakov, S. Khasanov, Environmental Science and Pollution Research, 28(10), 12245-12255 (2021)
6. N. Sabitova, O. Ruzikulova, I. Aslanov, In E3S Web of Conferences, **227**, 03003 (2021)
7. C. Opp, M. Groll, I. Aslanov, T. Lotz, N. Vereshagina, Quaternary International, **429**, 86-99 (2017)
8. I. Aslanov, S. Khasanov, Y. Khudaybergenov, M. Groll, Ch. Opp, F. Li, E. Ramirez Del-Valle, In E3S Web of Conferences, **227**, 02005 (2021)
9. S. Sinha, L.K. Sharma, M. S. Nathawat, In Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Science, **18**, 217-233 (2015)
10. I. Musaev, A. Bokiev, M. Botirova, In E3S Web of Conferences, **227**, 05004 (2021)
11. I. Aslanov, Sh. Kholdorov, Sh. Ochilov, A. Jumanov, Z. Jabbarov, I. Jumaniyazov, N. Namozov, In E3S Web of Conferences, **258**, 03012 (2021)
12. I. Aslanov, U. Mukhtorov, R. Mahsudov, U. Makhmudova, S. Alimova, L. Djurayeva, O. Ibragimov, In E3S Web of Conferences, **258**, 04012 (2021)

## TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

**Sharopova Mahliyo Fozilovna**

Buxoro davlat universiteti

Texnologik ta'lim mutaxassisligi magistranti

**Sharopova Dilbar DJuraqulovna**

Buxoro tumani 21-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSH kabi ilg'or xorijiy ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta'lim tizimidagi yutuqlari, ta'lim standartlari monitoring qilingan. O'zbekistonning ayni damdagi yutuqlari e'tirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mamlakat, ta'lim, tajriba, xorijiy tajriba, ta'lim inspeksiyasi, tuzilma, xalqaro baholash.

### USE OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATION QUALITY

**Abstract:** The article briefly analyses the structure, experience and modern educational Programs of the advanced foreign education system such as Japan, Germany, France, USA. Also achievements in the education system, educational standards are monitored. The achievements of Uzbekistan at the same time are recognized.

**Keywords:** Country, education, experience, foreign experience, education structure, international evaluation.

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan

ta’lim to’la ma’noda yangicha tafakkur, sog’lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limning qadr-qimmatini, obro‘ va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmog‘i zarur.

Ta’limdagi muvvafoqlik, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo‘ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylidir. Shijoatni esa insonga, o‘zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma’rifat baxsh eta oladi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog‘ida bo‘lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo‘lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafoqlikli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o‘rganishdir.

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur‘atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.

Shu maqsadda butun ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta’lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo‘lmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim sifati ilg‘or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta’lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo‘lga qo‘yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, “Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida“gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarni kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030- yilga qadar esa 50 foizini, , zamonaviy maktab” larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.



Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomada maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidlagan. Maktablarda moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilash, o‘quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha vazifalarini belgilab berdi.

Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg‘ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko‘rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi.

Shu bois xalq ta‘limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga o‘quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg‘ulotlar kolamini oshirish vazifasi qo‘yildi.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e‘tibori bu yo‘ldagi say harakatlari bilan o‘lchanadi. Bugungi kunda ta‘lim mazmuniga bo‘lgan e‘tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart-sharoitlarga yetib bormoqda. Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlarda ta‘lim tizimini tahlil qilib o‘tamiz.

**Yaponiya ta‘lim tizimi:** *Yaponiya ta‘limida “Iqtidorli o‘quvchi” tushunchasi yo‘q. Chunki har bir o‘quvchi alohida iqtidor sohibidir.*

Ilg‘or mamlakatlar ichida Yaponiya ta‘limi o‘ziga xos yo‘nalishi yetakchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta‘lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta‘lim tizimlariga kiruvchi oliy o‘quv yurtlari.

Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga, ya‘ni o‘z xulqining yomon jihatlari, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o‘rgatishadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi faqat ta‘lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o‘qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo‘lgan yagona davlat.

Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikro kalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan.

Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni - Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan.

Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz.

**Amerika Qo‘shma Shtatlari ta‘lim tizimi:** Amerikada o‘rta ta‘lim 12 yil bo‘lib boshlang‘ich o‘rta va quyi maktablarga bo‘linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o‘quvchilarning 88 foizi o‘qiydi. Ta‘lim muassasalarini davlat va shahar buyudjetlari moliyalashtiradi, Qo‘shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi har yili ta‘limga sarflanadi. 12 foiz o‘quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag‘lar va xayriya mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

Mamalakatlarda ta‘lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo‘yicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi.

Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko‘chirish uskunalari juda ko‘p joylashtirilgan. Chunki o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang‘ich maktabda har yil sinf o‘qituvchisi o‘zgaradi. Boshlang‘ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq. Ko‘paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi.

Amerika maktablaridagi o‘ziga xos usullaridan biri har bir o‘quvchining, „Hisobot kartasi“ yuritilishidir. Unda o‘quvchi 10 xil xatti -harakati bo‘yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi.

Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o‘quvchilari uchun “Sevimli o‘yinchoq” metodini qo‘llashadi. Bu metodda bolalar o‘yinchogini tariflaydi. Mazkur metodni qo‘llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bolishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o‘rgatishdir. Amerikada ta‘limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo‘lgan davlatda butunlay savodsiz bo‘lgan bolalar ham topiladi.

AQSH da ta‘lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Germaniya ta’lim tizimi:** Germaniya jahon ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan bin. Ushbu davlatda har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega.

Maktab ta’lim tizimi boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul.

Germaniyada maktab ta’limi quyidagi maktab tiplariga bo‘linadi: boshlang‘ich maktab; yo‘nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab.

Boshlang‘ich maktab ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish maktabga o‘tishadi. Asosiy yoki to‘liq xalq maktabi boshlang‘ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziya bormagan barcha o‘quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o‘qituvchilari o‘zlarini o‘qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o‘quvchilar yomon o‘zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta’lim olishiga majbur bo‘lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo‘lib, odatda 5-10-sinflarni o‘z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta’lim beradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mas’uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yadigan kasb egalari bo‘lishi uchun kasbiy ta’lim kurslariga tayyorlaydi.

Germaniya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o‘rin olishda o‘zini oqlab kelayotgan ta’lim tizimi mavjud.

**Fransiya ta’lim tizimi:** Fransiyada ta’lim sifati ta’lim, sport va tadqiqotlar bo‘yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko‘rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi:

1. Qo‘llab-quvvatlash - ta’lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta’lim rektoratlarini.
2. Ekspertiza qilish - vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.
3. Baholash - tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol,

kadrlar.

4. Nazorat qilish - tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar.

Bosh inspeksiyada to'planadigan tajribalarning xilma-xilligi, bolalar bog'chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o'quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o'qishiga jalb etishga ta'sir qiladi.

Fransiya ta'lim tizimiga ko'ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4 yil boshlang'ich sinfda o'qiydi. Bu boshlang'ich sinflar odatda alohida boshlang'ich maktab sifatida faoliyat ko'rsatadi hamda ularning inspeksiyasi ham, alohida bo'ladi.

Keyingi bosqich o'rta ta'lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o'qiydi va yakunida to'liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beradi.

Keyingi 3 yil davomida turli yo'nalishdagi litseylarda o'qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi.

O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi.

Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo'lmog'i lozim. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to'garaklar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi talim sifatini nazorat qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz talim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zashtirish, yangi- yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirish.

**Ayni damda AQSH pedagogikasidagi:**

1. Bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash.
2. O‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash
3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik
5. O‘quvchini ilk davridanoq kasbga yo‘naltirish
6. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

**Yaponiya ta’limidagi :**

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash
2. Kichkintoylar ta’lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
4. O‘quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan e’tibor;
5. O‘qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;
6. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

**Germaniya ta’limidagi :**

1. Tabaqallashtirib o‘qitishga kuchli e’tibor;
3. O‘quvchilarni mehnat ta’limini mustahkamlash
4. Kasbga yo‘naltirish.

**Fransiya ta’limidagi:**

1. Maktabgacha tarbiyadanoq o‘quvni predmetlashtirib tashkil etish ;
2. Boshlang‘ich ta’limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish
3. O‘quvni didaktik vositalar bilan ta’minlashga berilayotgasmn katta e’tibor.
4. O‘quv muassasalarinig turli firmalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta’limga ham ko‘chib bormoqda. Albatta ta’limga har qanday yangilik, o‘zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. O‘zbekiston 2022-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Ya’ni bu yilgi 3- sinf o‘quvchilarimiz 2022-yilda 4-sinf bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o‘rtoqlashishga to‘g‘ri keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жураев А.Р., Тешаева И.М. Методические основания оптимизации содержания предмета «Технология». “Проблемы науки” научно–методический журнал № 6 (30) / 2018 г. Россия, Москва с 88 – 89.
2. Sharopova Mahliyo Fozilovna “IMPROVING THE TEACHING PROCESS OF MATERIALS SCIENCE ON THE BASIS OF FOREIGN EXPERIENCE.  
<http://www.ijeais.org/ijamsr/index.php/ijamsr-5-2-2021/>
3. Sharopova M.F., Nazratova Sh. «СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ И ПРОЦЕССА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ» В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ»  
<http://problemspedagogy.ru/images/PDF/2021/54/Problemy-pedagogiki-3-54-.pdf>

## METIN IRODA SOHIBI

### Nomozova Gulnoza Rahim qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining “Tibbiy pedagogika va davolash” fakulteti  
1-kurs 110-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Berdaq adabiyotda o‘zining takrorlanmas she‘riyati bilan ajralib turadi. Uning she‘rlari matnining soddaligi eng muhim jihatlaridan biri. Ijodkor hayotidagi qiyinchiliklarga qaramay buyuk siymo bo‘lganligi hozirgi kun yoshlariga o‘rnak oladi. Berdaq she‘riyatida vatanga sadoqat, mehnatkash xalqning dardi, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat kabi g‘oyalarni yoritgan.

**Kalit so‘zlar:** komil inson, ijodiyot, vatanparvarlik, adolat, hurmat, axloq, adolatli shoh, xalq dardi, mehnatkash xalq.

**Аннотация:** Бердак выделяется в литературе своей неповторимой поэзией. Простота текста его стихов-один из важнейших аспектов. Будучи великой фигурой, несмотря на жизненные трудности, художник подает пример современной молодежи. Бердак осветил в своей поэзии такие идеи, как преданность Родине, боль трудолюбивого народа, взаимоуважение между людьми.

**Ключевые слова:** совершенный человек, творчество, патриотизм, справедливость, уважение, нравственность, справедливый царь, боль народа, трудолюбивый народ.

**Annotation:** Berdaq is distinguished in literature by its repetitive poetry. One of the most important aspects of the simplicity of the text of his poems. The fact that despite the difficulties in the life of the creator was a great figure is an example for the youth of the present day. In Berdaq poetry, loyalty to the motherland, diligence enlightened such ideas as people's grief, mutual respect between people.

**Keywords:** perfect man, creativity, patriotism, justice, respect, morality, just king, people's grief, hardworking people.



Har bir xalqning o‘zligini, milliy mavqei va qadr- qimmatini dunyoga tanituvchi ulug‘ farzandlari bo‘ladi. Ularning qoldirgan o‘lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o‘tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz ulug‘ Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, butun xalqimizning ana shunday ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlaymiz, Islom Karimov.

BerdAQ demokrat shoir sifatida o‘z davridagi voqealar va ijtimoiy munosabatlarni ilg‘or mavqelarda turib baholaydi. Shoirning tarjimai holi haqidagi ma‘lumotlar juda oz. U o‘zining “Umrim” nomli qo‘shig‘ida o‘zining avtobiografiyasini qoldirgan. Ba‘zi zamondoshlarini ham qisqacha ta‘riflab o‘tgan.

Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq 1827-yili Orol dengizining janubiy sohilidagi “Oq qal‘a” degan joyda kambag‘al baliqchi oilasida dunyoga kelgan. U joy hozirgi Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq rayoniga to‘g‘ri keladi.

Ortimda o‘g‘a-inim yo‘q,

Yuragimga tegibdi o‘q,

O‘tar boshimdan dunyo-boq,

Ne bo‘larimni bilmadim.

[1] Xalq uchun. Matn: she‘rlar Berdaq –Toshkent: Ijod-print, 2021.74-b.

Shoirning hayotidagi xursandchiliklar uzoq davom etmagan. O‘n yoshida u eng yaqin insonlaridan bo‘lmish ota-onasidan ajraladi. Ko‘p kishilik Qarg‘aboy va Qoraqorali oilasi parchalanib, bir burda non va boshpana topish uchun har tomonga tarqalib ketadilar. Berdaqni Qarg‘aboyning akasi Qashqarboy va uning o‘g‘li Nazarbiy o‘z qaramog‘iga oladilar. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadi va uy ishlariga yordam berib yuradi.

O‘n yoshga yetganidan so‘ng Berdaq, diniy maktabga boradi, maktabni tamomlaganidan keyin “Qoraqum eshon” madrasasiga o‘qishga kiradi. Ushbu madrasa Qoraqalpog‘istonning shimoliy tomonida joylashgan.

BerdAQ Bibitxon ismli qizga uylanib, besh qiz va ikki o‘g‘il (Hurliqo, Hurliman, Oyimxon, Aymanbey, Nozibek va boshqalar) ko‘rgan. Lekin o‘rta yoshlarda bo‘lganida xotini vafot etgach, Bog‘dagul degan qizga uylanib, yana bir qiz va bizning taniqli shoirimiz dunyoga keladi. Katta ro‘zg‘orni tebratish uchun u ovulma-

ovul yurib baxshilik qiladi. Lekin bir umr boshi faqirlikdan chiqmaydi. [2] Chor kitob Sharafiddin Sanoiy Buxoriy –Toshkent: Ijod-print, 2021. -114- b.

Bu dunyo kengmidir yo tor?

O‘ylab ma’nisin bilmadim.

Nursiz umrda nima bor?

Ne bo‘larin bilmadim.

Kiyganim yamoq-yashiq,

Uning ham bor yeri teshik,

Dunyo menga bo‘ldi qo‘shiq,

Ne bo‘larimni bilmadim.

Shoir “Bilmadim” she’rida dunyoga kelib ko‘p qiyinchilik ko‘rganini, kiygani yaxshi kiyimi yo‘qligini boriyam yamoq-yashiq ekanligi, umri qayg‘uda o‘tganini ta’kidlab, o‘z zamonidan noliydi. Biz Berdaqning o‘z asarlaridan va shoirni biladigan odamlarning so‘zlaridan ham uning juda kambag‘al bo‘lganligini, mehnatkash xalq orasidan chiqqanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Berdaqning shoirlik qobiliyati uning yoshligidan paydo bo‘lgan va o‘sha paytdan ashula aytib yurgan. Berdaq tez orada mashhur baxshi va shoir bo‘ladi hamda o‘z she’rlariga musiqa tuzadi. U Qoraqalpog‘istonning katta to‘ylarida, bayramlarida, ovul va qishloqlarida xizmat qiladigan bo‘ldi. Shoir O‘rta Osiyoning o‘sha vaqtdagi mashhur shaharlari; Xiva, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlarida bo‘ldi. Bu yerlarda u tarixiy joylar bilan tanishib chiqdi. Shoir Xorazm o‘zbeklari va qoraqalpoqlar orasida nomdor Kunxo‘ja, Ajiniyoz bilan tanish edi, Otesh degan shoir bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan.

Mashhur shoirning hayoti kamchilik va qiyinchilikda o‘tgan. O‘zining “Yaxshiroq” she’rida shunday yozgan;

O‘rambet, Nurimbet, Jalol, Sulaymon,

Safar, Mirzo, Orzu, Erimbet – chayon,

Xalq qonini so‘rgan gala beiymon,

Baringdan bizday bir gado yaxshiroq!

Huv, ana, o‘ltirar Kulmurod, Musa,

Ko‘ngli oqarmaydi ming chayib-yuvsa,

Faqirlarga baxtli, nurli kun tug‘sa,  
O‘chimni olmasam, o‘lgan yaxshiroq!  
Bir oqshom tuttirib, urdi begunoh,  
Bandi bo‘lib qoldik chorasiz, evoh,  
Qoraqalpoq, yorug‘ kun ko‘rmading, oh,  
Bundayin yashashdan zindon yaxshiroq.

U biror bir daromad topish uchun hattoki, o‘ziga yoqmagan insonlarga asarlarini kuylagan. Berdaq o‘z yurtini mustaqil bo‘lishini va xalqi baxtli yashashini butun umri davomida orzu qilib yashagan. U she‘rida xalqning bandi bo‘lib chorasiz qolganini va bunday yashagandan zindon yaxshiroq deb bot-bot takrorlaydi. “Ahmoq podshoh” asarida Berdaq o‘zini ertaksevarligini aytib o‘tadi. Bu doston romantik bir ruhda yozilgan. Asar nihoyasida Gulzor va Anor podshoh kirdikorlarini aniq bilgach, podshohga qarshi isyon ko‘taradi va bu yo‘lda xalqni birlashtirishadi. Zulmdan ezilib toqati toq bo‘lgan xalq birlashib, kurashga otlanish jarayonini Berdaq shunday tasvirlaydi;

Og‘zibirli bir ish qildi,  
Shoh ustiga yurish qildi.  
Alpomishday urush qildi,  
Shoh lashkarin qirgan ekan.

Asar nihoyasida muallifning orzusi ro‘yobga chiqadi, xalq esa niyatiga yetadi. Berdaqning bu asaridagi xalqning jasorati bizga Cho‘lponning “Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir” degan buyuk so‘zlarini eslatadi. Har ikki ulug‘ shoir o‘z davridagi muammoni romantik va realistik yo‘sinda aks ettirgan edilar. Tarixiy mavzudagi “Omongeldi”, “Oydo‘sbobo”, “Ernazarbiy” dostonlarida qahramonlik va vatanparvarlik g‘oyalari tarannum etiladi. “Kerak” she‘rida xalqqa odil podshoh kelishiga umid qiladi. U “Shajara” dostonida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ayrim xalqlar, xususan qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi, tarixiy yo‘li, shajarasini badiiy aks ettiradi. “Shajara” – tarixiylik bilan badiiylik birlashib ketgan asardir.

Berdag asarlarining ko‘pi tarixiy mavzularda bo‘lib, qoraqalpoq xalqining kechmishi, tarixidagi burilish nuqtalari, jasorat ko‘rsatgan qahramonlar haqida so‘zlaydi. Berdaq

jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlikni asarlarida ko‘rsatar ekan, yorug‘lik, ozod turmush istagi bilan yashagan xalqni aks ettiradi. Berdaq o‘zi yashagan davrning qiyinchiliklarini mahorat bilan tasvirlaydi. Berdaqning ijodini yuksalishiga juda katta ta‘sir ko‘rsatgan omillardan biri bu aynan o‘zining hayoti. Shoirning hikmatlari hayotiyligi bilan ajralib turadi, teranligi bilan kishini hayratga soladi, samimiyligi bilan ko‘ngildan joy oladi, ta‘sirchanligi bilan esa xotirada muhrlanib qoladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Xalq uchun {Matn}: she‘rlar. Berdaq –Toshkent: Ijod-print, 2021. 172-bet
2. Mirtemir. Ikki og‘iz so‘z ...//Berdaq. Saylanma (She‘rlar va doston). – Toshkent/ G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978. 184-bet
3. Berdaq She‘riyatidan, 1983. 96-bet
4. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.: 1987. 42-bet
5. Chor kitob Sharafiddin Sanoiy Buxoriy –Toshkent: Ijod-print, 2021. 134-bet
6. <http://www.berdaq.com>
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A  
PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF  
PSYCHOLOGICAL CHANGE**

**Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich**

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent Region

2nd year master's degree of the Faculty of Pedagogy

**Abstract:** Schools can tackle discrimination by promoting democracy, respect for human rights and citizenship. To ensure that all students' needs are met equally, schools need to priorities language and cultural competences, multi perceptivity in history and gender equality. In this way, students can acquire competences for democratic culture, to fulfill their potential in school as well as in society.

**Keywords:** discrimination, gender, school, perceptivity

What is discrimination? Discrimination is treating a person badly or unfairly on account of a personal characteristic, such as national, ethnic or social origin, gender, language, religion, disability or sexual orientation. There are two basic forms of discrimination: Direct discrimination – treating someone less favorably than you treat or would treat another person in the same situation, e.g., a school refusing to admit a student because they are Roma. Indirect discrimination – applying a provision, criterion or practice in the same way for all of a group which has the effect of unfairly disadvantaging people in the group who share a particular characteristic, e.g., a school uniform policy banning headgears for girls and boys may unfairly disadvantage Muslim girls and Jewish boys.

Discrimination can occur in almost any aspect of school life, from the attitudes and expectations of teachers to school rules and codes of conduct, selection and grouping practices, curricula, teaching methods and materials, changing facilities, career

guidance, canteen food and the physical school environment. Whatever form it takes – whether it be parallel school systems for different ethnic groups, concentrations of minority or disadvantaged children in the same school, or differential access to educational provision, it means a lower quality of educational experience for the students being discriminated against. Why is tackling discrimination important at school? Discrimination is a human rights violation. Tackling discrimination is not simply a duty laid on schools by the European Convention of Human Rights, it is also important for student well-being and educational success. Children and young people who are treated unfairly or discriminated against are more likely to have:

- negative attitudes to school
- lower levels of motivation and academic achievement
- a higher risk of dropping out of formal education
- experience of bullying
- mental health problems.

Feeling different or ‘less’ than others can be an isolating experience. Over time it undermines an individual’s capacity for participation in society, e.g., their sense of self-efficacy, openness to other cultures and beliefs, tolerance of ambiguity and flexibility and adaptability - all of which lie at the heart of the Council of Europe. Lack of opportunity due to discrimination in school also damages society. It intensifies social divisions, fuels xenophobia and intolerance and undermines social cohesion. What are the challenges? One of the challenges facing the tackling of discrimination in schools is a lack of data. European-wide statistics specifically focused on discrimination in schools are scarce. Children with disabilities, for example, do not always appear in national statistics and may be ‘invisible’ to decision-makers, service providers and the public. Such children are particularly vulnerable to discrimination, however, and are often segregated in terms of educational provision. Another key challenge is the existence of negative stereotypes about minority groups among teachers, parents, students and other school stakeholders. Such stereotypes are often deeply embedded in everyday school life and practice, so much so that they are taken as ‘normal’, e.g., stories and images in

textbooks that reflect a stereotyped portrayal of the roles of women and men, girls and boys. Stereotypes help to fuel prejudiced and aggressive behavior between students, lower expectations from teachers and negative attitudes from parents, e.g., refusing to allow their children to be taught alongside refugee or migrant children. Stereotyping is difficult to root out in schools because its origins lie in wider society. This is exacerbated by the current preponderance of hate speech, fake news and conspiracy theories in digital media, especially social media. The situation is compounded when minority groups are under-represented on school staff. Students lack role - models and teachers do not have the access to information about or insights into other cultures and ways of life that come with belonging to a more diverse profession. They lack the intercultural competences with which to create inclusive and quality learning environments, e.g., openness to cultural otherness, tolerance of ambiguity, plural-lingual skills and knowledge and critical understanding of alternative cultures, religions and histories. Tackling discrimination is more challenging when there is a lack of dialogue between schools and parents. Often this is on account of language difficulties, but it is also a problem where students’ parents work abroad leaving their children in the charge of elderly relatives or others.

### References:

- [1] Education section of the The European Disability Forum
- [2] Article: UK: Racial discrimination is a reality in schools and classrooms. Education International
- [3] EU Fundamental Rights Agency, “Second European Union Minorities and Discrimination Survey (EU-MIDIS II) Roma – Selected findings” (2017).
- [4] ECHR, Article 2, Protocol No.1
- [5] ECHR, Article 14
- [6] Position paper: Fighting school segregation in Europe through inclusive education by the Council of Europe Commissioner for Human Rights

## ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM MUHITIDA BIOLOGIYA FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH HAQIDA

**Mixlieva Shahzoda Rabbim qizi**

Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** mazkur ishda elektron axborot-ta'lim muhitida talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etishning asosiy omillari, shuningdek, talabalar mustaqil ishlash jarayonida duch keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron axborot-ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, elektron ta'lim resurslari, kasbiy kompetensiya

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'limni rivojlantirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirish natijasida bo'lajak mutaxassislar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifasi belgilangan [1].

Jahonda ilm vafan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti oliy ta'lim didaktikasi rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi, bunda uning tushunchalar apparati kengayishini, pedagogikada yuzaga kelayotgan transfer-integrativ hududlar, qadriyatlar va ta'lim mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonlari integratsiyasiga bo'lgan ehtiyoj quyidagilarga imkon beradigan elektron axborot-ta'lim muhitini shakllantirishni taqozo etadi: o'quv jarayonini oliy ta'lim muassasasi doirasidan tashqariga olib chiqish; yirik ta'lim konsorsiumlarini barpo etish; ta'lim resurslarining global kutubxonalarini yaratish; bo'lajak mutaxassislarning global axborot makonidagi



yangicha ish sharoitiga moslashuvini ta'minlash. SHunga ko'ra, oliy ta'lim jarayonida malakali mutaxassislarni tayyorlashda amaldagi ta'lim yondashuvlarini o'zgartirish, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish orqali mantiqiy tafakkur va kasbiy muammolarga echim topishda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish muhim o'rin egallaydi

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining “Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan 3-bobining “Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan birinchi bandida “Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” [2] masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Mustaqil ta'lim» tushunchasi “Pedagogika fanidan izohli lug'at” [3] da olingan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash, qo'shimcha materialni o'rganish maqsadidagi o'quv shakli deb qaraladi. Ayni vaqtda ilmiy va o'quv adabiyotlarda «mustaqil ta'lim olish», «mustaqil o'qish», “mustaqil ish” tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

M.Barakaev: “Mustaqil ta'lim – oliy ta'lim tizimida ta'limning shunday bir shaklidirki, bunda “talabalarning o'quv faoliyati pedagog tomonidan boshqarilib, topshiriqlar beriladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi” -deb ta'kidlaydi [4].

Ilmiy va o'quv adabiyotlar tahlili asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ta'lim va mustaqil ish tushunchalariga quyidagicha

ishchi ta’riflar qabul qildik: mustaqil ta’lim – mutaxassis yordamida yoki yordamisiz biror vazifa (masala, muammo) ni mustaqil o’rganish asosiga quriladigan o’quv faoliyati jarayonidir. Mustaqil ish esa ta’lim oluvchining fandan olgan bilim, ko’nikma va malakalarini yanada kengaytirish va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi.

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo’ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinsa, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Unda o’rganiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o’quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliliigi, topshiriq hamda vazifalarning ko’p qirraliligi, o’zaro bog’liqligi muhim o’rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta’lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e’tibor qaratish zarur.

Bakalavriat ta’lim yo’nalishlari bo’yicha tahsil olayotgan talabalarning o’quv faoliyatini kuzatish davomida shu narsa aniqlandiki, ongli qiziqish mustaqil faoliyatga undovchi, havas uyg’otuvchi kuch bo’lib hisoblanadi. Ongli qiziqish – mustaqil faoliyatning eng muhim ko’rsatgichi, yuqori darajasidir. Bu esa fan o’qituvchilari mahoratining darajasiga bog’liqligi sababli talabalarda u yoki bu fan yoki kasb mutaxassisligiga nisbatan qiziqish shakllanadi.

Mustaqil ta’limning alohida shakli talaba mustaqil ishlari hisoblanadi.

Talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar qanday maqsadga qaratilganiga ko’ra bir necha turlarga ajratish mumkin.

Masalan, oliy ta’lim muassasalarida biologiya turkum fanlari bo’yicha tashkil etiladigan talabalar mustaqil ishini quyidagi 4 ta turga ajratish mumkin: 1) oldin o’zlashtirilgan bilimlarni esga tushirish, mustahkamlash va tasavvurni boyitish hisoblanadi. Har qanday egallangan bilim qayta esga tushirib, amalda tatbiq etib turilmasa, ayrim qismlari xotiradan ko’tariladi, esdan chiqadi. SHuning uchun vaqti-vaqti bilan mustaqil o’qish orqali xotirada mustahkamlanib borilishi foydali, ammo takrorlash jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanmaydi; 2)

mustaqil ish bilish-izlanish shaklida amalga oshadi. Bunda talaba o‘qituvchi ma’lum qilgan nazariy bilimlarga suyangan holda yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga, muammoli topshiriq va vaziyatlarga echim topishga harakat qiladi. Talaba o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan muammolarning echimini topishda tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, taqqoslash kabi jihatlarlaridan foydalangan holda yangi bilimlarni o‘zlashtirib oladi. Hayotiy tajribalari ortadi, o‘zlarining ko‘rgan-kechirgan, his qilgan, oldin haqiqiy mohiyatiga e’tibor bermagan masalalarga echim topadi; 3) bilimlarni amalda tatbiq etish bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlar. Bu turdagi ishlarda talabalar olgan bilimlarini hayot bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘laydilar; 4) ilmiy-ijodiy xarakterdagi ishlar bilan shug‘ullanishni kiritish mumkin. Biologiya turkum fanlardan olgan bilimlarga suyangan holda yangi navlar ustida ish olib borish, chatishtirish, payvand qilish, flora va faunaning sirli jumboqlarini echishga harakat qilinadigan ishlar ham shular jumlasidandir.

Ta’limning aralash ta’lim shakllari tomoniga siljishi va o‘quv jarayonining elektron axborot-ta’lim muhitiga o‘tkazilishi uning samarali shakli va yangi ta’lim paradigmasini amalga oshirish vositasi o‘laroq, talabalarning mustaqil ishlashiga e’tiborni kuchaytiradi, mustaqil ishlash borasidagi mavjud nuqtai nazarlarning integratsiyasini, unda talabalar faoliyati va ta’limning tashkiliy shakllari samarali uyg‘unlashuvini talab qiladi. Elektron axborot-ta’lim muhitining ahamiyati o‘quv jarayonining asta-sekin Internetga o‘tib borayotgani, unda bir oliy ta’lim muassasasi doirasiga sig‘maydigan, turli ta’lim muhitlarining, jarayonlari va muassasalarining birlashuvi imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi [5].

Mustaqil ishlarni tashkil etishda elektron axborot-ta’lim muhitini uslubiy ta’minotini ishlab chiqish mustaqil ishni tashkil qilish samaradorligining shartlaridan biri hisoblanadi [6].

Oliy ta’lim muassasalaridagi elektron axborot-ta’lim muhitida talabalar tomonidan zaruriy kasbiy kompetensiyalarni egallash maqsadida bajariladigan mustaqil ish quyidagilar bilan ajralib turadi: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish, muammoli o‘qitish, loyihaviy o‘qitish, tanqidiy taffakkur, faol o‘qitish hisobiga bilishga oid faollikning

ortishi; talabani individual rivojlantirishga yo‘naltirish, ya’ni mustaqillik, tanqidiy fikr yuritish, mustaqil ravishda qaror qabul qilishga o‘rgatish. Har qanday jarayonning samarali kechishi, faoliyatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi unga ta’sir etadigan omillarga bog‘liq. SHunga ko‘ra tadqiqotni olib borish davrida talabalarning zaruriy kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan mustaqil ishini tashkil qilishda o‘qituvchilar tomonidan muammoli topshiriqlar, loyihalar tuzish, kasbiy masalalarni echish, shuningdek portfolioni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Elektron axborot-ta’lim muhitida mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish uchun turli vositalaridan foydalanish mumkin. Jumladan, elektron kurslar, elektron o‘qitish tizimlari, video ma’ruzalar, veb-seminarlar, elektron testlar va boshqalar. Bu vositalardan tashqari, hozirgi vaqtda zamonaviy va ixcham mobil texnologiyalar ham mavjud. Xozirda mobil qurilmalarning imkoniyati tobora taraqqiy etib borayotganligi sababli ular ta’lim vositasi sifatida keng qo‘llanilishi an’anaviy va noan’anaviy ta’limda asosiy o‘rinni egallab bormoqda.

Xulosa qilib aytish joizki, talabalarning mustaqil ishlashi elektron axborot-ta’lim muhitiga o‘tkazilishida ularni amalga oshirish shart-sharoitlari o‘zgarishini inobatga olish kerak bo‘ladi: o‘rganiladigan materiallar hajmi ortishi; ta’lim traektoriyalari variativligi o‘sishi; ishni istalgan joyda, istalgan vaqtda, har qanday texnik vositalar yordamida amalga oshirish mumkinligi; talabalarning o‘qituvchilar bilan kommunikatsiyaviy o‘zaro aloqasi ahamiyati ortishi va boshqalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги фармони,

3. Ҳасанбоев Ж, Тўракулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: **Фан ва технология**, 2008.

4. М.Баракаев ва бошқалар. Мустақил таълимни ташкил этиш методикаси. Ўқув – услубий қўлланма. -Т., “Истиқлол нури”. 2017 йил

5. Sadikova F.M. Features of the organization of independent work of students of institutions of secondary vocational education on ownership of competencies // Abstracts of VI International Scientific and Practical Conference. Liverpool, United Kingdom, 5-7 February 2020. – P.151-154.

6. Прядильникова О.В. Организация проектноисследовательской деятельности на основе Интернета Веб-квест. // Институт развития образования Республики Башкортостан. 2018. - с. 23-26.



## DINIY E'TIQOD ERKINLIGINI TAMINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Abduvaliyev Murodillo Ma'rufjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

### ANNOTATSIYA

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda har bir davlat o'z xalqi va fuqarolarining diniy e'tiqot erkinligiga, shu jumladan, ularning bu boradagi erkinliklari, huquqlarini taminlashga alohida e'tibor bermoqda. Diniy e'tiqod erkinligining taminlanishi esa erkin fuqarolik va demokratik jamiyatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada ham aynan bugungi kunda diniy e'tiqod erkinligini taminlashning huquqiy asoslari haqida qisqacha tahlil berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** diniy e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, inson huquqlari va erkinliklari, teistik jamiyat, diniy faoliyat.

### АННОТАЦИЯ

В современном стремительно развивающемся мире каждое государство уделяет особое внимание свободе вероисповедания своего народа и граждан, включая их права и свободы в этой области. Обеспечение свободы вероисповедания является важной чертой свободного гражданского и демократического общества. В данной статье также проводится краткий анализ правовой базы обеспечения свободы вероисповедания на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** свобода вероисповедание, свобода совести, религиозные организации, права и свобода человека, теистическое общество, религиозная деятельность.

### ANNOTATION

In today's rapidly developing world, each state pays special attention to the freedom of religion of its people and citizens, including their rights and freedoms in this area. Ensuring freedom of religion is an important feature of a free civil and

democratic society. This article also provides a brief analysis of the legal framework for ensuring freedom of religion today.

**Keywords:** freedom of religion, freedom of conscience, religious organizations, human rights and freedom, theistic society, religious activity.

## KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda fikrlash, so'z erkinligi, uyushmalar, yig'ilishlar, harakatlanish, shaxsiy hayot, siyosiy ishtirok va iqtisodiy faoliyat kabi umumiy asosiy erkinliklar, shuningdek, diniy e'tiqod erkinliginitaminlanilishi har qanday demokratik davlatning ustuvor maqsadi deyish mumkin. Shubxasiz, ushbu erkinliklar milliy va xalqaro huquqlar bilan himoya qilinishi hamda taminlanishi zarur. Shu bilan birgalikda, jamiyat ham yuqorida keltirilgan huquqlari haqida habardor bo'lishlari va ularni rial hayotga tadbiq eta olishlari yani jamiyatning huquqiy ong va madaniyat darajasi davlat tomonidan taminlangan ushbu huquqlar bilan birdek rivojlanishi darkor.

Diniy etiqod erkinligi haqida so'z borar ekan, ushbu tushuncha qanday ma'noni anglatadi? Din asli nima? Degan savollar paydo bo'ladi, albatta. Har bir inson barcha turdagi e'tiqodlarni o'rganish, fikr yuritish, baholash, qabul qilish va qayta ko'rib chiqish huquqiga ega. E'tiqod sohasida majburlashdan ozodlik diniy erkinlikda markaziy o'rinni egallaydi. Teistik, metafizik, axloqiy, ijtimoiy va siyosiy e'tiqodlar hukumatning majburiy aralashuvisiz ko'rib chiqish, tanlash va qayta ko'rib chiqish uchun ochiqdir. "Vijdon erkinligi" odamlarning eng chuqur va eng kuchli his etuvchi axloqiy, ijtimoiy, diniy va kosmologik e'tiqodlari doirasidagi erkin tanlash va sadoqatni himoya qiladi. Din esa yaratuvchimiz oldidagi burchlarimiz va ularni bajarish usullarini o'z ichiga olgan individual va shaxsiy o'ziga xoslikning noyob manbaidir. Din, shuningdek, jamoat va ijtimoiy o'ziga xoslikning o'ziga xos shakli bo'lib, juda ko'p yo'nalishlar, maktablar, xayriya tashkilotlari, topshiriqlar va boshqa e'tiqod shakllari va forumlarini o'z ichiga oladi. Diniy faoliyat hayotning turli sohalarida, jumladan, intellektual sohada, aloqa va ommaviy axborot vositalarida, jismoniy harakat va transport sohasida sodir bo'ladi. Diniy faoliyat ijtimoiy sohada,

shu jumladan uy va oila kabi shaxsiy makon sohalarida, oziq-ovqat xizmati va ko'chmas mulk biznes sohalarida ham sodir bo'ladi. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq faoliyatlar juda xilma-xildir va ularning barchasi erkinliklar kabi bir xil darajada muhim deb hisoblash mumkin emas. Ibodat qilish va va'z qilish eng muhim diniy faoliyatdir.

Huquq jihatdan baho beradigan bo'lsak, diniy etiqod erkinligi nima uchun kerak? Chunki diniy e'tiqod erkinligi har bir insonning shaxsiy huquqlar doirasigi kirib, uni faqat o'zi tasarruf eta oladi. Ushbu huquq 1948-yil, 10-dekabrda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi** tomonidan qabul qilingan **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining** 18-moddasi bilan taminlangan bo'lib, unda quydagilar bayon etilgan. “Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega, bu huquq o'z dini yoki etiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diyiy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodini yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi”.<sup>53</sup>

Bundan tashqari, yuqoridagi norma bilan birga **Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi**<sup>54</sup>ning 9-moddasini misol sifatida keltirish mumkin. Unda har kim fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega ekanligi, bu huquq o'z dinini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini hamda yolg'iz yoki boshqalar bilan birgalikda, ochiq yoki shaxsiy ravishda o'z dini yoki e'tiqodiga e'tiqod qilishi, ibodat qilish, o'qitish amaliyoti va marosimlarni o'tkazish erkinligini o'z ichiga oladi.

O'z dinini yoki e'tiqodiga e'tiqod qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan va demokratik jamiyatda jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini, sog'lig'i va axloqini himoya qilish yoki himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklovlarga bog'liq bo'ladi. Ushbu moddada ham fikrlash va diniy e'tiqod masalsi yotadi. U istalgan vaqtda din yoki e'tiqodingizni o'zgartirish huquqini o'z ichiga oladi. Shuningdek, siz o'z fikrlaringiz va e'tiqodlaringizni amalga oshirish huquqiga egasiz. “Bu sizning e'tiqodlaringiz haqida gapirish yoki diniy ibodatlarda qatnashish huquqini o'z ichiga

<sup>53</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948.- 18 m.

<sup>54</sup> Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi. 1950.- 9 m.



olishi mumkin”<sup>55</sup>. Davlat organlari sizning diningizga amal qilishingizni hech qanday sababsiz to'xtata olmaydi.

Muhimi, bu huquq diniy bo'lmagan e'tiqodlarning keng doirasini, jumladan ateizm, agnostitsizm, veganizm va pasifizmni himoya qiladi. E'tiqod ushbu moddaga muvofiq himoyalaniishi uchun u jiddiy bo'lishi, inson hayoti yoki xatti-harakatining muhim jabhalariga taalluqli bo'lishi, samimiy e'tiqodga ega bo'lishi va demokratik jamiyatda hurmatga loyiq bo'lishi kerak.

Tabiiyki, yuqoridagilar asosida bu huquqqa cheklovlar bormi? Degan savol tug'uladi. Davlat organlari sizning e'tiqodingizga ega bo'lish yoki o'zgartirish huquqiga aralasha olmaydi, lekin ba'zi hollarda davlat organlari sizning fikringizni, e'tiqodingizni va diningizni namoyon qilish yoki ko'rsatish huquqingizga xalaqit berishi mumkin. Bunga faqat hokimiyat o'z harakati qonuniy, zarur va mutanosib ekanligini ko'rsata oladigan hollarda ruxsat etiladi. Bular quydagilarni o'z ichiga olish mumkin:

- jamoat va davlat xavfsizligiga qarshi xilof harakat;
- jamoat tartibini buzish;
- salomatlik yoki axloq, va boshqa odamlarning huquq va erkinliklari zarar yetkazish kabilardir.

Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha komissiya, Jamiyatning barcha sub'ektlari tomonidan bag'rikenglik va kamsitishning oldini olish din yoki e'tiqodga asoslangan murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyaning maqsadlarini to'liq amalga oshirish uchun zarur ekanligini tan oladi. Hamda hukumatlar, diniy idoralar va fuqarolik jamiyatini bag'rikenglik, hurmat va tushunishni kuchaytirish maqsadida barcha darajadagi muloqotni davom ettirishga taklif qiladi. U ko'proq bag'rikenglik, hurmat va o'zaro tushunishni rag'batlantirish uchun sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni qamrab olgan dinlar yoki e'tiqodlar o'rtasida va ular ichida doimiy va mustahkamlangan muloqot muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har qanday diniy terrorizm bilan tenglashtirishdan qochish kerakligini

ta'kidlaydi, chunki bu barcha tegishli diniy jamoalarning din yoki e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Va nihoyat, mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan yuqorida zikr etilgan xalqaro umume'tirof etilgan hujjatlarni ularni a'zosi sifatida qabul qildi qonunchiligimizga implementatsiya qildi. Xususan, yuqoridagi qayd etilgan huquqiy hujjatlarni birinchi navbatta **O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi yani Konstitsiyasining 31-moddasida** ko'rishimiz mumkin. Unda quydagilar qayd etilgan bo'lib, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.”<sup>56</sup> Bu orqali mamlakatimizda yashovchi yuzdan ziyod millat va e'latlar vakillari diniy e'tiqod erkinliga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, konstitutsiga va xalqro noramlarga asoslanib **O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi”da qonuni** qabul qilindi. Ushbu qonun hujjati 35 moddadan iborat bo'lib, diniy e'tiqod erkinligiga doir barjabhalarni qamram oladi. “Ushbu Qonunning maqsadi vijdon erkinligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishdan iborat”. Shuningdek, ushbu qonunning 5-moddasida diniy e'tiqod va vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari belgilangan bo'lib, ular quydagilar:<sup>57</sup>

- fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;
- konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;
- vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;
- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. . . “O'zbekiston” 2020 yi. 13-bet

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi”da qonuni

- jamoat tartibiga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘lig‘i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g‘oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vijdon erkinligini, shuningdek vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikning amalda izchil hamda bir xil tarzda qo‘llanilishini ta‘minlashga doir choralarning amalga oshirilishi uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli davlat organidir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shui aytish joizki, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida diniy e‘tiqod erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi muhim o‘rin egallab kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. O‘zbekisto Respublikasi fuqarolari teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod erkinligi huquqidan foydalanilishi hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bolishi belgilandi. Shuningdek, davlatimiz xalqaro tashkilotlar va hujjatlarni tan olib kelmoqda va ularga qo‘shilmoqda. Shuni mamnuniyat bilan qayt etish lozimki, keying yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda juda kata o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2020 yil. 22-bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2020 yil. 12-bet
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948. 18 m.
4. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa komissiyasi. 1950-9 m.
5. O‘zbekiston Respublikasi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risi”da qonuni

## DINIY E'TIQOD ERKINLIGI TUSHUNCHASI, UNING ASOSIY KO'RINISHLARI VA MUHIM BELGILARI

**Abduvaliyev Murodillo Ma'rufjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi magistranti

### **Annotatsiya**

Insonparvar huquqiy demokratik davlat bunyod etishni o'z oldiga asosiy va ilg'or maqsad qilib qo'ygan mustaqil O'zbekiston Respublikasida diniy e'tiqod erkinligini taminlash sohasida tadrijiy asosda bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tezissda diniy e'tiqod erkinligi tushunchasi, uning asosiy ko'rinishlari va muhim belgilari hamda ayni vaqtda mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish masalalari haqida so'z yuritiladi. Bu ishda kuzatish metodidan foydalanildi. Ushbu ishda ilgari surilgan takliflarni qonun ijodkorligi jarayonida, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida qo'llash mumkin.

**Kalit so'zla:** diniy e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, inson huquqlari va erkinliklari, teistik jamiyat, diniy faoliyat.

### **Annotation**

In the independent Republic of Uzbekistan, which has set itself the main and progressive goal of building a democratic state based on the rule of law, great reforms are being carried out to ensure the gradual development of freedom of religion. This thesis discusses the concept of freedom of religion, its main manifestations and important features, as well as the existing legal mechanisms in our country and issues of their improvement. The observation method was used in this study. The proposals put forward in this case can be used in the legislative process, as well as in the activities of local government.

**Keywords:** freedom of religion, freedom of conscience, religious organizations, human rights and freedom, theistic society, religious activity

Din erkinligi yoki diniy erkinlik - bu shaxs yoki jamoaning ochiq yoki xususiy ravishda diniy e'tiqodga amal qilish, ibodat qilish va marosimlarni o'tkazish erkinligini qo'llab-quvvatlaydigan tamoyil hisoblanadi. Shuningdek, u o'z dinini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, "hech qanday din yoki e'tiqodga e'tiqod qilmaslik huquqini" yoki "dinga e'tiqod qilmaslikni" o'z ichiga oladi.

Din erkinligi ko'p odamlar va ko'pchilik davlatlar tomonidan asosiy inson huquqi deb hisoblanadi. Davlat diniga ega bo'lgan mamlakatda din erkinligi odatda hukumatning davlat dinidan tashqari boshqa sektalarning diniy marosimlariga ruxsat berishini va boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarni (yoki e'tiqodsizlarni) ta'qib qilmasligini anglatadi.

E'tiqod erkinligi esa shaxs, guruh yoki din xohlagan narsaga ishonish huquqini beradi, lekin diniy erkinlikning markaziy jihati bo'lgan din yoki e'tiqodni ochiq va tashqi ko'rinishda ochiq va ochiq e'tiqod qilish huquqiga ruxsat bermaydi. "E'tiqod" atamasi dinsizlikning barcha shakllarini, shu jumladan ateizm va gumanizmni o'z ichiga oladi.<sup>58</sup>

Diniy erkinlikni cheklash insonlarni ishdan bo'shatishga majbur qiladi va tashkilotlarning o'z jamoalari uchun juda zarur bo'lgan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, u boshqa fuqarolik erkinliklarini, jumladan so'z erkinligini, birlashma erkinligini va hatto iqtisodiy erkinlikni xavf ostiga qo'yadi. E'tiqodga asoslangan ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlar va ta'lim muassasalari ko'pincha nikoh, oila va jinsiy aloqa kabi muammolar haqida asosiy e'tiqodlarga ega. Ularni diniy majburiyatlarini buzishga majburlash ularning o'z jamoalariga xizmat qilish qobiliyatiga putur etkazadi.

Diniy erkinlik hamma uchun foydalidir. U barcha odamlarni - yahudiylarni, nasroniylarni, musulmonlarni, agnostiklarni va ateistlarni birdek qamrab oladi. Diniy

<sup>58</sup> "What in the World is Religious Freedom?". Religious Freedom Institute. Retrieved 28 November 2019.

erkinlik dunyodagi xalqlarning xilma-xilligini taminlaydi, bu turli din, dunyoqarash va e'tiqodga ega odamlarning tinch-totuv yashashlarini kafolatlaydi.

Tarixan diniy e'tiqod erkinligi turli diniy e'tiqod tizimlarining bag'rikengligini ifodalash uchun ishlatilgan, ibodat erkinligi esa individual harakatlar erkinligi sifatida ta'riflangan. Ularning har biri turli darajada mavjud bo'lgan. Ko'pgina mamlakatlar diniy erkinlikning ma'lum bir shaklini qabul qilgan bo'lsa-da, bu ko'pincha jazo soliqqa tortish, repressiv ijtimoiy qonunchilik va siyosiy huquqlardan mahrum qilish orqali amalda cheklangan. Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (1789) diniy faoliyat jamiyatga zarar yetkazuvchi yo'llar bilan jamoat tartibini buzmasa, e'tiqod erkinligini kafolatlaydi. Antik davrda sinkretik nuqtai nazar ko'pincha savdogarlar jamoalariga o'z urf-odatlarini bo'yicha ishlashga imkon berdi. Ellinistik yoki Rim shahridagi alohida kvartallarning ko'cha to'dalari to'qnashganda, bu muammo odatda jamiyat huquqlarining buzilishi sifatida qabul qilingan.<sup>59</sup>

Diniy e'tiqod – insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilashda qo'llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Diniy e'tiqod erkinligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida taminlangan. Unda quyidagi qoida bayon etilgan: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirish yo'l qo'yilmaydi».<sup>60</sup> Shuningdek, 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan, 1998 yil 1 mayda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahriri tasdiqlangan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunda ushbu konstitutsiyaviy qoida rivojlantirilgan. Chunonchi, Qonunning 5-moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi». Shuningdek Qonunning 3-moddasida «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar

<sup>59</sup> Fredman, Sandra (23 August 2020). "Tolerating the Intolerant: Religious Freedom, Complicity, and the Right to Equality". *Oxford Journal of Law and Religion*. 9 (2): 305–328.

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 1992.

hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar»<sup>61</sup> deyilgan.

Diniy erkinlik ham shaxslarga, ham jamoalarga foyda keltiradi. Ko'pgina insonlar uchun Xudo bilan munosabatlar hayotlarining eng muhim jihati bo'lib, ularning e'tiqodi ularni halollik va mas'uliyat kabi qadriyatlarga yo'naltiradi va bu ularning oilalari va jamoalariga ta'sir qiladi. Bu ularni oshxonalarda, uysizlar uchun boshpanalarda, maktablarda va kam ta'minlanganlarga yordam beradigan boshqa joylarda ko'ngilli bo'lishga undaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”. T.: 1991.
3. "What in the World is Religious Freedom?". Religious Freedom Institute. Retrieved 28 November 2019.
4. Fredman, Sandra (23 August 2020). "Tolerating the Intolerant: Religious Freedom, Complicity, and the Right to Equality". *Oxford Journal of Law and Religion*. 9 (2): 305–328.



<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasi qonuni “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”. T.: 1991.

УДК 619:616.

**ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА *HYALOMMA ANATOLIKUM*  
КАНАЛАРИНИНГ БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Бобоназаров Гаппор Ёдгарович**

биология фанлари номзоди, доцент

Карши давлат университети

**Рўзиева Дилдора Ёрмахмат Қизи**

ҚаршиДУ, Биология (Зоология, Ихтиология ва гидробиология)

мутахассислиги магистранти

**Аннотация**

Ўзбекистонда - *Hyalomma anatolicum* каналари одам ва ҳайвонларнинг Қрим-Конго геморрагик лихорадкаси, қайталама тиф, пироплазмидозлар ва бошқа юкумли инвазион касалликларни қўзғатувчиларини ташувчиси сифатида қайд этилган. Бу касалликлар табиий – ўчоқли характерга эга. Касаллик ташувчиларининг морфобиологик, эпидемиологик хусусиятларини ўрганиш медицина ва ветеринарияда одам ва ҳайвонларни бу хавфли юкумли касаллик билан касалланиши олдини олиш, даволаш муаммоларини ечимини топишда муҳим аҳамият касб этади.

**Аннотация**

В Узбекистане основным переносчиком возбудителей инфекционных и инвазионных болезней животных и человека - клещевого возвратного тифа, Крым-Конго геморрагической лихорадки, пироплазмидозов и др. является клещ *Hyalomma anatolicum*. Заболевание носит природно-очаговый характер. Знание эпизоотологических и морфо-биологических особенностей клещей - переносчиков позволит ветеринарным и медицинским специалистам прогнозировать и предотвращать заражение животных и человека с этим опасным заболеванием.



### Annotation

Uzbekistan - *Hyalomma anatolicum* mites in humans and animals, the frequency of the Crimean-Congo hemorrhagic lixoradkasi tif, piroplazmidoz and other infectious parasitic diseases lift as a carrier. Natural plane nature of these diseases. Morfobiologik carriers of the disease, the epidemiological characteristics of training in medical and veterinary infectious diseases dangerous to humans and animals disease prevention and treatment plays an important role in finding a solution to the problems.

**Калит сўзлар:** *Hyalomma anatolicum*, каналар, Қрим-Конго геморрагик лихорадкаси, қайталама тиф, пироплазмидозлар, морфология, чорва моллари.

**Ключевые слова:** *Hyalomma anatolicum*, клещевой возвратной тиф, геморрагическая лихорадка, пироплазмидозы, морфология, клещи, крупный рогатый скот.

**Keywords:** *Hyalomma anatolicum*, bug, Crimean-Congo hemorrhagic lixoradka frequency, tif, piroplazmidoz, morphology, livestock,

Иксод каналари ўзида одам ва ҳайвонларнинг турли юқумли ва инвазион касалликларни (туляремия, КУ лихорадка, Қрим-Конго | геморрагик лихорадкаси, пироплазмидозлар ва б.қ.). сақлаши ва ташувчиси бўлганлиги сабабли улар янада хавфли тус олади ва чорвачиликга келадиган зарар катталашади. Кўпгина ҳайвонлар пироплазмоз, бабезиоз ва анаплазмоз касаллигидан нобуд бўлади. Каналарнинг сурункали қон сўриши туфайли ҳайвонлар ориқлаб кетади, ёмон ўсади ва канадан гавданнинг қуриши “клевцевое худосочие” касаллиги кузатилади. Битта урғочи кана 2-4 мл гача қон сўриши мумкин. Каналар ҳайвонларга ёппасига ташланган пайтларда, жумладан бир ёз мавсуми давомида бир бош йирик сигир 5-6 литргача қон йўқотади. Қон сўриш билан бирга терисини жароҳатлаб 85% тери хомашёсини ишлаб чиқаришга яроқсиз ҳолатга келтиради. Ҳар бир бош соғин сигир сутдорлиги 18-20%, вазни

12% гача камайган. (Ю.С. Балашов, 1998; С.Н. Малунов, 2009; Н.А. Кошкина, Е.В. Горячая, 2010).

Баъзи йиллари гемоспоридиоз билан касалланган ҳайвонларнинг 36,6 % гача нобуд бўлиши кузатилади. Айниқса гемоспоридиоз билан касалланганда четдан келтирилган зотдор қорамоллар 70-80 % нобуд бўлади. (Ў.Я.Узаков, 1970).

Дунё фаунасида иксод каналарнинг 14 авлодга мансуб 680 та тури учрайди. Ҳозирги вақтда ер юзида *Hyalomma* авлодининг 22 тури мавжуд. Ўрта Осиёда шу авлоднинг ўндан ортиқ тури учрайди, улар жанубий районларда тарқалган. Айниқса Ўрта Осиё республикаларининг сахро-дашт, ярим-сахро ва сахро зоналарида бу авлоднинг кўп тури учрайди. *Hyalomma* авлодига мансуб каналар *Ixodidae* оиласига мансуб каналарнинг ичида энг йириги ҳисобланиб, оч каналарнинг танасининг узунлиги 4-10 мм, тўқ каналарнинг танасининг узунлиги 25 мм гача боради.

*Ixodidae* оиласи, *Hyalomma* авлоди, *Hyalomma anatolicum* тури Доғистонда, жанубий ва шарқий Кавказорти мамлакатларида, жанубий Қозоғистонда, Туркменистонда, Тожикистонда ва Ўзбекистонда тарқалган (Померанцев, 1950). *Hyalomma anatolicum* унчалик катта бўлмаган уч хўжайинли кана бўлиб, асосан қорамолларда паразитлик қилади, айрим вақтларда от ва бошқа ҳайвонларнинг қонини сўради. Имаголари асосан баҳор ва ёзда паразитлик қилади, айримлари бутун йил бўйи ҳайвон қонини сўради. Маълумотларимизга кўра, оч урғочиларнинг кўпгина қисми ҳайвон танасига тунда ёпишади, айрим ҳолларда эрталаб эса ёпишади. Урғочиларнинг ҳайвонларда 10 кун ва ундан ортиқ қолиб кетишига уларнинг уруғлантирилмай қолиши сабаб бўлади (Куклина, 1964).

Балашов берган маълумотларга кўра (1967), қон сўриш даврида барча каналарнинг вазни бир хилда ўзгармайди. Қон сўриш жараёни уч даврдан иборат бўлади: биринчи давр каналар ёпишган пайтда бошланадиган ва биринчи қон порциялари ичакка тушадиган ва вазн ортишининг бошланишигача бўлган тайёргарлик даври.

З.М.Бернадская (1939) қайдига кўра, ёзда личинкалар бузоқларга яхшироқ ёпишади ва 5-6 кундан кейин бараварига тўкилади. Кузда эса, улар пассивроқ ҳаракатланади ва сўриш даври ёздагига нибатан узоқроқ давом этади. Я.М.Муратбеков қайдларига кўра (1950), личинкалар 4-6 кун озикланади.

Ўзбекистонда ҳудудда *H.anatolicum* биологиясини З.М.Бернадская (1939) ва Я.М.Муратбеков (1950) лар ўрганишган Вояга етган каналар март ойида пайдо бўлади ва апрелдан то сентябргача паразитлик қилади, баъзи ҳолларда қишда ҳам учрайди. Личинкалар ва нимфаларни ҳайвонларда май-ноябр ойларида топиш мумкин бўлади (Бернадская, 1959). Муратбеков келтирган маълумотларга кўра (1950-1954) паразитлик май ойидан октябргача чўзилади, ёппасига тарқалиш — июннинг иккинчи ярмидан август ойининг биринчи ярмигача давом этади. Личинка ва нимфалар тарқалиши — июннинг иккинчи ярмидан бошланади ва бутун август ойи давомида ва сентябрнинг биринчи ярмигача чўзилади ва улар сентябр охиригача паразитлик қилади. Оч каналар апрелда пайдо бўла бошлайди, май-июнда эса кескин кўпаяди. Кузда жуда камаяди. Личинкалари июль-августда, нимфалари август-сентябрда ва унда кейинроқ ҳам паразитлик қилади. Имаголари, семиз нимфалари, баъзан тухумлари қишлайди. У 1,5-2 ой давомида бир авлод бериб ривожланади. Нимфалари ҳайвон қулоқлари қиррасига, айримлари кўз қовоғи орқасида, дум томонига ёпишиб олади. Имаголари 10, личинка ва нимфалари 8-10 ой очликка чидайдди. Асосан дашт ва ярим даштда, дарё чеккаларида, тоғли дашт яйловларда денгиз сатхидан 500 м баландликда яшайди. Бу кана молхона ва унинг атрофида ҳам учраши мумкин. Имаголари ёки нимфалари қорамолларга тейлериоз кўзгатувчисини юктиради ҳамда листериоз, қуиситма кўзгатувчиларини ўз танасида сақлайди ва юктиради.

*H.anatolicum* намлик даражаси нисбатан пастроқ ва тўлқинсимон рельефли текисликларда кўп тарқалади. У катта миқдорда Ўзбекистоннинг тоғолди ландшафтлари ва жануби-ғарбий текисликларда кузатилган (Бернадская, 1959). Баъзи ҳолларда жанубий Қизилқум чўлларида (Бернадская,

1935), Оҳангарон райони ва денгиз сатҳидан 2000-2500 м баландликдаги бошқа тоғли ҳудудларда ҳам учратилган. Муратбеков келтирган маълумотларга кўра (1950), ушбу оилага мансуб бошқа каналарнинг 43,2-52,9% ини ташкил қиладиган *H.anatolicum*, тоғолди ҳудудларида ва текисликнинг ўзлаштирилган жойларида (Ховос тумани) миқдор жихатидан устунлик қилади. Кўпгина ҳайвон турлари бу турнинг хўжайини ҳисобланади, аммо асосий зарарланувчилар йирик шохдор ҳайвонлар ва отлар ҳисобланади (Бернадская, 1959). Камдан-кам ҳолларда кичик шохдор ҳайвонларда ҳам бу ҳолатаяни кузатиш мумкин, ёввойи ҳайвонларда эса бу ҳолат кузатилмайди (Муратбеков, 1950). Қорақалпоғистонда хўжайинлар гуруҳи 21 турни ташкил этади, шунингдек, пластинкасимон тишли каламуш ва карқуноқ биринчи марта қайд этилган (Сержанов, 1964). Лекин тур асосий хўжайин мавжуд бўлмаган ҳолларда ҳам шароитга яхши мослашади: бу ҳолда у кўйларда, отларда, туялар ва эшакларда озикланади.

Бизнинг тадқиқотларимизда каналарнинг тухум қўйиши барча биотопларда юз беради. Личинкаларнинг туғилиши эса фақат ҳайвонлар турадиган биноларда содир бўлади. Эфемер (баҳорда кўкариб, ёзда қурийдиган) дашт шароитида, тоғларнинг жанубий ва шимолий ёнбағирларида личинкалар фақатгина май ва июнь

бошларида тўкилган урғочилардан туғилди. Ҳавонинг нисбий намлиги 20-80% бўлган ва 20<sup>0</sup>-25<sup>0</sup> температурали муҳитда тухумларнинг энг юқори миқдори олинди. Личинкаларнинг максимум чиқиши — 40-100% ва 15-30<sup>0</sup> температурада бўлди. Личинкаларнинг туғилиши учун тухум қўйишга нисбатан нисбатан юқори намлик талаб қилинади.

Қорамолларни *Ixodidae* оиласи каналари билан зарарланишини ўрганиш мақсадида 2020-2021 йиллар давомида Қашқадарё вилоятининг Ғузор, Нишон, Қарши ва Косон туманларида фермер хўжаликлари ва шахсий хонадонларда боқилаётган 821 бош қорамолларни акарологик текширувдан ўтказдик. Текширувдан ўтказилган қорамолларнинг 212 бошида (24,6 %) иксод каналари билан зарарланиши аниқланди. Бизнинг шароитимизда қорамолларга

каналарнинг энг кўп ёпишиши, хужум қилиши апрел-май ойларида кузатилади ва текширилган ҳайвонларнинг 40,8 - 50,4% да каналар топилади.

Текширилган ҳайвонлардан 800 донадан ортиқ иксод каналари йиғиб олинди. Олинган каналарни таксономик белгиларига мувофиқ систематик гуруҳларга ажратганимизда уларни 181 таси *Hyalomma detritum*, 93 таси *Hyalomma anatolicum* турига, қолганлари иксод каналарнинг бошқа овлодлари турларига тегишли экани аниқланди.

*Hyalomma* авлодига мансуб каналар танасининг ранги тўқ қизилдан жигар ранггача бўлади. Биз олиб борган кузатишларда ҳамда қон сўрувчи иксод каналардан йиғилган намуналар таҳлили шуни кўрсатдики, тадқиқот олиб борилган ҳудудда қорамоллар энг кўп худди шу рангдаги *Hyalomma anatolicum* каналари билан зарарланган. *Hyalomma anatolicum* канаси:

**Тур:** *Hyalomma anatolicum*

**Авлод:** *Hyalomma*

**Оила:** *Ixodidae* Mizz, 1877


**Туркум:** *Parasitiformes* (Reuter) Zachvatkin

**Синф:** *Arachnida* – ўргимчаксимонлар.

**Тип:** *Artropoda* – бўғимоёқлилар.

Бизнинг вилоятимизда *H. anatolicum* бутун йил давомида паразит ҳолда яшайди. Вояга етган каналар апрел ойи охири май ойида пайдо бўлади, май-июл ойининг биринчи ярмига келиб кўпайиш сони юқори даражага етади. Июл иккинчи ярми ва август ойида уларнинг сони кескин тушиб кетади. Сентябрь-октябрь ойларига келиб, қишда ва баҳорда жуда кам бўладиган айрим якка индивидлари учрайди. Личинкалар ва нимфалар сентябр ойидан то апрел ойининг охиригача, айрим ҳолларда май ойининг бошигача паразит ҳолда яшайди. Тўқ нимфаларнинг бир қисми кузда тўкилиб тушади ва хўжайиндан алоҳида қишлайди. Тўйиниб улгурмаган нимфалар эса ҳайвон танасида қишлайди ва келаси йилнинг баҳорида тўкилиб тушади. Ҳайвон танасидаги тўйинган нимфалар миқдорининг нисбатан кўплиги феврал-март ойларида кузатилади ва шу даврдан бошлаб уларнинг ёппасига тўкилиши бошланади.

Бизнинг кузатишларимиз юқорида санаб ўтилган муаллифлар келтирилган маълумотларни тасдиқлайди. Маълумотларда келтирилганидек, Ўзбекистоннинг жанубий туманларида вояга етган каналар апрел ойининг охирларида пайдо бўлади. Июньнинг бошларида уларнинг сони максимал даражага етади, август охирига келиб эса, улар ғойиб бўлади. Шимолий туманларда ва тоғ водийларида май ойида пайдо бўлади, июн ойида уларнинг миқдори максимум даражага чиқади ва июл ва августда якка нусхалар учрайди. Сентябрда личинкалар ва нимфалар пайдо бўлди, октябрда уларнинг миқдори сезиларли даражада юқори бўлди. Қишда ва баҳорда якка нусха (тур)лари қайд этилди (1-расм.)



**1-расм. Қашқадарё вилояти шароитида 2020-2021 й.й. қорамолларни *Hyalomma anatolicum* оиласи каналари билан зарарланиши.**

Иксод каналари фаунаси, тарқалиши, ривожланиш цикли, экологияси ҳамда морфобиологик, эпидемиологик хусусиятларини ўрганиш ветеринария, санитария ва медицинада амалий аҳамиятга эга. Шунинг учун каналар ташувчиси бўлган одам ва ҳайвонларнинг: туляремия, КУ лихорадка, Қрим-Конго гемorraгик лихорадкаси, пироплазмидозлар каби турли юқумли ва инвазион касалликларни олдини олишдаги чора-тадбирларнинг асосийси, бу –

қон сўрувчи-ташувчи каналарни йўқотишдир. Бунинг учун каналарга қарши замонавий химиявий ва биологик акарицидларни қўллаган ҳолда комплекс-уйғунлашган экологик хавфсиз, самарали агротехник, ветеринария-санитария тадбирларни ташкил этиш лозим.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Балашов Ю.С. Иксодовые клещи – паразиты и переносчики инфекций.– Санкт-Петербург: Наука, 1998. – 287 с.
2. Бернадская З.М. Краткие итоги работы УзНИВИ по изучению иксодовых клещей Узбекистана. /В кн.: Болезни сельскохозяйственных животных.- Ташкент: Госиздат УзССР, 1959.- Вып. 13
3. Кошкина Н.А., Горячая Е.В. Морфобиологическая характеристика клеща *Hyalomma detritum* и меры борьбы с ним –Ставрополь, 2010.
4. Малунов С. Н. Фауна и экология клещей Ixodidae, средства и методы защиты животных от иксодовых клещей в Нечерноземной зоне Российской Федерации/Автореф.дисс...канд.вет.наук.- Иванова, 2009. С.21.
5. Муратбеков Я.М. Клещи - переносчики геморрагической лихорадки в Узбекистане //В сб.: Вопр. краев. пат.- Ташкент: АН УзССР, 1952.- Вып. 26.
6. Померанцев Б.И. Иксодовые клещи (*Ixodidae*) //М.: АН СССР, 1950.- Т. 4.- Вып.
7. Сержанов О.С. Иксодовые клещи (*Ixodidae, Parasitiformes*) Каракалпакии и их эпидимиологическое и эпизоотологическое значение /Автореф.дисс...канд.биол.наук.- 1964. С. 21.
8. Узаков У.Я. Иксодовые клещи Узбекистана и меры борьбы с ними /Автореф.дисс...канд.биол.наук.- М., 1970. С.21.

## MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING TARKIBIY TUZILISHI

**Raimov Shamshod Isomiddin o‘g‘li**

Mirzo ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti  
magistranti, Toshkent soliq texnikumi ishlab chiqarish ta’limi ustasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibiy tuzilishini o‘rganish hamda byudjetlararo munosabatlarni samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

**Tayanch iboralar:** Mahalliy soliqlar, byudjet, soliq, daromad, xarajat, dotatsiya, byudjet, soliq, stavka.

### **Kirish**


O‘zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, avvalambor, daromadlarning shakllanishiga e‘tibor berish lozim. Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari tarkibi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

Shunga muvofiq mahalliy byudjetlar daromadlari o‘z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig‘imlar) va yuqori byudjetdan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar) hisobidan shakllanadi. Mahalliy byudjetlarning eng birinchi daromad manbai bo‘lib mahalliy soliqlar va yig‘imlar xizmat qiladi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy byudjetlarga to‘liq biriktirilgan daromad manbai hisoblanadi[1].

Mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar mahalliy byudjetga biriktirilgan xarajatlarini moliyalashda etarli moliyaviy manba bo‘la olmaydi. Byudjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili byudjet



parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Prezident qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ulushi har yili mahalliy byudjetlarning o‘z daromadlarining tushumi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga qarab o‘zgartirilib boriladi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy byudjetlarning o‘z daromad manbalari (soliqlari) ko‘payib qolsa, umumdavlat soliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi.



**1-rasm. Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari tarkibi**

Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo‘lib, byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovdir. Shu bilan birga, umumdavlat soliqlarining ayrim turlari ham mahalliy byudjetlarni to‘ldirish manbai sifatida mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirilishi mumkin.

Mahalliy byudjetlarning bu daromad turining o‘ziga xos tomonlari mavjud. yuqori byudjetlardan ajratiladigan subvensiya va dotatsiyalar boshqa daromad turlaridan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, ya‘ni bu daromad turlariga yil davomida o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

Dotatsiya uslublari mahalliy byudjetlarning respublika byudjetiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularning hududlardagi boqimandalikni kuchaytiradi. Mahalliy soliqlarlarning byudjetga to‘liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida davom etayotgan iqtisodiy islohatlar davrida soliqlarni iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi muhim vosita sifatida ularni doimiy isloh qilib borishni talab qiladi. Hozirgi kunda aholi daromadlarining salmoqli hissasi xususiy sektorda shakllanmoqda. Davlat tomonidan bu daromadlarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan, bu daromadlarni ma‘muriy tarzda davlat xarajatlariga yo‘naltirish bozor iqtisodiyoti printsiplariga zid. Faqatgina soliqlar orqali aholi daromadlarini byudjet daromadlariga jalb qilish mumkin. Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlari quyidagilar: mahalliy soliqlar, yig‘imlar va bojlar, qonunda ko‘zda tutilgan majburiy to‘lovlar va soliqsiz tushumlarni mahalliy byudjetga yo‘naltirish; qonun xujjatlari bilan mustaxkamlangan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari va bojlar, bulardan tashqari umumdavlat tushumlari va majburiyatlarini mahalliy byudjetlarga yo‘naltirish; davlat pul mablag‘lari, mulklari bo‘yicha qonunlar asosida huquqlarni mahalliy byudjetlarga o‘tishi; yuqori byudjetlardan beriladigan dotatsiyalari, subvensiyalari va ssudalari; qaytarib bermaslik sharti bilan xorijiy davlatlardan tushgan pul mablag‘lari va qonunlarda ta‘qiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllanadi.

Mahalliy byudjet daromadlari mahalliy va umumdavlat soliqlari hisobiga shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining mahalliy byudjetlarga ajratiladigan qismi har yili qabul qilinadigan qonun va me‘yorlar asosida amalga oshiriladi.

Mahalliy soliqlar va soliqsiz daromadlar mahalliy byudjet xarajatlarini qoplash uchun etarli emas, mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismini boshqariladigan daromadlar hisobiga ta‘minlanadi. Bu soliqlar bo‘yicha ajratiladigan me‘yorlar soliqlar va hududlar bo‘yicha tabaqalashtirilgan bo‘ladi va har yili hukumat qarori

asosida qayta ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda bu me‘yorlarning yildan-yilga oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Buni mahalliy byudjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlashimiz mumkin. Me‘yorlarni aniqlashda umumdavlat va mahalliy soliq tushumlarining kutilayotgan rejasi, mahalliy byudjet xarajatlarining kutilayotgan minimumi hisobga olinadi. Bazi viloyatlarda bu me‘yorlar 100 foiz qilib belgilanadi, bunday soliqlar ko‘p tushadigan viloyatlarda mazkur me‘yorlar minimum darajada belgilanadi. Chunki, soliq bazasining yuqoriligi me‘yorlarni past belgilashga sabab bo‘ladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlarini muctahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirishni oshirish, yani ortiqcha undirilgan soliqlarning mahalliy byudjetlarga tushadigan qismini oshirishni yo‘lga qo‘yish yaxshi samara beradi[2].

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini mustahkamlash hozirgi byudjet islohatlarining asosiy yo‘nalishi hisoblanmoqda. Bu borada mulkni, yerni va tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosiy rol o‘ynaydi. Keyingi samarali manba bo‘lib, jismoniy shaxslar daromad soliqlarini uzoq muddatga mahalliy byudjetlarga birlashtirib qo‘yish hisoblanadi.

### **Xulosa**

Bugungi kunda davlat byudjetining salmoqli qismini soliqlar tashkil qilish bizga ma‘lum. Shu bilan birga soliqlarni byudjetga tushishiga ko‘ra guruhlanishi umumdavlat va mahalliy soliq va yig‘imlarga taqsimlangani mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllanishida mahalliy soliqlarning salmog‘i kamligi ularga birlashtirilgan daromadlar bilan balanslashtiriladi. Bugungi kunda soliq kodeksiga muvofiq mahalliy soliq va yig‘imlar quyidagilar:

- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;

- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;
- yagona yer solig‘i

Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida soliqqa tortish tizimi hamda soliq siyosatining samarali ishlashi iqtisodiy siyosatning nechog‘lik mukammal yuritilishiga bevosita bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotning real sektorlarini rivojlantirishga turtki bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Aytish joizki, bugungi kunda bu borada qator chora -tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksi”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 52 (I)-son, 2013 yil, 31 dekabr – 212 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”, 2014 y. -73 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: “Adolat”, 2020. – 473 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi: Rasmiy nashr -T.: “Adolat”, 2020. – 156 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847 sonli qarori. 2017 yil 18 mart.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi 4086-sonli qarori.

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI MARKETING VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

**Nasimova Nargiza Shavkatjonovna**

Muhammad al- Xorazimiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Farg’ona filiali 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahar: TATUFFI PhD **A.Kadirov**

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida raqamli marketing konsepsiyasi, raqamli marketing turlari, muammolari, pandemiya sharoitida uni joriy etishning ijobiy tomonlari, raqamli marketing konsepsiyasidan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Ushbu masalalar bo‘yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli marketing, internet-marketing, zamonaviy raqamli marketing konsepsiyasi, koronavirus pandemiyasi, SMM, SEO, PPC, video marketing, e-pochta marketingi, veb-sayt marketingi, content marketing.

**Аннотация.** В статье рассматривается концепция цифрового маркетинга при переходе к цифровой экономике, виды и проблемы цифрового маркетинга, преимущества его внедрения в условиях пандемии, способы эффективного использования концепции цифрового маркетинга. Даны выводы по этим вопросам.

**Ключевые слова:** цифровой маркетинг, интернет-маркетинг, современная концепция цифрового маркетинга, пандемия коронавируса, SMM, SEO, PPC, видеомаркетинг, электронный маркетинг, маркетинг веб-сайтов, контент-маркетинг.

**Annotation:** This article discusses the concept of digital marketing in the transition to the digital economy, types of digital marketing, problems, positive aspects of its implementation in a pandemic, ways to effectively use the concept of digital marketing and draws conclusions on these issues.

**Keywords:** digital marketing, internet marketing, modern digital marketing concept, coronavirus pandemic, SMM, SEO, PPC, video marketing, e-mail marketing, website marketing, content marketing.

Tadqiqotlarga ko‘ra, so‘nggi uch yil ichida kattalar orasida doimiy ravishda internetdan foydalanish 5 %ga oshgan. Bu haqida juda ko‘p aytilgan bo‘lsa-da, odamlarning xarid qilish uslubi ham o‘zgardi, ya‘ni endilikda oflayn marketing ilgorigi kabi samarali bo‘lmay qoldi. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida raqamli marketingni jadal rivojlantirish zaruriyatga aylandi. Raqamli marketing firma har doim iste‘molchilar auditoriyasi bilan kerakli joyda va o‘z vaqtida bog‘lanish bilan bog‘liq. Bugungi kunning o‘zi ishlab chiqaruvchilar mijozlar bilan ular ko‘p vaqt o‘tkazadigan joy - Internetda uchrashishlarinini taqozo etmoqda.

Raqamli marketing yuqori darajada qidiruv tizimlari, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta va mobil ilovalar kabi raqamli kanallar orqali yetkazib beriladigan reklamalarni anglatadi. Ushbu onlayn media kanallaridan foydalangan holda, raqamli marketing bu kompaniyalar tomonidan tovarlar, xizmatlar va brendlarni qo‘llab-quvvatlash usuli. Iste‘molchilar mahsulotlarni tadqiq qilishda raqamli vositalarga ko‘proq ishonadilar. Masalan, Think with Google marketing tushunchalari shuni ko‘rsatadiki, iste‘molchilarning 48% so‘rovlarini qidiruv tizimlaridan boshlashadi, 33% i mahsulot veb-saytlarini hamda 26% esa mobil dasturlardan qidirishadi.

Raqamli marketing - bu iste‘molchilarni topish uchun Internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va boshqa raqamli kanallardan unumli foydalangan holda, xizmat yoki mahsulotni targ‘ib qilishdir. Ba‘zi marketing mutaxassislari raqamli marketingni mijozlarga yaqinlashishning yangicha usuli va an‘anaviy marketing bilan taqqoslaganda mijozlarning o‘zini qanday tutishini tushunishning yangi usullarini talab qiladigan mutlaqo yangi faoliyat deb biladilar. Bugungi kunda raqamli marketing jadal rivojlanmoqda va bu marketingni xaridorlarning fikri yoki kompaniya va mijozning ikki tomonlama o‘zaro aloqasi bilan birlashtirgan har qanday qidiruv natijalari reklamalari, elektron pochta xabarlarini va reklamalarni o‘z ichiga oladi.

Internet marketing raqamli marketingdan farq qiladi. Internet marketing bu faqat Internetda bo‘ladigan reklama, raqamli marketing esa mobil qurilmalar, metro platformasida, video o‘yinlarda yoki smartfon ilovasi orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Raqamli marketing elektron qurilma yoki Internetdan foydalanadigan barcha marketing harakatlarini qamrab oladi. Joriy va istiqbolli mijozlar bilan bog‘lanish uchun korxonalar qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta va boshqa veb saytlar kabi raqamli kanallardan foydalanadilar.

Raqamli marketingning bir necha afzalliklari mavjud. Quyida ularning ba‘zilarini ko‘rib chiqish mumkin:

1. Mahsulot yoki xizmatlarni sotib olish ehtimoli yuqori bo‘lgan istiqbolli mijozlarni belgilash imkoniyati.

Raqamli marketing ishlab chiqruvchiga aniq auditoriyani aniqlash va yo‘naltirishga imkon beradi hamda ushbu auditoriyaga aniq yo‘naltirilgan marketing xabarlarini yuboradi. Firma ijtimoiy medianing maqsadli xususiyatlaridan foydalanib, ma‘lum bir auditoriyaga yoshi, jinsi, joylashuvi, qiziqishlari, yoki xatti-harakatlari kabi xususiyatlariga asoslangan ijtimoiy media reklamalarini namoyish qilishi mumkin.

2. Raqamli marketingning an‘anaviy marketing usullariga qaraganda ancha tejamkorligi. Raqamli marketing har kuni iste‘molchilar harakatlarini kuzatib borish va ma‘lum bir kanalga sarflagan pul miqdorini kamaytirishga imkon beradi. An‘anaviy reklama shakllari haqida esa bunday deb bo‘lmaydi. Chunki bunda reklama qanday ishlashi ahamiyatga ega emas – firmaning sotuv hajmini o‘zgartiradimi yoki yo‘qmi, baribir bir xil xarajat qilinadi.

3. Firmaga o‘z sohasidagi katta raqobatchilarni ortda qoldirish imkoniyati.

Agar firma kichik biznesda ishlasa, o‘z sohasidagi yirik brendlar bilan raqobatlashishi qiyin kechishi mumkin, ya‘ni ularning aksariyati millionlab pullarni televizion reklamalar yoki mamlakat miqyosidagi aksiyalarga sarmoya kiritishi kerak. Shu nuqtai nazardan, strategik raqamli marketing tashabbuslari orqali katta raqobatchilarni ortda qoldirish uchun ko‘p imkoniyatlar mavjud. Qidiruv tizimlari eng katta brend qaysiligi bilan qiziqmaydi - buning o‘rniga qidiruv tizimlari maqsadli auditoriyaga eng yaxshi mos keladigan kontentga ustuvor ahamiyat beradi.

4. Raqamli marketingni o‘lchash mumkinligi. Raqamli marketing firma uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan barcha ko‘rinishlar, shu jumladan taassurotlar, aksiyalar, qarashlar va sahifadagi vaqtni to‘liq, boshidan oxirigacha ko‘rinishini berishi mumkin. Bu raqamli marketingning eng katta afzalliklaridan biridir. An’anaviy reklama ma’lum maqsadlar uchun foydali bo‘lsa-da, uning eng katta cheklovi bu o‘lchovdir.

Raqamli marketing ikki turga, ya’ni onlayn raqamli marketing va oflayn raqamli marketingga bo‘linadi.

Onlayn raqamli marketing - bu internet bilan ishlaydigan raqamli platformalardan foydalangan holda marketingni amalga oshirish tizimidir. Ushbu marketing turi hozirgi vaqtda marketingning quyidagi sohalarini o‘z ichiga oladi: SMM (Social Media Marketing); Mobil marketing; Video Marketing; Websayt Marketing. Oflayn raqamli marketing - bu internet bilan bog‘liq bo‘lmagan raqamli platformalarda marketing yuritish tizimidir. Ushbu marketing turiga quyidagi marketing sohalarini kirishi mumkin: TV Marketing; Radio Marketing; SMS Marketing.

Raqamli marketingning keng tarqalgan taktikalari va ularning har birida ishtirok etadigan kanallar quyidagilardan iborat:

SEO (Search Engine Optimization). SEO - bu inglizcha so‘zlarning bosh harflaridan olingan bo‘lib, qisqacha ma’nosi qidiruv bo‘limiga firma sohasiga oid so‘z yozilganda, firma saytining chiqib kelishidir.

Kontent marketing. Kontent marketingining maqsadi kontentni ishlatish orqali potensial mijozlarga erishishdir. Ushbu atama brendni ommalashtirish, trafikning o‘sishi va xaridorlarni ko‘paytirish maqsadida kontent aktivlarini yaratish va targ‘ib qilishni anglatadi.

SMM (Social Media Marketing). SMM - bu ijtimoiy tarmoqlardagi marketing. Mijozlar va sotuvlar uchun vositadir. Bugungi kunda hamma biznesda har bitta mijoz uchun kurashish mavjud va uni jalb qilish usullaridan biri bu SMM dir. PPC (Pay Per Click).



PPC - Pay Per Click inglizcha soʻzlarining bosh harflaridan olingan boʻlib, bu firma reklamasini har bosilganda nashriyotchiga pul toʻlash orqali firma veb-saytiga trafikni jalb qilish usulidir.

Hamkorlik marketingi. Bu firma veb-saytida boshqa birovlarining mahsulot yoki xizmatlarini reklama qilganligi uchun haq olishga asoslangan reklama turi. Mahalliy reklama.

Mahalliy reklama deganda, asosan, kontentni boshqaradigan va boshqa bepul kontent bilan bir qatorda platformada namoyish etiladigan reklamalar tushuniladi. Marketingni avtomatlashtirish.

Marketingni avtomatlashtirish sizning asosiy marketing operatsiyalaringizni avtomatlashtirishga xizmat qiladigan dasturiy taʼminotni nazarda tutadi. Koʻpgina marketing boʻlimlari qoʻlda bajaradigan takrorlanadigan vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin, masalan: epochta xabarnomalari, ijtimoiy tarmoqlarda postlarni rejalashtirish, potensial mijozlar boʻyicha ish jarayonlari, aksiyalarni kuzatish va uning hisoboti.

Elektron pochta marketingi. Elektron pochta marketingi hali ham eng samarali raqamli marketing kanallaridan biridir. Koʻp odamlar elektron pochta marketingini spam-elektron pochta xabarlari bilan aralashtirib yuborishadi, ammo bu elektron pochta marketingi bilan bogʻliq emas. Elektron pochta marketingi potensial mijozlar yoki firma brendiga qiziqadigan odamlar bilan aloqada boʻlish vositasidir. Onlayn PR (Public Relationship).

Onlayn PR - bu raqamli nashrlar, bloglar va boshqa kontentga asoslangan veb-saytlar bilan onlayn ravishda qamrab olishni taʼminlash amaliyoti. PR - oddiy reklamadan farqli oʻlaroq, raqobatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimlarida imij yaratish va uni amalga oshirish texnologiyasi hisoblanadi. Veb-sayt marketing. Veb-sayt barcha raqamli marketing faoliyatining markazidir. Faqat, bu juda kuchli kanal, ammo u turli xil onlayn marketing faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan vositadir.

Veb-sayt tovar, mahsulot va xizmatlarni aniq va esda qolarli tarzda namoyish etishi kerak. U tezkor va foydalanishda qulay boʻlishi kerak.

Video marketing. YouTube ikkinchi eng mashhur qidiruv tizimiga aylandi va ko‘plab foydalanuvchilar biror mahsulot yoki xizmatni sotib olishdan oldin, u haqida biror narsani o‘rganish, ma’lumot olish yoki shunchaki dam olish uchun YouTube ga murojaat qilishmoqda.

SMS xabarlar. Kompaniyalar va notijorat tashkilotlar so‘nggi aksiyalar haqida ma’lumot yuborish yoki tayyor mijozlarga imkoniyat berish uchun SMS yoki matnli xabarlardan foydalanadilar. Texnologiya rivojlanganligi sababli, ko‘plab matnlarni berish kampaniyalari ham mijozlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lashga yoki oddiy matnli xabar orqali pul to‘lashga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar va platformalarni iqtisodiyotga tatbiq etish choralari ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, bu masalalar bo‘yicha tizimli muammo va kamchiliklar ham bisyor. Mamlakatimizda ham, ayniqsa pandemiya sharoitida raqamli marketing turlarini rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash odamlar xavfsizligi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, korrupsiya va yashirin iqtisodiyotning oldi olinishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349 sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. L.T.Abduxalilova. Internet-marketing. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2019. - 310 bet.
3. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari. T.: “Iqtisodiyot”, 2019. - 305 bet.
4. [www.hubspot.com](http://www.hubspot.com)

## ХОТИРА ВА УНИНГ ИНСОН ҲАЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ

Холлиева Рўяб

Қарши давлат университети 2-курс магистранти

**Аннотация:** Хотира инсон фаолиятининг барча турларида муҳим рол ўйнайди. Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларини хотирасини ўстиришни усуллари ҳақида фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** хотира, хотира жараёнлари, идрок, хотирани ўстирувчи машқлар.

Хотира инсон ҳаётидаги ғоят катта аҳамиятга эгадир. Хотира туфайли онгимизда фақат ҳозирги пайтдаги нарсалар, ҳодисалар акс этиб қолмай, балки ўтмишдаги идрок қилинган нарса ва ҳодисалар, кечирган туйғу фикрлар ҳам акс этади. Инсон хотира туфайли малака ва кўникмалар ҳосил қилади, билиминини бойитади ва савиясини кенгайтиради. Ҳатто ёш болалар ҳам агар уларни хотирасида тегишли маълумотлар сақланган бўлсагина ўйин фаолияти билан шуғуллана оладилар. Акс ҳолда ўйин фаолиятини ҳам амалга ошириб бўлмайди. Хотира мукамал бўлмай туриб фан асосларини ўзлаштириб олиш мумкин эмас.

Хотира бир қанча жараёнларни ўз ичига олади:

- эсда сақлаш;
- эсда олиб қолиш;
- эсга тушуриш;
- унутишдир.

Хотира ёдлашдан бошланади. Хотира муҳим фундаментал инсон қобилияти ҳисобланади.

Эсда олиб қолиш бу – идрок қилинган материалларни, нарса ва ҳодисаларни онгимизда қолдиришдан иборат хотира жараёнидир.

Унутиш туфайли инсон янги таассуротлар учун жойни тозалайди ва хотирани тафсилотларар тўпламидан озод қилади, бу инсоннинг тафаккур юритишига хизмат қилиш учун янги имконият беради. Хотиранинг намоён бўлиш шакллари жуда хилма-хилдир, чунки у инсон ҳаётининг турли соҳалари, хусусиятлари билан боғлиқ.

Хотира қуйидаги белгиларига кўра таснифланади:

1. Инсон нимани эслайди (нарсалар ва ҳодисалар, фикрлар, ҳаракатлар, ҳиссиётлар). Шунга кўра ҳаракатли, оғзаки-манتيқий ва образли хотира фарқланади;

2. Инсон қандай эслаб қолади (тасодифан ёки атайдан). Бу ерда ихтиёрий ва ихтиёрсиз хотира ажратилади;

3. Хотира қанча вақт сақланади. Бу қисқа муддатли, узоқ муддатли ва оператив хотирага бўлинади. Хотиранинг барча турлари ўзлари учун зарур ва қимматлидир, катталар ҳаёти давомида улар йўқолмайди, балки бойитилади, бир-бири билан ўзаро алоқада бўлади.

Мактаб ўқувчилари ёш болалар хотираси жудаям фаол бўлиб, эшитган, ўқиган нарсаларини бирдан ёдда сақлаб қоладилар ва тезда унатадилар. Шунинг учун ўқувчиларга кўрган нарсаларни 2-3 марта ёдларига солиш керак ва кўргазмалар орқали дарсни ташкил этиб бориш керак.

“Хотира китоб эмас, у балки кутубхонадир”

Болада хотиранинг дастлабки аломатлари ёнидаги яқин кишилар ва буюмларни танишда кўринади. Бир ёшга тўлмаган болада хотираси илгари идрок қилган, кўрган, номини эшитган нарсаларни тасаввур қилиш йўли билан эслай олади. Хотирани мустаҳкамлаш учун бир қанча машқлар ҳам олиб бориш керак. Болаларда хотира ривожланиш машқлари содда тарзда бошланиб, аста секин мураккабликка ўтиши ва машқлар ҳеч қачон чекланмаслиги керак. Самарали машқлардан бири бу – расмларни эслаб қолиш. Бундай машқни ўтказиш учун бирон бир қизиқарли расмлар ёки шакллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Унда 10 тадан 15 тагача бўлган жисм, хайвон ёки шакллар расмларидан фойдаланилади. Ушбу расмга бир дақиқа давомида диққат билан қарайдилар ва у ердаги нарсаларни эслаб қолишга ҳаракат қиладилар. Шундан сўнг ўқитувчи расмни беркитади ва эслаб қолган нарсаларни айтишни сўрайди. Болаларнинг хотирасига нечта шакл ёки нарсаларни номи сақланганини аниқлаш мумкин. Кичик мактаб ёшдаги болаларнинг қизиқишларини ошириш, хотирасини мустаҳкамлаш берилаётган материалларни узоқроқ хотирасида сақлаш учун дарс жараёнида 10-15 минутлик тест, ҳикоя, қисқа муддатли қизиқарли суҳбат, ўйин, қўшиқ ва ифодали ўқиш методларидан фойланиш мумкин.

Албатта, ўқувчи нутқининг ўсишида хотирасини мустаҳкам бўлишида ўқитувчининг нутқи катта рол ўйнайди, чунки ўқитувчининг нутқи намунали нутқ бўлиб болага таъсир эта олиши керак. Шу сабабли ҳар бир ўқитувчи ўқувчилар хотирасини мустаҳкамлаш, нутқини ўстиришга интилиб, ўзи ҳам ўз нутқини такомиллаштириш устида тўхтовсиз ва тинмай ишлаши керак. Мазмунли, тўлиқ фикрли, тўғри тузилган ва услуб жиҳатидан чиройли бўлган нутқни ва хотирани ўстириш мактабда болаларнинг ўқитиш соҳасида қуйилган муҳим вазифаларнинг биридир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1..Давлетшин М.Г Дўстмухамедова Ш,Мавлонов М,Тўйчиева С.”Ёш ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма-Т,2004.
2. Ғозиев Э.Ғ.Умумий психология.Дарслик И,ИИ китоб.-Т.2002.

**URUG' MEVALI BOG'LARDA “COLEOPTERA” TURKUMI  
VAKILLARINING ZARARI, BIOEKOLOGIYASI VA ULARGA QARSHI  
KURASHISH TADBIRLARI**

**Sodiqova Sayyora**

**Rahimov Shohro'z**

ToshDAU “O'simliklar himoyasi agrokimyo va tuproqshunoslik” fakulteti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Respublikamizda urug' mevali bog'larida buzoqboshi qo'ng'izlarning tarqalishi, zarari, bioekologiyasini o'rganish asosida ularga qarshi samarali kurash choralarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** g'ilofli kuylar, agrotexnik, buzoqbosh, mevaxo'r, kasallik

O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti mevali daraxtlar va tok o'stirish uchun eng qulay hisoblanadi. Respublikada meva daraxtlardan olma, nok, bexi, olcha, o'rik, shaftoli kabilar ko'plab ekiladi. Biroq bog' va tokzorlarni zararkunanda va kasalliklardan samarali himoya qilmay turib, ulardan sifatli va yuqori hosil olib bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil olish va yetishtirilgan hosilni saqlab qolishdagi asosiy omillardan biri zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilishdir. Insoniyat birgina zararkunandalar tufayli har yili: 203,7 mln.tonna – don; 228,4 mln.tonna - qand lavlagi; 23,8 mln.tonna – kartoshka; 23,4 mln.tonna – sabzavot; 11,3 mln.Tonna – meva hosili yo'qotilishiga olib keladi. O'zbekistonning mevali bog'larida 200 dan ortiq zararkunanda va 500 dan ortiq kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'lar uchrashi qayd qilingan. Bog' va tokzorlarda uchraydigan zararkunandalarning ayrim turlari – olma, olxo'ri va uzum mevaxo'r qurtlari, binafsharang, soxta qalqondorlar, meva o'rgimchak qandalari, nok shirinchasi, nok shira biti, akatsiya soxta qalqondori, sharq meva qurti, g'ilofli kuyalar, buzoqboshi qo'ng'izlar yil va mavsum davomida bir necha marta avlod berib

jiddiy zarar keltiradi. Ushbu zararkunandalardan Coleoptera turkumi vakillarining mo'yulovlilar (Scarabaeidae) oilasiga, buzoqboshi qo'ngizlar (*Melontha melontha*, *M. hypocastani*) avlodiga mansub turlardir. O'rta Osiyodagi mevazor bog'larga buzoqboshi qo'ngizlarning uch turi: zararli buzoqboshi qo'ngizi, uch tishli buzoqboshi qo'ngizlari va mart buzoqboshi qo'ngizlar ko'p zarar yetkazadi. Bu zoqboshi qo'ngizlar lichinkasi daraxtlarning ildizini kemirib quvvatdan ketkazadi, ba'zida bog'lardagi ekilgan ekinlarga ham zarar yetkazadi. Bu zoqboshi qo'ngizlarning lichinkasi fazasida ayrim hollarda esa hali faol hayot kechirishga o'tmagan qo'ng'izlik stadiyasida qishlaydi. Lichinkalari va g'umbaklari odatda, yerning taxminan 20 sm chuqurligida bo'ladi; yer nam bo'lganda lichinkalar yer yuziga chiqadi. Mart buzoqboshi qo'ngizlari mart oyidan aprelning yarmigacha ba'zan oxirigacha zararli va uch tishli buzoqboshi qo'ngizlar maydan iyulning yarmigacha uchib yuradi. Ular g'ira- shira qorong'u tushishi bilan ucha boshlaydi. Urg'ochisi soya joylarga, daraxtlarning tagiga, yerning yuza qatlamlariga bitta yoki ikki-uchta tuxum qo'yadi. 2-3 sutka davomida hammasi bo'lib 30 tacha tuxum qo'yadi. Bir oydan keyin ulardan lichinkalar chiqadi. Lichinkalar birinchi marta faqat kelasi yili po'st tashlaydi va shu vaqtdan boshlab daraxtlarning ildizini kemirib, sezilarli darajada zarar yetkaza boshlaydi. Bu zoqboshi qo'ngizlarni 3 turi ham bir-biriga o'xshaydi. Ularning kattaligi 2,5-3,3 sm atofida. Rangi qizg'ish, mayda oq dog'li, ko'krak qismi ostida va oyoqlarning asosiy yarmida uzun oqish tuklari bo'ladi. Erkak buzoqboshi mo'yulovlarining uchi 7 dona uzun, urg'ochilarniki esa 5 dona kalta plastinkalardan iborat. Uch tishli buzoqboshi qo'ngizni og'iz aparati yuqoridagi plastinkasining pastki chekkasi 3 bo'lakka bo'linganligi bilan zararli buzoqboshidan farq qiladi. Zararli buzoqboshining ustki qanotidagi tangachalar dog' shaklida xar joyda, zararli buzoqboshiniki esa bir tekis joylashgan. Bu zoqboshi qo'ngizlarning imagosi deyarli zarar yetkazmaydi, lichinkasi meva daraxtlari, tok va butalarning ildizini kemirib katta zarar yetkazadi. Bu zoqboshi qo'ngizlar uzoq vaqt davomida rivojlanadi. Uch tishli va zararli buzoqboshi 3 yil, mart buzoqboshisi 4 yilda bir marta nasl beradi. Uch tishli va zararli buzoqboshi qo'ngizlarning imagosi 30-40kun, mart buzoqboshi qo'ngiziniki 9 oygacha yashaydi. Tuxumi 40-50 kunda,

g'umbagi 15 kun davomida rivojlanadi. Boshqa vaqtda lichinkalik bosqichida bo'ladi. Lichinkalarning tanasi yo'g'on, yoysimon, rangi xira oq bo'ladi. Ularning orqa tomoni yo'g'on kalta tuk bilan qoplangan. Mart buzoqboshilarning lichinkasi 5 sm zararli va uch tishli buzoqboshilarining 6,5 sm bo'ladi. Lichinkalar 3 marta po'st tashlab, imagoga aylanadi. Respublikamizning intensive mevali bog'larida ushbu buzoboshi qo'ngizlarning zarari ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Tuproqdagi zichligi 1m da 212-14 tagacha yetganligi va 30-40% gacha ekin maydonlaridagi ko'chatlar zararlanganligi kuzatuvlar davomida aniqlangan.

Kurashish choralari :

Yangi bog'larni tashkil qilish va ko'chatzorlarda ko'char o'tkazishdan oldin tuproq tarkibini tekshiruvdn o'tkazish lozim. Bunda muayyan yerdagi zararkunandalardan buzoqboshi , qarsildoq qo'ngizlar lichinkalarning joylashish zichligi aniqlanadi. 1m<sup>2</sup> maydonda 2-3 ta buzoqboshi lichinkasi borligi aniqlansa, bu ko'chatlar uchun xavfli hisoblanadi. Buzoqboshi qo'ngizlar va boshqa tuproq osti zararkunandalariga qarshi kurashishda agrotexnik va tashkiliy- xo'jalik chora- tadbirlari asosiy o'rinni egallaydi. Tuproqqa asosiy va qo'shimcha ishlov berish almashlab ekishni to'g'ri yo'lga qo'yish, o'g'itlash, sug'orish va qator oralarini band qiluvchi ekinlar ekish zararkunandalar sonini kamaytirishga yordam beradi. Qo'ngizlarning zararliligi IZMM dan oshadigan bo'lsa quyidagi preparatlar tavsiya etiladi; Detsis 2,5% em.k (0,5 l/ga) , BI-58 40% em.k (0,8 l/ga) , Karache DUO 25% n.kuk (0,3 l/ga).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. B. A.Sulaymonov, B.S.Boltayev, SH. X. Abdualimov “Bog', tokzor va dala ekinlarning zararkunanda, kasalliklari hamda ularga qarshi kurash choralari usullari”. T.2018 yil.5-9 betlar “Navro'z” nashriyoti.
2. B.A.Sulaymonov, X.X.. Kimanboyev, SH. Esanbayev “Mevali bog' zararkunandalari va ularga qarshibiologik usulni qo'llash asoslari”. T.2015yil 71-74 betlar. “Extermum-Press” MCHJ nashriyoti.
3. B.A.Sulaymonov, B.S.Boltaev, SH.Komilov “Qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunandalari, kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari”.



## ADOLATLI IJTIMOIIY SIYOSAT

**Tangirov Ahad Erkin o‘g‘li**

TerDU Yuridik fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlatimizda yuritilayotgan adolatli ijtimoiy siyosat, pandemik jarayonda aholiga ko‘rsatilgan yordamlar, aholining farovonligi va yashash tarzini yaxshilash, kambag‘allik darajasini kamaytirish va muhtoj oilalarga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy ko‘mak muallif tomonidan yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy siyosat, koronavirus infeksiyasi, pandemik jarayon, muhtoj oila, kambag‘alikka qarshi kurashish, kambag‘allik darajasi, Oliy Majlisga Murojaatnoma, ijtimoiy himoya, “Temir daftar”, aholi farovonligi va hokazo.

Avvalambor, “ijtimoiy” so‘zini eshitganimizda bevosita xalq, fuqarolar va jamiyat ko‘z oldimizga keladi. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritishga davlat rahbari, nafaqat davlat rahbari balki, xalq uchun xizmat qiladigan davlat organlari rahbar xodimlari ham ma’sul hisoblanadi. Adolatli siyosat yuritish – davlat boshqaruvining ustuni bo‘lib xizmat qilmoqda.

Buyuk bobokalonimiz, yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi Amir Temur “Kuch – Adolatda” deb bejizga aytmagan. Biz qachonki adolatli davlat qurar ekanmiz, adolatli siyosat yuritar ekanmiz – bu bizning eng katta va ulug‘ yutug‘imiz hisoblanadi. Birgina, koronavirus infeksiyasi keng tarqalgan pandemik jarayonda ijtimoiy soha ham boshqa sohalar qatorida katta zarba qabul qildi. Va bu juda murakkab vaziyatda ko‘plab yechilmagan muammolar o‘z aksini ko‘rsatdi. Murakkab pandemik jarayonda millionlab insonlar himoyasiz qoldi.

Tan olishimiz kerakki, bu muammolarning barchasi mamlakatimiz oldiga jiddiy masalalarni qo‘ydi. Bundan tashqari, pandemik inqiroz hokimiyatning butun e’tiborini muhtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, kambag‘alikka qarshi

kurashish tartiblarini takomillashtirishning hozirgi tizimi islohotlariga qaratgan bir vaqtda yuz berdi. Kambag'allik darajasini kamaytirish, adolat bilan ijtimoiy siyosat olib borish vazifalari kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Uzoq muddatga mo'ljallangan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlash strategiyasining bosh maqsadi etib qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida “Birinchi navbatda aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri bo'lib qoladi”, - deya aniq aytdi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, kambag'allikni qisqartirish jarayonlarini tartibga solish uchun maxsus tashkil etildi. Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, 2030-yilgacha Kambag'allikni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishga qaror qilindi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni mustahkamlash maqsadida Mahalla va Oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Shu bilan birga, yordamga muhtoj barcha fuqarolar tarmoqlar va mahalla yig'inlari rahbari tavsiyasi bilan “Temir daftar”ga kiritilishi belgilab qo'yilgan edi. Bu vazifa bo'yicha ham izchil ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu elektron dasturga muhtoj oila biriktirilgan sektorlar tomonidan kiritilmoqda. “Temir daftar”ga kiritish uchun oilani adolatli tanlash yo'lga qo'yilgan.

Adolatli ijtimoiy siyosatning maqsadi, barcha fuqarolarning qamrab olinishiga erishishdir. Yaratilgan ijtimoiy tuzilishdan, xoh alohida shaxslar bo'lsin, xoh butun aholi guruhlari hech kim chetda qolmasligi maqsad qilingan. Prezidentimiz tomonidan yaqinda yana bir muhim hujjat — “Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi” qaror imzolandi. Unga ko'ra, moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarning 16 yoshga to'lmagan farzandlariga bir martalik moddiy yordam berish ko'zda tutilgan. Bu esa xalqimizni ijtimoiy himoyasi doimo davlat e'tiborida ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, ular qayerda bo'lishidan qat'i nazar, himoya qilishga qodir mamlakat sifatida o'zini namoyon

etmoqda. Chet ellarda ishlayotgan va ta'lim olayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalar mustahkamlanib, ularning huquq va manfaatlari ta'minlanyapti. Xorijda o'z mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolarga qulayliklar yaratish, ularning yashash, ishlash sharoitlarini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Albatta, bularning barchasi Mustaqillik tufaylidir. Bugun qaysi sohada muvaffaqiyatlarga erishmaylik, yildan-yilga xalqimiz yashash tarzi va turmushi farovonligining asl negizida mamlakatning mustaqilligi mujassam. Shunday ekan, tinch, osoyishta, shukuhli kunlarning qadriga yetaylik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Temur tuzuklari. T: “Ijod-Press”, 2019.
2. <https://www.gazeta.uz>
3. <https://lex.uz>



**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA  
O'QUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI  
SHAKLLANTIRISHNING HAR BIR TEMPERAMENTGA EGA  
BOLALARDA O'ZIGA XOSLIGI**

**Abdiraimova Xusnobod Samat qizi**

QarDU Pedagogika fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning asosiy vazifasi – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni hozirgi zamon talabi darajasiga chiqqan mantiqiy tafakkurni o'stirish, har bir temperamentga ega bolalarda o'ziga xosligini o'rgatishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, psixologiya, tafakkur, fikrlash, temperament, xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik.

Mantiq – o'ylashga, fikrlashga o'rgatadi. Tafakkur – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi jarayon bo'lib, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Tafakkur yuritish ma'lum muammoli vaziyatda vujudga keladi. Muammoni yechish vaqtida bosh miyada chuqur tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish sodir bo'ladi. Tafakkur jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayondir.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish oson ish emas. Uning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlarini hisobga olish kerak. Buning uchun o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish, turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir o'quvchining mantiqiy tafakkur yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish, ijodiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning barchasida ham tafakkurning o'sishi va rivojlanishi bir tekis va bir xil

bo'lavermaydi, albatta. O'quvchilarning individual xususiyatlari ko'p darajada boshqa psixik jarayonlarning: xotira, xayol, nutq, diqqat, irodaning o'sishi bilan belgilanadi.

Turli insonlarda tafakkur xususiyatlari turlicha tarkib topgan va turlicha ko'rinishda bo'ladi. Bir kishining o'zida ham tafakkurning turli xususiyatlari turlicha nomoyon bo'ladi. Bularning hammasi tafakkurning individual xususiyatlarining asosini tashkil qiladi. Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqillik darajasi, epcillik, fikrlashning tezligi kabilar kiradi.

B.M. Teplov temperamentga quyidagicha ta'rif beradi: “Temperament deb, ayni bir odam uchun xos bo'lgan emotsional qo'zg'auvchanlik, ya'ni, bir tomondan, hislar paydo bo'lishining tezligi, va ikkinchi tomondan, ularning kuchi bilan bog'liq bo'lgan psixik xususiyatlarning yig'indisiga aytiladi”. **Temperament** – bu inson faoliyati va xulq-atvorining dinamik va emotsional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig'indi. Shunday qilib, temperament ikki tarkibiy qism – faollik va hissiyotlilikka ega. Xulq-atvorning faolligi harakatchanlik, intiluvchanlik, tezlik, yoki, aksincha, sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi.

**Xolerik** – tez, ba'zida, hatto, juda keskin, nutqda, mimika va imo-ishoralarda yaqqol ifodalanadigan kuchli tezda alanganadigan hislarga ega, jadal emotsional ta'sirlanishga moyil odam, hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarda sezuvchanlik kuchli ammo diqqatni jamlash sekinroq bo'lganligi uchun bunday bolalar mantiqiy masalalarni tez yechishi mumkin. Lekin diqqatni jamlay olishi qiyinligi va har tomonlama fikrlamay tezda qaror qabul qilishi oqibatida masala va misollar javobini xato ishlashi mumkin.

**Sangvinik** – tez, harakatchan, barcha taassurotlarga emotsional javob beruvchi odam, uning hislari bevosita tashqi xulq-atvorida ifodalanadi, lekin ular kuchli emas, va bir-birini oson almashtiradi, hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarning beqarorligi sababli mantiqiy masalalar ustida ishlashga qiynalishi ya'ni masala murakkabroq bo'lsa masalani javobini topguncha zerikib masala javobini topishdan ham voz kechishi

mumkin. Balki uning teskarisi bo'lib, faolligi, harakatchanligi evaziga tezda masala javobini topishi ham mumkin.

**Melanxolik** – emotsional kechinmalar xilma-xilligining uncha katta emasligi, lekin katta kuchga va davomiylikka egaligi bilan farq qiluvchi inson, u barchasiga ham munosabat bildirmaydi, agar bildirgudek bo'lsa ham chuqur o'ylaydi, o'z hislarini u darajada namoyon qilmaydi, hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarni mantiqiy masalarni yechishga qiziqtirish qiyin ammo bu tipdagi bolalarda sabr –matonat kuchliligi uchun. Mantiqiy masalalarni yechishga qiynalmaydi va murakkab va o'ta murakkab bo'lgan mantiqiy masalalarni yechishda ham ular ijobiy natijaga erishishadi. Ular masala javobini har tomonlama o'ylab ko'rishga erinmaydilar va buning natijasida to'g'ri qaror qabul qiladilar.

**Flegmatik** – sust, mutanosib va xotirjam odam, uning emotsional ta'sirlanishi oson emas, va o'zidan chiqarish qiyin, hislari tashqaridan deyarli namoyon bo'lmaydi, hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Bunday temperamentga ega bolalarda mantiqiy masalarni yechishga qiziqtirilsa, sekin yechishlari mumkin. Ammo masala murakkab bo'lsa ham javobini topmaguncha qo'ymaydilar.

Har qaysi odam temperamentini batamom bir tip doirasigagina bo'lmaydi albatta. Tip tushunchasining o'zi faqat bir-birlariga o'xshash bir guruh odamlarigagina o'z ichiga olishligini nazarda tutadi. Har qaysi odam temperamentida o'ziga xos individual xususiyatlari bo'ladi, bu xususiyatlarni batamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya'ni shu shaxsning o'zigagina xos xususiyatdir. Ko'pchilik odamlarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo'shilgan bo'lishini ko'ramiz. Masalan, xolerik temperamentli kishida melanxolik yoki flegmatik temperament alomatlari bo'lishi, sangvinik temperamentli kishida xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkinligini kuzatishimiz mumkin.

Har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan holda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Fikrlash jarayonlarini guruh

sharoitida, dars paytida ham o‘stirish va bunga qisqa yo‘llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat tafakkurning o‘shiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, tafakkur jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samarali qiladi. Shu narsa isbot qilinganki, jamoada ishlash ko‘plab nostandart fikrlarning tug‘ilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya” darslik ,Toshkent-2019
3. E. E. Jumayev, “Boshlang‘ich matematika nazaryasi va metodikasi” Toshkent-2010
4. Nabiyev.A, Abdiraimova.X “Boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarnimantiqiy tafakkurlarini shakllantirish”  
“Муғаллим” Qoraqalpog‘iston 2021-yil 2-son



## TUPROQ VA UNING TURLARI

**Hayrullayeva Sevinch**

**G‘aniyev Jaloliddin**

Toshkent davlat agrar universiteti "O‘simliklar himoyasi, agrakimyo va tuproqshunoslik" fakulteti

### ANNOTATSIYA

Maqolaning asosiy maqsadi tuproq(qum) — litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta‘sirida o‘zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzilma; Yer po‘stining yuza va unumdor qatlami. T.ning nuragan tog‘ jinslaridan farq qiladigan eng muhim xususiyati — unumdorligidir (qarang Tuproq unumdorligi). T.ni o‘rganish va uning tasnifini tuzish, tarkibini yaxshilash hamda unumdorligini oshirish usullarini ishlab chiqish singari masalalar bilan tuproqshunoslik fani shug‘ullanadi. T. hosil qiluvchi asosiy omillar: iqlim, tuproq ona jinsi, o‘simliklar va hayvonot olami, hududning relyefi va geologik yoshi hamda odamning xo‘jalik faoliyatidir.

**Kalit so‘zlar:** Ekotizim, gil tuproq, relyefi, tog‘ jinslari, yog‘och, ohaktosh, tuproq, iqlim.

Tuproqning yuqori qatlami. Yer yuzasiga chiqib turgan tog‘ jinslari yog‘insochin, karbonat angidrid, kislorod, havo harorati, mexanik kuchlar, suv va unda erigan moddalar, havo, mikroorganizmlar va tuban o‘simliklar (yo‘sin, lishayniklar) ta‘sirida yemiriladi (nuraydi). Nuragan jinslar maydalanib, g‘ovak qatlam hosil qiladi. Bu qatlam vaqt o‘tishi bilan yangi xususiyat — nam sig‘imi va o‘simliklar o‘zlashtira oladigan bir oz miqdordagi oziq moddalarga ega bo‘ladi. Vujudga kelgan yangi muhitdagi mikroorganizmlar o‘z hayot faoliyati tufayli o‘simliklarning o‘sishi uchun sharoit yaratadi, o‘simliklar tuproqdan o‘z hayoti uchun zarur oziq moddalarni o‘zlashtiradi va o‘zida to‘playdi. Nobud bo‘lgan o‘simlikning



bir qismi mikroorganizmlar ta'sirida parchalanib, mineral moddalarga, qolgan qismi esa murakkab biokimyoviy jarayonlar natijasida chirindi (gumus) ga aylanadi. Bu jarayonlarning barchasi uzluksiz davom etadigan nurash sharoitida sodir bo'lib, o'simlik ildizlari ajratgan nordon moddalar hamda organik qoldiqlar ta'sirida yanada tezlashadi. Natijada Yer po'stlog'ining sirtida unumdor g'ovak qatlam — T. paydo bo'ladi. Iqlim, tuproq ona jinsi, o'simlik hamda hayvonot olami, hudud relyefi kabi omillarning T. hosil bo'lish jarayoniga ta'siri turlicha bo'lganligi tufayli har xil tabiiy zonalarda o'ziga xos T. tiplari vujudga keladi. Mas., tayga zonasida chimli podzol T., dashtlarda qora va kashtan T., cho'llarda esa sur tusli qo'ng'ir T.lar va b (qarang Tuproq zonasi). Odamning xo'jalik faoliyati qam T. hosil bo'lish jarayonining ba'zi omillariga, mas., o'simliklarga, shuningdek, yerga ishlov berish, uning meliorativ holatini yaxshilash, organik o'g'it solish va boshqa bilan tuproqqa bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ko'rsatish to'g'ri mutanosiblikda olib borilganda T. hosil bo'lish jarayonini va xususiyatlarini maqsadga muvofiq o'zgartirish mumkin. Bizning sayyoramizda juda ko'p ekotizim turlari mavjud, ularning ichki xususiyatlari tuproq turiga, iqlimga, har bir momentning atrof-muhit sharoitlariga va boshqalarga bog'liq. Dunyoning har bir qismida biz ko'radigan tuproq turi tuproq hosil qiluvchi beshta omilga bog'liq: iqlim, tog' jinslari, relyef, vaqt va unda yashovchi organizmlar.

Tuproqning ta'rifi va tarkibiy qismlari. Tuproq - bu yer qobig'ining yuzaki qismi, biologik faol, bu jinslarning parchalanishi yoki fizikaviy-kimyoviy o'zgarishi va unda joylashgan tirik mavjudotlar faoliyati qoldiqlari. Avval aytib o'tganimizdek, dunyoning har bir mintaqasida har xil tuproq turi mavjud. Bu tuproq hosil qiluvchi omillar butun kosmosda o'zgarib borishi sababli sodir bo'ladi. Masalan, iqlim butun sayyorada bir xil emas, relyef ham, unda yashovchi organizmlar va hk. Shu sababli, tuproqlar turli xil ekotizimlar bo'ylab harakatlanishimiz bilan asta-sekin o'z tuzilmalarini o'zgartiradi. Tuproq toshlar, qum, loy, gumus (chirigan organik moddalar), minerallar va boshqa elementlar kabi turli xil tarkibiy qismlardan iborat. Tuproq tarkibiy qismlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin: Noorganik qum, loy, suv va havo kabi; Organik, masalan, o'simlik va hayvonlarning qoldiqlari. Gumus bu tuproqlarni unumdorligini ta'minlaydigan barcha parchalanadigan organik moddadir.

Quritadigan barglardan hasharotlar jasadigacha ular tuproq chirindi qismidir. Bu yuqori qatlamlarda uchraydi va ba'zi minerallar bilan birgalikda sarg'ish-qora rangga aylanib, yuqori unumdorlikni beradi. Tuproqning xususiyatlari: Tuproqlar fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jismoniy xususiyatlari: To'qimalarining Tuproqda mavjud bo'lgan har xil o'lchamdagi mineral zarrachalar nisbati aniqlanadigan narsadir. Tarkibi bu tuproq zarralari birlashib, agregatlarni hosil qilish usuli. Zichlik o'simliklarning tarqalishiga ta'sir qiladi. Zich tuproqlar ko'proq o'simliklarni qo'llab-quvvatlashga qodir. Harorat o'simliklarning tarqalishiga, ayniqsa balandlikda tarqalishiga ham ta'sir qiladi. Rang bu uning tarkibiy qismlariga bog'liq va tuproqdagi namlik miqdori bilan farq qiladi. Kimyoviy xususiyatlari: Birja hajmi: Bu tuproqning loy va gumus bilan almashinish qobiliyati, mineral zarralarni olish orqali o'simliklarga ozuqa moddalarini etkazib berish. Hosildorlik: Bu o'simliklar uchun mavjud bo'lgan ozuqaviy moddalar miqdori. pH: tuproqning kislotaligi, betarafligi yoki ishqoriyligi. Keyin biz tuproqning pH darajasini qanday o'zgartirishni bilib olamiz. Biologik xususiyatlar: Bu erda biz u erda yashaydigan organizmlarning turlarini, ikkalasini ham topamiz bakteriyalar, zamburug'lar kabi hayvonlar, va boshqalar. Hayvonlar, shuningdek, parheziga, faoliyatiga, kattaligiga va boshqalarga qarab, o'z vazifalarini yerda bajaradilar. Va nihoyat, ular o'simliklarning ko'pligi tufayli iqlimni yumshatish va suv oqimlarining mavjudligini qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qilishadi. Bularning barchasi va boshqa sabablarga ko'ra tuproqni qadrlashni va uni saqlashni o'rganish hayotiy ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [www.Vikapediya.uz](http://www.Vikapediya.uz)
2. P.Uzoqov, Shu.Holiqulov, I.Boboxo'jayev "Tuproqshunoslik"
3. G'.Yuldashev "Tuproq kimyosi"

## BANKDA TOVAR-PUL VA KREDIT MUNOSABATLARI

**Xojibekova Madina Ulug'bek qizi**

Toshkent Moliya Instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada banklar paydo bo`lishining asosi, bankirlar, kredit tizimi, valyuta ayirboshlash, omonatchilarga hisob-kitob xizmatlari ko`rsatish, mablag'larni jalb qilishi, jahon amaliyotida kredit tizimi o`zining tashkil qilinish turiga qarab guruhlariga bo`linishi, tijorat muassasasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Banklar, tovar-pul, ijtimoiy-iqtisodiy, puldor, mablag', ayirboshlash, hisob-kitob, valyuta.

**Annotation:** In this article, the basis for the emergence of banks, bankers, what language the word bank is derived from and what it means, the credit system, currency exchange, the provision of settlement services to depositors, attracting funds, in world practice The credit system is divided into groups depending on the type of organization, detailed information about the commercial institution.

**Keywords:** Banks, commodity-money, socio-economic, money, money, bancherii, exchange, settlement, currency.

**Аннотация:** В данной статье основы возникновения банков, банкиры, из какого языка произошло слово банк и что оно означает, кредитная система, обмен валюты, оказание расчетных услуг вкладчикам, привлечение средств, в мировой практике. Кредитная система разбита на группы в зависимости от типа организации, подробной информации о коммерческом учреждении.

**Ключевые слова:** банки, товарно-денежные, социально-экономические, кассир, деньги, банчерии, обмен, расчет, валюта.

Maqolamda avvalombor bankning o'ziga ta'rif berib o'taman, banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovarpul munosabatlarining bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda banklarning ham bo'lishini taqozo qiladi. Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqda davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan korxonalariga berishgan va pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan. Shunday ekan, hozirda banklar o'z mijozlarini monetalar tarkibi buzulishidan zarar ko'rishdan himoya qilishadi. Ular o'z hisoblarni ma'lum summadagi qimmatbaxo metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishadi va o'zlarining bo'sh pul mablag'laring ijobanklar davlatga qarzga, shaharlarga, chet el savdogarlariga berishadi. Banklar valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan tashqari, odamlarning pul boyliklarini saqlash va omonatchilarga hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish bilan ham shug'ullanishadi. Bankirlar shu narsani tushundiki, bankda harakatsiz yotgan pullarni ma'lum foiz evaziga berib daromad olish mumkin. Shu tariqa banklarning kredit operatsiyalari yanada rivojlanib kelinmoqda. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanish ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylanishining tezlashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Natural xo'jalik munosabatlarining tugashi savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo'l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mehnatni jalb qilishga olib kelindi. Yollanma mehnat uchun xalqning pul shaklida to'lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylanishini esa bank tomonidan boshqarish zarur. Shunday qilib, banklar faoliyat ko'rsatib kelmoqda va ular mablag'larni yig'ish va taqsimlash orqali kapitali harakatini yanada boshqarib kelinmoqda. Ssuda kapitalistidan farqli o'laroq bankir tadbirkor sifatida ish olib boriladi.

Kredit tizimi bu kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig'indisiga deb tushunamiz. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh mablag'lari yig'iladi

va korxonalar, tashkilotlarga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablag'larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo'g'inlari o'z xususiyatlariga ega qiladi. Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir. Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investitsiya banklari;
- jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (O'zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha banklar;
- tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investitsiya kompaniyalari;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Banklar - tovar-pul xo'jaligining ajralmas atributidir. Tarixan bular yonma-yan rivojlanib keldilar. Shuning uchun qiymatning pul shaklining muomalasining boshlanishi bank ishining boshlanishi deb hisoblash, hamda bank faoliyatining rivojlanishidagi yetukligi doimo iqtisodiyotdagi tovar-pul aloqalarining rivojlanish darajasiga mos kelgan. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy banki va Moliya vazirligi 2024-yildan kechiktirmay Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholashni o'tkazishi amalga oshiriladi. Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir qismi bo'lgan kredit tashkiloti bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini jamg'rish, yig'ish, jamlangan (akkumulatsiya qilingan) mablag'larni o'z nomidan qaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish xamda mijozlarning topshirig'iga ko'ra, to'lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar. Kredit - bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi - iqtisodiy islohatlarni amalga oshirilishining ajralmas belgilaridan (xususiyatlaridan) biridir. Bu shu bilan

ta`kidlanadiki, bank tizimi xar qanday turdagi iqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil qiluvchi unsurlaridan hisoblanadi. Bank tizimi vaqtinchalik bo`sh turgan pul mablag`larini akkumulyatsiya qilish funksiyasini amalga oshiradi. Bank tizimining muvoffaqiyatli ishidan iqtisodiyotni samarali faoliyat ko`rsatishi, umuman olganda mamlakatdagi iqtisodiy o`sinh bog`liq bo`ladi.

*Xulosa.* Zamonaviy iqtisodiy birlashmadan organik yaxlitlikka aylanishidir. Bunday iqtisodiyotda uning aloqalari orasidagi bog`liqlik ichki xususiyatga ega bo'ladi, bu esa ular orasidagi doimiylik va tizimli almashishni talab qiladi. Va shu borada aytib o'tmoqchimanki, 2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o`rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini belgilab berdi. Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko`p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog`liq. Shundan kelib chiqib, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta bozorini liberallashtirish bo`yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to`g`risida”gi Farmoni e`lon qilinishidan ko`p o`tmay O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori qabul qilindi va Pul-kredit siyosatini 2017-2021 yillarda rivojlantirish va inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o`tish bo`yicha chora-tadbirlar Kompleksi tasdiqlandi. Shunday ekan, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta`minlash vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasi va batafsil rejasi bo`lishini hamda maqsadli ko`rsatkichlarga erishish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni talab etadi. O`z navbatida, ichki valyuta bozorida muammolarni yuzaga keltirib, samarali pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatlarini pasaytirdi. Bundan tashqari, pul-kredit instrumentlaridan foydalanishning passiv rejimi monetar targetlashni samarali qo`llashda qo`shimcha qiyinchiliklar tug`dirdi. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish va rivojlantirish bo`yicha ushbu Konsepsiya o`z ichiga 2018-2021 yillar uchun mo`ljallangan chora-tadbirlar “yo`l xaritasi”ni qamrab oldi. Mazkur yo`l

xaritasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor inflyatsion targetlashning mexanizm va tamoyillarini o'rta muddatli istiqbolda samarali joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha choralarni amalga oshirishga qaratilib kelmoqda. 2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, shuningdek, Jahon bankining mamlakat bank tizimi joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Strategiya bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020 — 2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Lomakin V.K.Mirovaya ekonomika.Uchebnik dlya studentov vuzov.— M.. YUNITI-DANA. 2012.671 st.
2. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition)( Den'gi, kredit i banki). Pearson. United Kingdom, 2015
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 05.11.2019 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalq so'zi. 09.12.2019 y.
5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni. 22.10.2019 y.
6. “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori 2019 yil dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 yillik strategiyasida «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori 12.05.2020 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillar Harakatlar strategiyasi” 2017 -yilning 7-fevralidagi PF-4947 sonli qarori.
9. Abdullayeva Sh.Z, Safarova Z. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. T.:Iqtisod-Moliya.
10. Omonov A., Bank ishi. Darslik. T.:“Moliya”2019 y.
11. Abdullayeva Sh., Pul va banklar. Darslik. T.: "Moliya" 2019 y.
12. A.A.Omonov., T.M.Qoraliyev., Pul va banklar. Darslik. T.:”Moliya”

#### **Internet saytlari.**

1. <http://www.google.com> “Ma'lumotlar qidiruv sayti”
2. <http://www.stat.uz> Davlat Statistika qo'mitasining sayti
3. [www.bank.uz](http://www.bank.uz)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.uba.uz](http://www.uba.uz)
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) <http://www.cbu.uz> – O'zR MBning rasmiy veb-sayti;
7. [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz).
8. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)



## YOSHLAR – KELAJAK POYDEVORI

**Xudoynazarova Sadoqat Chorshanbi qizi**

TerDU Yuridik fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosati, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun olib borilayotgan islohotlar, qizlarning yanada ilmi bo‘lishi uchun berilayotgan imkoniyatlar muallif tomonidan yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlarga oid davlat siyosati, ijtimoiy muhofaza qilish, prezident maktablari, “Temurbeklar” maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, Yoshlar forumi, Yangi Uchinchi Renessans, ta’lim islohotlari, beshta muhim tashabbus va hokazo.

O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Shuning uchun biz yoshlarni ta’lim-tarbiyamiz va kamolotimizga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste’dodini qo‘llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtidorli, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, “Temurbeklar” maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 25-dekabrda o‘tkazilgan Yoshlar forumida “Yoshlar – O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini” mavzusida nutq so‘zlab, mamlakatimiz yoshlariga qarata: “Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini sifatida qadrlayman. Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz va azmi-shijoatingizga suyanamiz. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz”, - deya ta’kidladilar. Zamonaviy ta’lim-

tarbiya Yangi Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori va ustuni ham hisoblanadi.

Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar biz yoshlarni malakali mutaxassis bo'lib hayotga kirib kelishimizda muhim omil bo'lmoqda. So'nggi yillarda Oliy ta'lim sohasida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda va bu o'z navbatida, yoshlarning intilish va iqtidorini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishda, rahbar mutaxassislarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishda yangi tizimni shakllantirdi. Biz yoshlarni xursand qiladigan jihati shundaki, bugungi zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida yoshlarning talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Yurtboshimizning yoshlar kelajagiga qaratayotgan doimiy e'tibori, ayniqsa, ta'lim islohotlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu qilinayotgan ishlar va islohotlarning yutug'i yoshlarning davlat hamda qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda. Xorijiy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda o'z bilim saviyasini sinab ko'rishi yoshlarga e'tiborning yorqin misolidir. Yoshlar uchun, ayniqsa, qizlarning yanada ilmi bo'lishi uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlar uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko'tarilgan bo'lsa, hozirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi qarorida Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlariga davlat oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo'mitasining oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozlar belgilangandi hamda terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan tan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga tavsiyanoma asosida oliy ta'lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o'qishga kirish imtiyozi berildi.

Mamlakatimizda yoshlarni o'z hayotiy o'rniga ega, bilimli va yuksak salohiyatli qilib tarbiyalashga juda katta e'tibor qaratilyapti. Xalqimizning ertasi qanday bo'lishi

yoshlarning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog’liq. Har tomonlama mukammal inson bo’lish uchun faqatgina bilimning o’zigina kifoya qilmas ekan. Balki, bilim bilan birgalikda, insonparvarlik, vatanparvarlik xislatlari ham shakllanib borishi lozim. Davlatimiz rahbari tomonidan barcha sohalar qatori yurtimizda yoshlarni har tomonlama yetuk va komil inson qilib tarbiyalash, ularning intilish va tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash, iste’dod va salohiyatlarini ro’yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratishga ham e’tibor qaratilmoqda. Xorijdagi tengdoshlarimiz bilan ilmfan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo’lishimiz, o’zimizning salohiyatimizni dunyo miqyosida namoyon etishimiz uchun katta muhit shakllandi. Hammamizga ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo’lga qo’yish bo’yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Aynan, mana shu 5 ta tashabbus yoshlar uchun, ularning o’z qobiliyatini namoyon qilishi uchun keng yo’l ochdi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, milliy ma’rifatparvar, shoir, dramaturg Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchligi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog’liq” ligini unutmasligimiz darkor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Xalq so’zi. 2020-yil 26-dekabr, №273 (7775). 1-bet.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblar. "Cho'lpon nashriyoti", 2019, 2- jild.
3. Beshta muhim tashabbus – ertamiz egalari, istiqboli yo’lida. T, Ma’naviyat, 2019.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T, Yoshlar nashriyot uyi, 2019, 9-bet.
5. <https://lex.uz>

**SILJISHLI FUNKSIONAL OPERATORLARNING SILJISH YO‘NALISHNI  
O‘ZGARTUVCHI BO‘LGAN HOLDA BIR TOMONLAMA  
TESKARILANUVCHANLIK SHARTLARI**

**Mardiyev Rasul**

**Jumanov Xudoyor Shuxrat o‘g‘li**

Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya:** Siljish yo‘nalishni o‘zgartuvchi bo‘lgan holda siljishli funksional operatorlarning  $H_\mu(\Gamma)$ ,  $0 < \mu < 1$  Gyolder fazosining qism fazosi bo‘lgan

$$H_\mu^0(\Gamma, \Lambda) = \{ \varphi \in H_\mu(\Gamma) : \varphi(\tau) \in N_0 \}$$

fazoda bir tomonlama teskriylanuvchanlik kriteriysi olingan. Bu yerda  $\Gamma$ - sodda silliq yopiq kontur  $\alpha$  -  $\Gamma$  konturni o‘ziga akslantiruvchi diffeomorfizm (siljish)  $\Lambda$ -  $\alpha_2(t) = \alpha(\alpha(t))$  siljishning qo‘zg‘almas nuqtalari to‘plami,  $\Phi = \text{supp}[\tau - \alpha_m(\tau)]$  -  $\Gamma$  konturning  $\alpha_2(\tau) \neq \tau$  shartni qanoatlantiruvchi nuqtalar to‘plamining yopig‘i,  $N_0 = \{ \Lambda \cap \Phi \}$ .

**Kalit so‘zlar:** Diffeomorfizm, siljishli funksional operator, bir tomonlama teskriylanuvchanlik shartlari, yo‘nalishni saqlovchi bo‘lgan siljishli funksional operatorlar, o‘ngdan (chapdan) teskriylanuvchanlik,  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  va  $(H_\mu^0(\Gamma, N_0))^2$  fazolar,  $\mathfrak{d}(\mathfrak{m})$  - normallanganligi,  $B(\mathbb{C})$  operator

$\Gamma$ - sodda silliq kontur,  $\alpha$  -  $\Gamma$  konturni o‘ziga akslantiruvchi diffeomorfizm (siljish) bo‘lsin.

Bizga ma‘lumki (masalan, [1], 24-29-betga qarang) yo‘nalishni o‘zgartuvchi siljish albatta ikkita  $z_1$  va  $z_2$  qo‘zg‘almas nuqtaga ega bo‘ladi.

$\Gamma$  konturning  $z_1$  va  $z_2$  nuqtalarni  $z_1$  nuqtadan  $z_2$  nuqtaga musbat yo‘nalishda olingan yoyni  $Y_1$  orqali belgilaymiz,  $Y_2 = \Gamma \setminus Y_1$

Bu ishda Gyolder fazolarida quyidagi ko‘rinishdagi siljishli funksional operatorning bir tomonlama teskarilanuvchanlik shartlari o‘rganiladi

$$A = a(t)I - b(t)W \quad (1)$$

bu yerda  $a(t), b(t) \in H_\mu(\Gamma)$ ,  $I$  – birlik operator,  $W$ - siljish operatori:  $(W\varphi)(t) = \varphi[\alpha(t)], t \in \Gamma$ .

$A$  operatorni  $\alpha(t)$  siljish yo‘nalishni o‘zgartuvchi bo‘lgan holda o‘rganish bu operatorni yo‘nalishni saqlovchi bo‘lgan  $\alpha_2(t) = \alpha(\alpha(t))$  siljishli funksional operatorlarni o‘rganishga keltiriladi.

Faraz qilaylik  $\alpha_2(t)$  siljish ixtiyoriy sondagi qo‘zg‘almas nuqtalarga ega bo‘lsin. Qo‘zg‘almas nuqtalar to‘plamini  $\Lambda$  orqali belgilaymiz.

$\Phi = \text{supp}[\tau - \alpha_m(\tau)]$  orqali  $\Gamma$  konturning  $\alpha_2(\tau) \neq \tau$  shartni qanoatlantiruvchi barcha nuqtalar to‘plamining yopig‘ini belgilaymiz.

$N_0 = \{ \Lambda \cap \text{supp}[\tau - \alpha_m(\tau)] \}$  bo‘lsin.

$H_\mu^0(\Gamma, N_0) \stackrel{\text{def}}{=} \{ \varphi \in H_\mu(\Gamma) : \varphi(\tau) = 0, \tau \in N_0 \}$  fazoda  $A$  operatorni qaraymiz.

[2] adabiyotdagi 2.3-lemmaga asosan quyidagi tasdiq isbotlanadi.

**1-lemma:**  $A$  operator  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan (chapdan) teskarilanuvchi bo‘lishi uchun

$$\tilde{A} = \begin{pmatrix} a(t)I & -b(t)I \\ -b(\alpha(t))W^2 & a(\alpha(t))I \end{pmatrix}$$

operatorning  $(H_\mu^0(\Gamma, N_0))^2$  fazoda o‘ngdan (chapdan) teskarilanuvchan bo‘lishi zarur va yetarli

$A$  operator uchun quyidagi tasdiqlarni isbotlaymiz.

**2-lemma:**  $A$  operator  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan teskarilanuvchi bo‘lsa, u holda

$$\inf_{t \in \Gamma} \{ |a(t)| + |b(t)| \} > 0 \quad (2)$$

tengsizlik o‘rinli.

**Isboti:** Agar (2) tengsizlik o‘rinli bo‘lmasa, u holda shunday  $t_0 \in \Gamma$  nuqta topilib  $a(t_0) = b(t_0) = 0$  tenglik o‘rinli bo‘ladi. U holda  $\tilde{A}$  operator uchun quyidagi munosabat o‘rinli

$$\begin{pmatrix} aI & -bI \\ -b(\alpha)W^2 & a(\alpha)I \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} |t-t_0|^\mu I & 0 \\ 0 & I \end{pmatrix} \begin{pmatrix} |t-t_0|^{-\mu} a\Pi_{t_0} & -|t-t_0|^{-\mu} b\Pi_{t_0} \\ -b(\alpha)W^2 & a(\alpha)I \end{pmatrix} \quad (3)$$

bu yerda  $(\Pi_{t_0}\varphi)(t) = \varphi(t) - \varphi(t_0)$ . Ko‘rinib turibdiki

$$Y = \begin{pmatrix} |t-t_0|^{-\mu} a\Pi_{t_0} & -|t-t_0|^{-\mu} b\Pi_{t_0} \\ -b(\alpha)W^2 & a(\alpha)I \end{pmatrix}$$

operator  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chegaralangan va 1-lemmaga asosan  $\tilde{A}$  operator o‘ngdan teskarilanuvchi. Demak, u  $\mathfrak{d}^*$ -normal operator bo‘ladi. U holda (3) dan ([3]. 195-bet)

$$E = \begin{pmatrix} |t-t_0|^\mu I & 0 \\ 0 & I \end{pmatrix}$$

operatorning  $(H_\mu^0(\Gamma, N_0))^2$  fazoda  $\mathfrak{d}$ -normalligi kelib chiqadi.  $E$  operator diagonal ko‘rinishda bo‘lganligi uchun  $\mathfrak{d}$ -normalligidan  $K = |t-t_0|^\mu I$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda  $\mathfrak{d}$ -normalligi kelib chiqadi. Ammo ossonlik bilan ko‘rish mumkinki bu operatorning  $\mathfrak{d}$ -normalligi uning o‘ngdan teskarilanuvchanligiga ekvivalent. Ma‘lumki  $K$  operator o‘ngdan teskarilnuvchan emas. Bu qarama-qarshilik lemmani isbotlaydi

Agar (2) shart bajarilsa, u holda shunday  $g(t) \in H_\mu(\Gamma, N_0)$  funksiya topilib,  $\Gamma$  konturning barcha nuqtalarida  $f(t) = a(t)g(t) + b(t) \neq 0$  shart bajariladi va  $\tilde{A}$  operatori

$$\tilde{A} = \begin{pmatrix} I & 0 \\ -(WbWgI + WaW^{-1})f^{-1}I & -f^{-1}(aa(\alpha)I - b(\alpha)b(\alpha_2))ff^{-1}(\alpha_2)W \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} aI & -bI \\ I & gI \end{pmatrix} \quad (4)$$

ko‘rinishda tasvirlash mumkin. Ixtiyoriy  $t \in \Gamma$  uchun  $f(t) \neq 0$  bo‘lganligi uchun (4) ning ikkinchi ko‘paytuvchisi teskarilanuvchi. Demak,  $\tilde{A}$  operatorning o‘ngdan teskarilanuvchanligi

$$\tilde{B} = a(t)a(\alpha(t))I - b(\alpha(t)) \cdot B(\alpha_2(t))f(t)f^{-1}(\alpha_2(t))W$$

operatorning o‘ngdan teskarilanuvchanligiga ekvivalent bo‘ladi.

$W^2 = W_{\alpha_2}$  va  $\alpha_2$   $\Gamma$  konturning yo‘nalishini saqlaganligi uchun [4] ishdagi teoremdan foydalanib,  $\tilde{B}$  operator  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan teskarilanuvchanligi  $B = a(t)a(\alpha(t))I - b(\alpha(t))b(\alpha_2(t))W^2$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan teskarilanuvchanligiga va (2) shartning bajarilishiga ekvivalent ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Endi  $A$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchanlik shartlarini <sup>62</sup> o‘rganamiz.

**3-lemma:**  $A$  operator  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchi bo‘lsa, u holda

$$\inf_{t \in \Gamma} \{ |a(\alpha(t))| + |b(t)| \} > 0 \quad (5)$$

tengsizlik o‘rinli.

**Isboti:** Faraz qilaylik (5) tengsizlik o‘rinli bo‘lmasin, u holda shunday  $t_0 \in \Gamma$  nuqta topilib  $a(t_0) = b(t_0) = 0$  tenglik o‘rinli bo‘ladi va  $\tilde{A}$  operator uchun quyidagi munosabat o‘rinli

$$\tilde{A} = \begin{pmatrix} aI & b(t)|t - t_0|^{-\mu}\Pi_{t_0} \\ -b(\alpha)W^2 & a(\alpha)|t - t_0|^{-\mu}\Pi_{t_0} \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} I & 0 \\ 0 & |t - t_0|^\mu I \end{pmatrix} \quad (6)$$

bu yerda  $(\Pi_{t_0}\varphi)(t) = \varphi(t) - \varphi(t_0)$ .

$A$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchanligi  $\tilde{A}$  operatorning  $(H_\mu^0(\Gamma, N_0))^2$  fazoda chapdan teskarilanuvchanligiga (1-lemmaga asosan) aekvivalent bo‘lganligi uchun (6) dan

$$E_1 = \begin{pmatrix} I & 0 \\ 0 & |t - t_0|^\mu I \end{pmatrix}$$

operatorning  $(H_\mu^0(\Gamma, N_0))^2$  fazoda  $\mathfrak{m}$ - normallanganligi ([3]. 196-bet) kelib chiqadi.

Ammo  $E_1$  operatorning  $(H_\mu^0(\Gamma, N_0))^2$  fazoda  $\mathfrak{m}$ - normallanganligidan

$K = |t - t_0|^\mu I$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda  $\mathfrak{m}$ - normallanganligi kelib chiqadi.

Ammo ossonlik bilan ko‘rish mumkinki  $K$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda  $\mathfrak{m}$ - normalligi uning chapdan teskarilanuvchanligiga ekvivalent. Ma’lumki  $K$  operator

\*Agar  $A$  operatorning obrazi yopiq va koyadrosi (yadrosi) chekli o‘lchovli bo‘lsa, u holda  $A$  operator  $\mathfrak{d}$  ( $\mathfrak{M}$ ) normal deyiladi

$H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchi emas. Bu olingan qarama-qarshilik lemmani isbotlaydi.

Ossonlik bilan ko‘rish mumkinki (5) shart bajarilganda shunday  $p(t) \in H_\mu(\Gamma)$  funksiya topilib  $\Gamma$  konturning barcha nuqtalarida  $\varphi(t) = p(t)a(\alpha(t)) + b(t) \neq 0$  shart bajariladi va  $\tilde{A}$  operatorni quyidagicha tasvirlash mumkin

$$\tilde{A} = \begin{pmatrix} p(t)I & -b(t)I \\ I & a(\alpha(t))I \end{pmatrix} \begin{pmatrix} \varphi^{-1}(aa(\alpha))I - bb(\alpha)W^2 & 0 \\ -\varphi^{-1}(a)I + pb(\alpha)W^2 & I \end{pmatrix} \quad (7)$$

$\Gamma$  konturning barcha nuqtalarida  $\varphi(t) \neq 0$  bo‘lganligi uchun (7) dagi birinchi ko‘paytuvchi teskarilanuvchi. Demak,  $\tilde{A}$  operatorning chapdan teskarilanuvchanligi  $\mathbb{C} = aa(\alpha)I - bb(\alpha)W^2$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchanligiga ekvivalent bo‘ladi. Natijada  $A$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchanligi  $\mathbb{C}$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda chapdan teskarilanuvchanligiga va (5) shartning bajarilishiga ekvivalent ekanligini olamiz.

Shunday qilib biz quyidagi teoremaning o‘rinli ekanligini isbotladik.

**1-teorema:**  $A$  operator  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan (chapdan) teskarilanuvchi bo‘lishi uchun  $B(\mathbb{C})$  operatorning  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan (chapdan) teskarilanuvchi bo‘lishi va (2)((5)) shartning bajarilishi zarur va yetarli.

Endi  $B(\mathbb{C})$  operatorni  $H_\mu^0(\Gamma, N_0)$  fazoda (2)((3)) shartlar bajarilganda o‘rganamiz. [4] ishdagi belgilashlardan foydalangan holda quyidagi belgilashlarni kiritamiz.  $u(t), a(t), b(t)$  funksiyalari uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$u_\pm(t) = \lim_{n \rightarrow \pm\infty} u(\alpha_n(t)) \cdot u(\alpha_{n+1}(t)), h_\pm(t) = |a_\pm(t)| - |\alpha'_\pm(t)|^{-\frac{1}{p}} |b_\pm(t)|,$$

$$\Gamma_1 = \Gamma \setminus \Phi, \Gamma_2 = \{t \in \Phi: h_\pm(t) > 0\}, \Gamma_3 = \{t \in \Phi: h_\pm(t) < 0\},$$

$$\Gamma_4 = \{t \in \Phi: h_+(t) < 0 < h_-(t)\}, \Gamma_5 = \{t \in \Phi: h_+(t) > 0 > h_-(t)\},$$

$$v_A(t) = \begin{cases} a(t)a(\alpha(t)) - b(t)b(\alpha(t)), & t \in \Gamma_1 \\ a(t)a(\alpha(t)) & , t \in \Gamma_2 \\ b(t)b(\alpha(t)) & , t \in \Gamma_3 \\ 0 & , t \in \Gamma \setminus \bigcup_{i=1}^3 \Gamma_i \end{cases}$$



$B(\mathbb{C})$  operatorlar to‘g‘ri siljishli (yo‘nalishni saqlovchi) operatorlar bo‘lganligi uchun [4] ishdagi teorema isbotiga o‘xshash quyidagi teoremani isbotlash mumkin.

**2-teorema:**  $A$  operator  $H_{\mu}^0(\Gamma, N_0)$  fazoda o‘ngdan (chapdan) teskarilanuvchi bo‘lishi uchun

$$v_A(t) \neq 0, \forall t \in \Gamma \setminus \Gamma_4 \quad (\forall t \in \Gamma \setminus \Gamma_5) \quad (8)$$

va  $\Gamma_4$  ( $\Gamma_5$ ) to‘plamda

$(\forall t \in \Gamma_4) (\exists k_0 \in \mathbb{Z}) k \geq k_0$  bo‘lganda  $b(\alpha_k(t)) \neq 0$

$k < k_0$  bo‘lganda  $a(\alpha_k(t)) \neq 0$

(mos ravishda

$(\forall t \in \Gamma_5) (\exists k_0 \in \mathbb{Z}) k < k_0$  bo‘lganda  $b(\alpha_k(t)) \neq 0$

$k > k_0$  bo‘lganda  $a(\alpha_k(t)) \neq 0$ ).

shartlarning bajarilishi zarur va yetarli.

### Adabiyotlar

1. Литвинчук Г.С. Теория Нетера системы сингулярных интегральных уравнений со сдвигом Карлемана и комплексно сопряженными неизвестными //Изв. Мат., 1967.Т.31.-№3: -С. 563-586
2. Карлович Ю.И., Кравченко В.Г. Системы сингулярных интегральных уравнений со сдвигом//Матем. Сб. , 1981. –Т. 116(158). -№I(9). –С. 87-110.
3. Гохберг И.Ц., Крупник Н.Я. Введение в теорию одномерных сингулярных операторов. Кшинев: Штиница, 1973. -426 с.
4. Jumanov.X. Funktsional operatorlarning Gyo‘l’der fazosida bir tomonlama teskarilanuvchanlik shartlari//tezis. 2022-yil 22-fevral kuni O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan “ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI”

## ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИДА МИЛЛИЙ ОХАНГЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

**Алимова Мохинур Хушниджон қизи**

Наманган давлат университети 1-курс магистранти

### Аннотация

Хозирги кунда Ўзбекистон бастакорлар ижодини кузатиб бориб шуни сезиш мумкин-ки, ўзбек халқининг дурдонаси бўлмиш мақомлардаги, халқ куй-қўшиқларидан, ялла-лапарларидан бахшичилик санъатидан илхом олиб ўз асарларида акс эттиришмоқда. Ушбу асарлар орқали миллий қадриятларимиз қисми бўлган мусиқа санъати миллий оханглар ҳар томонлама ривожланиб бормоқда.

Мақсадимиз келгуси авлодга миллий мусиқа санъатимизни чиройли жилолантириб, бус-бутун етказиб бериш, ўзбек композиторлари асарларининг хорижий мамлакатлар сахналарида янграшини таъминлаш, ўзаро алоқаларни мустаҳкамлаш ва санъат орқали дўстлик алоқаларини мустаҳкамлашдан иборат. Калит сўзлар: Миллий оханг, мусиқа, болалар қўшиқлари, президент қарори, умумтаълим мактаб, бошланғич синф, Шермат Ёрматов, кўрсатув ва радио эшиттиришлар.

**Калит сўзлар:** мусиқанинг ўзида, куй, сўз, тембр, лад, ритми. Болаларга хос ва мос куй ва қўшиқларимиз. Умумтаълим мактаблари бошланғич синф ўқувчиларига мусиқа тарбияси беришнинг асосий вазифалари. Ўзбекистон мусиқа санъатини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш.

“Давлатнинг куч-кудрати унда қандай мусиқа янграёганлигига тўғридан-тўғри боғлиқдир”, – деб айтиб ўтган Афлотун. Мен бу жумлаларни бежиз келтириб ўтмадим хозирги пайтда жуда кўплаб енгил-елпи қўшиқлар кўпайиб кетди ва бунинг таъсирида кўплаб ёшларимиз шу қўшиқларнинг ортидан эргашишмоқда ва ўз ўзидан миллий охангларимиз бир четда қолиб кетмоқда. Бунинг ечимини

қандай бартараф этса бўлади деган савол барчада туғилиши турган гап. Менинг фикримча болаларга ёшлигидан (боғча, мактаб) лардан бошлаш керак. Болалар боғчаларида турли хил ўйинлар тарзида (“оқ теракми - кўк терак”, “бойчечагим бойланди”.....). Болаларга хос ва мос куй ва кўшиқларимиз жуда ҳам талайгина. Умумтаълим мактаблари бошланғич синф ўқувчиларига музика тарбияси беришнинг асосий вазифаларидан бири музикага хавас уйғотиш, музиканинг ҳаётий мазмунини тушунишни шакллантиришдан иборатдир.

Юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев 2022/ 2023-ўқув йилидан бошлаб умумий ўрта таълим муассасаларида ўқувчиларга миллий музика чолғуларидан камида биттасини чала олиш махорати ўргатилади ва уларнинг шаходатномасида қайд этилиши ҳақида президент қарори ишлаб чиқилиши ҳам бежиз эмас албатта. Биринчи синфдан бошлаб ўқувчиларни музикага қизиқтириб бориш учун энг аввало ўқитувчи болаларни севиши, дарсга яхши тайёргарлик кўриши, музика ўқитишнинг барча метод ва тамойилларидан тўғри фойдалана олиши. ширинсўз бўлмоқлиги, болаларга хос кўшиқларни майин чиройли болалар овозига мослаб ижро этишга ўргатишлари талаб этилади. “Булбулча” болалар хори бадий раҳбари, композитор, педагог Шермат Ёрматовга “болалар музика тарбиясида қандай юқори натижаларга эришиш мумкин деган саволга Ш.Ёрматов шундай жавоб берганлар: “Асосий сабаб, асосий сир музиканинг ўзида, куй, сўз, тембр, лад, ритм гўзаллиги болаларни ўзига мафтун этади, ижодга, артистлик санъатига бўлган қизиқишни уйғотади. Кейин, мен ҳеч қачон болаларни уришмайман, балки уларни сабр-тоқат билан, диққат билан тинглаб, ҳар бирига мос тарзда алоҳида ёндашишга ҳаракат қтламан, қолган барча ишни музиканинг ўзи, унинг ажойиб, буюк қудрати амалга оширади” деб жавоб берганлар устозимиз. Уларнинг болалар учун жуда кўплаб куй-кўшиқлари бор ва ҳозирги пайтда ҳам болажонларимиз севиб ижро қилишади. Болаларни мафтун қилишининг асосий сабабларидан бири улар қувноқ ва ранг баранглилиги билан ажралиб туради. “Дадамларга ўхшасам”, “Ўйнадик ҳеч тўймадик”, “Ўн бештамыз беш олдик”, “Айёмларинг муборак”, “Баҳор”, “Ғилдирагим”, “Нурли авлод”, “Онажоним”, “Оймоможон ром бўлди”,

“Хўрозим”, “ Сумалак “ , “Умиджон полвон” ва х.к ва кўплаб бошқа кўшиқлар Ш.Ёрматов қаламига мансуб. “Қўшиғим, жон кўшиғим”, “ Биргшаликда куйлаймиз” телекўрсатувлари, “Қўшиқ сеҳри” радиоэшиттиришлари алоҳида эътиборга лойиқ. Мазкур кўрсатув ва эшиттиришларда Ш.Ёрматов мусиқанинг, сўзнинг улуғвор қудрати хақида гапиради ва болажонларга ўргатади. Бу кўрсатув ва эшиттиришлар кўплаб мусиқа ўқитувчилари мусиқа тарбиячилари учун амалий ёрдам ва катта услубий қўлланма бўлди десак янглишмаган бўламиз. Ушбу кўрсатувларни тарбиячилар дафтарларига, флешкаларига ёзиб олиб бемалол фойдалансалар ва ёш авлодга ўргатсалар булади. Жаҳон маданияти таркибида ўз мавқеини кун сайин мустахкамлаб бораётган Ўзбекистон мусиқа санъатини янада ривожлантириш, такомиллаштириш мавжуд камчиликларини жадал бартараф этиш зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари;
2. Қодиров Р.Ғ “ Мусиқа педагогикаси” Тошкент-2012;
3. Т.Ғофурбеков “Ўзбекистон мусиқа маданияти” Мусиқа нашриёти, Тошкент-2019.

УДК: 616.2-056.43-085

UDC: 616.2-056.43-085

## ОЦЕНКА ДИНАМИКИ РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ПРИ РЕСПИРАТОРНЫХ АЛЛЕРГОЗАХ

Д.Т.Бобоева, Н.Б.Саидвалиева

Магистр 3 года обучения, по специализации аллергология и клиническая иммунология в Ташкентской Медицинской Академии, Ташкент

E-mail: [gulnar59@internet.ru](mailto:gulnar59@internet.ru)

### Аннотация

Pedagog barcha vaziyatlarda ham oʻz faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda oʻz bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, ilgʻor xorijiy pedagogik tajribalar, metod va usullarni muntazam oʻrganib, pedagogik kasbiy bilim va koʻnikmalar hamda shaxsiy sifatlarga ega boʻladi va uning amaliy faoliyati davomida zarur kompetensiyalari rivojlanadi. Har qanday ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning metodologiyasi tanlab olinadigan gʻoyalar, nazariya va yondashuvlar asosida oʻrganiladigan hodisa va jarayon mohiyati talqin qilinishida oʻz ifodasini topadi, obyekt toʻgʻrisidagi tasavvurlar modellashtiriladi, uni samarali rivojlantirishning mexanizmlari, vosita va pedagogik shart-sharoitlari aniqlanadi. Bunda pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligidan kelib chiqib, u yoki bu gʻoyani ifoda etishda unga asos boʻladigan yoʻnalishlardan biri tizim va tizimli yondashuvga alohida eʼtibor qaratildi. Pedagogika sohasida olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijasida tizim tushunchasining mohiyati oʻrganildi. Tizim maʼlum bir yaxlitlikni hosil qiluvchi, bir-biri bilan maʼlum bir munosabat va bogʻlanishlarda boʻlgan elementlar majmuasi.

Pedagog bilimdonligining 3 turi ajratiladi: - Ijtimoiy bilimdonlik Dars mobaynida auditoriya bilan samarali oʻzaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va sogʻlom maʼnaviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

- Uslubiy bilimdonlik Barcha bilimlarni, koʻrgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, taʼlim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati.

- Professional bilimdonlik O'z fanini va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

### **O'qituvchi-yangilik kirituvchi**

Yangiliklarni ayniqsa o'zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib yetadi;

Yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli;

Yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo'llay oladi va kamchiliklarini to'g'rilaydi;

O'z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ожегов. С. Словарь русского языка. – Москва: Русский язык, 1999. – 248 с.
2. Брюховецкая Е.В. Анализ понятий «Профессиональная компетентность» и «Профессионально-педагогическая компетентность» // матер. XXV междунар. науч.-практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2013.
3. Ломакина Г.Р. Педагогическая компетентность и компетенция: проблемы терминологии. Материалы Междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2012 г.). М.: Буки-Веди, 2012. С. 276-279.



## PEDAGOGIK JARAYONDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSIYALAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

**Maxmudov Abdurasul Nosirjon o'g'li**

Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish asoslari ko'rsatib o'tilgan. “innovatsiya” va novatsiya tushunchalariga tavsif berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya novatsiya, xorijiy tajribalar, yangi g'oyalar, “Rim klubi” noan'anaviy yondashuvlar, integratsiya, innovatsion ta'lim.

## INNOVATIONS IN THE PEDAGOGICAL PROCESS AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE

**Mahmudov Abdurasul Nosirjon, NamSU**

**Annotation :** the article shows the basics of effective use of innovative technologies in the educational process. The concepts of “innovation” and innovation are described.

**Key words:** innovation, novation, foreign, experiences, new ideas, “Roman Club” non-traditional approaches, integration, innovative education.

## ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ И ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

**Махмудов Абдурасул Носиржонович, НамГУ**

**Аннотация:** в статье показаны основы эффективного использования инновационных технологий в образовательном процессе. Описаны понятия «инновация» и новация.

**Ключевые слова:** инновации, новации, зарубежный опыт, новые идеи, «Римский клуб», нетрадиционные подходы, интеграция, инновационное образование.

Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra shaxsga individual yondashuv masalasini ilgari suradi. Shaxsning individualligiga asoslanish uning faolligini oshirish, qobiliyatlarining to'laqonli namoyon bo'lishini ta'minlash, ma'naviy-axloqiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish sanaladi. Shu bilan birga innovatsion xarakterdagi pedagogik texnologiyalar har bir shaxs uchun tanlash va erkin rivojlanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish tizimiga rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalarini to'laqonli tatbiq etilishini asoslaydi. Mazkur ta'lim asosida shaxsni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatish, individual rivojlantirish maqsadi ilgari suriladi. Natijada ta'lim jarayoni o'z-o'zidan ko'p darajali, tabaqalanishga asoslanib boradi.

An'anaviy ta'lim g'oyalariga ko'ra talabalarga bir xil talab qo'yilgan va uning bajarilishi majburiylik kasb etgan bo'lsa, endilikda har bir talabaning imkoniyati, qobiliyatiga tayangan holda “o'z rivojlanish hududi”ni yaratish ta'minlanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, har bir talabaning imkoniyati, qobiliyati har tomonlama, chuqur o'rganilgan holda uning uchun istiqbol individual rivojlanish dasturi ishlab chiqiladi.

Innovatsion texnologiyalar ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning mahsuli bo'lib, ular “pedagogika” va “texnologiya” tushunchalarining o'zaro integratsiyasi asosida paydo bo'lgan.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga nisbatan katta talab qo'yilmoqda. Jamiyatda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj mavjud bo'lgan, uni qondirish masalasi tobora dolzarflik kasb etayotgan bir vaqtda kafolatlangan ta'lim xizmatlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kafolatlangan, samarali natijaga asoslangan ta'lim tizimigina malakali kadrlarni tayyorlab bera oladi.

Shu sababli ayni vaqtda pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish, innovatsion xarakterdagi texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim amaliyotida samarali, faol qo'llash talab etilmokda. O'rni kelganda aytib o'tish lozim, tarbiya jarayonining mohiyatini yoritadigan, shaxs tarbiyasini tashkil etishda samarali bo'lgan innovatsion texnologiyalar hali yetarli darajada ishlanmagan. Mavjud texnologiyalarning ayrimlarida esa aniqlik yetishmaydi. Qolaversa, pedagogning mahoratiga, yuksak darajada kasbiy kompetentlikka ega bo'lishiga nisbatan talablar keskin oshib bormoqda. Shu sababli bugungi kun o'qituvchisi nafaqat o'zini ruhan boshqara olishi, notiqlik mahorati va boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan birga talabalarninig ruhiy holatini to'g'ri baholay olish iqtidoriga ham ega bo'lishi zarur. Mazkur zaruriyat o'z-o'zidan har bir o'qituvchining o'z ustida izchil mehnat qila olishini taqozo etadi.

Turli davrlarda ham pedagogik jarayon ijtimoiy taraqqiyot bilan uyg'un holda rivojlanar ekan, muayyan o'zgarish va yangilanishlarga nisbatan ehtiyoj sezgan. Innovatsion texnologiyalar bu boradagi ehtiyojni qondira olish imkoniyatiga egaligi bilan ahamiyatli sanaladi. Bu turdagi texnologiyalar ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish hamda tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Innovatsion xarakterga ega pedagogik texnologiyalarning amaliy-didaktik va texnik imkoniyatlari haqida so'z yuritish dastlab “innovatsiya” tushunchasi mohiyatini anglab olishni taqozo etadi.

Lug'aviy jihatdan **“innovatsiya”** (“innovation”) tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi: - yangi g'oyalar; - tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;- noan'anaviy yondashuvlar;- odatiy bo'lmagan tashabbuslar; - ilg'or ish uslublari.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.



Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Ular: Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq, modul va tizim innovatsiyalari.

Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
- 2.Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиуанов Е.Н., Педагогика. Москва, Академиуа, 2015.
- 3.О'.J.Yo'ldoshev Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2019

## УЧИНЧИ РЕНЕССАНС - ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ИНТЕГРАЦИЯЛАШГА ХОС ХУСУСИЯТЛАР

**Худоёрова Ойсоат Келдиёровна**

Тошкент тиббиёт академияси доценти, педагогика фанлари номзоди

**Холиқова Анора Абдисатторовна**

А.Авлоний номидаги илмий-тадқиқот институти магистранти

**Аннотация:** Мамлакатимизда сиёсий ислохотларнинг амалга оширилиши ва ҳуқуқий демократик давлатни қуриш, фуқаролик жамиятини шакллантириш масаласи акс этган. Шунингдек, ёшларнинг инсонпарварлик, ватанпарварлик ва фидойилик туйғусини кучайтиришда маънавий ахлоқий тарбияни амалга оширишнинг энг муҳим жиҳатлари тўғрисида илмий - амалий тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** Тарихий мерос, аждодлар ҳаёт тажрибаси, миллат ва жамият, комил инсон, ахлоқий етуклик, илм-маърифат, маънавий бойлик, ватанпарварлик.

Ўзбекистон халқининг кўп асрлик бой тарихига назар ташлар эканмиз, унда тараққиёт чуққиларини забт этишнинг машаққатли босқичларини кўриш мумкин. Бу босқичда давлатчилигимизнинг шаклланиши, жамиятда илму фан, санъат ва маданиятнинг юксалиши, буюк сиймоларнинг ўз ижодида эришган ютуқлари жаҳон тамаддунининг ривожига ҳисса қўшишдек ифтихорли жараёнлар гавдаланадики, ундаги улкан меросни ўзлаштириш ва амалиётга татбиқ этиш бугунги куннинг энг долзарб вазифасидир. Ўзбекистонда обод, эркин ва фаровон ҳаётнинг барпо этилиши Учинчи Ренессансни амалга ошириш, айтиш чоғда бу ўтмиш тарихимизнинг шонли саҳифалари, буюк аждодларимизнинг бунёдкорлик ва ижодкорлик салоҳияти билан боғланади.

Бизга мазкур тушунча кимларнинг ворислари эканимизни эслатиб туради. Ўтмиш ренессанслари даврида аجدодларимиз нималарга эришганини, жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссасини ёшлар онгига етказиш энг муҳим вазифадир. Шунингдек, “ёшларда Ватанга садоқат, тadbиркорлик, иродалилик, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибатлилик, масъулиятлилик, бағрикенглик, ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик каби муҳим фазилатларни болаликдан бошлаб босқичма-босқич шакллантириш”<sup>1</sup>. га жиддий эътибор берилди.

Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида “Бугун жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида сўз юритганда “Янги Ўзбекистон” ибораси тилга олинмоқда. Бу кейинги йилларда тараққиётнинг мутлоқо янги босқичига дам қўйганимиз, эришаётган залворли ютуқларимизнинг эътирофидир” дейдилар. Маълумки, Ўзбекистон буюк алломалар, фозилу фузолалар, сиёсатчилар, буюк саркардалар яшаб ўтган табаррук заминдир. Шу она заминда диний ва дунёвий илмларнинг асослари яратилган ва сайқал топган. Бугунги кунда ота боболаримизнинг асрлар давомида тўплаган тажрибалари, диний, ахлоқий, илмий қарашларини синчиклаб пухта ўрганиш асосида мустақил Ўзбекистонни буюк давлатлар қаторида қўриш, халқимизнинг фаровонлигини юксалтириш, юрт тингчилигини сақлаш энг улкан вазифадир. “Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим. Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз олдига катта марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш – барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимиз

халқимизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга айланади”.

Истиқлол ватандошларимиз онги ва тафаккурида қадимий анъаналар ва кадриятларимизни тиклаш имкониятларини очиб берди. Ўзбекистоннинг энг янги тарихида янги жамиятга ўтиш даврида сиёсий ислохотларнинг амалга оширилиши ва Ўзбекистонда ҳуқуқий демократик давлатни қуриш, фуқаролик жамиятини шакллантириш, мамлакатимизда ижтимоий сиёсий барқарорликни таъминлаш, иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш, маънавий руҳий миллий кадриятларнинг тикланишига доир масалалар худди шу янги босқичнинг мазмун ва моҳиятини ифодалайди. Бу борадаги ишларни янада кучайтириш, мустаҳкамлаш ва такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси таълим тўғрисидаги қонунининг қабул қилиниши катта аҳамиятга эгадир. Унинг 4-модда. Таълим соҳасидаги асосий принципларида - аълим ва тарбияга миллий ҳамда умуминсоний кадриятларнинг сингдирилганлиги; таълим ва тарбиянинг инсонпарварлик, демократик хусусияти; таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги; таълим тизимининг дунёвий хусусиятга эгаллиги; билимлилик, қобилиятлилик ва истеъдоднинг рағбатлантирилиши; таълим тизимида давлат ва жамоат бошқарувининг уйғунлиги; таълим фаолияти соҳасидаги очиқлик ва шаффофлик каби кўпгина муҳим жиҳатлар акс эттирилган. Шунингдек, 36 - модда. “Таълим соҳасидаги экспериментал ва инновацион фаолият таълимни модернизация қилиш мақсадида амалга оширилади ҳамда янги таълим технологиялари ва ресурсларини ишлаб чиқишга, уларни синовдан ўтказишга ҳамда таълим жараёнига жорий этишга қаратилган”. дейилади.

Бугунги кунда таълим сифатини юқори босқичга кўтариш ҳамда мавжуд муаммоларни ўз вақтида ҳал этиш талаб этилмоқда. Ўқув жараёнини ташкил этиш соҳасида ёўларнинг таълим олишида кучли мотивацияни шакллантириш педагогларнинг методик таъминотини яхшилаш муҳим ҳисобланади. Узлуксиз таълим тизимининг инновацион ривожлантириш, илғор халқаро тажриба ва жамиятнинг замонавий талабларига мувофиқ сифатли таълим олиш имкониятларини яратиш, таълим бозорида ва умуман мамлакатда ёшларнинг

рақобатбардошлик даражасини ривожлантириш асосида мамлакатимизнинг янгиланишини изчил давом эттириш-давр талабидир. Бунда айнан ҳозирги техник ва технологик янгиланиш йўлида муҳим устувор лойиҳаларни амалга ошириш бўйича ижодкор ёшларимизнинг фаол иштироки муҳим аҳамиятга эгадир. Таълим муассасалари ўқув-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш мақсадида янгича ёндашувларга асосланган илмий-амалий тавсифдаги изланишлар йўналишида замонавий таълим технологиялардан фодаланишни кучайтириш орқали ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этишни муваффақиятли амалга ошириш зарур.

Ёшларнинг илмий- ижодий, мустақил амалий фаолияти уларнинг янги ҳаёт ва жамият қурилишининг фаол иштирокчиларига айлантириш учун хизмат қилади. Ёшларимизнинг ҳар бири ўзи яшаётган жамияти, давлатининг бош ғоясини аниқ тасаввур этиши, билиши ва мустақил фаолият кўрсата олиши керак. Ана шундагина энг буюк мақсадларимиз ифодаси бўлган ғоялар уларнинг онги ва қалбидан жой олади, ишонч эътиқодига айланади. Инсонда эътиқод мустаҳкам бўлсагина у албатта ғоя, эзгу мақсад йўлидан чекинмайди. Бугунги ёшларимизни эзгуликка чорлаш, мустақил ижодий фикр юритишга ўргатиш, уларни ғоявий жиҳатдан вояга етишига имкон беради. Бу эса ўз ўрнида адолатли фуқаролик жамиятни барпо этишнинг асосий шarti ҳисобланади. Энг муҳими ёшларимизнинг эзгу фикр, ғоя ва амаллари уларнинг ёвуз фикр, тажоввузкор ғоянинг ҳар қандай кўринишига нисбатан ғоявий иммунитетини мустаҳкамлайди ҳамда эзгу, бунёдкор ғоялар билан яшашга, ўз фаолиятларини эркин фаровон ҳаётга йўналтира олишига кенг йўл очади. Ёшларимизнинг миллий мустақиллигимизни ривожлантириш йўлида фидойи бўлиши учун уларнинг онги ва тафаккури ривожига ижобий таъсир кўрсатиш, фикр ва қарашлари хилма хиллигига эришиш, эркин мустақил фикр юритишини шакллантириш бугунги кун таълим тарбия тизимида устувор мавқени эгаллайдики, бу мамлакат келажагига ишонч билан қараш туйғусини тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади. Энг муҳими ягона Ватан бахт саодати

йулида масъулият сезиб ўқиш, ишлаш ва яшашга имконият яратилади. Бу йўналишда айнан ўзбек халқи орзу – интилишларини рўёбга чиқарадиган буюк куч – ёшлардир. Миллий ва умуминсоний кадрятлар руҳида тарбия топган ёшларимиз замонавий демократик жамият куриш йўлида кенг қўламли ва мураккаб вазифаларни ҳал этишга кодир. Шунга кўра, ҳар жиҳатдан мукамал ривожланган инсонни тарбиялаш, янги авлодни вояга етказиш орқали буюк мақсадларимиз, эзгу ниятларимизга эришишимиз йўлида таълим - тарбия жараёнига янги педагогик технологияларни кенг қамровли ҳолатда олиб кириш ва ундан самарали фойдаланиш энг муҳим вазифалардан ҳисобланади. Таълим жараёнида “Интерфаол” усул воситасида ўрганилаётган мавзу бўйича қўйилган масала ва муаммолар ечими ижодий изланиш асосида ижобий натижаларни беради. Ҳар қайси дарс жараёнида қўлланилган илғор педагогик технологиялар ёшларнинг таълим-тарбия жараёнига нисбатан қизиқишини тарбиялайди, уларнинг меҳр- муҳаббат туйғусини уйғотади, мустақил ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантиради ҳамда ҳар томонлама етук, билимли, маънавиятли, баркамол ватанпарвар шахс сифатида тарбияланишига ёрдам беради. Шунга кўра, таълим тарбия самарадорлигини ошириш орқали ёшлар ижодий фаолияти, тафаккур тарзи, эркин фикр юритиши ва дунёқарашини шакллантиришга ҳамда ўқитувчиларнинг илғор педагогик технологиялар бўйича назарий ва амалий билимларини такомиллаштириш талаб этилади. Таълим тизимини модернизациялаш ва интеграциялаш жараёнларига хос хусусиятларига кўра, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти шароитида кучли демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлида ҳаётимизнинг ҳамма томонларини модернизациялашга нисбатан бўлаётган эътибор янада кучаймоқда. Хусусан, ижтимоий- иқтисодий жараёнларни қонунга таянган ҳолда оқилона самарали бошқариш, илғор замонавий технологиялар асосида рақобатга асосланган бозор муҳитини яратиш зарурдир.

Модернизациялаштиришнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у мужассамланган тавсифга эга бўлиб, ҳаётимизнинг ҳамма жиҳатлари ва жабҳаларини қамраб олади ва ижобий ўзгаришларни содир этади.

Модернизациялаштириш давомийликка хос бўлиб, кенг қамровли узлуксиз жараён бўлиб, у ҳар бир ривожланиш босқичида вазифаларига кўра янгиланиб боради ва унинг мақсади иқтисодий ривожланишни таъминлаш ва у орқали аҳолининг турмуш даражаси ва сифатини оширишдир. Шунга кўра, модернизациялаштиришнинг самарали амалга оширилиши иқтисодий ривожланиш динамикасида ижобий ўзгаришларни содир этади. Модернизациялаштиришда аввало инсон билими ва савиясини ошириш, дунёқараш ва тафаккурини ўзгартириш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Бунда инсоннинг касбий маҳорати, тўплаган билими, тажрибаси, соғлиги, психологик мотивлари, қобилияти, шахсий фазилатларига алоҳида эътибор бериладики, бу уларнинг самарали фаолиятини таъминлайди, шахсий ва касбий салоҳиятини оширади. Модернизациялаштириш инсоннинг тўплаган билим захираларига кўра уларнинг онглилиги ва мустақиллиги асосида муваффақиятли кечади, натижада иқтисодий ўсишнинг сифати ортади.

Энг муҳими миллий иқтисодиётни жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари тараққиёти даражасига олиб чиқиш, ҳаётимизнинг барча соҳаларини жадал ислоҳ этишга кенг йўл очади. Ўзбекистон танлаб олган йўл халқимиз манфаатларига мос бўлиб, ижтимоий жиҳатдан йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантиришга қаратилгандир. Бу борада иқтисодий масалаларни ижобий ҳал этиш йўллари янада яхши тушуниб олиш ва иқтисодий ўсиш, ривожланишнинг асосий вазифаларини янгича тафаккур билан муваффақиятли амалга оширишга масъулият билан ёндашиш долзарб бўлиб, бу ўз ўрнида иқтисодиётнинг турли соҳаларида бозор механизмларини самарали қўллаш орқали барқарор иқтисодий ўсишга олиб келади. Бунинг учун эса бозор шароитида ишлаш малакасига эга бўлган субъектларнинг иқтисодий, ҳуқуқий жиҳатдан маданиятлилиги, қатъий ишбилармонлиги ижодий изланувчанлиги, пухта билимдонлиги муҳим аҳамиятга эгадир. Маълумки, модернизация – замонавий янгиланиш ҳисобланади. Илм-фан, ишлаб чиқариш технологияларининг ривожланиши яъни модернизацияси туфайлигина жамиятнинг барқарор ривожланиши кафолатланади.

Жамиятни ижтимоий модеренизация қилиш ижтимоий тизимдан очик фукаролик жамиятига айлантиришга етаклайди. Жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий эҳтиёжларини, унинг малакали кадрларга, шахснинг эса сифатли таълим олишга бўлган талабини қондириш, таълим тизимини барқарор ривожланиши таъминлаш мақсадида мавжуд механизмини барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида –таълим тизимини модеренизация қилишда қўйидаги устувор вазифалар ҳал этилади яъни:

-узлуксиз таълим тизимида янги сифат кўрсаткичларига эршиш;

- таълим тизими ходимларининг касбий компетентлигини ривожлантириш;

-узлуксиз таълим тизимида самарали меъерий-ҳуқуқий ва ташкилий – иқтисодий механизмларини шакллантириш;

-ўқитишнинг мавжуд ва янги технологик шакллариини ўзаро мувофиқлаштириш;

-мавжуд электрон ахборот-таълим ресурсларини мукамаллаштириш. Умуман олганда, таълим тизимини модеренизация қилишдан кўзланган мақсад, шахснинг таълим марказида бўлиб, мустақил таълим олишлари, таълим берувчиларнинг ўз соҳасидаги билимларни пухта эгаллаган бўлиши, таълим олувчи ва таълим берувчилар ўртасида энг юқори самарага эришиш ва таълим тизими ривожланган давлатлар қаторига кириши, жамиятимизнинг равнақи учун хизмат қилиши назарда тутилади.

Маълумки, Ўзбекистон танлаб олган йўл халқимиз манфаатларига мос бўлиб, ижтимоий жиҳатдан йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантиришга қаратилгандир. Бу борада иқтисодий масалаларни ижобий ҳал этиш йўлларини янада яхши тушуниб олиш ва иқтисодий ўсиш, ривожланишнинг асосий вазифаларини янги тафаккур билан муваффақиятли амалга оширишга масъулият билан ёндашиш долзарб бўлиб, бу иқтисодиётнинг турли соҳаларида бозор механизмларини самарали қўллаш орқали барқарор иқтисодий ўсишга олиб келади. Бунинг учун эса бозор шароитида ишлаш малакасига эга бўлган субъектларнинг иқтисодий, ҳуқуқий жиҳатдан маданиятлилиги, қатъий ишбилармонлиги ижодий изланувчанлиги, пухта билимдонлиги муҳим



аҳамиятга эгадир. Инсонларнинг бахтли ҳаёт кечириши йўлидаги эзгу ишлари жамиятнинг моддий ва маънавий фаровонлигини оширишга қаратилгандир. Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистонда мустақилликнинг илк йилларидан бошлаб мулкдорлар синфини шакллантиришнинг асоси бўлган хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантиришга катта эътибор қаратиб келинмоқда. Бу ўз навбатида аҳоли бандлигининг ва изчил иқтисодий ривожланишнинг муҳим омили ҳамда мамлакатда ижтимоий-сиёсий барқарорликнинг кафолати ва тараққиётни фаол ҳаракатлантирувчи кучдир. Мамлакатимизда рақобат муҳити ишлаб чиқаришни техник ва технологик янгилаш ва модернизация қилиш, жаҳон бозорларига чиқиш йўлида ҳал қилувчи омил бўлиб хизмат қилади. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, маънавий баркамол инсон ўзининг қилган ишлари, ҳаёт ва турмуш тарзи билан бошқаларнинг ҳавасини уйғотади ҳамда ҳаётда из қолдиради. Энг муҳими, Ўзбекистон тақдири учун масъулият ҳисси ошади. Айниқса, Ватан олдидаги бурчини онгли англаган ҳолда ватанпарвар бўлиб етишади. Ватанпарварлик айтилиши вақтда инсонга янада масъулиятли бўлишни юклайди, уни ижод ва бунёдкорликка, шижоат ва ғайратга рағбатлантиради. Ўз ватанини севиш у билан фахрланиш, унинг бахт-саодати йўлида фаол фаолият кўрсатиш демакдир. Инсон ўз Ватанини севмаса, унга садоқат билан фарзандлик бурчини адо этмаса, у ҳақиқий инсон бўлиши мумкин эмас. Ватанпарварлик инсоннинг энг улуғ, энг олийжаноб ва энг муҳим фазилати, одамийликнинг том маънодаги ифодасидир. Шу боис, “Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари” дастурий ғоя асосида ёшларни она юртга садоқат руҳида тарбиялаш, уларда ташаббускорлик, фидойилик, ахлоқий фазилатларни шакллантириш-ўта шарафли вазифадир. Юртубошимиз ҳақи равишда таъкидлаганларидек: “Билимли авлод буюк келажакнинг, тадбиркор халқ фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир”.

Оламни бир бутун кўришни шакллантириш интеграциялашган таълимнинг мақсадини ташкил этади. Интеграцияланган дарсларни режалаштиришда билимлар бирлашади ва дарсларнинг бош мақсади аниқланади. Ўқув материалнинг мазмунида эса боғланишлар ўрнатилади. Интеграция

таълимнинг тизимлилик тамойилини қўллашга имкон беради, мантиқий фикрлашни ривожлантиради, ёшларнинг дунёкараши кенгаяди ва уларнинг пухта билим олиш имконияти пайдо бўлади ҳамда ижодкорлиги фаоллашади. Таълимда интеграция масалаларини муваффақиятли ҳал этишда куйидаги жиҳатларга жиддий эътибор бериш зарур ҳисобланади.

1. Ўқитувчи ва талабаларнинг фанлар интеграцияси бўйича ўзлаштирадиган назарий билим, кўникмаларини кучайтириш ва юқори даражада психологик-педагогик тайёргарлик орқали илмий-методик жиҳатдан самарадорликка эришиш.

2. Ўқитувчиларнинг фанлар интеграциясини амалга оширишининг дидактик асосларини яратиш асосида педагогик маҳоратини ошириш, дарс сифатини таъминлаш ва талабалар билиш фаолиятини пухта ташкил этиш орқали уларнинг ижодий имкониятларини кенгайтириш.

3. Узлуксиз таълим тизимида инновацион-интеграцион фаолиятни яхши йўлга қўйиш, фан, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни янада ривожлантириш ва мустаҳкамлаш, янги илмий изланишлар йўналишларини белгилаш, татбиқ этиш асосида билимларни фаол ўзлаштириш ва мантиқий фикрлаш мақсадга мувофиқдир. Интеграция ёшларнинг билимларини бир тизимга солади. Интегротив таълим жараёнининг муҳим жиҳати шундаки, унда ёшлар билимларни чуқур тушуниб ўзлаштиради ва маънавий юксалиб борадилар.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ КОНЦЕПЦИЯСИНИ ТАСДИҚЛАШ ВА УНИ АМАЛГА ОШИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА Тошкент ш., 2019 йил 31 декабрь, 1059-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.

3. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ ТАЪЛИМ ТЎҒРИСИДА  
Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Сенат  
томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ Тошкент ш., 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон
4. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Ўзбекистон Республикаси  
Президенти Шавкат Мирзиёевнинг асарлари ва маърузаларидан олинган  
фикрлар. Ёшлар нашриёт уйи. Тошкент-2019. 5-бет.



## MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TADQIQOT METODLARI

**Salixova Zulfizar Muzaffar qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim texnologiyalari kafedrası magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostikaning predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari va sub'ektlari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** diagnostika, pedagogik diagnostika, diagnostika tadqiqot usullari, kuzatish usuli, so'roq usuli

Har qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari boladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash, bosh yoki muvaffaqiyatli orinlarni belgilab olish – faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish pedagogik diagnostika deyiladi.

Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bolib, ilgor talim muasasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda, yutuqlar mustahkamlanib, yoʻl qoʻyilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida yosh strategik yonalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qolga kiritilmoqda. Savol tugʻiladi:

- bola qobiliyati, imkoniyat, bilimi, egallangan konikmalarining olchovi bormi?
- bolaning bilish va koʻnikmalarini belgilashga oqituvchu aralashgani maqulmi, yoki oziga-ozu baho bergani afzalroqmi?

Mana shu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish, pedagogik diagnostikaning **predmetidir**. Mana shu maqsadni royibga chiqarish yoʻl -yoriqlari, metodik

mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyat tarixi bilan deyarli tengdosh, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bo`lsa bu faoliyatning meyorlari va natijalarini belgilash ham shunchalik qadimiyydir. Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda tahlil etish va yo`lga qoyish XX asr boshlarida amalga oshirilgan. Taniqli pedagog olim Matserman pedagogik diagnostikani “Tarbiyalanuvchi o`zlashtirishi bilan o`quv materialini tog`ri tanlash maqsadni togri yonaltirish mezonidir” deb hisoblaydi. Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak, o`tgan asrlarda u faqat tarbiyalanuvchi bilimni baholash orqali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Reslar asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali oquvchi bilimni sinash tizimini tadbiiq etgan. Egallangan malakani aniqlashga kiritilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatning ayrim jihatlari:

- a) taqqoslash;
- b) pedagogik tahlil;
- c) avvaldan ayta bilish (prognoz);
- d) interpretatsiya ;
- e) pedagogik diagnostika natijalarini oquvchilarga etkazish;
- f) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni oquvchilarga yetkazish;
- g) pedagogik diagnostika metodlarini to`gri belgilashdan iborat bolgan.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriylari esa:

- haqqoniylik (obektivnost);
- ishonchlilik (nadyojnost);
- puxtalik (vidnost) asoslanadi

Pedagogik diagnostikaning tadqiqot metodlari:

1. kuzatuv
2. so`roqlash
3. test

**Kuzatuv metodi** – Pedagogik diagnostika kuzatuv uslubi tarbiyalanuvchining ta`lim-tarbiya munosabatini, masuliyatini, bilimga intilishini aniqlaydi. Tabiiyki,

tarbiyalanuvchidagi bunday hislatlarni belgilashda uning xarakteri, xulqi, butun ijtimoiy jihatlariga katta ahamiyat beriladi. Chunki, tarbiyalanuvchining bilim va ko'nikmalarini diagnostika qilishda shaxsiy, oilaviy, axloqiy ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi

So'roqlash metodi- mazkur uslub pedagogik diagnostikada qadim-qadimdan qo'llanib kelinadi. U deyarli ta'lim-tarbiya jarayoni boshlangandan buyon mavjud. Agar diagnostikaning kuzatish usulida bolaning axloqiy-manaviy tamoyillari, qiziqishi, munosabati, fikrlash doirasi o'rganilgan bo'sa, suhbat. Savol-javob koproq axborot toplash imkoniyatini beradi. Bunda u yoki bu shaxs to'grisida obyektiv yoki subyektiv ma'lumot olish imkoniyati mavjud. Axborot – og'zaki, yozma, standartlashtirilgan, yakka, guruhlarga bo'lingan holda bir yoki bir necha bor sor'ash asosida to'planadi.

Test metodi- odatda tekshiruvchi tomonidan amalga oshirilgan barcha nazorat shakl va uslublari ham testga kiradi. Nazoratning test uslubi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u malum talab, qonun-qoidalar zaminida olib boriladi. Test asosan psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tavsiya etilgandir. Test pedagogik diagnostika metodlari orasida eng qulay hisoblanib, u bir jihatdan sifatli malumot berishi bilan ajralib turadi. Test sinovi mutzam takomillashib boradi. Unga turli bosqichlarda turlicha tarif berib kelingan. Masalan, nemis oilimi Liner “Test shaxsning turli holatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniya va qobiliyatini aniqlovchi ilmiy metoddir” deb tariflaydi. Test usuli chinakamiga pedagogik diagnostika metodi bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining pirovard natijasini obyektiv aniqlab berishga qodir mezondir. U doimo tahlil asosiga qurilib, aynan shu xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayon natijalarinig takomillashib borishiga yordam beradi. Pedagogik diagnostikada amal qilayotgan test sinovlari hududiy diagnostikani yo'lga qo'yishda ham katta imkoniyat va qulayliklarga ega. Pedagogik diagnostikani talim sohasining istalgan sohasini tahlil qilishda ham joriy etish mumkin. Tahlil natijalari esa har qanday baxs va munozaralardan xolidir.

Budan kelib chiqadigan amaliy xulosa shuki, kamchilik va nuqsonlardan to`gri amaliy xulosalar chiqarish, faoliyatning asosiy va to`gri yonalishni belgilab olish va ularni bartaraf qilishda sabot bilan islash lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlarstrategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil7-fevraldagi PF-4947
2. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2017 yildagi PF-5198-son
3. “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.12.2016 yildagi PQ-2707-son
4. Nurkeldieva D.A Chicherina Ya.Ye Ilk maktabgacha yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogic va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi 2007y
5. John W. Jacobson, James A. AMulick and Johannes Rojahn. Intellektual and Development Disabilities. 2007 Springer Science+Bussines Media LLC New York

## “САНОАТ-4.0” ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИГА ТАДБИҚ ЭТИШНИНГ ТАЪСИРИ

**Муминов Достонбек Сайибназарович**

Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети

**Аннотация.** Мақолада "Саноат-4.0" дастурининг шаклланиши, унинг жаҳон иқтисодиётига таъсири, республикада қўлланилиши ҳақида сўз боради. Саноат 4.0 дастурини амалга оширишда содир бўлган ўзгаришлар тадқиқот натижаларида аниқланди ва батафсил баён қилинди.

**Калит сўзлар.** дастурни тармоққа тадбиқ этишда вужудга келадиган ўзгаришлар, саноат-4.0 дастури, тармоққа тадбиқ этиш.

**Мавзунинг долзарблиги.** Саноат-4.0 дастури рақамли иқтисодиётнинг ажралмас бўлакларидан бири бўлиб, саноат тармоғини жаҳон бўйича янги юксалиш томон етаклаб борди. Бу атама дунё иқтисодчилари форумида Германия экспертларининг изланиш натижаларига кўра Клаус Шваб томонидан киритилган бўлиб, бугун тренд даражасига чиқди. Саноат 4.0. бу тўртинчи саноат инқилоби бўлиб, унеча дунё иқтисодиёти учта инқилобни кечирган. Интернетни, ахборот технологияларини, мустақкам алоқа каналларини, булутли технологиялар ва рақамли платформаларни ривожланиши, шунингдек, турли манбалар ҳисобига ахборот ҳажмини юқори ўсиши, очиқ ахборотлар тизимини ва глобал саноат тармоғини шаклланишини таъминлаб беради. Бу ўз навбатида, ахборот технологияларининг сектори доирасида замонавий иқтисодиёт ва бизнеснинг барча жабҳаларига ўз таъсирини намоён қилди ва автоматлаштирилган саноатни юқори 4-саноатлашиш даражасига кўтарилишига сабаб бўлди. Бу погонанинг вазифаси Саноат-4.0 дастурини реализация қилишга сарфланади.



Саноат-4.0 дастурини реализация қилишнинг базавий йўналишлари қуйидаги қисмлардан иборат: рақамли моделлаштириш; интернетлашган саноат; тўлдирилган реаллик; булутли технологиялар; автоном ишлар; тизимларнинг горизонтал ва вертикал интеграцияси; ахборот хавфсизлиги; йирик ахборотлар ва бизнес таҳлили; қўшимча ишлаб чиқариш.

Саноат-4.0 нинг бу каби базис йўналишлари саноат-3.0 га қўшимча сифатида киритилса, саноат тармоғини бир поғона юқорига кўтариб янги тармоққа айлантиради.

**Муаммонинг ўрганилганлик даражаси.** Саноат-4.0 ва шу каби йўналишдаги тадқиқотлар билан хорижнинг етакчи олимлари шуғулланиб келмоқдалар. Хусусан, Ш. Клаус, Ж. Хертер, Ж. Отчарова, А. Рожко, И. Тарасов, Л. Лapidус, В. Купряновский, Ю. Плакиткин, А. Лисовский каби олимлар саноат корхоналарини рақамлаштириш ва смарт заводларни ишга тушириш механизмалари ва йўллари тўғрисида турли даражада изланишлар олиб боришмоқдалар.

**Методология.** Илмий мақолада кўтарилган масалаларни тадқиқ этиш, атрофлича ўрганиш, рақамларни таҳлил қилиш, таҳлил натижаларини тизимлаштирган ҳолда таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишда индукция, дедукция, кузатиш, қиёслаш, эксперт баҳолаш, мақсадли ривожлантириш каби тадқиқот усулларидан фойдаланилди. Таҳлил ва натижа. Саноат-4.0 жаҳон бизнесига тезлик билан кириб борди ва ривожланган давлатларнинг йирик лойиҳаларидан ўрин олган. Буни робототехника саноати савдосининг 74 фоизи беш давлат Хитой, Япония, Жанубий Корея, АҚШ ва Германия ҳисобига тўғри келишидан ҳам билиш мумкин.

2035 йилга қадар Германиянинг тасдиқланган Саноат-4.0 дастури энергетикада ақлли тармоқларнинг киберфизик тизимларини йўлга қўйиш, соғлиқни сақлашда телемедицинанинг киберфизик тизимларини жорий этиш, саноатнинг бошқа тармоқларида саноат ва ишлаб чиқаришни автоматлаштириш учун киберфизик тизимларни такомиллаштиришни кўзда тутди.

Ўзбекистонга Саноат-4.0ни тадбиқ этиш деярли ҳатарли тарафларга эга эмас. Шунингдек, бу дастурни тадбиқ этишнинг кучли томонлари билан ҳам фахрлана олмаймиз. Лекин, саноат-4.0ни тадбиқ этиш катта самара келтиради. Буни имкониятларнинг кенглигидан ҳам кўриш мумкин. Бирок, ушбу дастурни амалга оширишда жиддий заиф томонлар ҳам мавжуд бўлиб, аввало ушбу муаммоларни ҳал этишдан бошлаш керак.

Халқаро экспертлар 2017 йилдан буён Саноат-5.0 тўғрисидаги назарияларни илгари суриб келаётган вақтда Ўзбекистон саноатига 4- даражадаги саноатни тадбиқ этишни ўзи муаммолигича қолиб келмоқда. Ҳозирги кунда янги ташкил этилаётган саноат корхонларини ҳам Саноат-4.0 даражасида ишлайди деб айтиш қийин. Чунки, Саноат-4.0 ни тадбиқ этиш Республиканинг саноат кириб борган барча ҳудудида энг камида интернет 4G сифат билан ишлашни талаб қилади. Агар бундай саноат корхоналар кўпайиб борса, 5G интернетга ўтиш зарурати юзага келади. Лекин, Ўзбекистонда пандемия натижасида эълон қилинган карантин кўрсатдики, аҳолининг кўп қисмини бир пайитда интернетни ишлатиши натижасида интернет тезлиги пасайиб кетади. Бу ҳолат эса рақамли иқтисодиёт ёки уни бир қисми ҳисобланган Саноат-4.0 ни амалиётга тадбиқ этишда энг катта тўсиқлардан бири бўлади.

Таҳлиллар кўрсатадики, Республикадаги мавжуд саноат тармоғи технология жиҳатидан ўта даражада табақалашиб кетган. Ҳудудлардаги кузатишлар кўрсатадики, кўл меҳнатига асосланган саноат корхоналари, механизациялашган ва қисман автоматлашган саноат корхоналари ҳам бугунги кунда маҳаллий бозорга ўз маҳсулотларини таклиф этиб келмоқда. Асосийси ушбу саноат корхоналари ўзгариш учун эмас, балки ҳозирги ҳолатини ва бозордаги улуши ўзи учун етарли деб ҳисоблайди. Бу албатта ачинарли ҳолат. Чунки, бутун дунё янги саноат инқилобига ўтаётган бир даврда бозорларимиздаги аксарият маҳсулотлар механизациялашган ёки қўл меҳнатига асосланган ишлаб чиқариш корхоналарида яратилиб бозорга таклиф этилса, жаҳон бозоридаги рақобатни ўйламаса ҳам бўлаверади. Чунки, жаҳон

бозорининг 35 фоизи бугун саноат-4.0 даражасига чиқиб бўлган қолгани ҳам тўла автоматлаштирилган тизимда ишлаб чиқарилган маҳсулотлардан иборат.

**Хулоса ва таклифлар.** Олиб борилган кузатишлар ўрганилган адабиётлардан кўринадикки саноат-4.0 дастурини тармоққа тадиқ этиш миллий иқтисодиётда салбий ва ижобий ўзгаришларга олиб келадиган жараёнларни шакллантиради. Саноат-4.0 ни тадбиқ этиш қуйидаги салбий оқибатларга олиб келиши эҳтимоли мавжуд:

1. Иқтисодиётда ишсизлар сонининг ортади.
2. Саноат корхоналарининг технологик қуролланишида табақаланиш ортиб кетади.
3. Қўл меҳнатига асосланган, яъни ҳунармандчилик бозордан сиқиб чиқиб кетади. Унинг йўқолиб кетиш эҳтимоли жуда юқори. Бу ҳолатни иқтисодиёти ривожланган давлатларнинг тажрибаси кўрсатиб турибди.
4. Бозорда таклиф этиладиган товар ва хизматлар массасаси ҳаддан ташқари ортади.

Юқоридаги салбий тарафлар саноат-4.0 ни жорий этиш мутлақо янги иқтисодий структураини ташкил топшига ва инсонларнинг дунёқараши кескин ўзгаришига олиб келишин кўрсатмоқда.

Саноат-4.0ни тармоққа тадбиқ этиш қуйидаги ижобий тарафлар билан изоҳланади:

1. Меҳнат унумдорлиги ортади.
2. Ишлаб чиқаришда брак ва дефектлар мавжуд бўлмайди.
3. Маҳсулот ва хизматнинг сифати ортади.
4. Маҳаллий ва жаҳон бозорида миллий саноат корхоналарининг рақобатбардошлиги таъминланади.
5. Корхоналар ўз ҳодимларини мунтазам устида ишлашга ва илмий муҳитни жонлантиришга киришадилар.
6. Маҳсулот таннархи таркибида ўзгарувчан харажатлар пасаяди. Ишлаб чиқариш ҳажмини ошиши эса бирлик маҳсулотнинг таннархи таркибида

доимий харажатларнинг тушишига олиб келади. Мазкур икки вазият маҳсулот таннархини тушишига ва кенг истеъмолга имкон яратади.

7. Ва ниҳоят энг асосийси яширин иқтисодиёт бартараф этилади ва макроиқтисодий барқарорлик таъминланади.

Саноат-4.0 дастурини тармоққа тезкорлик билан тадбиқ этиш учун қуйидагилар тавсия этилади:

Биринчидан, IoT, булутли технологиялар, кибер хавфсизлик, 5G интернет тармоғи ва 3D технологиялар учун молиявий маблағлар манбаларини излаб топиш, шакллантириш ҳамда буларни тадбиқ этиш билан боғлиқ илмийтадқиқот ишларини фаол молиялаштириш.

Иккинчидан, малакали кадрларга бўлган эҳтиёжни қондириш. Бу масалани ҳал қилишнинг бир нечта рационал йўллари бор: давлат буюртмаси асосида умидли ёшларни хорижда ўқитиш учун инвестиция киритиш. Мавжуд мутахассисларни хорижда малака ошириш ёки тажриба ошириш курсларини ташкил этиш. Шунингдек, ушбу йўналиш предмети доирасида халқаро грантлар бўйича илмий-тадқиқотларни жадаллаштириб, иштирокчи лойиҳалар сонини ошириш.

Учинчидан, Республикамиз ёшлари ўртасида компьютер саводхонлигини ошириш мақсадида уларнинг интернет тармоқларидан фойдаланиш сифатини ошириш, худудлар кесимида тенг имкониятлар яратиш.

Юқоридагилардан кўринадики, саноат-4.0 дастурини тармоққа тадбиқ этилиши тежамкорликка асосланган самарали тизимни беради. Бу эса, ўз навбатида тармоқнинг маҳаллий ва жаҳон бозорларидаги рақобатбардошлигини таъминлайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Achilov, A. N., Payazov, M. M., Akbarov, Z. N., & Madaminov, O. B. (2020). Issues to improving the social situation of the population of the republic of Uzbekistan and the qualitative organization of municipal services. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 708-713. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/jcr.05.85.128>.

2. J. Kambarov, U. Rakhmatov, N. Rakhmonov, Y. Sultonova. Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems. Vol. 12, Issue-02, 2020.
3. Herter J., Ovtcharova J. (2016). A Model based Visualization Framework for Cross Discipline Collaboration in Industry 4.0 Scenarios // Procedia CIRP. Vol. 57. P. 398–403.
4. Rojko A. (2017) Industry 4.0 concept: background and overview // International Journal of Interactive Mobile Technologies. Vol. 11, № 5. P. 77–90.
5. А.Л. Лисовский. Оптимизация бизнес-процессов для перехода к устойчивому развитию в условиях четвертой промышленной революции. / А.Л. Лисовский. // Стратегические решения & риск менеджмент. – 2018. №4(109) – с. 10-18.
6. К. Шваб. Четвёртая промышленная революция: пер. с англ. М.: Э, 2017, с. 16.

## ISHLAB CHIQRISHDAGI YUQORI SAMARADORLIKKA EGA BO‘LGAN ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA. LAZERLI TEXNOLOGIYALAR

**Tuychiyev Abdumalik Tursunovich**

Andijon mashinasozlik instituti Assesenti

**Madaminova Inoyatxon Olimjon qizi**

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

**Annotatsiya:** Lazer bilan ishlash lazer qo'llanilishining eng istiqbolli sohalaridan biri bo'lib, 20 dan ortiq lazerni qayta ishlash texnologiyalari ishlab chiqilgan. Lazer bo'shlig'ini boshqarish va vaqtni boshqarish juda yaxshi, ishlov berish ob'ekti materiali, shakli, o'lchami va erkinlik muhiti katta, ayniqsa avtomatik ishlov berish uchun javob beradi. Lazerli ishlov berish tizimi va kompyuterni boshqarish texnologiyasining kombinatsiyasi samarali avtomatik qayta ishlash uskunalari tashkil qilishi mumkin, bu korxonalarini o'z vaqtida ishlab chiqarishni amalga oshirishning asosiy texnologiyasiga aylandi va yuqori sifatli, samarali va arzon ishlov berish uchun keng istiqbolni ochdi. Issiq va sovuq ishlov berish metall va metall bo'lmagan materiallarda, kesish, pichoqlash, markalash va hokazolarda ishlatilishi mumkin, payvandlash, sirt ishlov berish, qotishmalar ishlab chiqarish, kesish uchun juda foydali.

**Kalit so'zlar:** Yorug'lik, fotonlar, markalash, payvandlash, energiya, lazer.

Lazer bilan payvandlash jarayoni asosan uyali telefonlarning orqa panellarini energiyali lazer nurlari yordamida materialning sirtini bir butun qilib eritish va qotish uchun ishlatiladi. Issiqlik ta'sir qiladigan maydonning kattaligi, chokning chiroyliligi va payvandlash samaradorligi payvandlash jarayonining sifatini baholash uchun muhim ko'rsatkichdir. Elektronlar tinch, kam energiya holatiga qaytganda, ortiqcha energiyani chiqarish uchun atomlar fotonlarni otishadi. Keyin bu fotonlar boshqa atomlar bilan to'qnashadi va fotonlar ishlab chiqarish uchun ko'proq atomlarni

qo'zg'atadi va hamma bir yo'nalishda harakat qiladigan hodisalar zanjirini boshlaydi, zich, konsentratsiyali yorug'lik chiqaradi. Shunday qilib, kuchli plastmassalardan hatto po'lat plitalarni kesishda ham foydalanish mumkin! Lazerning xususiyatlari: lazer uning xususiyatlari tufayli keng qo'llaniladi. Lazer juda tor chastota diapazoni va tor yo'nalishda yuqori energiya konsentratsiyasiga ega bo'lgan deyarli monoxromatik to'lqindir, shuning uchun yo'naltirilgan lazer nurlari turli xil materiallarning teshiklarini teshish uchun ishlatilishi mumkin. Yaqut lazer bo'lsa, uning chiqish pulsining umumiy energiyasi tuxumni qaynatish uchun etarli emas, lekin u 3 mm po'lat plitada teshik qazishi mumkin. Lazer yuqoridagi xususiyatlarga ega, chunki u turli xil yorug'lik energiyasiga ega emas lekin uning quvvat zichligi juda yuqori, shuning uchun lazer keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Lazer quyidagi uchta xususiyatga ega: to'lqin uzunligi monoxromatik muvofiqlik parallel nurli lazerni qayta ishlash texnologiyasi: lazer 1960 s yorug'likdagi yangi yorug'lik manbai. Lazer yaxshi yo'naltirilganligi, yuqori yorqinligi va yaxshi monoxromligi tufayli keng qo'llanilgan. Lazer bilan ishlash lazer qo'llanilishining eng istiqbolli sohalaridan biri bo'lib, 20 dan ortiq lazerni qayta ishlash texnologiyalari ishlab chiqilgan. Lazer bo'shlig'ini boshqarish vaqtini boshqarish juda yaxshi, ishlov berish ob'ekti materiali, shakli, o'lchami va erkinlik muhiti katta, ayniqsa avtomatik ishlov berish uchun javob beradi. Lazerli ishlov berish tizimi va kompyuterni boshqarish texnologiyasining kombinatsiyasi samarali avtomatik qayta ishlash uskunalari tashkil qilishi mumkin, bu korxonalarini o'z vaqtida ishlab chiqarishni amalga oshirishning asosiy texnologiyasiga aylandi va yuqori sifatli, samarali va arzon ishlov berish uchun keng istiqbolni ochdi. ishlab chiqarish. Issiq va sovuq ishlov berish metall va metall bo'lmagan materiallarda, kesish, pichoqlash, yivlash, markalash va hokazolarda ishlatilishi mumkin, payvandlash, sirt ishlov berish, qotishmalar ishlab chiqarish, kesish uchun issiq ishlaydigan metall materiallar juda foydali. Sovuqni qayta ishlash fotokimyoviy cho'kma, lazerni tezkor prototiplash, lazer bilan ishlov berish, doping va oksidlanish uchun javob beradi. Lazer yordamida tezkor prototiplash: lazer yordamida modelni yaratish uchun ishlatiladigan material suyuq fotosensitiv qatronlar bo'lib, u ultrabinafsha tasmaiga lazer energiyasini

